



**Pirnazar DAVRONOV,
Fotima DAVRONOVA**

JOM QISHLOG'I MAORIFI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA
MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI

Pirnazar DAVRONOV,
Fotima DAVRONOVA

JOM QISHLOG‘I MAORIFI

TOSHKENT: “QAMAR MEDIA” NASHRIYOTI, 2023

UO‘K 821.512.133-32)

D 13

KBK 84(5O’)-445)

**P.Davronov, F.Davronova. Risola. – Toshkent: “Qamar media”
nashriyoti, 2023. 250 bet**

ISBN 978-9943-9207-6-7

UO‘K 821.512.133-32)

D 13

KBK 84(5O’)-445

Yoshi 24 ming yildan oshgan Jom qishlog‘i ma‘orifining tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Qishloqning Kaltasoy guzaridan topilgan nihoyatda bebaho marmar tusli toshda 60 ta belgilar mavjud. Qadimshunos olimlar bu belgilarni hali o‘qilmagan turkiy yozuv sirasiga kiritishmoqda.

Kaltasoy bitigi qadimda ajdodlarimiz o‘z yozuvlariga ega bo‘lganligini, maorifga intilganligini, kuchli taraqqiyot bo‘lganligini bildiradi.

Jomda 1900-yildan masjid-madrasa faoliyat ko‘rsatgan va uning hujralarida Samarqand hamda Qashqadaryo vohasining ko‘plab iqtidorli yoshlari yashashgan, ta’lim olishgan.

1920-1923-yillardan boshlab qishloq bolalarning odamlar mehmonxonalarida, masjid binolarida o‘qishlari tashkil etilgan. 1937-yildan jamoa xo‘jaliklari tomonidan maktablar qurilishi boshlangan.

Bulardan tashqari kitobda maktablar, kutubxonalar, qishloq ma‘orofi taraqqiyoti yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan insonlar, pedagoglar, jomlik olimlar to‘g‘risda ma’lumotlar keltirilgan.

ISBN 978-9943-9207-6-7

© Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA, 2023

© “Qamar media” nashriyoti

SO‘Z BOSHI

Mamlakatimizda ta'lim sohasida tub islohotlar ro'y bermoqda. Jumladan, Samarqand viloyati, Nurobod tumaniga qarashli Jom qishlog'i maorifida ham faxrlansa arziydigan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda, o'quvchilarning bilim darajasi sifat va miqdor jihatidan yuksalmoqda..

Jom qishlog'ida 10 ta, unga yondosh Ibrohim ota qishlog'ida 1 ta, Anjirli qishlog'ida 1 ta, Sariko'l qishlogida 2 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyat ko'rsatib turibdi. Shuningdek, Omondara mahallasi hududida joylashgan 21-umumiy o'rta ta'lim maktabining filiali Jom qishlog'ining "Borum" guzarida 2015-yilda ish boshladi.

Jom qishlog'i maorifi tarixiy taraqqiyotida undagi kutubxonalarning o'rnini ham beqiyos bo'lgan. Qadimda Jomning to'rtta jamoa xo'jaliklarining har birida bittadan kutubxonalar, shuningdek, mavjud maktablarning barchasidagi kutubxonalar doimiy ishlab, qishloq aholisiga xizmat qilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillarida "Davlat xo'jaliklari (sovxozlar)"ning tugatilishi bilan ular tarkibidagi kutubxonalar ham yopilib ketdi.

Jom qishlog'i maorifining dastlabki maktablaridan biri bo'lgan 1900-yilda hashar yo'li bilan qurilgan masjid-madrasa binosi, nafaqadagi ona Adolat Tog'ayeva oilasining tashabbusi hamda elning ko'magida "Tegirmonbosh MFY" kutubxonasiga aylantirildi. Hozirda kutubxona zahira fondi 8000 adabiyotdan oshib ketdi. Uni boyitishda Samarqand viloyati hokimi E.O.Turdimovning hissasi katta bo'lib, 2022-yilda 5000 kitoblarni javonlari bilan tuhfa etdi.

Biz ham "Tegirmonbosh MFY" axborot-resurs markazi fondini boyitishga shaxsiy kutubxonamiz kitoblari, o'zimiz yozgan kitoblar hamda Toshkent shahridagi "Zamin nashr"

Jom qishlog'i maorifi

MChJda tayyorlangan kitoblar bilan hissamizni qo'shib kelmoqdamiz.

2009-yildan boshlab Jom va uning atrofida joylashgan Ibrohim ota, Anjirli va Sariko'l qishloqlaridagi 14 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarning iqtidorli o'quvchilarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Professor Pirnazar Davronov izdoshlari" nomli olimpiada faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

2018-yildan "Jom madaniyat va aholi dam olish markazi" rubob ijrochiligi, ashula va raqs ansambli, folklor-etnografik ansambli, to'qish, bichish va tikish to'garaklari faoliyat ko'rsata boshladi.

Kitobga Jom va uning yaqin atrofidagi qishloqlarning olimlari va fidoyi o'qituvchilari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritildi.

Ushbu risola Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori, professor Ibragimov A'lamjon Amrillovichning tashabbusi asosida tashkil etilayotgan muzey fondiga qo'shadigan kamtarona hissamiz sifatida yozildi.

JOM QISHLOG‘I O‘TMISHI VA BUGUNIGA BIR NAZAR

Jom... Bu muazzam va muqaddas go‘shani ko‘rmagan, bilmagan yoxud u haqida eshitmagan kishi yurtimizda topilmasa kerak. Bu ulkan qishloq Samarqand-u Qashqadaryo vohasi chegarasida bamisli qimmatbaho toshlar qadalgan oltintus kamarday yastanib yotibdi. Bir yoni purviqor tog‘larga, bir yoni bepoyon dala-dashtlarga tutashib ketgan.

Professor X.Doniyorovning “Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. -Т.: Фан, 1968.” nomli kitobida keltirilgan 92 bovli o‘zbek urug‘lari ro‘yxatida “Jomi” va “Xabrin” atamalari keltirilgan. Bundan ko‘rinadiki, qadimda bu hududda “Jomi” va “Xabrin” urug‘lariga mansub aholi yashashgan. Davrlar o‘tishi bilan bu urug‘larning nomlari joy nomiga ko‘chib, o‘zlari unutilgan. Natijada, sheva ta’sirida “Jom” va “Hafrin” joy nomlari shakllangan. Bugungi kunda Jomning eli asosan o‘zbekning qo‘ng‘irot, kenagas urug‘lariga mansub. Shuningdek, asli mojar millatiga daxldor qavmlar ham bor. Jom qishlog‘i jo‘g‘rofiy va toponimik jihatdan o‘ziga xosdir. U Omondara, Tegirmonboshi, Girdiqo‘rg‘on va Jom deb ataluvchi to‘rt mahalladan iborat. Qo‘shni “Sariko‘l”, “Do‘stlik” mahallalari ham Jom QFY tarkibiga kiradi. Bu hududda 2015-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra 26 504 nafar aholi istiqomat qilgan, hozirda ularning soni 28 mingdan ortib ketdi.

Bu nufuzli qishloqning yoshi oqsoch tarixning o‘zidan ham qariroqdir. Arxeolog olimlarning ta’kidlashicha, Jom 24 ming yildan buyon mavjud ekan. Qishloqning Kattatepa, G‘ishtband atalmish joylaridan topilgan sopol qozon qoldiqlari o‘rganilganda ularning bundan 2300 yil oldin yasalganligi aniqlangan. Shuningdek, ular Termizning Fayoztepasida topilgan qozonlar bilan bir xil ekanligi arxeolog olimlar tomonidan isbotlangan.

Jom qishlog'i maorifi

1997-yilda Kaltasoy hududidan nihoyatda noyob marmar tusli toshbitiklar topildi. Undagi oltmishdan ortiq belgilar, bundan 2-2,5 ming yil ilgari yashab o'tgan turkiy xalqlar imlosiga tegishli ekan! Biroq ularni o'qishga, sharhlashga hozirgacha muvaffaq bo'linmadi. O'sha belgilar orasidagi bug'doy boshog'i surati olimlar o'rtasida mazkur toshbitik zardushtiylik davriga mansub, unga "Avesto"dagi madhiyalardan biri o'yib yozilgan degan taxminni keltirib chiqarmoqda. Boshog' o'sha davrlarda hosildorlik va suv ma'budi hisoblanmish Anaxitaning timsollaridan biri ekan. Kaltasoydan topilgan bu noyob yodgorlik ajdodlarimiz o'z yozuvlariga ega bo'lganligidan, ma'rifatga intilganligidan, kuchli taraqqiyotga erishganligidan darakdir. Qolaversa, u zardushtiylik davrining muhim yodgorligi sifatida o'ta qadrlidir.

Eramizdan oldingi 329-yilda Yunon fотиhi Iskandar Zulqarnayn Eronning So'za shahrida ulkan to'y marosimi o'tkazib, yuzga yaqin a'yonlarini, lashkarboshilarini turonlik va eronlik mag'lub podshohlarning, aslzodalarning qizlariga uylantiradi. Jasur so'g'd bahodiri Spitamenning qizi go'zal Apama mohir lashkarboshi Salavkaga uzatiladi. Iskandar Zulqarnayn eramizdan oldingi 323-yilda 33 yoshida Vavilonda noma'lum kasallikdan vafot etgach, imperiyaning bir qismi, jumladan, Apamaning yurti So'g'diyona ham Salavka tasarrufida qoladi. Miloddan avvalgi 293-yilda Salavka sharqiy viloyatlar – Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona noibi etib o'g'li Antioxni tayinlaydi.

Salavka bilan Apamadan tug'ilgan o'g'lon Antiox I Soter iqtidorli lashkarboshi va tadbirkor hukmdor bo'lib, miloddan avvalgi 280-yilda otasi Salavkaning vafotidan so'ng ulkan davlatga chorak asr hukmronlik qilgan. Antiox Turonda o'z nomi bilan ataluvchi shahar barpo etgan, oltin va kumush tangalar zarb qildirgan. Bundan 2300 yil oldin zarb qildirilgan, jahonning sanoqli muzeylaridagina saqlanib qolgan shunday

kumush tangalardan biri Jomdagi karvon yo‘lining janubiy qismida joylashgan, qadimda bozorjoy sanalgan Yakkatoldan o‘qituvchi Nurullo Tursunov tomonidan topilib, tarixshunoslarga tuhfa etilgan.

“Zarafshon” gazetasining 2000-yil aprel sonida Samarqand shahridagi “O‘zbekiston madaniyati va san’ati muzeyi” olimlari tomonidan “Samarqand-3500 yoshda” maqolasi e‘lon qilinib, unda Jom qishlog‘ining Sigirtepa hududidan topilgan bronzadan ishlangan teshaning bundan 35 asr oldin yasalganligi to‘g‘risida ma‘lumot berilgan.

Jomning g‘arbiy tomoni, Girdiqo‘rg‘on–Karimovul–Fermasoy–Kattako‘tal yo‘nalishiga e‘tibor qilinsa, qirlar qirqilib ketgandek ko‘rinadi. Buning boisi qadimda shu yo‘nalishda qo‘l mehnati bilan karvon yo‘llari bunyod etilgan. Karvon yo‘lining janub tomonida, jumladan, Avliyoli Dasht va Nomsiz tepadan odam suyaklari topildi. Biroq bu joylarda yaqin o‘tmishda qabrison bo‘lganligini hech bir jomlik eshitmagan.

Nomsiz tepada uch ko‘hna qabrning aniqlanishi, ayniqsa, diqqatga sazovor. Bu mozorlar bronza davriga mansub bo‘lib, marhumlar tiriklik paytida foydalangan buyumlari va har xil taqinchoqlari bilan birgalikda dafn etilgan. Ayollar ko‘milgan go‘rdan bronza va mislardan yasalgan bilakuzuklar, sirg‘alar, munchoqlar, har xil hayvonlar shaklida ishlangan to‘g‘nog‘ichlar topildi. Arxeolog olimlarning aniqlashicha, bu buyumlar 3500 yillik tarixga ega.

O‘zFA Y.G‘ulomov nomidagi arxeologiya instituti tomonidan Nurobod tumani hokimligi va Jom QFYga berilgan yozma xulosada eramizdan oldingi VII-IV asrlarda ham bu hududda madaniyat, san’at taraqqiy etganligi, buni qishloqning qir-adirlaridan topilgan arxeologik yodgorliklar, qoyatosh suratlari isbotlab turganligi bayon qilingan. Qo‘shimcha tarzda aytish mumkinki, 1983-yildan buyon jomlik arxeolog

Jom qishlog'i maorifi

A.Yorqulov tomonidan topilgan va to'plangan osori-atiqalar ichida, qisqacha ta'riflasak, so'nggi poleolit davridan shu kunlargacha bo'lgan turli zamonlarga oid noyob yodgorliklar mavjud.

Yakkatol qiri ustidan Xurshida Norqulova topgan chaqmoqtoshning yasalganiga 7000 yildan oshgan deya taxmin qilinadi. 2000-yilda Hafrinsoyning Qayrag'ochidan ota-bola Shokir va Najmiddin Ibragimovlar topgan toshqirg'ichni o'rgangan arxeolog olimlar Jomda bundan 12-14 ming yillar oldin ham odamlar yashagan degan mazmundagi xulosani berishgan edi. Arxeolog A.Yorqulov tomonidan Gazabetdan topilgan toshboltaga olimlar 24 ming yoshni taxmin qilishmoqda. Bu ma'lumotlardan ibtidoiy jamoa davrlarida ham Jomda ajdodlarimiz yashaganligi shubhasiz bo'lib chiqmoqda. Jomda azaldan insonlarning yashaganligini bu hududda qadimdan issiq iqlim sharoiti, yovvoyi hayvonlar va buloqlarning ko'p bo'lganligi bilan izohlash mumkin. Dono qadimshunoslardan birining "madaniyatlar har doim suv izidan yurgan" degan fikri ayni haqiqatdir. Chunki qayerda suv bo'lsa, u yer obod vohaga aylangan, odamlarning turmush tarzi yaxshilanib, asta-sekin katta-kichik shaharlar paydo bo'lgan. Bizning jondan aziz Jom ham xuddi shu tarzda bunyod bo'lgan, rivojlangan, taraqqiy etgan deya bimalol aytishimiz mumkin. Qishloqning gullab-yashnashiga, qadr topishiga yana bir omil, bu uning Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashganidir. Toshkent-Samarqand-Qarshi-Qobul-Qandahor hamda Xiva-Buxoro-Tim-Shahrisabz yo'nalishida qatnovchi karvonlar xuddi qadim zamonlardagi kabi hozir ham Jom orqali o'tishadi. Biz bu jihatlar bilan ham g'ururlanamiz.

Jom bugun ham o'z mavqeyini, shon-shavkatini boy bergani yo'q. Mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida alohida e'tiborga ega. Bu hududdan xuddi ilgari bo'lganidek hozirgi davrda ham ko'plab taniqli insonlar, rahbar xodimlar,

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

olimlar va ijodkorlar yetishib chiqqan. Jumladan, Mahmado‘st Xolbozorov, Tohir Odirov, Burxon Tursunov, Shukur Rasulov, O‘rol Bozorov, Ergash Esonov, Po‘lat Rahmonov, Mahammadi Tursunov, Turumnazar Mo‘minnazarov, Berdimurod Ravshanov, Xudoynazar Davronov, Mamat Abdullaev, Murod Muhammad Do‘st, Orol Ernazarov, Dilorom Yormatova, Eshturdi Rahimov kabi juda ko‘plab ilmparvar, elparvar oqsoqollar, ziyolilar bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

O‘zbekiston Respublikasining o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi Jom hayotida ham yangi bir davrni boshlab berdi. Istiqlolning ilk pallasida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, tub islohotlar bu ulkan qishloq qismatida ham o‘z aksini topdi. Yangidan yangi maishiy-madaniy obyektlar barpo etildi, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar amalga oshirildi.

2013-2017 – yillarda Jom qishlog‘ini obodonlashtirishga, aholining turmush tarzini yaxshilashga, davlat byudjetidan 22,5, 2018-yil “Obod qishloq” dasturi munosabati bilan 71, jami 93,5 milliard so‘m miqdoridagi ishlar amalga oshirildi. 2022-yil sarhisobiga ko‘ra davlatimiz byudjetidan Jom qishlog‘iga kiritilgan mablag‘lar miqdori 114,5 milliard so‘mdan oshib ketdi.

Jumladan, 2018-yil mart oyida Nurobod tumani hokimining o‘rinbosari O.Bo‘tayev tomonidan tayyorlangan hisobotda “Obod qishloq” dasturi doirasida quyidagi ishlarning bajarilganligi ko‘rsatilgan:

1.Uy joylarni ta‘mirlash bo‘yicha:

Jom mahallasida 1253 oila, 1065 ta xonadonda 7612 nafar aholi istiqomat qiladi. Girdiqo‘rg‘on mahallasida 847 oila, 752 ta xonadonda 4187 nafar aholi yashaydi.

Bu ikki mahallada dasturni amalga oshirish doirasida 106 ta homiy tashkilot tomonidan 761 ta uy-joyda ta‘mirlash ishlari olib borildi. Bunga qo‘shimcha ravishda 82 ta uy-joy qayta

Jom qishlog'i maorifi

ta'mirlandi, yo'l yoqalariga 380 metr masofada devor qurish ishlari bajarildi, 10 000 tup daraxt ko'chatlari ekildi, hudud to'liq obodonlashtirildi.

2. Gaz ta'minoti bo'yicha:

Jom qishlog'i va unga tutash hududlarga gaz ballonlari tashish uchun 1 dona "Isuzu" rusumli avtomashina ajratildi, 2105 dona suyultirilgan gaz ballonlari yetkazib berildi. Jami 1817 xonadon to'liq gaz ballonlari bilan ta'minlandi. Aholining suyultirilgan gazga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida "Jom gaz-servis markazi omborxonasi" qurildi.

3. Markaziy va ichki yo'llar qurilishi bo'yicha

Jom qishlog'iga kirishdagi 2,2 km masofadagi markaziy yo'l ta'miri uchun 5 mlrd. 400 mln. so'm mablag' sarflandi. Avtomobil yo'li yoqasida piyodalar yo'laklari hamda lotoklar o'rnatildi.

Hashar yo'li bilan qum-shag'al aralashmasida 12,2 km uzunlikda ichki xo'jalik yo'llari ta'mirlandi.

2,32 km masofadagi ichki yo'lga asfalt-beton yotqizishga 1 mlrd. 172 mln. so'm mablag' sarflandi.

282 mln so'm mablag' hisobiga qishloq o'rtasida uzunligi 16, eni 6 metr yangi ko'priq qurildi. Bundan tashqari 3 ta ko'priq rekonstruktsiya qilindi.

Girdiqo'rg'on qishlog'ida 11 km uzunlikda hashar yo'li bilan qum-shag'al aralashmasida ichki yo'llar ta'mirlandi.

Girdiqo'rg'on bilan Cho'nqaymish qishlog'ini bog'laydigan 3,45 km masofadagi markaziy yo'lning qurilishi uchun 4 mlrd. 839 mln so'm ajratildi, 3 ta avtobus bekati qurildi.

"Jom dehqon bozori"ga kirish hovlisi hamda avtoturargohni ta'mirlash maqsadida 1 mlrd so'mdan ko'proq mablag' sarflandi.

Avtomobil yo'li atrofini ko'kalamzorlashtirish uchun 600 tup manzarali (safora, katalpa, gujum va boshqa navli) ko'chatlar ekildi.

Markaziy va ichki ko'chalarga 30 ta, yangi bozor hududi, Jom va Girdiqo'rg'on mahallalari markaziy maydonlarida 12 ta, jami 42 ta tungi yoritish ustunlari o'rnatildi.

4. Ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha:

“Obod qishloq” dasturiga qadar hududda istiqomat qilayotgan aholini markazlashgan toza ichimlik suvi bilan ta'minlash ko'rsatkichi 27 foizni tashkil etgan.

Dastur davomida ehtiyojni bartaraf etish maqsadida:

“Omondara” suv inshooti kapital ta'mirlandi va suv chiqarish quvvati 2 barobar oshirildi;

0,5 km tarmoq yangilandi;

2 km suv tarmog'i joriy ta'mirlandi;

19 km masofadagi ichimlik suv tarmog'iga 40 dona klapanli ko'cha kranlari o'rnatildi;

75 metr drenaj quvur o'rnatilib, montaj qilindi;

3 ta suv inshooti rekonstruktsiya qilindi;

4 ta yangi suv inshooti qurilib, 6 km.ga ichimlik suv tarmog'i tortildi;

2 ta yangi suv inshootida qurilish ishlari olib borilmoqda;

2 ta suv tashuvchi maxsus texnikaga suv olish nuqtalari tashkil etildi;

aholining chorva mollarini sug'orish uchun 12 ta suv hovuzi qazildi.

Natijada aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 62,3 foizga ko'tarildi.

Markazlashgan suv tarmog'i yetib bormagan aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun 2 ta maxsus suv tashuvchi avtomashina ajratildi. Ichimlik suviga bo'lgan ehtiyoj Jom qishlog'ida to'liq bartaraf etildi.

Suv inshootlari va suv tarmoqlarida avariya holati ro'y bersa, uni o'z vaqtida bartaraf qilish maqsadida barcha asbob-

Jom qishlog'i maorifi

uskunalar bilan jihozlangan 2 ta yangi maxsus mototsikl xarid qilindi.

5. Elektr tarmoqlari qurilishi bo'yicha:

Viloyat elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan qishloq aholisini uzluksiz elektr energiya bilan ta'minlash maqsadida qo'shimcha 12 ta yangi transformator punkti o'rnatildi, 6 dona transformator kapital ta'mirlandi. 1230 dona temir-beton ustun qo'yilib, 45 km uzunlikdagi havo tarmog'i rekonstruktsiya qilindi.

Bulardan tashqari namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan 75 ta uy-joyning 25 tasi Respublika Kasaba uyushmalari kengashi tomonidan moliyalashtirilib, kam ta'minlangan va sharoiti og'ir oilalarga bepul ajratildi.

10 ta maktab ta'mirdan chiqarildi, yangi mebellar bilan jihozlandi, 1 ta qishloq oilaviy poliklinikasi va 1 ta maktabgacha ta'lim muassasasi qurildi, 1 ta kutubxona bunyod etildi.

Dehqon bozori, masjid, hammom, 3 ta avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish shoxobchasi, 4 ta oziq-ovqat do'koni hamda 2 ta avtobekat barpo etildi.

6. Uy-joylarni ro'yxatga olish bo'yicha:

"Yermulkkadastr" davlat korxonasi tomonidan Jom qishlog'ida mavjud aholi turar-joylari xatlovdan o'tkazilib, 1815 ta uy-joyga kadastr hujjatlari rasmiylashtirildi. Shundan 436 ta xonadonga tuman hokimligi tomonidan egalik huquqini belgilash bo'yicha qaror qabul qilindi.

7. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha:

Aholi xonadonlariga kirib chiqilib, o'rganilib, ehtiyojmand, kam ta'minlangan oilalarga hamda nogironligi bo'lgan xotin-qizlarga uy jihozlari, kir yuvish vositalari, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi.

1. Jom mahallasida yashovchi 210 nafar xotin-qizga kir yuvish vositalari va farzandlariga kiyim-kechak;

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

2. 70 oilaga turli xildagi kiyim-kechak va boshqa mahsulotlar;

3. 40 oilaga oziq-ovqat mahsulotlari;

4. 14 kam ta'minlangan oilaga qoramol tarqatildi;

5. 14 nafar nogironlarga tikuv mashinasi ajratildi;

6. 4 nafariga nogironlik aravachalari berildi.

8. Sog'liqni saqlash bo'yicha

Jom qishlog'ida 20733 nafar aholi tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Shundan 7504 ta kasallik aniqlanib, 5834 nafar bemorga ambulator, 1041 nafariga statsionar ravishda davolanishga yo'llanmalar berildi.

2475 ta UZI, EKG, flyurografiya, laboratoriya tekshiruvlari o'tkazildi. 1103 ta VBKTTM, tuman shifoxonalariga yuborildi.

Hududdagi 10 ta umumta'lim maktabi o'quvchilari to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Viloyat nogironlar reabilitatsiya markaziga jami 24 ta order berildi.

1.Davlat xizmatlari agentligi bo'yicha:

Dastur davrida 54 ta tug'ilish guvohnomasi, 5 ta o'lim guvohnomasi, 680 ta pasport rasmiylashtirildi, 31 ta tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tkazildi, 39 ta nikoh va 7 ta takroriy nikoh guvohnomalari berildi.

2.Sudlar bo'yicha:

Jom va Girdiqo'rg'on mahallalarining pasport olish muddati o'tib ketgan fuqarolarni jarimadan ozod qilish hamda ularning hujjatlariga asosan egalik huquqini belgilash masalalarini hal etish uchun fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha viloyat sudlari sudyalari jalb etildi.

Sud-huquq masalalari bo'yicha 63 ta xizmatlar amalga oshirildi, notarial xizmatlari 3 ta, huquqiy maslahatlar 983 ta.

Jom qishlog'i maorifi

3.Ko'chat yetkazib berish bo'yicha:

Tuman hokimligi tomonidan kam ta'minlangan oilalarga tomorqa yer maydonlaridan samarali foydalanish maqsadida mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan 2182 dona olma ko'chatlari, 204 dona limon ko'chatlari, 11450 dona pomidor urug'i tarqatildi.

Jom MFY hududida joylashgan 2-son madaniyat va aholi dam olish markazi qurilish ishlari 2015-yil iyunda boshlanib, 2016-yil avgust oyida to'liq rekonstruktsiya qilinib, foydalanishga tayyor bo'ldi. Biroq belgilangan 59 nomdagi jihozlardan 30 nomdagisining yetishmasligi tufayli binoni foydalanishga topshirish ishlari to'xtab qoldi. 2018-yil "Obod qishloq" dasturi doirasida 2-son Madaniyat va aholi dam olish markazi zarur jihozlar bilan ta'minlanib, rubob ijrochiligi, ashula va raqs ansambli, folklor-etnografik ansambli, to'qish, bichish va tikish to'garaklari ishlay boshladi.

2007-2008-yillarda maydoni 3784 m² bo'lgan 3 qavatli kollej binosi qurilib, ishga tushirildi. 540 o'quvchiga mo'ljallab qurilgan kollej binosining janub tomonida 100 o'rinli, 2 qavatli yotoqxona, 120 o'rinli yopiq sport zali bunyod etilgan.

Cho'nqaymish qishlog'idagi 20-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi 2005-2006-yillarda, Hafrin qishlog'idagi 63-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi 2007-2008-yillarda, Karimovul qishlog'idagi 44-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi 2012-yilda, Jom MFY hududidagi 45-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi 2013-2014-yillarda, Beshbarmoq qishlog'idagi 19-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi 2017-2018-yillarda qurilib, ishga tushirildi.

Ikki qavatli, yangi tipda qurilgan va ishga tushirilgan maktablar ham turli yillarda qad rostlagan. Jumladan, Jom MFY hududidagi 25-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi 2010-2011-yillarda, 24-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi 2013-2014-yillarda, 23-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi 2015-2016-

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

yillarda, Girdiqo‘rg‘on MFY hududidagi 22-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi binosi 2013-2014-yillarda qurib bitkazilgan va foydalanishga topshirilgan.

21-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining eski binosi va sport majmuasi 2007-2008-yillarda yangidan qurildi, maktabning Burumdagi filiali binosini qurib ishga tushirishga doir ishlar 2011-yildan 2015-yilgacha davom etdi. 2017-yilda maktabning sport zali 37 million so‘mlik sport anjomlari bilan yanada boyitildi. 2017-2018-yillarda shu maktabning 2 qavatli yangi bosh binosi qurilib ishga tushirildi.

Davlatimizning yoshlar to‘g‘risidagi siyosatiga monand ravishda 2009-yildan boshlab bir guruh jomliklar iqtidorli o‘quvchilarni rag‘batlantirish maqsadida o‘zlarining shaxsiy jamg‘armalaridan stipendiyalar ajrata boshladilar. Bu tadbir yillar o‘tgan sari iqtidorli o‘quvchilar sonining oshib borishiga o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatdi.

2015-yilda Jom qishloq fuqarolar yig‘ini qoshida 14 ta umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarini qamrab olgan, har yili aprel oyining oxirgi yakshanba kuni o‘tkaziladigan "Professor Davronov izdoshlari" nomli iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ularga ko‘maklashish olimpiadasi o‘zining nizomi va yo‘riqnomasi asosida faoliyat ko‘rsata boshladi. 2009-yilda bir nafar bola iqtidorli o‘quvchi sifatida rag‘batlantiruvchi stipendiya bilan taqdirlangan bo‘lsa, 2015-yilda bunday o‘quvchilar soni 155 nafarga, 2016-yilda 289, 2017-yilda esa 447 nafarga yetdi.

Jomlik faollarning sa’y-harakati bilan 2009-yildan buyon Jom jome masjidida, Jom QFY, Jom MFY binolarida kutubxonalar tashkil etildi.

2017-yilda 1900-yilda qurilgan eski masjid-madrasa binosi loyiha asosida qayta rekonstruktsiya qilinib “Mahalla kutubxonasi”ga aylantirildi.

Jom qishlog'i maorifi

Ushbu axborot-resurs markazini tashkil qilgan Tog'ayeva Adolat 2022-yil mamlakatimiz mustaqilligining 31 yilligi arafasida qilgan xayrli ishi uchun II-darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeniga sazovor bo'ldi.

1998-yildan boshlab Jom va uning atrofidagi qishloqlar aholisining mamlakatimiz bo'ylab ichki turizmi yo'lga qo'yilgan bo'lib, har yili 1-2 marta yirik sayohatlar uyushtiriladi.

2016-2017-yillarda Jom teleuzatuv obyekti tarog'i hashar yo'li bilan bunyod etildi.

Shu kabi ma'lumotlarni o'rganish jarayonida el-yurt manfaati yo'lida qilinadigan har qanday qonuniy harakatlarning mamlakatimiz rahbariyati tomonidan qo'llab-quvvatlanganligiga, zarur mablag'larning qat'iy hisob-kitoblarga asoslangan tarzda beminnat berilganligiga amin bo'lamiz. Biroq manzilli dasturga kiritilgan ayri obyektlar qurilishining rejalashtirilgan muddatlarda bajarilmay qolishi holatlari ham kuzatilgan. Buning bosh sabablaridan biri belgilangan mablag'larning o'z vaqtida berilmasligidan iboratligi kitobda keltirilgan xatlar mazmunini o'rganish jarayonida ma'lum bo'ladi.

Biror ishni bitirish uchun odalarning sarson-sargardon bo'layotganligini anglagan muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2017-yilda "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanmog'i kerak" g'oyasini olg'a surdi. Bu borada ikkita misol keltiramiz: bahorning yomg'irli, qishning qirovli kunlarida o'quvchilarning qiynalib 7-8 km masofadan 21-umumiy o'rta ta'lim maktabiga piyoda qatnashlaridan norozi bo'lgan Omondara mahallasining yetti guzari aholisi boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun maktab qurib berish to'g'risida 2011-yildan boshlab mutasaddi tashkilotlarga murojaat qilishni boshladi. Bu ish 2015-yilda yakun topdi. Ushbu ishga JomQFY tomonidan vakolatli vakil qilib

belgilangan E.Rahimov Nurobod tumani, Samarqand viloyati va Respublikaning tegishli idoralariga 112 marta murojaat yoʻllagani quyidagi misralarni yodga soladi:

Bori elga yaxshiligʻ qilgʻilki, mundin yaxshi yoʻq,

Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshiligʻ.

Darhaqiqat, shunday. Yaxshilik – bu mangulik darvozasining kalitidir.

JOM QISHLOGʻIDAGI OʻQUV MASKANLARI

Jamiyat paydo boʻlibdiki, insonlar oʻz farzandlarini bilimli va tadbirkor qilishga intilishgan. “Qadimiy manbalarga qaraganda, Oʻrta Osiyoda bola besh yoshga yetganda, unga yozuv va arifmetika oʻrgatila boshlangan, balogʻatga yetganida esa savdogarlarning karvonlariga qoʻshib uzoq mamlakatlarga savdogarchilikni oʻrganish uchun yuborilgan” [66. 57].

1920-yillar oxiri 1930-yillar boshida Jomda savodsizlikni tugatish uchun kurslar tashkil qilingan. U vaqtlarda Jomda xalq oʻqituvchilari yoʻq edi. 1923-yilda sobiq Sovet maktabiga birinchi boʻlib mulla Xudoyberdi oʻqituvchilik qilgan. Hushvaqt Qurbonov mehmonxonasida 14 oʻquvchi bilan ish boshlagan. Buni eʼtiborga olsak, 2023-yilda hozirgi Amir Temur nomli 22-maktabning tashkil etilganiga 100 yil toʻlgan boʻladi. Oʻquvchilar 1929-yilgacha arab, 1929-1940-yillarda lotin, 1940-1993-yillarda kirill imlosida oʻqitilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining oʻn uchinchi sessiyasida, 1993-yil 2-sentabrda «Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida» Qonun qabul qilindi va maktablarda oʻqitish bosqichma-bosqich lotin yozuviga oʻtkazildi [73].

1929-yili Kattaqoʻrgʻonda 10 oylik muallimlar tayyorlaydigan kurslarda jomlik yigitlardan Toʻxsori Tojiev, Togʻaynazar Xoliqulov, Mamarayim Irisqulov, Ibodulla

Jom qishlog'i maorifi

Qodirovlar o'qib qishloqning dastlabki o'qituvchilari bo'lishgan.

1930-yildan boshlab Omondara mahallasidagi Rahmonqul karvonning mehmonxonasida, hozirgi Sayfidin Nazarovning hovlisi o'rnida, Cho'mmoq qishlog'idagi masjidda, Safarov Ne'matullo, Amirqul, mulla Avaz bobolarning hovlilarida qishloq bolalari o'qitilgan. Ochil Berdiyev, Parda Olloyorov, To'ra Mavlonov, To'xsori Tojiev, Ahmat Shomahmatov, Jo'raboy Sheraliev, Hamza Xaydarovlar, tatarlardan Rug'monov, Ravilov, Sultonova, Holiqova, Latipova, uning qizi Luiza va jiyanlari Sagida dars bergan. Jomning Tolli guzarida qisqa vaqt 1930-yilda Tillaev Razzoq bobo o'qituvchilik qilgan.

1937-yilda jamoa xo'jalik buxgalteriyasi uchun to'rt xonali bino qurilgan, lekin qishloq bolalarining odamlar uylarida o'qitilayotganligini e'tiborga olgan jamoa xo'jaligi raisi Abdulla Omonov bu binoni maktabga bergan. U hozirgi 21-maktabdan 300 metrlik shimoli-sharq tomondagi do'nglikda joylashgan. Ushbu binoda sinfxonalardan tashqari qishloqning dastlabki kutubxonasi tashkil etilib, u yillar o'tgan sari turli mazmundagi kitoblar bilan boyitib borilgan. Unga 1960-yillar atrofida Eshnazar Usmonov va A'zam Yo'ldoshevlar mudirlik qilishgan. Bu yillarda kutubxonada kattalar, o'quvchilar, qishloq xotin-qizlarining kitobsevarlar to'garaklari navbat bilan ishlab turardi. Kutubxona doimo muxlislar bilan gavjum, navbatda turib kitob olinar, yarim yil va yil yakunida ikki marta kitobxonlar konferensiyalari o'tkazilib, eng ko'p kitob olib o'qiganlar rag'batlantirilardi. Kutubxonaning bir xonasida har kuni shaxmat to'garagi faoliyat ko'rsatar, oy yakunida shaxmat musobaqasi o'tkazilib, unda ko'pincha boshlang'ich sinf o'qituvchisi Vali Normatov g'olib bo'lardi.

Bugungi kunda bu an'analar qolib ketgan, kitobxonlar soni keskin kamaygan bo'lsa-da, o'sha kutubxona Omondara mahallasi binosida mavjud, unga Shafoat Suyarova mudirlik

qilgan. 2006-yilda bu kutubxonadan Nurobod tuman kutubxonasiga 400 kilogramm mol go'shti qiymatidagi kitoblarning olib ketilishi qishloq uchun achinarli va kechirib bo'lmaydigan hol. Ajdodlar tomonidan bunyod etilgan bu tarixiy noyob va ko'pchilik uchun qadrli bo'lgan kutubxona doimiy ravishda adabiyotlar bilan boyitilib borilishi, kerakli jihozlar bilan ta'minlanishi, avlodlar uchun asrab-avaylanishi, ziyo maskani bo'lib aholiga xizmat qilishi kerak edi.

Ikkinchi jahon urushidan oldin hozirgi A.Temur nomli 22-maktab o'rnida yetti yillik to'liqsiz o'rta maktab tashkil etilgan. Hozirgi 21-maktabda urush davrida ham bolalar to'rtinchi sinfgacha o'qitilgan. Bu maktabda urushdan so'ng 5-sinflar tashkil etilgan va Anjirlidagi konda ishlab, o'sha hududda yashagan Yormat Sadinov kelib matematikadan, Irisov Abdusalom jismoniy tarbiya va mehnat ta'limi fanlaridan dars bergan.

Kattaqo'rg'on tuman maorif bo'limi maktabni imkoniyat darajasida yetishmagan o'qituvchilar bilan ta'minlab turgan.

Urushdan so'ng 7 yillikka aylantirilgan 21-maktabning 8-sinf o'quvchilari 1947-yildan hozirgi A.Temur nomli 22-umumiy o'rta ta'lim maktabiga 7-10 km masofadan piyoda, velosiped va eshaklarda qatnab o'qiydigan bo'lishgan. Bu maktabda Sadinov Yormat, Yorqulov Bolli, Holiqulov Tog'aynazar, Ochilov Amir, Rahimov Hasan, Yoqubov Shamsiddinlar va boshqalar o'qituvchilik qilishgan.

Kattaqo'rg'on shahar maorifi bo'limi tarkibida bittadan o'zbek va rus tilida o'qitiladigan o'rta maktablar bo'lgan. Tuman xalq ta'limi bo'limi tarkibida esa o'rta maktablar mavjud bo'lmagan. Kattaqo'rg'on tuman xalq ta'limi bo'limi birinchi o'rta maktabni Yangiqo'rg'onda tashkil etgan, biroq bolalar yig'ilmaganligi sababli reja amalga oshmagan. Keyin o'rta maktab Saroyqo'rg'onda ochilgan, yashash og'ir, bolalar ota-

Jom qishlog'i maorifi

onalari bilan ishlab chiqarishda qatnashayotganligidan bu hududda ham o'quvchilarni to'plab o'qitishning iloji bo'lmagan. Shundan so'ng Jomda o'rta maktab hozirgi 22- Amir Temur nomli maktabning eski o'rnida tashkil etilgan. Bu maktabni Kattaqo'rg'on tumani bo'yicha birinchi bo'lib 20 dan ortiq o'quvchilar bitirgan, ularning barchasi tumanga qarashli maktablarga o'qituvchi etib tayinlangan, ayrim iqtisodiy sharoiti ko'targanlar oliy o'quv yurtlariga borib o'qishgan.

1948-yilda hozirgi Omondara mahallasi hududida yangi maktab qurilib, unga To'xsori Tojiyev direktorlik qilgan. Bu o'quv maskani 1960-yildan boshlab maktab direktori Bolli Yorqulov rahbarligida yangi binolar qurish hisobiga kengaytirilgan. Maktabga sobiq Kattaqo'rg'on tuman partiya qo'mitasining 1962-yil 29-oktyabrdagi 29-sonli qarori bilan shoir Burxon Tursunov nomi berilgan. 1971-1972-yillarda esdalik byusti o'rnatildi. 1973-yilning 9-may G'alaba kuni byustning ochilishi bo'ldi. Uning atrofida o'sib turgan archalar Xudoynazar Davronov tomonidan R.Shreder nomidagi «O'zbekiston bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi»dan keltirilib maktabga tuhfa etildi. Hozirda maktabga B.Tursunov nomining berilishiga bag'ishlangan marosimda shoir Shamsi Odilov, SamDU professori Hamdam Berdiyorovlar ishtirok etishdi. B.Tursunovning talabalik davridagi do'sti, urushdagi safdoshi Hamdam Berdiyorov o'z xotiralarini so'zlaganda, yig'ilganlardan yig'lamagan inson qolmagan. 1968-yilda B.Tursunov nomli 21-maktab o'n yillik o'rta maktabga aylantirildi.

Xotin-qizlardan birinchi Tillayev Razzoq boboning xotini Salomat momo qishloq ayollariga dars bergan. O'qituvchi yetishmaganligi sababli 1943-yilda jamoa xo'jaligi tomonidan Karam Olloyorova, Bibisora Xoliqulovalar Kattaqo'rg'on shahrida o'qib qaytishgach, o'qituvchilik qilishgan. 1967-yildan

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Mukarram Xalilova maktabni bitirib, boshlang'ich sinflarda o'qituvchilik qilgan.

B.Tursunov nomli eski 21-maktab o'rnida 2007-yilda maktab direktori Eshmurod Xudoynazarov sa'y-harakati bilan yangi maktab Jo'raboy Bolli o'g'li tomonidan qurildi. 2008-yilda sport majmuasi qad ko'tardi.

1934-yil Girdiqo'rg'on mahallasida 4 yillik maktab ochilgan va unga To'xsori Tojiyev direktorlik qilgan. Maskan 1939-yilda 7 yillik, ya'ni to'liqsiz o'rta maktabga, 1948-yildan o'rta maktabga aylantirilgan. Bu ulug' maskanda Jomning barcha farzandlari, shuningdek, Umakay, Qo'chqorbuloq, Ibrohimota, Anjirli qishloqlari bolalari ta'lim olishgan. Maktab 1960-yillarda Samarqand va Qashqadaryo vohasida xalq tomonidan Jom Universiteti deb dovrug' taratgan.

Omondara mahallasida 19-20-21- maktablar, Tegirmonboshi mahallasida 44-63- maktablar, Girdiqo'rg'on mahallasida 22-maktab, Jom mahallasida 23-24-25-45-maktablar joylashgan. Jomlik o'qituvchilar o'zlarining fidokorona va zahmatli mehnatlari bilan O'zbekistonga tanilgan.

Jom mahallasidagi maktab 1945-yilda ish boshlagan, uning birinchi direktori Tog'aynazar Xoliqulov edi. U yerda dastlab To'xsori Tojiyev, Jo'raboy Sheraliyev, G'ani Jumanov, Haliulin, Ruqiya, Alfiya, Galimov kabi o'qituvchilar ishlashgan. E'tibor qilinsa, 1950-yilgacha, Jomda mavjud bo'lgan barcha maktablarning tashkil etilishi va maorif ishining yo'lga qo'yilishi To'xsori Tojiyev nomi bilan bog'langan. Jom mahallasining asfalt yo'l yoqasidagi birinchi maktab binosi, 2004-yilda maktab direktori Norbo'ta Ollayev tashabbusi bilan soyning janubi-sharqiy tomoniga o'tkazib qayta qurildi.

1966-yildan keyin Jomda aholi sonining oshishi munosabati bilan qator maktablar qurilib ishga tushirildi. 1996-

Jom qishlog'i maorifi

yilda Boshbuloqda yosh bolalar uchun boshlang'ich maktab tashkil etildi.

Hafrindagi O'rol Bozorov nomli maktab uning birinchi direktori Qoplon Xudoyorovning tashkilotchiligi asosida 1988-yilda qurilib ishga tushirildi. O'n yildan so'ng, bu maktab yana shu inson boshchiligida qayta qurilib, Oyxolsoyning shimolidan kavlanib buloq chiqarildi va uning suvi uch kilometrdan ortiq masofaga quvur orqali olib kelindi.

Qoplon Xudoyorov 2011-2012-yillarda qishloqdagi pedagogika kollejiga direktor bo'lgach kadrlar sifatini yaxshilash, texnik bazani mustahkamlash va obodonlashtirish bo'yicha katta ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, tumanning ilg'or o'qituvchilari ishga taklif etilib ular yotoqxonalar bilan ta'minlandi, viloyatning ko'pchilik tashkilotlaridan kerakli texnik vositalar oldi, birgina Samarqand davlat chet tillar institutidan tuhfa sifatida o'nlab zamonaviy kompyuterlar keltirdi, katta asfalt yo'l tagidan quvur orqali suv o'tkazib kollejning janubiy qismidagi tepalikda o'zi bino qilgan katta hajmdagi beton hovuzga suv tashlatdi va qaqrab yotgan ta'lim-tarbiya maskanining atrofini yashillikka burkadi, yo'lovchilar Jomning buloq suvidan ichib rohatlanishlari uchun yo'l yoqasiga kran o'rnatdi. Jomning jonkuyar va tinib-tinchimas rahbarlaridan biri bo'lgan Qoplon Xudoyorov bunday savob ishlarni juda ko'p qildi.

Jomning Dasman guzaridagi maktab 1991-yilda ishga tushirildi, uning birinchi direktori Gulmurod Otaboyev bo'lgan. O'n yil ichida sariq qumursqalar yeb bitirgan bu maktab 2012-yilda yangidan qayta qurildi.

Jom mahallasi hududidagi Nazar Ravshanov nomli maktab 2007-yilda qurildi. Direktori Pardaboy Soatov bo'lgan.

Eski anhor bo'yidagi maktab 1966-yilda ishga tushgan. Bu maktab 2002-yilda qayta ta'mirlandi.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Hasan Rasulovning sa'y-harakati bilan Dyukker, ya'ni Orom qishlog'idagi maktab 1969-yilda bunyod etildi.

Xulosa o'rnida: Yaxshi ota va onalarning farzandlari bo'lgan Diloram Yormatova, Quدرات Aymatov, Sodiq Nazarov, Eshturdi Rahimov, Turg'on Suyunov, Safar Tursunov, Karim Ashurov, Said O'rinov, Murod Muhammad Do'st, Fayzulloxon Mahmudov, Halil Ortiqov, Qayum Turg'onov, Normo'min Ochilov, Eshmurod Xudoynazarov, Abdurasul Sattorovlar maktabda intizom bilan a'lo baholarga o'qib, jomliklar faxrlansa arziydigan taniqli insonlar bo'lib yetishdilar.

MAKTABLAR DIREKTORLARI

To'xsori Tojiyev, Bolli Yorqulov, Shamsiddin Yoqubov, Ochil Berdiyev, Eshmurod Xudoynazarov, Qoplon Xudoyorov, Shoyimqul Suyarov, Eshmurod Xoliyorov, Nishon Xolmo'minov, Po'lat Ergashev, Rustam Sattorov, Rustam Boboxonov, Safar Qurbonov, G'ofur Quدراتov, Ulash Turopov, Said Usmonov, O'ktam Shukurov, Tog'aynazar Xoliqulov, Hasan Rasulov, Nazar Ravshanov, O'rol Chinmirzaev, Norbo'ta Ollayev, Pardaboy Soatovlar juda ko'p yillar maktablarga mohirlik bilan rahbarlik qilishdilar.

O'QITUVCHILAR

To'xsori Tojiyev, Shamsiddin Yoqubov, Yormat Sadinov, Amir Ochilov, Safar Qurbonov, Haqberdi Xidirov, Normo'min Jumanov, Shavxi Xo'jaqulov, Jaloliddin Safarov, G'ofur Quدراتov, Yo'ldosh Xolmo'minov, Vali Normatov, Dagar Mirzaev, Sa'dulla Yoqubov, O'rol Jumaev, Toshimboy Boymirzaev, Temur Qo'ziboev, Erkin Tojiyev, Yusuf va Rayim Qurbonovlar, Shaymat Tangmatov, Jahongir Irisqulov, Quvon Rayimov, Safar Tursunov, Mavlon Jabborov, Qayum

Jom qishlog'i maorifi

Turg'onov, Shuhrat Qo'ziboyev kabi malakali ustozlar haqida qancha gapirsa, oz.

To'xsori Tojiyev o'qitgan sinflar o'quvchilarining to'qson foizdan ortig'i oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirganlar.

Til-adabiyot o'qituvchisi Yormat Sadinov M.Gorkiyning «Cholvorli bulutlar» hikoyasini o'tishda bu «Cholvorli bulutlar» emas, ruschasida «Tuchi v shtanax» yozilgan, demak tarjima noto'g'ri, «Ishtonli bulutlar» bo'lishi kerak,-degan haqqoniy so'zlari hali-hali qulog'imizda jaranglab turibdi.

Shamsiddin Yoqubov adabiyotdan dars o'tayotganda, o'zini butkul unutib rolga kirib ketar, o'zini asar qahramoniday tutar edi.

Jom qishlog'ida matematika fanining o'qitilishini Safar Qurbonov va Haqberdi Xidirovsiz tasavvur etish mumkin emas. Bugungi qishlog'imizdagi barcha matematika mutaxassisleri ularning vorislari. Safar Qurbonov yaxshi o'qitish bilan birgalikda, matematiklarning hovlisi yonidan o'tinglar pul hidi keladi deb biz o'quvchilarni o'qishga qiziqtirardi.

1962-yilning bahorida, yettinchi sinfligimizda Haqberdi Xidirov geometriya darsi o'tayotgan edi, muallim tog'ga ekskursiyaga chiqaylik, dedik. Ustoz H.Xidirov kattalardan so'rab ko'raylik qani, nima der ekan dedi. Shunda sinfdoshimiz Zuhra Razzoqova «malim sizdan ham katta odam bormi?», – deb hayron bo'lib so'ragandi. Haqiqatan ham biz o'quvchilar tasavvurida H.Xidirovdan “katta odam” yo'q edi.

H.Xidirov matematikani hayotga bog'lab o'qitishning dahosi edi. Maktab ekin maydoniga sinfimiz o'quvchilari ko'chatlar ekishga olib chiqildi.

O'qituvchimiz H.Xidirov har uch o'quvchiga ko'chat ekish uchun bittadan quyidagi o'lchamlarda geometrik jism shaklidagi chuqurlar kavlashimizni tushuntirgan: 1)radiusi 20 sm, balandligi 40 sm bo'lgan silindr yasash; 2)tomonlari 30 sm romb chizish va pastga 40 sm chuqur qazish; 3)tomonlari 30 va 40 sm

bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizib, pastga 40 sm kovlash; 4) tomonlari 30 va 40 sm bo'lgan prallilogramm chizib, pastga 40 sm kovlash; va hakoza. Shu asosda bizlarga jismlarning nomlanishini, silindr va to'g'ri silindr, shuningdek, to'g'ri va to'g'ri burchakli parallelepipedlarning farqli tomonlarini amalda ko'rsatar edi.

1960-yillarda sinf rahbarimiz – Shukur Ro'ziqulov san'atga iqtidorli o'quvchilar E.Xudoynazarov, A.Jo'raev, T.Safarovlar ishtirokida musiqiy guruh tashkil etdi. Bu guruh maktab ansambli bo'lib qolmasdan, to'ylarga ham xizmat qilardi. Ular rubob, doira, skripka kabi musiqiy asboblardan foydalanishar, Sh.Ro'ziqulov chiroyli va ohangdor, mol yuragi pardasi o'rnatilgan ruboblarning bir necha variantlarini tut daraxtidan o'zi yasardi.

Jomning el sevgan betakror ovoz sohibi, birinchi oliy ma'lumotli xushovoz xonandasi va musiqachisi Quvon Rayimov o'zi o'qituvchilik qilayotgan 22-maktabda to'garak tashkil etib, qishloqda ashulachilik va musiqa san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

Qishloqda birinchi bo'lib Vafoqul Qulmatov chet tilini, Latipova, Said Usmonov va Rayim Qurbonovlar rus tilini o'rganishni yo'lga qo'ydilar.

Boshlang'ich sinf bolalaridan ayrimlari «R» tovushini ayta olmasa, Mavlon Jabborovning bir o'quvchisi «L» ni ayta olmas ekan. Muallim bu o'quvchisini o'zining hovlisiga olib borib, birgalikda bir siqim loy qorishibdi. O'quvchi o'qituvchisining «Bu nima?», -degan so'rog'iga «Loy», -deb javob beribdi. Savol – javob bir necha marta takrorlangach, M.Jabborov o'quvchisini yelkasiga ko'tarib «L» tovushini ham aytar ekansan-ku», -deb rosa xursand bo'lgan. So'ngra ro'molchasiga loy tugib uyga borguncha takrorlab borishni tayinlagan. Shu usul tufayli o'quvchi «L» ni aytadigan bo'lgan.

Jom qishlog'i maorifi

JOM MFY HUDUDIDAGI KOLLEJ

Kollej Respublikamizning 1997-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlari talablaridan kelib chiqilgan holda 2002-yilning 10-aprelida Samarqand viloyati hokimi Sh.M.Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan №03-34-348-sonli yig'ilish bayoni "Nurobod tumani Jom qishlog'ida hal etilishi lozim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o'rganish va aniq takliflar tayyorlash bo'yicha viloyat rahbarlariga berilgan topshiriqlari ro'yxati"ning birinchi bandida Jom xo'jaligidagi 15 ta maktabda 4286 o'quvchi o'qishi, har yili 800 nafardan ortiq o'quvchilarning maktablarni bitirishi aytilib, qishloqda kollej qurilishi masalasi qayd etilgan. Ushbu topshiriqning 3-bandida Jom QFY hududida 3421 nafar ishsiz yigit-qiz borligi va ularni ish bilan ta'minlash choralarini ko'rish topshirig'i berilgan.

Buni e'tiborga olgan Jom QFY raisi Eshturdi Rahimov Jomning o'nta, Sazag'onning sakkizta, Qashqadaryoning Jomga yaqin 4-15 km masofada joylashgan Umakay, Qo'chqorbuloq, Sarson, Tutli, Tulaqul, G'arovli qishloqlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining bitiruvchi sinf o'quvchilari uchun Jomda pedagogika kolleji qurish taklifi bilan Samarqand viloyati va Nurobod tumani hokimliklari hamda hokimliklarning XTBlariga chiqqan, shu asosda pedagogika kolleji tashkil etilgan edi. 2011-yilda mazkur kollejning nomi "Nurobod maktabgacha ta'lim va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji"ga o'zgartirildi.

Kollej qurilishi 2007-yilning noyabrida boshlangan va 2008-yilning avgustida foydalanishga topshirilgan. 540 o'quvchiga mo'ljallab 3 qavat qilib qurilgan kollejning orqa janub qismida 100 o'ringa mo'ljallangan 2 qavatli yotoqxona, 120 o'rinli yopiq sport zal bor. Maydoni 3784 m² bo'lgan majmuani bunyod etishning buyurtmachisi Samarqand viloyati hokimligining injenering kompaniyasi bo'lgan.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

"Samarqandloyiha" MChJ tomonidan loyihalashtirilgan, pudratchi "Ruxsora-2" XIch TF bo'lgan. Qurilish qiymati 2 milliard 341 million so'm.

2008-yil kollej qurilishi tugallanishi munosabati bilan Nurobod tumani hokimligi Jom QFY zimmasiga ishlayotgan ishchilarni issiq ovqat bilan ta'minlash, majmua binosini foydalanishga topshirish uchun uning o'zini va maydonini tozalash, mebellar, stol-stullar, o'quv-ko'rgazmali qurollarni joylashtirish, ko'kalamzorlashtirish topshiriqlarini yukladi. Girdiqo'rg'on va Jom MFYlari raislari va faollar Shomurod Kenjayev, Baxtiyor Qilichev, Mavjuda Karimova, Yaxshigul Chinmirzaevalar tashkilotchilik ishlarini amalga oshirdilar. Ularga qishloq fuqarolaridan Xolboy Mahatov va Pardaboy Soatovlar yaqindan amaliy yordam ko'rsatishdi.

Kollejning ochilish marosimi qishloqda katta bayramga aylandi. Jom QFY tomonidan kollej binosi qurilishida ishtirok etgan 35 nafar ishchi esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Mamlakatimiz mustaqilligi sharofati ila qishloqqa fayz kiritib, ko'rk berib turgan muhtasham ta'lim maskani binosining qad ko'tarishi, 24 ming yoshdan oshgan eng ko'hna Jom qishlog'ida ming yillar osha hech qachon kuzatilmagan tarixiy voqea bo'ldi.

JOM MFY HUDUDIDAGI 23-MAKTAB

Maktab qurilishi tashkilotchisi Jo'raqul Tojiyevning bergan ma'lumotlari:

- maktab qurilishi 2015-2016-yillarga mo'ljallangan;
- davlat byudjeti hisobidan 2 milliard 617 million 348 ming so'mga qurilishi rejalashtirilgan;
- 315 o'rinli;
- viloyatning 2016-yilgi investitsiya dasturiga asosan maktab binosi Alijon Bo'riyev rahbarligida "Me'mor O'tkir

Jom qishlog‘i maorifi

chovka" MChJ quruvchilari tomonidan loyiha asosida qurilmoqda;

– qurilish 2015-yil 20-sentabrda boshlanib 2016-yil avgustda ishga tushirilishi rejalashtirilgan;

– 2015-2016-o‘quv yilida 32 nafar o‘qituvchilar mavjud 20 ta sinfxonalaridan foydalanib 425 nafar o‘quvchilar ta’lim-tarbiya berishmoqda.

JOM MFY HUDUDIDAGI 24-MAKTAB

Jom MFY hududidagi bu maktab 1969-yilda tarix fani o‘qituvchisi Hasan Rasulovning sa’y-harakati bilan bunyod etilgan. 2013-yilda 240 o‘rinli maktabni zamon talablariga moslab qayta qurish masalasi Abdujabbor Ernazarovning tashkilotchiligida davlat dasturiga kiritilgan. Uni qurishga davlat byudjetidan 390 mln. so‘m mablag‘ ajratilgan. Qurilish 2013-yilning noyabr oyida Mirza Islomov rahbarligidagi "Binokor" xususiy firmasi tomonidan boshlanib, 2014-yilda foydalanishga topshirilgan.

Maktab qurilishiga fuqarolardan Salohiddin Ernazarov, Murod Isoqov, Bo‘ron Ashurovlar amaliy yordam ko‘rsatishgan.

JOM MFY HUDUDIDAGI 25-MAKTAB

1955-yilda, o‘sha davrda “Eski anhor” deb atalgan kanalga “Darg‘om” kanalidan suv berila boshlashi munosabati bilan uning atrofiga Qashqadaryo viloyati qishloqlari, Ulus davlat xo‘jaligi, jumladan, Jom qishlog‘idan aholi kelib o‘troqlasha boshlagan.

Mustaqillik yillarida joylarning yangicha nomlanishi bilan yangi qurilgan “Moskva” kanalining nomi “Eski anhor”ga almashtirildi. O‘ylanmasdan qilingan ish tufayli Jom qishlog‘ida ikkita “Eski anhor” kanali nomi paydo bo‘lib qoldi. Aslida “Moskva” kanali nomini “Yangi anhor” atalsa to‘g‘ri bo‘lar edi.

“Eski anhor” kanalining Jom qishlog‘iga tegishli yer maydonlari 1957-yilda Ulus davlat xo‘jaligining yordamchi xo‘jaligiga aylantirildi. Bu yerlarda har xil mevali-manzarali ko‘chatlar yetishtirilib bog‘lar, tokzorlar barpo etildi.

Razzoq bobo Tillayev bog‘bonlik qilgan. Eshturdi bobo Suyarovning dehqonchilikda erishgan yutuqlaridan butun Samarqand viloyati qishloq xo‘jalik xodimlari hayratda qolgan.

Eshturdi boboning yangi o‘zlashtirilgan yerda, o‘zining bilaklari kuchi va faqat ketmon bilan qilgan mehnati evaziga yetishtirilgan qovunlar, shirasining ko‘pligidan tunda tars-tars yorilishi, paykal atrofida joylashgan xonadonlarga eshitilib turar ekan.

Samarqand viloyati qishloq xo‘jalik xodimlarining “Hosil bayrami”ga ot-aravada Eshturdi boboning ukasi Yaxyo Suyarovning olib borgan qovun-tarvuzlarining hech biri 15-20 kilogrammdan kam bo‘lmagan, bir dona oshkadisining og‘irligi 22 kilogramm chiqib “Hosil bayrami” sovriniga sazavor bo‘lgan.

Qo‘ng‘irot urug‘ining “Qoramo‘yin” tarmoq urug‘idan bo‘lgan mulla Eshturdi bobo haqiqiy Alpomish kelbatli, ko‘nglida g‘ubori yuq, barchaga birdek yaxshilik qiladigan, chaynab yutayotgan luqmasida ham sag‘ir-sug‘urning haqqi bor deb o‘ylaydigan, taqvoli inson edi.

Yordamchi xo‘jalikda Eshturdi bobo qatori Turum Esonov, Xotam bobo, o‘g‘li Xudoyberdi, To‘xta bobo Oripov, Xoshim Samanov, Normamat bobo Erkayev, Mahmadiyor bobo Sharipov, Umakay qishlog‘idan Sadin bobolar mehnat qilishgan.

1960-yilda Ulus davlat xo‘jaligi Ayritom qishlog‘iga tegishli 400 gektar maydonda ikkita bo‘lim, to‘rtta brigadalar tashkil etib, paxta yetishtirishni, Kattaqo‘rg‘onlik Qodirov rahbarligida yo‘lga qo‘ygan.

Jom qishlog'i maorifi

Abdunazar Yultoyev va Niyoz Rahmatovlar bo'limlar, Toxir Odirov, Obruy Ashurov, Abdalim Mirzayev va Bobodo'st Manzarovlar brigadalar boshliqlari bo'lishgan. Otda "Eski anhor" kanalini kechib o'tayotgan Bobodo'st Manzarov suv o'pqnida fojeali halok bo'lgan.

1964-yilda brigada boshlig'i Toxir Odirovning tashkilotchiligi asosida, hashar yo'li bilan to'rt xonali, hozirgi 25-umumiy o'rta ta'lim maktabining ilk binosi qurilib ishga tushirilgan. Ungacha o'quvchilar Turkman Bo'riyev uyida Xoydavul Hasanov va Nafas Bobontoyev tamonidan o'qitilgan.

Maktabga birinchi Bobomurod Olmosov, so'ngra Hasan Rasulov, Rahmat Mustafoyevlar direktorlik qilishgan.

1971-1988-yillarda Umirzoq Boboqulov rahbarligida, Inat va Rahmat Mustafoyevlar, Eshmamat Nafasov, Xolmo'min Ermonov, Qilich Qonaatov, Soat Tillayev, Mehri Soatov, Abdi Rasulovlar o'qituvchilik qilishgan.

1988-2009-yillarda Ali Qulliyev, Eshpo'lat Tursunov, Bo'ta Bo'riyev, Baxtiyor Esonov, Gulmurod Bo'riyev, Pirimqul Tillayev, Akbar Qulliyev, Xayrullo Tillayevlar maktabga rahbarlik qilishdilar.

2009-yildan boshlab maktabga Baxtiyor Esonov direktorlik qilmoqda.

2009-yilda zamonaviy ikki qavatli maktab binosi qurildi. Bu maktabning O'sarqul, Oqtom va O'ttizquloq qishloqlaridagi filiallari ham faoliyat ko'rsatmoqda.

2022-2023-o'quv yilida maktabning filiallar bilan qo'shib hisoblaganda 546 nafar o'quvchilarga, 52 nafar o'qituvchilar ta'lim-tarbiya bermoqda.

JOM MFY HUDUDIDAGI 45-MAKTAB

120 o'quvchiga mo'ljallangan, eni 15,7, bo'yi 28,3, balandligi 3,7 metr o'lchamdagi bu maktab, fuqarolar Rejab Ravshanov va Samad Toirovlarning tashkilotchiligi bilan davlat

dasturiga kiritilgan. Uni qurishga davlat byudjetidan loyihasmeta hujjatlari bo'yicha 112 mln. so'm mablag' ajratilgan.

Maktab 2007-yilda tender asosida Mirza Islomov rahbarligidagi "Binokor" xususiy firmasi tomonidan qurilib foydalanishga topshirilgan.

Maktab binosining barpo bo'lishida tuman XTF MT va TE bo'limi kasaba uyushma boshlig'i Erkin Abdusalomov, qishloq fuqarolaridan Sa'din O'sarov, Ergash Ochilovlar amaliy yordam ko'rsatishgan.

GIRDIQO'RG'ON MFY HUDUDIDAGI 22-MAKTAB

Bu maktab Jomning birinchi ta'lim maskani hisoblanadi. 1920-yillar oxiri 30-yillar boshida Jomda savodsizlikni tugatish kurslari tashkil etilgan. 1923-yilda mulla Xudoyberdi bobo Hushvaqt Qurbonov mehmonxonasida 14 o'quvchini o'qitishni boshlagan va Jomning birinchi hozirgi zamon maktabiga asos solingan. O'quvchilar 1929-yilgacha arab, 1929-1940-yillarda lotin, 1940-1993-yillarda krill imlosida o'qitilgan. 1993-yil 2-sentabrdan lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tildi.

1934-yil Girdiqo'rg'on mahallasi hududida 4 yillik maktab ochilgan. Bu maktab 1939-yilda 7 yillikka, ya'ni to'liqsiz o'rta maktabga aylantirilgan.

Kattaqo'rg'on shahar maorifi bo'limi tarkibida bittadan o'zbek va rus tilida o'qitiladigan o'rta maktablar bo'lgan. Tuman xalq maorifi bo'limi tarkibida esa o'rta maktablar mavjud bo'lmagan. Ikkinchi jahon urushidan keyin Kattaqo'rg'on tumani xalq maorifi bo'limi birinchi o'rta maktabni Yangiqo'rg'onda tashkil etgan, biroq bolalar yig'ilmaganligi tufayli reja amalga oshmagan. Keyin o'rta maktab Saroyqo'rg'onda ochilgan, yashash og'ir, bolalar ishlab chiqarishda ota-onalari bilan qatnashayotganligidan bu yerda ham bolalarni to'plab o'qitishning imkoni bo'lmagan.

Jom qishlog'i maorifi

1946-yilda qishloqning hozirgi Girdiqo'rg'on MFYga qarashli hududidagi jamoa xo'jaligiga 1933-yildan 1952-yilgacha raislik qilgan Mahmado'st Xolbozorov Kattaqo'rg'on tuman xalq maorifi bo'limi rahbariyati hamda qishloq aholisi yordamida hashar yo'li bilan juda katta maktab-internat qurib uni 1948-yilda foydalanishga topshirgan. Shundan so'ng Kattaqo'rg'on xalq maorifi bo'limi Jomda o'zining birinchi o'rta maktabini tashkil etgan. Ushbu ulug' maskanda Jomning barcha farzandlari, shuningdek, Qashqadaryoning Umakay, Qo'chqorbuloq, Sarson, Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumaniga qarashli Ibrohim ota, Anjirli qishloqlari bolalari ta'lim-tarbiya olishgan. Shamsiddin Yoqubov rahbarlik qilgan 1960-yillarda maktab Samarqand va Qashqadaryo vohasida xalq tomonidan Jom Universiteti deb dovrug' taratgan.

Bizlar ham 1963-1966-yillarda shu maktabda Shamsiddin Yoqubov, Yormat Sadinov, Safar Qurbonov, Jaloliddin Safarov, Ulash Turapov, Vafoqul Qulmatov, O'rol Jumaev, Dagar Mirzayev, O'rol Sattorov, G'ofur Qudratov kabi fidoyi o'qituvchilardan saboq olganmiz. Maktabning internatida Jomning quyi qismida joylashgan Jom mahallasi va atrof qishloqlari Anjirli, Umakay, Qo'chqorbuloq va Sarsondan kelib o'qiydigan o'quvchilar yashashardi. Bu maktab-internat binolari 1970-yillarga kelib termit (sariq qumursqa)lar ta'sirida yaroqsiz holga keldi. Natijada o'sha yillari maktabga direktor bo'lib ishlagan G'.Qudratov tashkilotchiligida mavjud maktabning sharqiy qismida yangi maktab qurilishi boshlandi va keyingi rahbari Ulash Turopov tomonidan oxiriga yetkazilib foydalanishga topshirildi. Bu maktab ham vaqt o'tishi bilan termitlarga yem bo'ldi.

2013-2014 yillarda davlat dasturi asosida, Po'lat Hamzayev rahbarligidagi "Urgut qurilish dizayn" MChJ firmasi tomonidan 300 o'rinli maktab va 12x24 o'lchamdagi yopiq sport zal qurildi.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

2022-yilda davlat dasturi asosida 470 o'quvchi o'rniga ega bo'lgan 3 qavatli zamonaviy maktab bunyod etildi.

TEGIRMONBOSHI MFY HUDUDIDAGI 44-MAKTAB

Bu maktab 1991-yilda Gulmurod Otaboevning sa'y-harakati, tuman Xalq ta'limi bo'limi rahbariyati va qishloq faollarining qo'llab-quvvatlashi yordamida hashar yo'li bilan qurilib, ishga tushirilgan. Maktab binosiga termit (sariq qumursqa)lar kattiq zarar yetkazgach, 2012-yilda 120 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan maktab davlat byudjetidan berilgan 240 million so'mdan ziyod mablag' hisobiga qaytadan qurildi. Qurilishda o'qituvchilardan Zebo Otaboyeva, Nishon Xolmo'minov, avtoullov haydovchisi Musurmon Sultonovlar faollik ko'rsatdilar.

Maktab binosi Shuhrat Nurmo'minov rahbarligidagi "Sevinch servis nur" MChJ firmasi tomonidan qurilgan.

2021-yildan boshlab Jom qishlog'i, eli uchun juda ko'p xizmat qilgan Po'lat Raxmonovning o'g'li Olimjon Raxmonov direktorlik qilmoqda.

TEGIRMONBOSHI MFY HUDUDIDAGI 63-MAKTAB

1988-yilda Hafrin qishlog'i faollaridan Abdurayim Xo'jaqulov, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Sodiq bobo Norqulov, o'qituvchilardan Murodulla Xolbozorov va Shoyimqul Suyarovlar maslahatlashib hashar yo'li bilan maktab qurish tashabbusi bilan chiqdilar. Hafrin qishlog'ining o'sha davrdagi 200 xo'jalik oilalaridan 15-20 so'mdan pul to'pladilar.

Qishloq faollari iltimosiga ko'ra "Galasharik"ning janub tomonidagi sug'orilmaydigan qir ustidan maktab o'rnini tekislab tayyorlash uchun Jom davlat xo'jaligi rahbari Mamat

Jom qishlog'i maorifi

Abdullayev ishchi Qurbonali Safarovni buldozer bilan jo'natdi. Q.Safarov bir oy davomida maktab o'rnini hozirlab bo'ldi.

Aholidan yig'ilgan mablag' hisobiga Jom marmar konidan tosh keltirilib Zayni bobo Safarov boshchiligida maktab poydevorini qurish boshlab yuborildi, bunda ayniqsa, Omondulla Ziyatov, Rustam Norqulovlar jonbozlik ko'rsatdilar. Sanaqul To'yliyev qurilishga o'z hisobidan 10 tonna sement sovg'a qildi. Poydevor ustiga Abdurasul Xolmirzaev va Soyip Suyarovlar boshchiligidagi ustalar paxsa devor o'rnatishdi. Maktab tomini yopish uchun ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Sodiq bobo Norqulov viloyat va tuman rahbariyatiga yozma talabnoma bilan chiqdi. Rahbariyat tomonidan talabnoma qondirilib, yetarli mablag' ajratilgach, maktab tomini yopish ishlari boshlab yuborildi. O'qituvchi Omonturdi Suyarov quruvchilarga ikki oy davomida uyidan joy berib, ularning taomlanishiga butun oila a'zolari bilan birgalikda xizmatda turishdi. Qishloq aholisi tomonidan quruvchilar oziq-ovqatlari uchun qo'zi-uloqlar so'yib berilib turildi.

Maktab qurilishi tugagach, 1989-yil aprel oyida uni ochish uchun tuman rahbariyatiga, jumladan, o'sha davrda tuman maorif bo'limi mudiri bo'lib turgan Musurmon Normatovga murojaat etildi.

M.Normatovning bevosita yordami tufayli maktab parta, stol, stul, doska, sport jihozlari, laboratoriya uskunalari, lingafon, darsliklar, o'quv qurollari bilan ta'minlandi.

1989-yilning 1-sentabrida 63-sonli 8 yillik to'liqsiz o'rta maktabning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Qishloq aholisi talabiga asosan maktab direktori qilib o'sha davrda MUPK rahbari bo'lib ishlab turgan Qoplon Xudoyorov ko'chirish yo'li bilan tayinlandi. Q.Xudoyorov ishni qishloq aholisi ko'magida tog'dagi Oyxolsoydan 3 km. masofaga quvur orqali buloq suvini olib kelish va maktab atrofini obodonlashtirishdan boshladi.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Maktabga uzoq yillar Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari moliyasining mudiri bo'lib ishlagan, Jomdan juda ko'plab kadrlar tayyorlagan ajoyib inson O'rol bobo Bozorov nomi berildi, 10 yildan so'ng uning esdalik byusti o'rnatildi. O'.Bozorovning Qashqadaryoda mas'ul lavozimlarda ishlaydigan farzandlari Rustam va Ulug'beklarning yordamida maktab atrofi tosh devor bilan o'raldi va maktabga yaqin tepalikda sport maydoni qurildi.

1990-yilda maktab ikki smenada ishlaganligi tufayli, qishloq aholisi yana hashar yo'li bilan maktabga ikkinchi bino qurish tashabbusi bilan chiqdi. Maktab direktori Q.Xudoyorovning tashabbusi va sa'y-harakati bilan davlat hisobidan mablag' ko'chirilishiga erishildi.

"Bog'izag'on" PMKsi tomonidan ikkinchi binoning qurib ishga tushirilishi munosabati bilan 1991-yilning 1 sentabridan maktab bir smenali o'qishga o'tdi.

Ushbu binoning qurilishi va obodonlashtirish ishlari uchun o'sha paytda Nurobod tumanidan Oliy Kengashga deputat qilib saylangan O.K.Adamonov tomonida 55 ming so'm pul ko'chirilib berildi. Jom marmar koni boshlig'i S.Xudoynazarov maktabni maydalangan kerakli toshlar bilan ta'minlab turdi. Maktabning yangi binosi davlat dasturi asosida 2007-2008-yillarda qurilib ishga tushirildi.

Xulosa qilib aytganda, Jom MFY hududidagi 540 o'quvchi o'rniga mo'ljallab kollej binosi 3 qavat qilib qurilgan. Kollejning orqa janub qismida 100 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan 2 qavatli turar joy binosi, 120 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan yopiq sport zal qurilgan.

Cho'nqaymish qishlog'idagi 20-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi 2005-2006-yillarda, Hafrin qishlog'idagi 63-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi 2007-2008-yillarda, Karimovul qishlog'idagi 44-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi

Jom qishlog'i maorifi

2012-yilda, Jom MFY hududidagi 45-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi 2013-2014-yillarda, Beshbarmoq qishlog'idagi 19-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi 2017-2018-yillarda bir qavatli qilib qurilib ishga tushirildi.

Jom MFY hududidagi 25-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi 2010-2011-yillarda, 24-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi 2013-2014-yillarda, 23-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi 2015-2016-yillarda, Girdiqo'rg'on MFY hududidagi 22-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi 2013-2014-yillarda ikki qavatli qilib qurilib ishga tushirildi.

21-umumiy o'rta ta'lim maktabining 120 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan eski binosi va sport majmuasi 2007-2008-yillarda yangidan qurildi. Burumdagi filiali binosini qurib ishga tushirishga doir ishlar 2011-yildan 2015-yilgacha davom etdi. 2017-yilda maktabning sport zali 37 million so'mlik sport anjomlari bilan yanada boyitildi. 2017-2018-yillarda shu maktabning 240 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan ikki qavatli yangi binosi qurilib ishga tushirildi.

OMONDARA MFY HUDUDIDAGI 21-MAKTAB VA SPORT ZAL

Jomdagi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi qishloqning ilk ta'lim maskanlaridan biri hisoblanadi. 1929-yili Kattaqo'rg'onda 10 oylik muallimlar tayyorlaydigan kurslarda jomlik yigitlardan Tuxsori Tojiyev, Tog'aynazar Xoliqulov, Yormat Sadinov, Hasan Rahimov, Jo'raboy Sheraliyev, Ahmat Shomahmatov, Parida Olloyorov, Ochil Berdiev, G'ani Jumanov, Tura Mavlonov, Mamarayim Irisqulov, Ibodulla Qodirovlar o'qib kelishib qishloqning birinchi o'qituvchilari bo'lishgan. O'quvchilarni o'qitish 1930-yildan boshlab Omondara mahallasidagi Rahmonqul karvonning mehmonxonasida, Cho'mmoq qishlog'idagi masjidda, Safar, Amirqul, mulla Avaz bobolarning uylarida olib borilgan.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

1937-yilda jamoa xo'jalik buxgalteriyasi uchun to'rt xonalik bino qurilgan. Qishloq bolalarining odamlar uylarida o'qitilayotganligini e'tiborga olgan jamoa xo'jaligi raisi Abdulla Omonov bu binoni maktab uchun bergan. Ikkinchi jahon urushidan so'ng, 1948-yilda maktab direktori Tuxsori Tojiyevning sa'y-harakati, Kattaqo'rg'on tumani va xalq maorifi bo'limi rahbariyatining qo'llab-quvvatlashi, qishloq aholisining yordami bilan yangi maktab bunyod etilgan. Termit (sariq qumursqa)lar bu binoga zarar yetkazgach, 1960- yildan boshlab maktab direktori Bolli Yorqulov rahbarligida qayta qurilgan. Bizlarni shu maktabda Bolli Yorqulov, Amir Ochilov, Haqberdi Xidirov, Normo'min Jumanov, Shovxi Xo'jaqulov, O'rol Jumayev, Yo'ldosh Xolmo'minov, Shukur Ro'ziqulov kabi juda ko'plab fidoyi o'qituvchilar o'qitgan. 17 yildan so'ng, ya'ni 2007- yilda Nurobod tumani hokimi J.X.Ibragimovning yordami bilan Ag'ron qishlog'ida qurilishi lozim bo'lgan 55-sonli maktabga ajratilgan mablag'ning bir qismi hisobiga 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi qurilgan. 2008-yilda sport zal majmuasi qad ko'targan.

2006-yil 19-dekabrda Nurobod tumani hokimligida Nurobod tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan yig'ilish bo'lib o'tdi. Uni viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.U.Bahromov olib bordi. Yig'ilish asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasining 11-bandida 21-umumiy o'rta ta'lim maktabni 360 o'rinli qo'shimcha 2 ta bino va sport zal qurilishini investitsiya dasturiga kiritish qayd etilgan.

Viloyat hokimi tomonidan obyektlar qurilishini 50:50 nisbatda qurish taklifi kiritilgan, butun yig'ilish qatnashchilari jim bo'lib qolgan bir paytda Jom QFY raisi E.Rahimov so'zga chiqib, agar 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi qoshida yopiq sport zal quriladigan bo'lsa 50 foiz ishni o'z zimmamizga olamiz degan. Unga viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi

Jom qishlog'i maorifi

A.U.Bahromov qanday qilib degan savolni beradi. Shunda E.Rahimov ishchi kuchi, oziq-ovqat, bir qism qurilish materiallari, jumladan, 10 tonna armatura bizlardan bo'ladi, degan. Bu gapdan so'ng A.U.Bahromov viloyat injinereng kompaniyasi boshlig'i Pirimqul Sobirov va viloyat moliya boshqarmasi boshlig'i Muhiddin Hasanovlarga 18x36 o'lchamdagi yopiq sport zal qurish masalasini E.Rahimov bilan birgalikda hal qilish topshirig'ini berdi. Yig'ilish kotibi T.Igamberdiev va Nurobod tumaniga mas'ul qilib biriktirilgan vakil, viloyat statistika boshqarmasi boshlig'i R.Qarshiboyevlarga masalani dasturga kiritishni topshirdi.

Sport zalni qurish masalasini 2006-yilning 22-dekabrida viloyat injinereng kompaniyasi binosida boshlig'i Pirimqul Sobirov, viloyat Moliya boshqarmasi boshlig'i Muhiddin Hasanov va Jom QFY raisi E.Rahimovlar birgalikda muhokama qilishdi. Ular E.Rahimovdan sport zal qurilishiga qanday yordam bera olishini so'rashdi. E.Rahimov poydevor uchun tosh, qum tashib keltirib, beton ishlarini qilib berishini, Qarshidagi UBR tashkilotida ishlayotgan 100 dan ortiq har bir jomlik hisobiga 10 kg dan, jami 10 tonnadan ortiq armatura tayyorlab berishini, quruvchilarni oziqlantirish, yotoq joy bilan ta'minlashini aytdi. Shunda P.Sobirov poydevorga tosh ishlatib bo'lmasligini, u zilzilaga bardosh bera olmasligini, lekin sport zalni qurish davlat rejasiga kiritilganligini ma'lum qildi.

Sport zali 2006-yilning 28- dekabrida №02-3/4-18-23-sonli Samarqand viloyati hokimligining kengaytirilgan yig'ilish bayoni qarori bilan tasdiqlangan tadbir-reja asosida qurilgan. Biroq sport zal 18x36 o'lchamda emas, balki 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi ma'muriyatining e'tiborsizligi sababli 9x18 o'lchamda loyihalashtirilib qurilgan. Sport zal 2008-yilda shu qishloq farzandi Jo'raboy Yorqulov boshliq brigada tomonidan qurilib ishga tushirilgan.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

21-umumiy o'rta ta'lim maktabi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-iyuldagi №312-sonli "2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroridan kelib chiqib, Nurobod tumani hokimligi ishchi guruhi xulosasiga asosan 2004-yilda kapital ta'mirlash rejasiga kiritilgan va bu ish amalga oshirilgan. Shu sababli 21-umumiy o'rta ta'lim maktabining zamonaviy binosini qurish davlat dasturiga kiritilmagan.

Davlat dasturi asosida 2016-yil tuman bolalar sport maktabining filiali bo'lmish 21-umumiy o'rta ta'lim maktab sport zalini sport anjomlari bilan ta'minlashga 22 million so'm ajratilgan. Biroq bu ish maktab rahbariyati, bolalar sporti jamg'armasi va jismoniy tarbiya o'qituvchilarining loqaydligi tufayli oxiriga yetkazilmagan.

2016-yil dekabrda 21-umumiy o'rta ta'lim maktabining jismoniy tarbiya o'qituvchisi O'ktam Qobulov va olimpiya zaxiralari sport maktabi murabbiysi Nurali Qobulovlar Eshturdi Rahimovga sport zalini kerakli inventarlar bilan ta'minlashga yordam berishini so'rab murojaat etdi.

E.Rahimov 2016-2017-yillar davomida juda ko'p yugur-yugurlar bilan davlat dasturi asosida 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi sport zalini sport anjomlari bilan jihozlash uchun rejalashtirilgan 22 million so'm mablag'ni izlab topib, yana qo'shimcha 15 million so'm bilan qaytarib olib keldi.

2017- yil 18- may payshanba kuni soat 11.00 da keltirilgan sport jihozlarini 21-umumiy o'rta ta'lim maktabiga topshirish tadbiri bo'lib o'tdi. Sport zaliga 30 million so'mlik 96 m2 tatami to'shagi, 1 million 800 ming so'mlik 2 dona boks qopi, 1 million 200 ming so'mlik 1 dona tulum, 4 million so'mlik 19 dona kimano komplektlari, jami 37 million so'mlik sport anjomlari tuhfa etildi.

Jom qishlog'i maorifi

Anjumanda 1960-yillardan boshlab Jom sport maktabi rivojiga katta hissa qo'shgan, qishloqning birinchi oliy ma'lumotli jismoniy tarbiya o'qituvchisi, keksa Shovxi Xo'jaqulov so'zga chiqib, o'zi o'qituvchilik qilgan davrlarda yeriga poxol solinib moslashtirilgan xonalarda o'quvchilar bilan sport mashg'ulotlari o'tkazilganini aytib, bunday muhtasham sport komplekslarni ko'rishga yetkazgan Allohga shukronalar aytish bilan birgalikda, bugungi yoshlarga shunday sharoitlarni yaratib berayotgan mamlakatimiz rahbariyatiga o'zining chuqur minnatdorchiligini bildirib, "mustaqilligimdan aylanay, endi o'lsam armonim yo'q", deb yig'lab yubordi. Shundan so'ng qishloqning nuroniy oqsoqoli Berdimurod Ravshanov, sport anjomlarini tayyorlab olib kelgan "Zulfiya" xususiy firmasi boshlig'i Furqat Uzoqov, Samarqand qishloq xo'jalik instituti professori Pirnazar Davronovlar so'zga chiqishib yosh sportchilarni sovg'alar bilan tabriklashdi, ularning kelajakdagi ishlariga muvaffaqiyatlar tilashdi. Qishloq imomi Abdufattoh Tursunov o'tgan rahbarlar, polvonlar ruhlariga Qur'on tilovat qildi. O'ktam polvon Qobulov xonadonida bir piyola choy ustida suhbat davom etdi.

21-umumiy o'rta ta'lim maktabining 2007-yilda qurilgan bir qavatli 120 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan binosiga qo'shimcha ravishda, 2017-2018 - yillarda 240 o'ringa mo'ljallangan ikki qavatli bino qurilib ishga tushirildi.

BIR MAKTABNI BUNYOD ETISHNING ZAHMATLI YO'LI

yoxud 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi filiali to'g'risida

Jom QFYga qarashli Omondara MFYning Yuqori qishloq, Beshbuloq, Tolli, Toshbuloq, Kaltasoy, Sariq cho'qqi guzarlariga aholining ko'plab ko'chib chiqishlari natijasida uzoq masofadagi tarqoq joylashgan xonadonlardan maktabga kelib

o'qishi kerak bo'lgan yoshlarga katta qiyinchilik tug'dira boshlagach, Jom davlat xo'jaligi rahbari Po'lat Rahmonovning yordami bilan Boshbuloq guzarida 21-umumiy o'rta ta'lim maktabining filiali binosi 1980-yilda hashar yo'li bilan toshdan to'rt xonali qilib qurib berildi. Ikkita xonada boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qishdi, qolgan xonalardan birida ko'rgazmali qurollar saqlansa, boshqasidan o'qituvchilar foydalanishdi. Maktabga 4-7 km uzoqlikda joylashgan xonadonlardan o'quvchilar darslarga piyoda qatnashdi. Bu tog'li hududdan o'quvchilar 9 oy o'qish davridagi kuz, qish va bahor fasllarining 6 oyida, juda ko'pchilik tengdoshlari shirin uyquda yotgan bir paytda, ertalab soat 5 da maktabga o'tlanishib, jar-chuqur oralab xavotirlikda, sovuqda, qor va yomg'ir ostida juda qiynalishdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-iyuldagi №321-sonli "2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosi kapital ta'mirlash rejasiga kiritilib, ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan, biroq uning filiali binosini qayta qurish va ta'mirlash ko'zda tutilmagan. Bu to'g'rida tegishli biron tashkilotga murojaat etilmagan. Oqibatda hududdagi 135 nafar o'quvchidan boshlang'ich sinf yoshidagilari filialning mavjud ikki sinf xonasida o'qitilgan bo'lsa, qolganlari yana 21-umumiy o'rta ta'lim maktabining asosiy binosiga 6-7 km masofadan qatnab ta'lim-tarbiya olishni davom ettirishgan.

Bolalarning maktabga qatnashida qiyinchiliklar yuzaga kelayotganligini hisobga olgan ota-onalar, oqsoqollar 2011-yilning fevral oyida 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi filiali binosini qayta qurib o'quvchilarning o'qishiga sharoit yaratib berilishini so'rab Nurobod tumani hokimligiga yozma murojaat bilan chiqishgan. Tuman hokimligi tomonidan uyushtirilgan

Jom qishlog'i maorifi

tekshirish hay'ati 2011-yilning 30-martida qishloqqa kelib masalani joyida o'rganadi va 8 xonadan iborat filial binosini qurish zarurligi to'g'risida dalolatnoma tuzadi. Dalolatnoma talabidan kelib chiqib Nurobod tumani Xalq ta'limi bo'limi 2011-yil 5-aprelda №171-sonli xati bilan tuman hokimligiga 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi filiali binosini qayta qurish to'g'risida chiqish qiladi. Shuning bilan masalaga xotima beriladi.

2012-yil 27-yanvarda Omondara mahallasi oqsoqollari E.Rahimovni mahallaga chaqirib, mazkur masala bilan shug'ullanishini taklif etishadi. E.Rahimov ushbu masala bo'yicha 2012-yil 4-fevralda Samarqand viloyati hokimi Z.T.Mirzayevga tegishli hujjatlar qo'shilgan ariza bilan murojaat qiladi.

E.Rahimov Nurobod tumani hokimi J.X.Ibragimov tomonidan 2012-yilning 20-fevralida maktab filiali binosini 4 xonali qilib qayta qurishga amaliy yordam so'rab viloyat hokimi nomiga yozilgan №01-2/5-54-sonli xatini olib viloyat hokimligiga topshiradi.

Viloyat hokimi nomiga yozilgan arizaga viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi 2012-yilning 25-fevralida №284-sonli ikki xil mazmundagi xat bilan javob bergan. Ulardan birida maktab filiali binosini kapital rekonstruktsiya dasturiga kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lishi aytilgan bo'lsa, ikkinchisida 4 xonali filial binosi loyiha-smeta hujjatlari va mebel jihozlari bilan ta'minlash masalalari Xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan yechilishi, binoning mahalliy hokimlik tomonidan qurilishi taklifi berilgan.

2012-yil 16-aprelda Nurobod tumani hokimligi o'zining №02-2/5-133-sonli xati bilan "Me'mor qurilish" MChJ direktori R.Vohidovdan 100 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan 21-umumiy o'rta ta'lim maktabining filiali binosi loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlab berishini so'raydi.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

2012-yil 23-iyulda Omondara MFYning 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi filiali binosini ko'chirish va qayta qurish ishini sovuq kunlarga qoldirmasdan hal etishga bag'ishlangan yig'ilishi bo'lib, yig'ilish qarori bilan E.Rahimovga ushbu ish bo'yicha shug'ullanuvchi vakolatli vakil degan kafolat xati beriladi.

Shundan so'ng E.Rahimov viloyat hokimiga ikkinchi ariza bilan murojaat qiladi. Masalaga oydinlik kiritilmagach, 2013-yilning 21-yanvarida Nurobod saylov okrugidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi deputatligiga saylangan O.A.O'sarovga yozma chiqish qiladi. Yana biror natija bo'lmagach, qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida 2013-yilning 11-mayida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi spikeri D.G.Toshmuhammedovaga murojaat qiladi.

E.Rahimov Omondara mahalla aholisining 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi filiali binosini ko'chirish va qayta qurish masalasi bo'yicha vakolatli vakil sifatida yozgan qator murojaatlariga olingan javob xatlari quyidagicha bo'lgan:

2013-yil 15-mayda Samarqand viloyati hokimligining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasiga yozgan №10-2/-106-sonli xatida 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi filiali binosini joriy ta'mirlashga 20,0 mln. so'm mablag' ajratilganligi;

2013- yil 20- mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi deputati O.A.O'sarovning №111-13/54-sonli xatida arizaning o'rganib chiqilganligi;

2012-yil 6-oktabrda Nurobod tumani XTMTTEB mudiri U.Saparovning №467-sonli tuman hokimi nomiga yozilgan xatida filial binosini joriy ta'mirlash uchun 20,0 mln. so'm mablag' ajratilganligi;

Jom qishlog'i maorifi

Nurobod tumani hokimligining 2012-yil 8-oktabrdagi №02-259-sonli xatida filial binosini qurish bo'yicha viloyat hokimligiga taklif berilganligi;

2013-yil 21-yanvarda Samarqand viloyati injinereng kompaniyasining №01-234-sonli xatida filial binosini qurishning investitsiya dasturiga kiritilmaganligi;

2013-yil 27-aprelda Samarqand viloyati Xalq ta'limi boshqarmasining №599-sonli xatida maktab filiali binosini qurish uchun mablag' masalasida tuman hokimligiga murojaat qilish kerakligi to'g'risidagi;

2013-yil 7-mayda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining o'rinbosari U.Abruyevning maktab filiali binosini qurish masalasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasiga yozgan №04-1058-sonli xati;

2013-yil 15-mayda Samarqand viloyati hokimligining maktab filialini joriy ta'mirlashga 20,0 mln. so'm mablag' ajratilganligi to'g'risidagi №10-2/108-sonli xati (takror);

2013-yil 11-iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktab filial binosi qurilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga yo'llangan №18-8-8/3583-sonli xati;

2013-yil 18-iyunda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining o'rinbosari U.Abruyevning imzosi bilan filial binosini qurish taklifi tuman hokimligi tomonidan berilmaganligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 10-dekabrdagi №291-sonli qarori talablaridan kelib chiqqan holda tuman va viloyat hokimliklarining takliflariga asosan filial binosi qurilishi davlat dasturiga kiritilishi to'g'risidagi №04-1557-sonli xati;

2013-yil 20-iyundagi Samarqand viloyati Xalq ta'limi boshqarmasining filial binosi joriy ta'mirdan chiqarilganligi, uni qurish masalasida tuman hokimligiga murojaat qilish lozimligi haqidagi №926-sonli xati;

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

2013-yil 25-iyunda Samarqand viloyati hokimligining maktab filiali binosi qurish uchun 20,0 mln. so'm mablag' ajratilganligi haqidagi №10-2/138-sonli uchinchi xati (takror);

Qonun ustuvorligi masalasida 2013-yil 19-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi Spikeri D.G.Toshmuhamedovaga ikki marta murojaat qilingan. Murojaatning natijasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga havola etilganligi sababli shu sanada Vazirlar Mahkamasining madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza masalalari axborot-tahlil departamentining boshlig'i M.Boltaboyevga qayta murojaat qilingan;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi devonining 2013-yil 12-avgustda Samarqand viloyati hokimligi Xalq ta'limi boshqarmasi Samarqand viloyati hokimligiga yo'llangan №05/10-1075-sonli xati (xat maqsadi ko'rsatilmagan);

2013-yil 30- avgustda Nurobod tumani hokimi o'rinbosari Z.N.Niyozovning tuman hokimiga 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi filiali binosini qurishga imkoniyatning yo'qligi tufayli 2013-yil 23-avgustdagi №08-2-40 sonli topshiriq kartochkani nazoratdan chiqarish to'g'risidagi №02-185-sonli xati (Ushbu xat tufayli hokimlik asossiz ravishda maktab filiali binosi masalasini nazoratdan chiqargan);

2013-yil 21-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining o'rinbosari U.Abruyevning imzosi bilan filial binosini qurish Samarqand viloyati hokimligi Xalq ta'limi boshqarmasiga yuklatilganligi to'g'risidagi №04-313-sonli xati;

2013-yil 28-dekabrda Samarqand viloyati injenering kompaniyasining filial binosini 2014-yil investitsiya dasturiga Samarqand viloyati hokimligi Xalq ta'limi boshqarmasi bilan kelishilgan holda kiritishni bajarish haqidagi №01-2583-sonli xati (biroq natija bo'lmagan);

Jom qishlog'i maorifi

2014-yil 8-yanvarda Samarqand viloyati hokimligi Xalq ta'limi boshqarmasining filialni qurish bo'yicha Samarqand viloyati hokimligiga yozgan №24-sonli xati;

2014-yil 30-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga filial binosi qurilishiga doir 44 varaq hujjatlar bilan murojaat etilgach, 2014-yilning 25-fevralida Samarqand viloyati hokimligi Xalq ta'limi boshqarmasining filialni qurish 2015-yil dasturiga kiritilganligi haqidagi №352-sonli xati.

Shu o'rinda Samarqand viloyati hokimligi Xalq ta'limi boshqarmasi filial binosini qurish masalasini nega shuncha yil orqaga surib keldi, degan haqli savol tug'iladi.

2014-yil 9-aprelda Samarqand viloyati injenering kompaniyasidan filial binosini qurishning 2015-yil investitsiya dasturiga kiritilganligi to'g'risidagi ma'lumot so'ralganida, Nurobod tumani XTMTTEB mudiri kiritgan dasturni Nurobod tumani hokimining o'rinbosari Z.N.Niyozov tasdiqlamaganligi uchun investitsiya dasturiga kiritilmaganligini ma'lum qildi. Yana haqli savol tug'iladi, Nurobod tumani hokimining o'rinbosari Z.N.Niyozov qanday asoslarga ko'ra maktab qurishdek xayrli ishga qarshi turmoqda?

Shu kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga Samarqand viloyati hokimligi Xalq ta'limi boshqarmasining filialni qurish 2015-yil dasturiga kiritilganligi haqidagi 2014-yil 25-fevraldagi №352-sonli xati ilova qilingan telegramma berilgach, filial binosini qurish 9-aprel 2015-yil sanasi bilan investitsiya dasturiga kiritildi.

E.Rahimov bu hujjatni Toshkentdan keltirib Samarqand viloyati injenering kompaniyasiga taqdim etganida, ular yana boshqa hujjatni, ya'ni filialni 60 o'quvchi o'rinli qilib qurish to'g'risidagi Samarqand viloyati hokimligi Xalq ta'limi boshqarmasining ma'lumotnomasini ko'rsatishdi. E.Rahimov ularga mazkur hududda 135 nafar o'quvchi borligi to'g'risidagi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori E.Xudoynazarov va

Omondara MFY raisi T.G‘apparovlar imzolagan ma‘lumotnomani berdi. Shunda ular 21-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi direktori E.Xudoynazarovning Samarqand viloyati hokimligi Xalq ta‘limi boshqarmasiga hududda 56 nafar o‘quvchi borligi to‘g‘risida bergan yozma ma‘lumotnomasiga asosan tuzilgan dasturni ko‘rsatishdi.

2014-yil 25-iyunda E.Rahimov O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh.M.Mirziyoyevga mazkur ahvol yuzasidan ariza bilan murojaat qildi va O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi vaziri U.I.Inoyatov qabulida bo‘ldi. U.I.Inoyatov E.Rahimovga ishchi guruhi bergan tavsiyaga asosan qurilishlar rejalashtirilishini, endi mahalliy hokimliklarning Bosh vazir nomiga chiqish qilishlari kerakligini aytdi.

Bosh vazirga qilingan murojaatdan so‘ng 21-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi filiali binosini 60 o‘quvchi o‘rinli qilib qurish 2015-yilning davlat dasturiga kiritilganligi to‘g‘risidagi Samarqand viloyati hokimligining 2014-yil 18-iyuldagi №10-2/315-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining 2014-yil 8-avgustdagi №03-2584-sonli xati olindi.

2014-yil 5-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining filial binosi qurilishi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi va E.Rahimovga yo‘llangan №18-8-8/8080-sonli xatida masalani joyida atroflicha o‘rganish so‘ralgan.

2014-yil 26-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining 2014-yil 8-avgustdagi №04-2523-sonli xatida yana filial binosini 60 o‘quvchi o‘rinli qilib qurish ko‘rsatilgan edi.

Samarqand viloyati injenering kompaniyasida 21-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining filiali binosini qurishga doir hujjatlar o‘rganilganda Nurobod tumani hokimligi hatto filial binosi qurish uchun yer maydoni ajratish haqidagi qarorni ham

Jom qishlog'i maorifi

bermaganligi ma'lum bo'lgan. E.Rahimov 2014-yil 11-sentabrda filial binosini qurish uchun yer ajratish to'g'risida Nurobod tumani hokimligi ishchi guruhi tuzgan dalolatnomani tasdiqlatib, 2014-yil 16-sentabrda filial binosi qurish uchun 0,30 ga yer maydoni ajratilganligi haqidagi №438-K-sonli tuman hokimining qarorini chiqartirib viloyat injenering kompaniyasiga topshirdi.

Filial binosini qurish masalasida Bosh vazirga yozilgan arizaga javoban Samarqand viloyati hokimligining filial binosi 60 o'rinli bo'lib dasturga kiritilganligi to'g'risidagi 2014-yil 5-sentabrdagi №10-2/159-sonli xati olingan.

2014-yil 25-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining filial binosi qurilishi masalasini qaytadan ko'rib chiqish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Samarqand viloyati hokimligi va E.Rahimovga yo'llangan №18-8-8/9408-sonli xati olingan.

2014-yil 5-sentabrdagi Samarqand viloyati hokimligining №10-2/1591-sonli xati olingan.

E.Rahimov 2014-yil 26-sentabrda 135 o'quvchi o'rinli maktab filiali binosini qurish to'g'risidagi arizaning inobatga olinmaganligi haqida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga telegramma yubordi.

E.Rahimov 2014-yilning 8-oktabrida ertalab soat 9:30 da Samarqand viloyati injenering kompaniyasining rejalashtirish bo'limi boshlig'i Abdig'ani Murodqobilovdan filial binosining 80 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan 4 xonadan iborat qilib qurilishi, buni faqat viloyat hokimining taklifiga asosan Bosh vazir o'zgartirishi mumkinligini aytdi.

E.Rahimov viloyat hokimligi qabulxonasiga kirib viloyat hokimi o'rinbosari O.I.Ochilov bilan uchrashtirishlarini so'raganida yordamchisi Tolib Pirimqulov unga kutishini aytdi. Soat 11:00 da viloyat hokimining o'rinbosari O.I.Ochilov qabul

qilgach, yana filial binosini qurish masalasida va Bosh vazirga yuborilgan telegrammasi natijasini bilish uchun kelganligini aytdi. O.I.Ochilov qurilish limiti tasdiqlanganligini ma'lum qildi. Suhbat keskin tus oldi, E.Rahimov limit tasdiqlanganligi to'g'risida yozma ma'lumot berishini so'radi va shu joyning o'zida Nurobod tumani hokimiga telefon qilib ahvolni bayon qildi. Tuman hokimi viloyat hokimining o'rinbosari O.I.Ochilovdan masalaga ijobiy yondashishini so'radi. Shundan keyin O.I.Ochilov "Parviz" firmasi boshlig'i Sulaymon Boqiyevga telefon qilib filial binosi to'g'risidagi oldingi loyiha-smeta hujjatlarini buzib, 120 o'quvchi o'ringa mo'ljallab yangisini tayyorlash topshirig'ini berdi. E.Rahimovdan esa Nurobod tumani hokimining xatini va o'quvchilar ro'yxatini taqdim etishini talab qildi.

E.Rahimov Nurobod tumani hokimining 2014-yil 9-oktabrda yozilgan №01-2/5-340-sonli xatini va 135 nafar o'quvchi ro'yxatini olib 2014-yilning 10-oktabr kuni soat 9:30 da taqdim etdi. 2014-yil 13-oktabrda "Parviz" loyiha-smeta tayyorlash firmasidan 120 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan loyiha-smeta hujjatlarini olib viloyat injenering kompaniyasiga topshirdi. Uni kutib olgan Samarqand viloyati injenering kompaniyasining rejalashtirish bo'limi boshlig'i Abdig'ani Murodqobilov viloyat hokimligi tomonidan filial binosini 120 o'rinli qilib qurish uchun mablag' topish topshirig'i olinganligini ma'lum qildi. Shunda E.Rahimovning 2012-2014-yillarda birgina filial binosini qurish uchun bosib o'tgan yo'llari, zahmatlari, mamlakatimizning kelajak taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan 135 nafar o'g'il-qizlarning yangi quriladigan maktab filiali binosiga issiq-sovuqlardan qiynalmasdan kelib, zamon standartlari darajasida jihozlangan shinam sinf xonalarda ta'lim-tarbiya olishayotganlari xayolini chulg'ab, ko'zlaridan faxr va sevinch yoshlarining sizib chiqayotganini sezmas edi. Bu

Jom qishlog'i maorifi

holatga guvoh Abdig'ani Murodqobilov lol qolib, "Ha bobo, sizga nima bo'ldi?" deb, E.Rahimovga bir piyola choy uzatib unga dalda bo'ldi.

E.Rahimov viloyat injenering kompaniyasidan qishloq aholisining yelkasiga yuklagan og'ir yukini tushirganday bo'lib yengil tortib chiqdi va bu xushxabarni birinchi bo'lib qishloqda nabiralarini yetaklab yurgan Elmirza Nishonovga aytib, 120 o'quvchi o'rniga mo'ljallab tuzilgan filial binosining loyiha-smeta hujjatlarini ularga ko'rsatdi. Bu xushxabardan qishloqda barcha birdek xursand bo'lishdi.

Respublika Prezidentining 2015-yilda quriladigan obyektlar to'g'risidagi 2014-yil 17-noyabrdagi №2261-PQ-sonli qaroriga asosan 21-umumiy o'rta ta'lim maktabining filiali binosi qurilishi uchun ajratilgan 201,0 mln. so'm mablag' 60 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan edi. E.Rahimov 2014-yil 27-noyabrda Samarqand viloyati hokimi Z.T.Mirzayev bilan uchrashganida aslida bu hududdagi oilalarda 135 nafar o'quvchi yoshidagi bolalar yashashini e'tiborga olish zarurligini iltimos qildi. Z.T.Mirzayev shu kungi viloyat hokimligi yig'ilishining №11/2-1185-sonli qarori bilan viloyat injenering kompaniyasi va viloyat Xalq ta'limi boshqarmasiga qurilayotgan obyektlar bo'yicha tender savdosi o'tkazishda iqtisod qilingan mablag'lar hisobidan yana qo'shimcha 60 o'rinli maktab uchun mablag'ni 5 kun ichida topish topshirig'ini berdi va Jomda 120 o'rinli yangi maktab qurilishiga ishontirdi.

2014-yil 12-dekabrda 21-umumiy o'rta ta'lim maktabining filiali binosi 334 647 257 so'm mablag' bilan qurilishi bo'yicha tender e'loni chiqdi. Viloyat injenering kompaniyasi loyiha-smeta hujjatlarida ko'rsatilgan 100,0 mln. so'm mablag'ning 15-fevralgacha o'tkazilishini ma'lum qildi.

Samarqand viloyati hokimligining topshirig'iga asosan 2014-yil 13- oktabrda "Parviz" loyiha-smeta tayyorlash firmasi tomonidan 120 o'quvchi o'rniga mo'ljallab tayyorlangan filial

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

binosi, 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori E.Xudaynazarovning bergan ma'lumotnomasiga asosan 60 o'quvchi o'rniga mo'ljallab 4 xonadan iborat qilib qurildi.

Yangi maktab binosining 2015-yil 27-avgustda ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Marosimni Nurobod tuman hokimining o'rinbosari To'lqin Xushmurodov ochib maktab qurilishi tashkilotchisi E.Rahimovga, qishloq ahliga, "Narzitosh Rahmatova" nomli qurilish firmasi jamoasiga samimiy minnatdorchiligini bildirdi. Anjumanda tuman Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi xodimi Xotamov, tuman mehnat, bandlikka ko'maklashuvchi guruh rahbari Berdiqulov, qishloq faollaridan B.Ravshanov va E.Rahimovlar so'zga chiqishib bu maktabda tahsil oladigan o'quvchilarni tabriklashib, ularga shunday sharoit yaratgan mamlakatimiz rahbariyatiga minnatdorchiliklarini bildirdilar.

Maktab hovlisida kun bo'yi katta tantana bo'ldi. "Narzitosh Rahmatova" firmasi quruvchilariga va qishloqning faol faxriylariga tantanali ravishda qimmatbaho sovg'alar topshirildi. Omondara mahallasining havaskorlari ishtirokida kontsert bo'lib, bir piyola choy ustida davra suhbatlari davom etdi.

Maktab binosi qurilishida jamoatchilik vakillari Nurali Suvonov, Farmon Xidirov, Burxon Nishonov, To'yli Rustamovlarning olib borgan tashkilotchilik ishlari ayniqsa maqtovga loyiq.

Filial 4 xonali qilib qurilgani tufayli o'quvchilarning bir qismi yana 4-5 kmga qatnab 21-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qiydigan bo'lishdi. Bu holatni e'tiborga olgan E.Rahimov viloyat hokimi E.O.Turdimovga yozma murojaat bilan chiqish qildi. E.O.Turdimovning 2019 yil 7-fevraldagi 10/663 sonli xatiga asosan murojaat Nurobod tuman XTB tamonidan o'rganib chiqilib, 2019-yil 12-fevraldagi 91-sonli xati bilan

Jom qishlog'i maorifi

tuman hokimligi va viloyat XTB boshlig'iga qo'shimcha xonalar qurish va alohida maktab maqomini berish taklifi bilan chiqdi.

2019-yil 20-fevralda Nurobod tumani hokimi o'rinbosari S.Ilmurodov imzosi bilan E.Rahimov nomiga yuborilgan №01/03-371 sonli xatda, 60 o'rinli filial binosini 116 mln. so'm miqdoridagi mablag' hisobiga mahalliy byudjet hisobidan 2019-yilda qurulishi rejalashtirilgani ko'rsatilgan.

Nurobod tuman hokimi F.Zoirovning 2019-yil 20-fevralidagi Samarqand viloyati hokimi E.O.Turdimovga yozilgan №45/01-19.08 sonli xatida qo'shimcha 60 o'quvchi o'rinli bino mahalliy byudjet hisobida 2019-yilda qurilishi ma'lum qilingan.

2019-yil 20-fevralda viloyat moliya boshqarmasi tamonidan M.Ismoilov imzosi bilan E.O.Turdimov nomiga yozilgan №9-6/29 sonli xatda 60 o'quvchi o'rinli bino qurilishi 2019-yilga rejalashtirilganligi sababli murojaatni nazoratdan chiqarish so'ralgan.

2019-yil 30-mayda viloyat XTB boshqarmasi boshlig'i Z.Karimov №1995 sonli viloyat hokimligiga yozgan xatida, qo'shimcha 60 o'quvchi o'rinli bino 334,2 mln.so'mlik loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilganligi, qurulish joriy yilning 24-mayida boshlanishi ma'lum qilgan.

Mazkur holatni e'tiborga olgan E.Rahimov viloyat hokimi E.O.Turdimov nomiga ijobiy yozma fikrnoma kiritgan.

2019-yil 8-iyunda E.Rahimovga Nurobod tumani hokimi o'rinbosari O.Bo'tayev №03/370 sonli xati bilan qo'shimcha bino qurushi 231,0 mln.so'm loyiha qiymati hisobida "Baho ishonch Nurbuloq" xususiy fermasi tomonidan amalga oshirilishi ma'lum qilingan.

Biroq 2019-yil 13-iyunda E.Rahimov Nurobod tumani hokimi F.Zoirovdan qurulish boshlanmayotgani sababini so'radi. Uning o'rinbosari O.Bo'tayev 2019-yil 15-iyunda №01-03/260

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

sonli xati bilan mablag‘ yo‘qligi tufayli qurilish bo‘lmasligini ma’lum qildi.

2019-yil 15-mayda E.Rahimov yana viloyat hokimi E.O.Turdimovga qayta murojaat qildi.

Murojaatga asosan 2019-yil 24-iyunda 21,70x15,40 o‘lchamda, 334,18 kv.m maydonda qurilish ishlari boshlandi.E.Rahimov shu kuni viloyt hokimi E.O.Turdimov nomiga minnatdorlik xatini yozib berdi.

Filial qo‘shimcha binosi qurulishi 2019-yil 30-iyulda “Baho ishonch Nurbuloq” xususiy fermasi tamonidan yakunlandi va qabul hayatining №5-son dalolatnomasiga asosan qabul qilindi.

Bino 333 687 337 so‘mga qurildi. Loyiha OOO “FIRUZ SAMARQAND PLAND loyiha instituti tamonidan bajarilgan. Loyiha hujjatlariga “TRIUMF PROYKT MCHJ” dan 2019-yil 11-iyulda №00150-07/01a-2019 sonli ekspertiza xulosasi olingan.

Bugungi kunda filial binosida 220 o‘quvchi ta’lim-tarbiya olib, muhtaram prezidentimiz, viloyat hokimi xalqparvar, prinsipial rahbar E.O.Turdimovga o‘zlarining samimiy qalb so‘zlarini izhor etmoqdalar.

OMONDARA MFYGA QARASHLI 19-MAKTAB

Omondara MFYga qarashli Beshbarmoq qislog‘idagi hashar yo‘li bilan qurilgan 7 yillik 19-maktab 35 o‘quvchi bilan 1961-1962-o‘quv yilida Ro‘zi Usmonov direktorligida ish boshlagan. 1990–yilda maktab 9-yillikka aylantirilgan. 2017-yild Qiyomov Hasan va Saidkomol Mallayevlarning sa’y-harakati bilan pishgan g‘ishtdan yangi qurilgan.

Maktabga Bo‘ri Usmonov, Jafar Sorimsoqov va Hasan Qiyomovlar rahbarlik qilishgan. Hozirda Saidkamol Mallayev

Jom qishlog'i maorifi

rahbarligida 46 o'quvchiga 15 nafar o'qituvchilar ta'lim-tarbiya berishmoqda.

Bu maktabning 9-sinfini bitirgan bolalarning bir qismi 20-va 21-umumiy o'rta ta'lim maktablarida, qolganlari Pastdarg'om, Nurobod tumanlari markazlari hamda Samarqand shahridagi ta'lim maskanlarida o'qishlarini davom ettirishadi.

OMONDARA MFYGA QARASHLI 20-MAKTAB

Omondara MFYga qarashli Cho'nqaymish qislog'idagi Qori-Niyoziy nomli 7 yillik maktabi 1962-yilda Anjirli qishlog'idagi uran konida ishlagan Ismoil maxsum Soxibov tashabbusi bilan qurilgan.

1961-1962-o'quv yilida 20-umumiy o'rta ta'lim maktabiga aylantirilgan va unga Bo'ri Chaqqonov birinchi direktor, Ro'zi Usmonov o'quv ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, 1976-yildan Abduraxmon Asomov, 1980-1995-yillarda Yunus Yusufovlar maktab direktori bo'lib ishlashgan. 2001 yilgacha Abdubayit Diyorov, 2005-yilgacha Jumaboy Xoliqulovlar rahbarlik qilishgan.

2005-yilda maktab pishgan g'ishtgan Yunus Yusufov, jomlik quruvchi Jo'raboy Yorqulov va Jom xo'jaligi raisi Qoplon Xudoyorovlarning sa'y-haakati bilan 300 o'quvchiga mo'ljallab qayta qurilgan. Hozirda maktabga Turdimurod Rasulov rahbarlik qilmoqda.

Shu maktabning fizika fani o'qituvchisi Rozzoq Botirov tashabbuskorligi tufayli Cho'nqaymish qishlog'i elining faxriga aylangan, o't-o'lanlari bilan aholiga xizmat qilayotgan, borgan mehmonlar dam olib keladigan ikkita o'rmon yaratilgan. Bu o'rmonlar hozirda Kattaqo'rg'on tumanidagi Saroyqo'rg'on hamda Samarqand viloyati o'rmon xo'jaliklari balansida turadi.

Kitobni yozishimda 19- va 20-maktablar tarixiga doir materialarni to'plab bergan, otasi va aka-ukalarida nazmga

tabiiy qobiliyatlari boʻlgan, maʼlumoti oʻrta Anvar Suyunov sheʼrlaridan namunalar keltiraman:

Ustozlar

Piri ustoz uyimda mehmon,
Naqadar baxtliman ushbu olamda.
Ustoz koʻngli ranjimasa oshyonimda,
Osmondan yogʻulur qanchalar rahmat.

Hurmatim balanddur ustozlarimga,
Qalbim nurga toʻlur shu onlarda,
Marhabo, tasanno aziz ustozlar,
Sizsiz bu olam qorongʻu albatta,

Nurafshon bu olam sizlar bor ekan,
Bizlar haqqimizga duo qilursiz,
Ilohim doimo aziz boʻl deya,
Ota-ona, ustoz qilmaydi taʼma.

Qandayin kirarmiz jannat bogʻiga,
Bu foniyl dunyoda qanchalar shogird,
Ustozin poyida boʻlmasa doim,
Oʻylamang toliblar gʻolibmiz deya.

Hazrati Alidan olsak namuna,
Ali aytadur sizni bizlarga,
Bitta harf urgatgan ustozing uchun,
Umrbod hurmatin qilsangda oz.
Choʻnqaymish
Choʻnqaymish soʻlim goʻsha,
Ishonmagan kelib koʻrsin,
Oʻrmonzori pista bodom,

Jom qishlog'i maorifi

Mehmondo'stdir ahli eli.
Tog'larida chashmalari, qori bor,
Odamlarining insofi-yu ori bor,
Bog'larida pishib kishmish,

Chorvachilikdir elning yumushi.
Yaylovlarida kishnaydi toyi,
Tog'lari ortidan chiqadi oyi,
Bahor fasli kurortdan yaxshi,
 Omon bo'lsin Cho'nqaymish soyi.
 Duo qilar yoshlarin qari,
 Har uyda bor farishtasi qarisi,
 Kelib turar eshonlari pirari,
Gullab yashnab turar,
Cho'nqaymishning yerlari-yu ellari.
Chinor buloq
So'fi Allahyor tiqqan tayoq,
 Bo'ldi bugun ulkan chinor ,
 Uzulmaydi hech ham odam,
 Ziyoratgoh chinor bo'liq.
 Chinor bo'liq, toza havo,
Quturganga bo'ldi davo,
Yer qa'ridan kelar suzib,
Ziyoratgoh chinor buloq.
Suvlari ham juda mayin,
 Shifo berar ichgan sayin,
 Iflos qilmang sizga tayin,
 Ziyoratgoh chinor buloq.
 Manzilgohi Cho'nqaymish tog'i,

Ko'ngilni xushnud aylagan cho'g'i,
Aroq odamlarni izlaydi chog'i,
Ziyoratgoh chinor buloq.

TASHABBUS QANOT QOQMOQDA

**yoxud yoshlarining porloq kelajagi uchun talpinayotgan
Jom**

**“Professor Pirnazar Davronov izdoshlari” nomli
olimpiadaning bosh maqsadi, elimizdan sifatli kadrlar
tayyorlashga hissa qo‘shish orqali,
Jomni BUYUK JOMGA
aylantirishdan iborat.**

Olimpeadaning bosh maqsadi deyilganda, Jom QFY tarkibiga kiruvchi Omondara, Tegirmonboshi, Girdiqo‘rg‘on, Jom, Do‘stlik va Sariko‘l mahalla fuqarolari yig‘inlari tarkibiga kiruvchi ellardan kadrlar tayyorlashga hissa qo‘shish nazarda tutilgan.

Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, har qanday mamlakatning taraqqiyoti yuksak ma‘naviyatli, bilimli va intellektual rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashga bog‘liq bo‘lib qoldi. Bunga AQSh, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur kabi ko‘plab rivojlangan davlatlar yaqqol misol bo‘ladi. Ayniqsa Yaponiya va Janubiy Koreyaning yer maydoni katta emas, unumdor yerlari ham kam, qazilma boyliklari deyarli yo‘q, biroq ilm-fan tufayli jahonda yetakchi o‘rinlarni egallab turibdi.

Mustaqillik yillarida iqtidorli, talantli yoshlarni aniqlash, ularga ko‘maklashish mamlakatimiz bo‘ylab keng quloq yozdi va o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008- yil 13-oktabrdagi "O‘zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risida"gi №226-sonli qarori, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining O‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi markazi, Xalq ta‘limi vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining 2009-yil 1-maydagi №18-Q/Q, 20, 13-

Jom qishlog'i maorifi

Q/Q-son qarori bilan tasdiqlangan "Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari o'quvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha Respublika olimpiadalarini o'tkazish va xalqaro fan olimpiadalarini ishtirokchilarini tanlash to'g'risida Nizom" hayotga tatbiq etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №175-sonli qarori g'oyalari asosida Samarqand viloyati Nurobod tumani Jom va uning atrofidagi qishloqlarning 14 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari doirasida "Professor Pirnazar Davronov izdoshlari" nomli maktab yoshlari ichidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularga ko'maklashish" assotsiatsiyasi nodavlat, notijorat uyushma sifatida tuzildi va davlatimizning yoshlar to'g'risidagi tegishli hujjatlari doirasida, jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsata boshladi.

Assotsiatsiya – tashkilotlar, muassasalar va shaxslar tomonidan mushtarak, umumiy maqsadni amalga oshirish uchun tuziladigan uyushma.

Respublikamizning "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" atalgan 2009- yildan boshlab professor Pirnazar Davronov o'zi o'qigan Nurobod tumani Jom qishlog'idagi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabining iqtidorli o'quvchilarini rag'batlantirish, ularni qo'llab-quvvatlash tashabbusi bilan chiqib, o'zining shaxsiy jamg'armasidan stipendiya va maxsus tayyorlangan sertifikat bera boshladi. Birinchi stipendiya va sertifikat 25-may 2009-yilda "O'zbek tili va adabiyoti" fani bo'yicha viloyat olimpiadasi g'olibasi bo'lgan Iroda Ernazarovaga 21-umumiy o'rta ta'lim maktabining so'nggi qo'ng'irog'iga bag'ishlangan anjumanda, keng jamoatchilik ishtirokida tantanali ravishda topshirildi. Bu qiz 2009-yilda 16-yoshda edi, 2022-yil 28 yoshida filologiya fanlari doktori bo'ldi

Bu xayrli tashabbus yildan yilga qanot yozib bordi. Unga qishloq faollari, maktab o'qituvchilari, ota-onalar jamoatchiligi, o'quvchilar katta qiziqish bilan qaray boshladilar. Dastlabki yillarda faqat viloyat olimpiadasida g'olib bo'lgan o'quvchilar rag'batlantirilib borilgan bo'lsa, keyingi yillarda 1). Prezident asarlari bilimdoni; 2). Qomusimiz bilimdoni; 3). Qishlog'imiz tarixi bilimdoni; 4). Ekologiya sohasi bilimdoni; 5). Kompyuter sohasi bilimdoni; 6). Eng mohir musavvir; 7). Eng mohir hunarmand; 8). Eng yaxshi sozanda; 9) Eng yaxshi xonanda; 10). Eng yaxshi insho; 11). Eng ko'p kitob o'qigan o'quvchi; 12). Eng chiroyli yozuv; 13) Eng ko'p she'r biladigan o'quvchi; 14) Ingliz tilidan eng ko'p so'z biladigan (boshlang'ich sinflar uchun); 15). Ingliz tili bilimdoni (yuqori sinflar uchun); 16) Matematikadan eng ko'p formula biladigan o'quvchi; 17). Fizikadan eng ko'p formula biladigan o'quvchi; 18). Kimyodan eng ko'p formula biladigan o'quvchi; 19). Eng kuchli sportchi. 20). O'zbek tili g'olibi; 21). Tarix fani g'olibi; 22). Davlat va huquq asoslari fani g'olibi; 23). Iqtisodiy bilim asoslari fani g'olibi; 24). Matematika fani g'olibi; 25). Fizika fani g'olibi; 26). Biologiya fani g'olibi; 27). Kimyo fani g'olibi; 28). Geografiya fani g'olibi; 29). Informatika fani g'olibi; 30). Chizmachilik fani g'olibi; 31). Ingliz tili fani g'olibi; 32). Rus tili fani g'olibi kabi nominatsiyalar bo'yicha talabgor bo'lib chiqqan yuzlab iqtidorli o'quvchilar ichidan faqat birinchi o'rinni egallagan g'oliblarga 100 000 so'mdan stipendiya va sertifikat, 2- va 3-o'rinni olganlariga sertifikat berila boshlandi. Maktabda iqtidorli o'quvchilar soni yildan yilga ortib borib, ular qiziqishlariga mos sohalar bo'yicha o'zlarini namoyon qila boshladilar. Nominatsiya turi yoki o'quv fani o'quvchining iqtidori, qiziqishi va o'zlashtirishiga mos ravishda o'qituvchilari ko'magida erkin tanlanadi. Hozirda "Professor Pirnazar

Jom qishlog'i maorifi

Davronov izdoshlari" nomli olimpiada 38 yo'nalishda 15-yil o'tkazildi.

Maktab o'qituvchilari o'zlari o'qitadigan fanga muvofiq yo'nalishda iqtidorli o'quvchilarni yillar davomida tayyorlaydigan bo'lishdi. O'qituvchilar tomonidan taklif etilgan iqtidorli o'quvchilar, sinflar kesimida, o'quv yili mart oyining birinchi yarmida, o'quv ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari rahbarligida, maktab pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlangan mutaxassis o'qituvchilar hay'ati tomonidan barcha nominatsiyalar va o'quv fanlari bo'yicha o'tkaziladigan maktab ichki olimpiadasida ishtirok etadi. Natijalar 100 ballik tizimda baholanadi. 76-100 oralig'ida ball to'plagan o'quvchilar iqtidorli o'quvchilar sifatida ro'yxatga olinadi va ular orasidan g'oliblar aniqlanadi.

Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularni keng jamoatchilik ishtirokida taqdirlash, hech kim kutmagan ijobiy natijalarga olib keldi. Masalan, birgina 2014-yilda 2"A" sinf o'quvchisi Nodirbek Boboyev bilan 9"B" sinf o'quvchisi Sadoqat Yaxshimurodovlar eng chiroyli yozish bo'yicha, 3"A" sinf o'quvchisi Sevinch Ubaydullaeva 130 ta she'r yodlab, 5"B" sinf o'quvchisi Boburjon O'ktamov 110 ta kitob o'qib, 6"D" sinf o'quvchisi Shohsanam Aynazarova 510 ta she'r yodlab, 8"A" sinf o'quvchisi Jamshid Abdixolov matematikadan 91 ta, 9"A" sinf o'quvchisi Zarnigor Ne'matillaeva fizikadan 57 ta, 9 "B" sinf o'quvchisi Sobira Shamsiddinova kimyodan 75 ta formulani yoddan to'g'ri yozib berib, 9"A" sinf o'quvchisi Xosiyat Temirova qishlog'i tarixini hammadan yaxshi bilib, 9"B" sinf o'quvchisi Latofat Komilova biologiya bo'yicha viloyat fan olimpiadasi g'olibi bo'lib, professor Pirnazar Davronovning shaxsiy stipendiyasi va sertifikatini olishga muyassar bo'ldilar.

Vujudga kelgan ijobiy tajriba doirasini kengaytirish, ommalashtirish maqsadida Jom va uning yaqin atrofidagi qishloqlar maktablariga ochiq xatlar bilan "Maktab yoshlari

ichidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularga ko'maklashish" assotsiatsiyasini tuzish to'g'risida murojaat qilindi. Assotsiatsiyaning nizomi Samarqand viloyati hokimligi Xalq ta'limi boshqarmasi mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlab chiqildi. Tayyorlangan nizom va iqtidorli o'quvchilarga beriladigan sertifikat namunasi nusxalari taklif berishlari uchun maktablarga tarqatildi, Nurobod tuman hokimligi va tuman Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga taqdim etildi. Hokimlik boshlangan mazkur tashabbusni ma'qulladi.

2015-yil 3-mayda oltita MFYlaridan tashkil topgan Jom qishloq mahalla fuqarolari yig'ini umumiy yig'ilishida "Maktab yoshlari ichidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularga ko'maklashish" assotsiatsiyasining Nizomi tasdiqlandi.

Ushbu yig'ilishda respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab Jom qishlog'ida amalga oshirilgan katta bunyodkorlik ishlarining yo'l boshchisi Eshturdi Rahimov rahbar, 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi Mahammadi Moshonov assotsiatsiyaning yillik olimpiadasini tashkil etish va o'tkazish kengashining raisi, shu maktab o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Normatov Umrqul va informatika fani o'qituvchisi Usmonov Eldorlar a'zolari etib saylandi.

Assotsiatsiya olimpiadasini tashkillashtirish va o'tkazish uchun to'rtta, ya'ni ekspert, nominatsiyalar va o'quv fanlari bo'yicha olimpiadani o'tkazish, olimpiada qatnashchilari ishlarini baholash, appelyatsiya hay'atlari maktablarning mutaxassis o'qituvchilaridan tuzildi. Ekspert hay'ati a'zolari o'quv dasturi doirasida maktablar tomonidan taklif etilgan va o'zlari tayyorlagan savollardan assotsiatsiya olimpiadasini o'tkazishga taqdim etiladigan topshiriqlar bazasini yaratadi.

Jom qishlog'i maorifi

2014-2015-o'quv yili boshida Omondara, Tegirmonboshi, Girdiqo'rg'on, Jom, Do'stlik va Sariqko'l MFYlari raislari, jomlik olimlar, jamoatchi insonlar, "Nurobod maktabgacha ta'lim va xizmat ko'rsatish kasb-hunar" kolleji va 14 ta maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlaridan iborat assotsiatsiya kengashi tarkibi shakllantirildi. Kengash yig'ilishida uning raisi, o'rinbosari va kotibi saylab olindi. Ushbu yig'ilishda "Maktab yoshlari ichidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularga ko'maklashish" assotsiatsiyasining nizomi, yillik ish rejasi, o'quv yili davomida o'quvchilar tayyorgarlik ko'radigan olimpiadaning yillik dasturi, kengashning a'zolari tasdiqlandi. Rejaga ko'ra barcha maktablarda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash hay'atlari tuziladi. Ular maktablarning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari rahbarligida ishlab, belgilangan 32 ta nominatsiya va o'quv fanlaridan sinflar bo'yicha iqtidorli o'quvchilarni mart oyining oxiriga qadar aniqlaydi. Bu o'quvchilar va ularni tayyorlagan ustozlari ro'yxati, maktab pedagogik kengashi yig'ilishining bayonnomasi tarzida 1-apreldan kechiktirmasdan, assotsiatsiya kengashining raisiga topshiriladi. Bayonnomada o'quvchining ismi-sharifi, sinfi, u qatnashadigan nominatsiya turi yoki o'quv fani nomi, o'qituvchisining ismi-sharifi va mutaxassisligining ko'rsatilishi shart ekanligi qat'iy belgilab qo'yiladi. Chunki assotsiatsiya olimpiadasini tashkil etish va o'tkazishning sifati ushbu bayonnomaga bog'liq ekanligi tajribada isbotlandi.

Mazkur ishlarning maktablar tomonidan belgilangan muddatda bajarilishini ta'minlash uchun assotsiatsiya kengashi raisi tomonidan ularga yangi o'quv yili arafasida olimpiada dasturi taqdim etiladi.

Aprel oyining birinchi yarmida kengash raisi, o'rinbosari va kotibi birgalikda maktablar pedagogik kengashlari bayonnomalari asosida olimpiadada qatnashadigan o'quvchilar

umumiy sonini, olimpiada o'tkaziladigan nominatsiyalar va o'quv fanlarni, ularning har birida ishtirok etadigan o'quvchilar sonini sinflar kesimida oldindan aniqlab, tegishli jadvallarda nominatsiyalar va o'quv fanlar bo'yicha sinflar kesimidagi o'quvchilar soniga mos olimpiada o'tkaziladigan xona raqami, bu xonada olimpiadani o'tkazadigan o'qituvchilarning ismi-shariflari va maktablari raqamlari ko'rsatiladi. Bu o'qituvchilardan biri xonaboshi bo'ladi. Olimpiadani o'tkazish hay'atlarining a'zolari ham maktablar pedagogik kengashlari bayonnomalarida taklif etilgan mutaxassis o'qituvchilardan tuziladi. Olimpiada o'tkaziladigan aprel oyining oxirgi yakshanba kuniga qadar, maktablar pedagogik kengashlari bayonnomalari bo'yicha to'plangan ma'lumotlar asosida yetarli sondagi sertifikatlar, 1-o'rin g'oliblari uchun pul mukofotlar tayyorlab qo'yiladi.

Olimpiada o'tkazishda foydalaniladigan yozma ishlar savollari va test variantlari majmui maktablarning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari rahbarligida mutaxassis o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarning sinflariga mos ravishda maktab darsliklari doirasida tuziladi. Tegishli nominatsiyalar va o'quv fanlariga doir tuzilgan savollar majmui assotsiatsiya kengashi raisiga maktab pedagogik kengashining bayonnomasi bilan birgalikda topshiriladi.

Assotsiatsiya kengashi raisi ekspert hay'ati a'zolari tavsiyasiga ko'ra, maktablar tomonidan berilgan savollar va test variantlari asosida har bir nominatsiya va o'quv fanga tegishli topshiriqlar joylangan 3 tadan konvertlar tayyorlab, ularni imzolab muhrlaydi.

Olimpiada yozma ish va test shaklida bo'ladigan xonalarga kengash raisi bir nechta a'zolar bilan birgalikda kirib, o'quvchilarga 3 ta konvertdan birini tanlab olishlarini taklif qiladi va undagi savollar bo'yicha olimpiada o'tkaziladi.

Jom qishlog'i maorifi

Olimpiadaning yozma ish yoki test shakliga qatnashadigan o'quvchilar 2 ta 12 varaqlik daftar, 2 ta zangori rangli ruchka, 1 ta chizg'ich bilan kelishadi. O'quvchilar xona boshi bo'lgan o'qituvchining doskadagi yozma ko'rsatmasi bo'yicha daftarlarining yuzini to'ldirishadi va savollarni daftarning tegishli betiga ko'chirib, ularga javob yozishadi.

Xonaboshi olimpiada reglamenti doirasida o'quvchilarning yozma ishlarini shifrlash uchun kengash raisiga topshiradi. Kengash raisi shifrlangan yozma ishlarni tekshirib baholash hay'atlariga taqdim etadi. Maktablar pedagogik kengashlarining bayonnomalari asosida tavsiya etilgan o'qituvchilardan shakllantirilgan bunday hay'atlar, tekshirilgan yozma ishlar yoki testlar ichidan 1-, 2-, 3-o'rinlarni yozma ishlarning yoki test variantlarning yuziga belgilab, imzolab, kengash raisiga topshiradi. Kengash raisi, muovini va kotibi birgalikda 1-, 2-, 3-o'rinlar belgilangan yozma ishlar daftarlari jildlarini kiydirib, shuningdek test variantlaridan g'olib o'quvchilarning ismi-shariflarini aniqlaydi va o'rinlar bo'yicha tartib bilan oldindan tayyorlab qo'yilgan jadvalni to'ldirishadi. Bu jadvalda g'olib o'quvchining ismi-sharifi, maktabi raqami, sinfi, g'oliblik o'ri, o'quv fani yoki nominatsiya nomi, rahbar o'qituvchining ismi-sharifi va uning mutaxassisligi o'z aksini topadi.

"Eng mohir musavvir", "Eng mohir hunarmand", "Eng yaxshi sozanda", "Eng yaxshi xonanda", "Eng kuchli sportchi" kabi nominatsiyalardan olimpiada namoyish qilish shaklida, eng ko'p kitob o'qigan, eng ko'p she'r biladigan o'quvchilarni aniqlash bo'yicha nominatsiyalarda esa suhbat, sinab ko'rish tarzida o'tkaziladi.

"Eng mohir musavvir", "Eng mohir hunarmand" nominatsiyalari ishtirokchilari o'zlari yillar davomida oldindan tayyorlab kelgan ishlarini namoyish qiladi va hakamlar tomonidan taklif etilgan yangi topshiriqlarni bajarishadi.

Eng ko‘p kitob o‘qigan, eng ko‘p she‘r biladigan, ingliz tilidan eng ko‘p so‘z yodlagan (boshlang‘ich sinflar uchun), eng ko‘p formula biladigan nominatsiyalar ishtirokchilari kitoblar, she‘rlar, inglizcha-o‘zbekcha so‘zlar lug‘ati va formulalar ro‘yxati yozilgan daftarlarini jyuriga taqdim etadi. Jyuri ushbu ro‘yxat asosida iqtidorli o‘quvchilarning bilimlarini tekshirib ko‘rib g‘oliblarni aniqlaydi.

Olimpiadaning yakuniy yig‘ilishida assotsiatsiya kengashi raisi 1-, 2-, 3-o‘rinlarni olgan o‘quvchilarning barchasi sertifikatlar bilan taqdirlanganligini, 1-o‘rin sohiblariga beriladigan pul miqdorini, assotsiatsiya kengashi yig‘ilishi qaroriga asosan homiylar tomonidan berilgan qimmatli sovg‘alarning kimlarga berilganligini e‘lon qiladi va shu joyda hurmatli insonlar ko‘magida, keng jamoatchilik ishtirokida, yaxshi istaklar bilan mukofotlar egalariga taqdim etiladi.

Jom va uning yaqin atrofidagi qishloqlar hududidagi barcha maktablar o‘quvchilarining, o‘qituvchilarining va ota-onalar jamoatchiligining assotsiatsiya ishiga qiziqishlarini oshirish maqsadida, olimpiada g‘oliblarining barcha mukofotlari ular o‘qiydigan maktablarning umumiy yig‘ilishida qaytadan topshiriladi. Jom maktablarida g‘oliblar alohida qator qo‘yilib dastlab madhiya yangraydi, so‘ngra maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan boshlovchi har bir iqtidorli o‘quvchi, uning erishgan yutuqlari, ustozlari to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib, musiqa sadolari ostida, ko‘tarinki ruhda, keng jamoatchilik ishtirokida, mukofotlar anjumanga kelgan hurmatli, ko‘pni ko‘rgan mehmonlar, mahalla faollari, ota-onalar va o‘qituvchilar tomonidan topshiriladi. Erishilgan yutuqlarning bunday tarzda e‘tirof etilishi iqtidorli o‘quvchilarni yangi marralar sari yetaklayotganligini, qolgan o‘quvchilarda o‘qishga ishtiyoq ortayotganligini, ota-onalar jamoatchiligida esa o‘z

Jom qishlog'i maorifi

farzandlarini, nabiralarini o'qishga undash keskin kuchayganligini tajriba isbotladi.

O'quvchilarga ular erishayotgan har qanday muvaffaqiyatlarini tasdiqlovchi diplom, sertifikat, faxriy yorliq kabi hujjatlarni alohida papkada saqlashlari, ularning kelajak hayotlarida asqatishi tushuntiriladi.

2015-yilda assotsiatsiya olimpiadasida 14 maktabdan 155 iqtidorli o'quvchi qatnashib, ulardan 39 nafari g'olib bo'ldi.

2016-yilda esa 289 nafar iqtidorli o'quvchi ishtirok etib, ulardan 71 nafari g'olib bo'ldi.

Bu raqam 2017-yilda 477 nafarni tashkil etdi. 1-o'rinni 103, 2-o'rinni 51, 3-o'rinni 66 nafar o'quvchi egalladi. Ularga jamoatchilik ishtirokida professor P.Z.Davronovning shaxsiy jamg'armasidan 9 million 600 ming so'm miqdoridagi tuhfalari taqdim etildi.

G'olib o'quvchilarning ism-sharifi, maktab raqami, nominatsiya yoki o'quv fani nomi, mukofot puli miqdori, uni olimpiadaga tayyorlagan ustozining ism-sharifi assotsiatsiya arxivida alohida papkada saqlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining assotsiatsiya olimpiadasida g'olib bo'lgan bitiruvchi sinf iqtidorli o'quvchilariga ko'maklashish maqsadida, ularning kelajakda o'qish xohishi bo'lgan litsey yoki kasb-hunar kollejlari tavsianoma beriladi.

O'quvchilarni olimpiadalarga tayyorlab muvaffaqiyatlarga erishayotgan o'qituvchilarni taqdirlab borish qo'yilgan maqsadlarning ushalishida katta omil bo'lib xizmat qiladi.

Assotsiatsiya kengashining raisi, mandat va ekspert komissiyalarining raislari faol xizmatlari uchun har yili professor P.Z.Davronovning shaxsiy jamg'armasidan 1 million so'm miqdorida rag'batlantirib boriladi.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Assotsiatsiya kengashining qarori bilan g'olib o'quvchilarning o'qituvchilarini ular ishlaydigan maktablarning toifa maoshlari belgilash hay'atlariga tavsiya etiladi.

Shuningdek, assotsiatsiya kengashining qarori bilan olimpiadada eng yuqori natijalar ko'rsatgan o'quvchilarning o'qituvchilari mamlakatimizning tegishli bayramlari oldidan rag'batlantirish uchun tuman hokimligiga va tuman XTBga yozma takliflar kiritiladi. Assotsiatsiya ishida faollik ko'rsatgan kengash a'zolari ham shunday rag'batlantirishlarga tavsiya etib boriladi. Masalan, assotsiatsiya kengashi tomonidan Nurobod tumani hokimi va tuman XTMFMTTEB ga assotsiatsiyaning 2015-yil olimpiadasida yuqori natijalarga erishib birinchi o'rinlarni egallagan quyidagi o'quvchilar va ularning o'qituvchilari rag'batlantirish uchun tavsiya etildi. Natijada, 21-umumiy o'rta ta'lim maktabining 300 ta she'rni yod olgan 4-sinf o'quvchisi Ubaydullaeva Sevinch, 155 ta kitob o'qigan 6-sinf o'quvchisi O'ktamov Bobur, 630 ta (5158 baytdan iborat 10317 misra) she'r yod olgan 7-sinf o'quvchisi Aynazarova Shohsanam, shuningdek, chiroyli yozish bo'yicha barcha o'rinlarni egallagan 45-umumiy o'rta ta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi Yuldosheva Mohinur, Qo'chqorova Fotima, Yo'ldosheva Rushanalar tuman o'qituvchilarining an'anaviy avgust kengashining ochilish yig'ilishida qayta sinab ko'rildi va ular Nurobod tumani hokimligi va tuman XTMFMTTEBning qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi. Bu o'quvchilarni tayyorlagan Omondara va Jom mahallalari hududlarida joylashgan 21-son umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Boymirzayev Alisher Toshimovich va 45-son umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Rahimova Soliha Xo'jamovnalar tegishli maktablar ma'muriyatlari bilan kelishilgan holda rag'batlantirishga tavsiya etildi.

Jom qishlog'i maorifi

Keyingi ikki yillik ishlar natijalari tahlilining ko'rsatishicha, bir o'quv yilida 4 "A" sinf o'quvchisi Ubaydullaeva Sevinch yodlagan she'rlari sonini 140 taga, 6 "B" sinf o'quvchisi O'ktamov Boburjon o'qigan kitoblari sonini 45 taga, 7 "D" sinf o'quvchisi Aynazarova Shohsanam yodlagan she'rlari sonini 160 taga oshirgan. Ushbu o'sish va qiziqib intilish jarayoni, tashkil etilgan assotsiatsiya o'zining oldiga qo'ygan maqsadiga erishayotganligidan darak beradi.

Tajribaning ko'rsatishicha, assotsiatsiya ishini shahar yoki tuman miqyosida emas, balki bir nechta, masalan, 4-5 ta mahallalar fuqarolar yig'inlari hududlarida joylashgan maktablar doirasida tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jomda yoshlarning tarbiyasi va ta'limini yanada yaxshilash maqsadida el orasida katta obro' qozongan, kamchilikni ko'rganda yuzing-ko'zing demasdan gapira oladigan insonlardan 2-3 kishi o'zlari yashaydigan guzarda joylashgan maktab bilan yaqin aloqada bo'lishadi. Masalan, 2017-yilda uzoq yillar davlat xo'jaligi direktori, tuman hokimligining mas'ul lavozimlarida ishlagan Mamat Abdullaev Omondara MFY raisi bilan birgalikda 21-umumiy o'rta ta'lim maktabining axborot-resurs markazini o'rganib adabiyotlarning yetishmayotganligini aniqlashdi. M.Abdullayev Nurobod tumani hokimligining tegishli idoralari bilan gaplashib maktab ARMni zarur adabiyotlar bilan boyitdi. Bunday insonlarning o'quv yili davomida maktab o'qituvchilarining darslariga kirib o'z maslahatlarini berishlari ijobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. M.Abdullayevning bunday shaxsiy tashabbusidan el ham, maktab jamoasi ham birdek minnatdor.

Viloyat XTB, tuman XTMTFMTTEB vakillari yoki maktab ma'muriyatining o'qituvchi darsiga kirishi bilan qishloqning hurmatli jamoatchilik vakillarining darslarga kirishi o'rtasida juda katta tafovut bor. Chunki viloyatdan, tumandan kelgan vakillar, maktab ma'muriyatining darslarga kirishi tabiiy hol

sifatida qabul qilinadi. Biroq jamoatchilik vakillarining maktab o'qituvchisi darsiga kirib "El sizga aziz farzandlarini ishonib berib o'tiribdi", mazmunidagi gaplari butunlay boshqacha ta'sir ko'rsatadi. Elning katta obro'siga erishgan bunday jamoatchilik vakillaridan maktablarda foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu o'rinda "Elning hurmatiga sazovor bo'lgan jamoatchilik vakillari"ni o'quvchilar ota-onalari jamoatchiligidan farq qilishini ta'kidlab o'tamiz.

Bunday tashkiliy ishlarni yo'lga qo'yib, ularni amalga oshirish o'quvchilarning o'qishga intilishiga, iqtidorli o'quvchilar sonining yildan yilga ko'payib borishiga, o'qituvchilarning tizimli ishlashiga, ota-onalarning ta'limga yaqinlashishiga, yoshlar ta'lim-tarbiyasida maktab, oila va jamoatchilik hamkorligining kuchayishiga olib keladi.

Yuqorida yozilgan ma'lumotlar 21-umumiy o'rta ta'lim maktabining ta'lim-tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, assotsiatsiya mandat komissiyasining raisi Umrqul Normatov yozgan maqoladan olingan.

Bu maqola mazmuni "Neksiya"sini sotgan professor maktab o'quvchilarini rag'batlantiryapti" mavzusida chop etilgan. – "XXI asr" gazetasi, 2018-yil 25- yanvar.

"OZODLIK" OVOZASI

2018-yil 2-fevral soat 09:34 da "Ozodlik" xalqaro radiosi "Samarqandlik professor o'quvchilarni rag'batlantirish uchun o'z "Neksiya"sini sotdi" nomli maqolani quyidagicha sharhladi: Samarqandlik professor Pirnazar Davronov o'zi o'qigan Nurobod tumani Jom qishlog'idagi 21-maktabning iqtidorli o'quvchilarini 2009-yildan beri qo'llab-quvvatlab kelmoqda ("XXI asr", 4-son). Professor fan olimpiadalari va turli tanlovlarda g'olib chiqqan iqtidorli o'quvchilarni bir necha yildan buyon shaxsiy jamg'armasidan rag'batlantirib kelmoqda. Professor Davronov "Neksiya" avtomashinasini sotib, pulini

Jom qishlog'i maorifi

to'lig'icha ta'limga investitsiya sifatida bankka omonatga qo'ygan. "Bilasiz, mablag' ba'zan topiladi, ba'zida esa yo'q. Ammo o'quvchilarning porlab turgan ko'zlari, ilmga tashna qalblarini bir dam bo'lsa-da e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Tashabbusimning bardavomligini ta'minlash uchun "Professor Davronov izdoshlari" nomi bilan maxsus assotsiatsiyani ro'yxatdan o'tkazish tashvishi bilan yugurib yuribman. Negaki, shu paytgacha bu savobli harakatni rasmiylashtirish oson kechmayapti. Bir necha idoralarga murojaat etdim, lekin haligacha amaliy natija yo'q", deydi savobtalab professor.

"Ozodlik"ning ushbu ma'lumotidan so'ng Samarqand viloyati hokimligi, Nurobod tumani hokimligi, Nurobod tumani XTMTFMTTEB tomonidan so'rab-surishtiruvlar avjiga chiqdi. Mendan Samarqand viloyati hokimining o'rinbosari Azamat Umarov tushuntirish xati yozib berishimni so'radi. Xuddi shu ma'noda Nurobod tumani hokimining o'rinbosari ham men bilan telefonda suhbatlashdi. Maqola muallifi Umrqul Normatovni Nurobod tumani hokimligiga va tumani hokimligi XTMTFMTTEBgacha chaqirib suhbatlar o'tkazishdi. XTMTFMTTEB boshlig'i Ravshan To'rayev barcha maktablar direktorlarini yig'ib, bundan keyin Davronov olimpiadasiga o'quvchi yubormayman, mazmunida tilxat yozdirib oldi. Oqibatda 500 nafar atrofidagi iqtidorli o'quvchilar orziqib kutib turgan olimpiada 2018-yilda o'tkazilmadi.

"Ozodlik" xalqaro radiosidan nega shunchalik qo'rqishimizning ma'nosini tushunib bo'lmaydi. Vaholanki, bizning olimpiadamiz bo'yicha "Ozodlik" xalqaro radiosida gapirilgan gaplarning barchasi to'g'ri.

Men "Maktab yoshlari ichidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularga ko'maklashish" uyushmasini rasmiylashtirish uchun 2015-yildan buyon tegishli barcha idoralarga murojaat qilganman. Jumladan, Prezidentimizga 2 marta

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

(Prezidentimizning o‘zlari ko‘rsin deb iltimos qilishimga qaramasdan murojaatim Devondan Samarqand viloyati Adliya boshqarmasiga yuborilavergan va ish shu joyda to‘xtayvergan), Vazirlar Mahkamasiga (telefon orqali masala ko‘rilyapti degan javob berishgan), Qonunchilik Palatasiga (rahmatnoma xat olganman), Xalq ta’limi vaziriga (javob bermagan), Adliya vaziriga (javob bermagan), Samarqand viloyatining sobiq 2 hokimiga (javob berishmagan), Samarqand viloyati XTB boshlig‘i Azamat Umarovga (javob bermagan), Samarqand shahar Yoshlar Ittifoqi Kengashiga (javob bermagan), Samarqand viloyati Adliya boshqarmasiga juda ko‘p marta (natijasiz bo‘lgan), Nurobod tumani hokimi B.Ergashevga (natija bo‘lmagan), Nurobod tumani XTMFMTTEBga (e’tibor qaratishmagan).

2018-yil 30-oktabrda Samarqand viloyati hokimi Turdimov Erkinjon Oqbo‘taevichga 2015-yildan buyon Jom va uning atrofidagi Ibrohim ota, Anjirli, Sariko‘l qishloqlaridagi 14 ta maktablar doirasida aprel oyida “Professor Pirnazar Davronov izdoshlari nomli maktab yoshlari ichidan iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ularga ko‘maklashish” uyushmasi yillik olimpiadasini o‘tkazib kelganligimni, 2017-yil Samarqand viloyati Adliya boshqarmasi norasmiy olimpiadani o‘tkazishga taqiq qo‘yganligini, ushbu savob ishni davom ettirishga amaliy yordam ko‘rsatishini so‘rab murojaat qildim.

2018-yil 14-noyabrda Samarqand viloyati hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati mudiri Nurmurotov Anvar Yaxshiboyevich men bilan telefonda bog‘lanib hokimning farmoyishi bilan bo‘lsa-da bundan keyingi yillarda olimpiadaning o‘tkazilishiga ruxsat berilishi, hokimning topshirig‘i shunday bo‘lganligini, ushbu masala yuzasidan

Jom qishlog'i maorifi

Samarqand viloyati Adliya boshqarmasiga tegishli topshiriq berilganligini ma'lum qildi.

Samarqand viloyati hokimligi vakillarining menga bergan ko'rsatmalariga asosan Samarqand viloyati Adliya boshqarmasiga 2018-yil 16-noyabr sanasi bilan internet tarmog'i orqali murojaat qildim. Boshqarmaning NNT bo'limi boshlig'i Abdulahatov G'ulom 19-24 noyabr oralig'ida har kuni men bilan 2-3 martadan telefon orqali suhbatlashib, maslahatlashib, ishim yuzasidan 300 dan ortiq hujjatlarni o'rganib chiqdi. Oxir-oqibat ishimni O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Nurobod tumani Kengashining 2019-yil ish rejasiga bitta yaxshi tadbir sifatida kiritib, olimpiadani rasmiy ravishda o'tkazish yo'lini topib berdi.

24- noyabr kuni soat 10:00 da O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Nurobod tumani Kengashining raisi Ziyatov Asomidin Keldiyorovich bilan meni Samarqand viloyati Adliya boshqarmasiga taklif qilib, o'zining ish joyida uchrashtirib, uchalamiz birgalikda suhbatlashib, ijobiy natijaga erishdik.

Abdulahatov G'ulom ishlarimizga muvaffaqiyat tilab 2019-yil aprel oyi oxirgi haftasining yakshanba kuni bo'ladigan olimpiadada, albatta, Adliya boshqarmasi vakillari ham qatnashadi deb, bizlar bilan xursand xayrlashdi.

2019-yil 18-fevralda "Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi SamDU huzuridagi Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi"da bo'lgan yig'ilishda Samarqand viloyati hokimining o'rinbosari Qobilov Rustam Rajabboyevich 2019-yildan boshlab olimpiadaning o'tkazilishi viloyat hokimligi nazoratida bo'lishini ma'lum qildi. 2019-yil 20-fevralda P.Z.Davronov ishtirokida Samarqand viloyati hokimining yoshlar siyosati ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari kotibiyati mudiri Nurmurotov Anvar Yaxshiboevich Nurobod tumani hokimining o'rinbosari Samad Xolberdievich Elmurodovga, Nurobod

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

tumani Xalq ta'limi bo'limi boshlig'i Rustam To'raev bilan birgalikda 2019-yil aprel oyining oxirgi yakshanba kuni Jom qishlog'idagi kollej binosida bo'ladigan olimpiadani o'tkazishga doir tegishli tadbirlarni belgilash topshirig'ini berdi.

Samarqand viloyati hokimi Turdimov Erkinjon Oqbo'tayevichning topshirig'i, Samarqand viloyati Adliya boshqarmasi NNT bo'limi boshlig'i Abdulahatov G'ulomning o'z vazifasiga mas'uliyat va ijodkorlik bilan yondashuvi natijasida 5 yillik sarson-sargardonlikka chek qo'yildi. 2019-yildan Jom va uning atrofidagi qishloqlar hududlaridagi maktablar doirasida "Professor Pirnazar Davronov izdoshlari" nomli maktab yoshlari ichidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularga ko'maklashish yo'nalishidagi bilimli va mahoratli o'quvchilar bellashuvi O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Nurobod tumani Kengashining ish rejasiga kiritilib, har yili o'tkaziladigan bo'ldi.

PROFESSOR PIRNAZAR DAVRANOV IZDOSHLARI

Shu o'rinda kitobga alohida "Professor Pirnazar Davranov izdoshlari" ruknini qo'shishni joiz topdik. Sababi yuqorida e'tirof etganimiz filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Iroda Ernazarovadan boshlab bu stipendiyaning egalari ham Jomlik olim va olimalar safini tobora kengaytirib, stipendiya oldiga qo'ygan maqsadiga erishayotganining isbotini ko'rishimiz mumkin. Quvonarlisi shundaki, bunday yoshlarimiz safi yildan yilga kengayib bormoqda.

UKTAMOV BOBURJON ILXOMJON O'G'LI



2002-yilda Jom qishlog'ida tug'ilgan, ayni paytda SamDU filologiya fakulteti talabasi. Prof.Pirnazar Davronov nomidagi stipendiyaning 5 karra sohibi,"Eng yaxshi kitobxon o'quvchi" ko'rik-

Jom qishlog'i maorifi

tanlovi g'olibi. Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetiga grant asosida o'qishga kirgan. Talabalar o'rtasida o'tkazilgan "Ma'rifat maydoni" respublika tanlovining respublika bosqichi 2-o'rin sohibi. 2022-yilda SamDU ning "Eng faol ijodkor talabasi".

She'rlari tuman va viloyat gazetalarida va "Yoshlik" jurnalida e'lon qilingan. "O'zbek tilininig nominativ va figurativ funksiyalari" mavzusida bir nechta ilmiy maqolalar muallifi.

Ayni paytda "Murod Muhammad Dost asarlarida ko'chma manoli so'zlarning pragmatik xususiyatlari" mavzusida ilmiy izlanish olib bormoqda.

ERNAZAROV BEHRUZ



2006-yil 20-iyulda Jom qishlog'ida tug'ilgan. 2012-2021-yillarda 21-umumta'lim maktabida tahsil olgan. O'qish davomida 2 marta professor Pirnazar Davronov nomidagi stipendiyaning sohibi bo'lgan. 2021-yilda Behruz 2019-yilda muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan

Toshkent shahridagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan IT maktabiga kirish sinovlarida yuqori natijalarni qayd etgan va maktabga qabul qilingan. Maktabda o'qish davrida Behruz Uzbekiston IT hamjamiyatining kichik bir bo'lagi sifatida "Developers Team" jamoasiga asos solgan va bu loyiha hozirgi kunda o'ttizdan ortiq yoshlarni birlashtirishgan holda faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, maktab o'quvchilarining loyihalarini ommaga taqdim qilish va oshxona faoliyatini baholash bo'yicha ishlab chiqqan loyihalari hozirgi kunda mamlakatimizning bir qancha maktablarida namunaviy

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

formatda ishlab turibdi. Xususan, Toshkent shahridagi Prezident maktabi ham bu loyihalarni sinab ko'rmqda. Bugungi kungacha Ernazarov Behruz bir qator xalqaro universitetlarning umumiy qiymati \$778.000 bo'lgan grant sohibi bo'ldi. U "Open Data Hackathon" faol ishtirokchisi, "Mirzo Ulug'bek Vorislari" 1-bosqich g'olibi, "Digital Generation 2023" ishtirokchisi, "56th International Mendeleev Chemistry Olympiad" volontyor, "Ibrat-2023" respublikaning eng iqtidorli yoshlarini birlashtirgan oromgoh qatnashchisi. Shuningdek, Behruz sportning Dzyudo turi bo'yicha 2 ta oltin va 1ta bronza medal sohibi, ingliz tilini bilish darajasi bo'yicha IELTS sertifikati sohibi hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini tekshirish uchun o'tkazilgan imtihon –

SAT – Scholastic Aptitude Test, "akademik baholash testi" da qatnashib (1400 ball) qo'lga kiritgan.

SAYIPOVA OZODA OYBEK QIZI 2003-yil 9-mayda Jom qishlog'ida tug'ilgan, ayni paytda O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi.

Prof. Pirnazar Davranov nomidagi stepindiyaning 2 karra sohibi. 2017-yil tarix fanidan, 2019-yil "Eng ko'p kitob o'qigan o'quvchi" nominatsiyalari bo'yicha e'tirofga sazavor bo'lgan.

Talabalar o'rtasida o'tkazilgan "Ma'rifat maydoni" ko'rik-tanlovi viloyat bosqichida 3-o'rin sohibi "Kitobxon talaba" ko'rik tanlovida 2-o'rin sohibi.

QARSHIYEVA O'G'ILOV 2004-yil 19-mayda Jom qishlog'ida tadbirkor oilada tug'ilgan. Onasi Aliqulova Surayyo ma'rifatli ayol sifatida uch qizni oliy ma'lumotli mutaxassislar qilib tarbiyalagan. O'g'iloy Qarshiyeva 21-maktabda tahsil olgan va ko'plab fanlardan yutuqlarga erishib kelgan, jumladan tarix, ona tili va adabiyot ingliz tili, informatika fanlarini qiziqish bilan o'rgangan va maktablar o'rtasida o'tkaziladigan

Jom qishlog'i maorifi

har yilgi musobaqalarda faol qatnashib kelgan. 6-sinfligida professor P.Davronov tashkil qilgan stipendiya sohibasi bo'lgan va bu yutuq uning ilm yo'lida yana bir karra yuksalishga da'vat bo'lgan. 2021-yil maktabni tamomlab Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali qoshidagi akademik litseyga o'qishga qabul qilingan. Ikki yil davomida litsey o'qituvchilari e'tiboriga sazovor bo'lgan. 2023-yil Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetiga talabalikka tavsiya etilgan. Hozirgi kunda shu fakultetning o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi Iroda Ernazarova bilan birgalikda ilmiy izlanish olib bormoqda va tilshunoslik sohasida maqolalar chop etgan.

Yuqoridagi yoshlar qatorini bugungi kunda respublikamizning eng mashhur oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan Komilova Latofat, Shamsiddinova Sobira, Qilichova Mashhura, Qahhorova Naima, Abdunazarov Siroj, Ubaydullayeva Sevinchlar kabi stipendiantlar bilan uzoq davom ettirishimiz mumkinligi mazkur stipendiyaning samarali natijalarini so'zsiz asoslaydi.

ShE'R EMAS BU KO'NGILDAGI ORZULAR

Odam borki, odamlarning sarvari,
Bunday odam, mamlakatning sardori.
Odam borki, odamlarning naqshidir,
Bunday odam, elu-xalqning baxtidir.

Shunday odam Jomda bor,
Uning nomi Eshturdi.
Eshturdiga esh bo'lib,
Bugun yoshlar otlandi.

Ilm, hunar otin minib,
Istiqbolga yuzlandi.
Ahli donish odamlar,
Duo aylang yoshlarni.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Jom dengizin bunyod etib,
Jom shahrini qurishsin.
Bunday buyuk ishlardan,
Faxrlanib yurishsin.

Eng muhimi ey do'stlar,
Har jabhada foydali,
Jomlik kadr bo'lishsin.

Shunday elim bor ekan,
Men boqiyman odamlar.
Kitoblarim qatida,
Avlodlarim qalbida,
Shogirdlarim dilida,
Jomliklarning tilida,
Mangu abad yashayman.

Jom nomini bayroq kabi,
Yuksaklarga ko'tarib,
Barchangizni hozirda,
Duo qilib yashayman.

Pirnazar Davronov, 3-yanvar 2017-yil.

BILIMLI VA MAHORATLI O'QUVCHILAR BELLASHUVIGA DOIR AYRIM XATLAR VA HUJJATLAR

Assalomu alaykum muhtaram Shavkat Miromonovich!

Jannatmakon O'zbekistonning bir oddiy fuqarosi sifatida
Sizni juda ham yaxshi ko'raman. Olib borayotgan ham tashqi,
ham ichki siyosatingizni mamlakatimizning boshqa fuqarolari
qatori men ham dildan qo'llab-quvvatlayman va oxirgi

Jom qishlog'i maorifi

nafasimgacha Siz, Prezidentimga, Jonajon Ona Vatanimga, xalqimga xizmat qilaman. Mamlakatimizning porloq kelajagi, xalqimizning baxt-u saodati uchun Allohdan belingizga quvvat, ko'zlaringizga nur, mustahkam sog'lik berishini so'rayman.

Mehnat faoliyatim davomida ko'p yillar dekan muovini va dekan lavozimlarida ishladim. 2009-yilda kafedra mudirligidan mehnat nafaqasiga chiqdim. Hozirgi paytda Samarqand qishloq xo'jalik instituti "Matematika va AKT" kafedراس dotsenti lavozimida ishlayman. 1994-yildan professorman.

Respublikamizning "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" atalgan 2009-yilda o'zim tug'ilib o'sgan, Siz yaxshi biladigan Jom qishlog'ining tarixi bitilgan 236 betdan iborat "Samarqand Jomi" kitobimni 7 yilda yozib tugatib, elimga tuhfa qildim. Shu yildan boshlab shaxsiy jamg'armamdan o'zim o'qigan 21-maktabning iqtidorli o'quvchilarini yaxshi o'qishga rag'batlantirish uchun stipendiya berib kelaman. 2009-yilda iqtidorli o'quvchi 1 nafar bo'lgan bo'lsa, mening stipendiyamga qiziquvchi iqtidorli o'quvchilar soni yildan yilga ortib bordi. Hech kim kutmagan ijobiy natijalarga erishdik. Masalan, 2014-yilda 4-sinf o'quvchisi Ubaydullaeva Sevinch 300 ta, 7-sinf o'quvchisi Aynazarova Shohsanam 10317 misradan iborat 630 ta she'r yod olib, 6-sinf o'quvchisi O'ktamov Bobur 155 ta kitob o'qib, 8-sinf o'quvchisi Abdixolov Jamshid 91 ta formulani yoddan yozib berib, stipendiyam g'oliblari bo'lishdi. Bunday gaplarni har bir iqtidorli o'quvchilarga nisbatan aytish mumkin.

Natijalar meni yangi marralar sari ilhomlantirdi. 2015-yilda Jom va uning atrofidagi qishloqlar 14 ta "Maktab yoshlari ichidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularga ko'maklashish" assotsiatsiyasini Jom QFY qoshida norasmiy tashkilot sifatida tuzdik. Assotsiatsiyaning olimpiadasini tashkil qilish va o'tkazish Nizomi va yo'riqnomasini Samarqand viloyati XTB xodimlari bilan birgalikda ishlab chiqdik. Bu Nizom 2015-yil 3-mayda Jom QFY qoshida norasmiy tuzilgan

“Maktab yoshlari ichidan iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ularga ko‘maklashish” assotsiatsiyasining umumiy yig‘ilishida muhokama etilib tasdiqlandi.

2015-yilda assotsiatsiyani rasmiy ro‘yxatga oldirish uchun Jom QFY, uning tarkibidagi 6 ta mahalla, 14 ta maktab jamoalari nomidan Samarqand viloyati adliya boshqarmasiga murojaat etildi. Boshqarma ta’lim bilan bog‘liq tashkilotni ro‘yxatga olish vakolati yo‘qligini ma’lum qildi. Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziriga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasiga, Samarqand viloyati hokimiga, Samarqand viloyati XTBga, Nurobod tumani hokimiga, Nurobod tumani sektor boshlig‘iga, Nurobod tumanidagi “Yagona darcha”ga, oxiri Prezident Devoniga murojaat etdik. Prezident Devoni murojaatimizni yana Samarqand viloyati adliya boshqarmasiga yubordi. Boshqarmaning mavjud qonunlar doirasidagi barcha og‘zaki va yozma tushuntirishlaridan qoniqish hosil qilganman.

Samarqand viloyati adliya boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari X.Xo‘jamqulovning 2017-yil 16-dekabrdagi №9-482/14-sonli xatida “davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan (hisobga olinmasdan) faoliyatini amalga oshirish – eng kam ish haqining o‘n besh baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘lishi to‘g‘risida ogohlantirilasiz” deyilgan. Ushbu xat mazmunidan kelib chiqqan holda 2018-yilda assotsiatsiya olimpiadasini o‘tkazish taqiqlandi.

Tanlov 1 yilda 1 marta aprel oyining oxirgi yakshanba kuni maktabda o‘qitiladigan 13 ta fan va 18 ta o‘quvchilarning qiziqishlariga mos yo‘nalishlar bo‘yicha o‘tkazilar edi. Olimpiadada 2015-yili 155 nafar iqtidorli o‘quvchi qatnashib, 39 nafari g‘olib bo‘ldi. 2016-yilda 289 nafar iqtidorli o‘quvchi ishtirok etib, ulardan 71 nafari g‘olib bo‘ldi. 2017-yilda esa 477

Jom qishlog'i maorifi

nafar iqtidorli o'quvchi qatnashib, ulardan 103 nafari 1-o'rinni, 51 nafari 2-o'rinni, 66 nafari 3-o'rinni oldi. Demak, 3 yil ichida iqtidorli o'quvchilar soni 1 nafardan 477 nafarga yetdi. Har yili g'oliblarga shaxsiy jamg'armamdan 3 million so'm miqdorida stipendiya beraman.

Maktablar orasida kuchayib borayotgan sog'lom raqobatni, fidoyi o'qituvchi va o'quvchilardagi intilish va ishtiyoqni ko'rib, "Neksiya" rusumli avtomashinamni sotib, pulini to'lig'icha yoshlarning porloq kelajagi uchun investitsiya sifatida "Milliy bank"ning Samarqand filialiga omonatga qo'ydim.

Omonatga qo'ygan pulim yillik foizining yarmini o'zim tashabbus ko'rsatib, tashkil qilgan olimpiadam g'oliblariga doimiy ravishda, men olamdan o'tib ketganimdan so'ng ham berib borilishini istayman. Buni avlodlarimga vasiyat qilib qo'yganman.

Olimpiadamiz kuni "Ota-onalarning mening bolam ham o'qimishli odam bo'larmikan", deya menga termulib turishlarini, iqtidorli o'quvchilarning porlab turgan ko'zlarini, ilmga tashna qalblarini bir zum bo'lsa-da unuta olmayman.

Ishimiz Oliy Majlis Qonunchilik Palatasining "Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi" tomonidan Samarqand QXI rektori nomiga 2015-yil 29-iyunda yozilgan №D-43-15-18-sonli rahmatnoma xatida "Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar samaradorligiga alohida bir shaxs tomonidan qo'shilyotgan ulkan hissa", – deb baholangan.

Bizning shahar va tuman markazlaridan uzoq qishloqlarda yashayotgan iqtidorli o'quvchilarni o'qishga, o'zlarini namoyon qilishlariga, kelajak hayotga ilhomlantirishimizning nimasi yomon? Nega uni 4 yildan buyon rasmiy uyushma sifatida ro'yxatga olish shunchalik qiyin kechmoqda?

Assotsiatsiyamiz faoliyati Respublikamiz matbuotida keng yoritilgan. Ulardan birini murojaatimga ilova qilaman.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Murojaat xatimni o'qiyotgan hurmatli vatandoshlarim, Sizlardan bu murojaatimni biror mas'ul tashkilotga yubormasliklaringizni iltimos qilaman. Chunki murojaatlarimizni u tashkilotdan bu tashkilotga to'rt yildan buyon yuborishlar hech qanday natija bermadi. Bu masalani faqatgina Prezidentimizning o'zi ijobiy hal qilishiga ishonaman.

Prezidentimizga murojaatimning qisqacha mazmuni hech qanday shaxsiy moddiy manfaatni nazarda tutmaydigan, davlatdan ham hech qanday mablag' ajratish so'ralmaydigan, faqatgina "Professor Davronov izdoshlari nomli maktab yoshlari ichidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularga ko'maklashish" assotsiatsiyasini rasmiy uyushma sifatida ro'yxatga olinishiga, shu asosda muhr va shtamp olishimga amaliy yordam ko'rsatilishini so'rashdan iborat.

Sizlarga hurmat bilan Davronov P.Z. 9-fevral 2018-yil.

Ushbu murojaat 2017-yil 11-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasiga borib tushgan va №275839-s/17-son bilan ro'yxatga olingan.

Samarqand viloyat adliya boshqarmasining fuqaro

Pirnazar Davronovga 2017-yil 16-dekabrda yo'llagan №9-482/14-sonli xati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasiga "Professor Davronov nomli maktab yoshlari ichidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularga ko'maklashish" assotsiatsiyasini rasmiy tashkilot sifatida ro'yxatdan o'tkazib, muhr va shtamp olishga amaliy yordam berishni so'rab yozgan murojaatingiz o'rganib chiqildi.

Murojaatingiz mazmunidan ushbu tashkilot, xayriya bilan shug'ullanuvchi hamda ta'lim yo'nalishi bo'yicha ish yuritishi ko'zlangan.

Jom qishlog'i maorifi

Bu borada, Sizga, ta'lim faoliyati litsenziyalanadigan faoliyat turiga kirishi, ushbu turdagi tashkilotlar mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ro'yxatga olinishi hamda litsenziya olish masalasida Vazirlar Mahkamasi qoshidagi maxsus komissiyaga murojaat etish huquqingiz borligi tushuntiriladi.

Shuningdek, NNTni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun ro'yxatdan o'tuvchi organga O'zbekiston Respublikasi "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunning 17, 21, 22-moddalari, "Nodavlat notijorat tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 4, 12, 13-bandlarida belgilangan hujjatlar taqdim qilingandan so'ng ro'yxatdan o'tkazish masalasi tegishli tartibda ko'rib chiqilishi ma'lum qilinadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 239-moddasiga asosan, "Nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, ularning vakolatxonalari va filiallarining davlat ro'yxatidan o'tmasdan (hisobga olinmasdan) faoliyatni amalga oshirishi eng kam ish haqining o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi to'g'risida ogohlantirilasiz.

Shuningdek, Siz huquqiy tushuntirishdan qanoat hosil qilganingizni va tushuntirish yuzasidan e'tirozingiz yo'qligini bildirdingiz.

Mazkur javob xatidan norozi bo'lgan taqdiringizda yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilish huquqlaringiz mavjudligi tushuntiriladi.

**Boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari
X.Xo'jamqulov**

**Assalomu alaykum, hurmatli Turdimov Erkinjon
Oqbo'tayevich!**

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Sizga 5 yildan buyon “Professor Davronov izdoshlari” nomli maktab yoshlari ichidan iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ularga ko‘maklashish” yo‘nalishida Nurobod tumani Jom va uning atrofidagi qishloqlarning 14 ta maktablari iqtidorli o‘quvchilari orasida 2009-2017 (9 yil davomida, 2018-yil adliya boshqarmasi norasmiy tashkilot sifatida taqiq qo‘ydi)-yillarda olimpiada o‘tkazib, ularni o‘zimning shaxsiy jamg‘armam hisobidan rag‘batlantirib kelganligim, biroq bu ishimni rasmiylashtirish imkoni bo‘lmayotganligi to‘g‘risida 30-oktyabr va 16-noyabr sanalari bilan murojaat qilgan edim. Sizning topshirig‘ingizga asosan hokimiyat vakili Anvar Nurmuratov men bilan suhbatlashib, hokimlikning buyrug‘i bilan bo‘lsa ham ishimni davom ettirishimga sharoit yaratilishini aytib, meni juda quvontirdi va viloyat adliya boshqarmasiga tegishli topshiriq berilganligini ma’lum qildi.

Samarqand viloyati adliya boshqarmasi NNT bo‘limi boshlig‘i Abdulahatov G‘ulom 19-24-noyabr oralig‘ida har kuni men bilan 2-3 martadan telefon orqali suhbatlashib, maslahatlashib ishim yuzasidan 300 dan ortiq hujjatlarni o‘rganib chiqdi. Oxir-oqibat ishimni O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi Nurobod tumani Kengashining 2019-yil ish rejasiga bitta yaxshi tadbir sifatida kiritib, olimpiadani rasmiy ravishda o‘tkazish yo‘lini topib berdi.

24-noyabr kuni soat 10:00 da O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi Nurobod tuman Kengashining raisi Ziyatov Asomidin Keldiyorovich bilan meni Samarqand viloyati adliya boshqarmasiga taklif qilib, o‘zining ish joyida uchrashtirib, uchalamiz birgalikda suhbatlashib, ijobiy natijaga erishdik.

Abdulahatov G‘ulom ishlarimizga muvaffaqiyat tilab 2019-yil aprel oyi oxirgi haftasining shanba kuni bo‘ladigan olimpiadamizda, albatta, adliya boshqarmasi vakillari ham qatnashadi, deb bizlar bilan xursand xayrlashdi.

Jom qishlog'i maorifi

5 yil davomida men ushbu masala yuzasidan murojaat qilmagan birorta tegishli tashkilot qolmadi. Jumladan, Sizdan oldingi 2 viloyat hokimlariga (hatto, javob ham berishmagan), Vazirlar Mahkamasiga, XT vaziriga, viloyat XTBga, Nurobod tumani hokimi va Xalq ta'limi bo'limiga, Prezidentimizga 2 marta, Samarqand viloyati adliya boshqarmasiga juda ko'p marta murojaat qilganman. Ko'rib turibmanki, rahbarlar fuqarolarning murojaatlarini qo'ldan ketguncha qabilida bir idoradan boshqasiga yo'naltiravermasdan, masalaga mas'uliyat, egallab turgan lavozimiga hurmat bilan yondashsa, uning yechimini topsa bo'lar ekan.

Erkinjon Oqbo'tayevich! Sizdek, shogirdlaringiz Anvar Nurmuratovdek, G'ulom Abdulahatovdek elim deb, yurtim deb yonib yashayotgan rahbar kadrlarning jannatmakon mamlakatimizda juda ko'p bo'lishini Allohdan iltijo qilib so'rayman. Mamlakatimizning taraqqiyoti, porloq kelajagi uchun bajarayotgan ishlaringizda Allohdan Sizlarga sog'lik, ko'zlaringizga nur, bellaringizga quvvat tilayman. Yozganlarimni oddiy bir fuqaroning dildan minnatdorchiligi, deb qabul qilishlaringizni iltimos qilaman.

Professor Davronov Pirnazar Ziyatovich. 26.11.2018-yil

Quyida keltirilgan tushuntirish xatimni adliya boshqarmasidan NNT bo'limi boshlig'i Farhod SamQXIga kelib menga qaytarib berdi va boshqa yumshoqrog'ini o'zi aytib turib yozdirib olib ketdi.

Samarqand viloyati Adliya boshqarmasiga fuqaro Davronov Pirnazar Ziyatovichdan tushuntirish xati

Mendan telefon orqali 2018-yil 17-fevral kuni ertalab soat 8:30 da Prezident Devoniga yuborgan murojaatim yuzasidan Samarqand viloyati Adliya boshqarmaga kelib ketishim so'raldi. Men, Sizlarga borganim bilan ishim hal bo'lib qolmasligini

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

bilaman. Shuning uchun tushuntirish xatimni yozma ravishda yuborayapman.

Prezidentimiz muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyevga 2018-yil 9-fevralda yuborgan murojaatimda Prezident devoni xodimlaridan mening murojaatimni biror tashkilotga, jumladan, Samarqand viloyati Adliya boshqarmasiga yubormasliklarini soʻraganman. Lekin yuborishibdi, na iloj.

Samarqand viloyati Adliya boshqarmasiga 4 yildan buyon juda koʻp marta murojaat etdim va mening ishimni hal etish Sizlarning vakolatingizga kirmasligi toʻgʻrisida ogʻzaki va yozma tushuntirishlar olganman.

Mening 10 yildan buyon uzoq qishloqlarda yashayotgan, jonajon Vatanimizning porloq kelajagiga xizmat qiladigan iqtidorli oʻquvchilarni aniqlash, ularni ham moddiy, ham maʼnaviy jihatdan ragʻbatlantirib, qoʻllab-quvvatlab kelayotganligimni Prezidentimizning shaxsan oʻzlari bilganlari taqdirdagina assotsiatsiyamizni rasmiy roʻyxatga oldirish mumkin degan fikrga kelib boʻlganman. Shuning uchun murojaatimni Sizlarga emas, shaxsan Prezidentimiz nomiga yoʻllaganman. Devondagi vatandoshlarim mening murojaatimni Prezidentimizga yetkazishni munosib koʻrishmabdi. Endi Respublikamizning nufuzli gazetalari orqali Prezidentimiz nomiga ochiq xat bilan murojaat qilaman.

Sizlar menga mamlakatimizning mavjud qonunlari doirasida kerakli tushuntirishlarni berdilaringiz, Sizlarga hech qanday eʼtirozim yoʻq.

Biroq murojaatim yuzasidan yozadigan javob xatlaringizga mening tushuntirish xatimdan nusxa qoʻshib yuborishlaringizni soʻrayman.

Fuqaro Davronov P.Z. 17-fevral 2018-yil.

Jom qishlog'i maorifi

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga

Assalomu alaykum bu xatni o'qiyotgan hurmatli vatandoshim!

Men o'qituvchiman, darslarimning shiorlari bor. Ularni talabalarim qalbiga singdirib boraman. Shiorlarimdan biri "Elim deb, yurtim deb yonib yashamoq, eng oliy saodatdir". Shogirdlarim mutaxassis bo'lib ishga borganlarida ham shu shior bilan ishlashlariga, yashashlariga o'zim o'rnak ko'rsataman. Chunki o'zim ham shu shior bilan yashayman.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2017-yilni "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili", deb e'lon qilgach, 2012-yildan buyon gazeta va jurnallarda chop etish imkoniyati bo'lmagan "Har qanday korrupsiyadan xoli talabalar qabulini amalga oshirish" va "Kitob o'qitmasdan yuksak ma'naviyatli va intellektual rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab bo'lmaydi" mazmunidagi ikki maqolamni 2017-yil boshida Prezident xalq qabulxonasiga yubordim. Natijada Prezident devonidan telefon orqali rahmat eshitdim, O'zR Xalq ta'limi vazirligi va Davlat test markazlaridan rahmatnoma xatlari oldim. Boshqa vatandoshlarim qatorida mening takliflarim ham e'tiborga olinib, mamlakatimiz bo'ylab sifatli talabalar qabulini amalga oshirish hamda kitobxonlik to'g'risida keng qamrovli ishlar boshlab yuborilganidan boshim ko'kka yetdi.

O'n yildan buyon ushalmay kelayotgan yana bir orzu-istagim bor. Shu orzumni ro'yobga chiqarishni Prezidentimiz va Sizlardan iltimos qilaman.

Sizlarga murojaatimning qisqacha mazmuni hech qanday shaxsiy moddiy manfaatni nazarda tutmaydigan, davlatdan ham hech qanday mablag' ajratish so'ralmaydigan, faqatgina "Professor Davronov izdoshlari" nomli qishloq "Maktab yoshlari ichidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularga ko'maklashish" assotsiatsiyasining rasmiy tashkilot sifatida

ro'yxatga olinishiga, shu asosda muhr va shtamp olishga amaliy yordam ko'rsatishlaringizni so'rashdan iborat.

2009-yildan boshlab Samarqand viloyati Nurobod tumani Jom qishlog'idagi o'zim o'qigan 21-umumiy o'rta ta'lim maktabining iqtidorli o'quvchilariga shaxsiy jamg'armamdan stipendiya berib kelaman. Bu ish yillar o'tgan sari o'zining ijobiy natijasini ko'rsatdi, ya'ni iqtidorli o'quvchilar soni yildan yilga ortib bordi. Natijada bu ishimiz 26 000 dan ortiq aholi yashaydigan tog'-cho'l hududdagi maktablar jamoalari, faol insonlar va ota-onalar jamoatchiligining takliflari va qo'llab-quvvatlashlari asosida Jom QFYga qarashli 6 ta mahalla hududidagi 14 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari doirasiga kengaytirildi. 2015-yilda Jom QFY qoshida "Maktab yoshlari ichidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularga ko'maklashish" assotsiatsiyasi tashkil etildi. Assotsiatsiyaning Nizomi Samarqand viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi bilan birgalikda ishlab chiqildi va 2015-yil 3-mayda Jom QFY umumiy yig'ilishida tasdiqlandi. Assotsiatsiyamizga tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishda Jom QFY muhri va shtampidan foydalanib turdik. 2016-yildan Jom QFY tugatildi.

Har yili aprel oyining oxirgi yakshanba kuni 1 marta "Nurobod maktabgacha ta'lim va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji"da o'tkazib kelinayotgan assotsiatsiya olimpiadasida birinchi o'rinni olgan iqtidorli o'quvchilarga kamida 3 million so'mni taqsimlab berib, ularning o'zlarini namoyon qilishlarini, o'qish, kasb-hunar egallashlarini rag'batlantiraman.

1-, 2-, 3-o'rinni egallagan o'quvchilarga maxsus tayyorlangan sertifikat beraman.

2015-yil assotsiatsiyaning olimpiadasida 155 nafar iqtidorli o'quvchi ishtirok etib ulardan 39 nafari g'olib bo'ldi. 2016-yilda esa 289 nafar ishtirokchidan 71 nafari g'olib, deb topilgan bo'lsa, keyingi yili 477 nafar iqtidorli o'quvchi ichidan 103

Jom qishlog‘i maorifi

nafari 1-o‘rinni, 51 nafari 2-o‘rinni, 66 nafari 3-o‘rinni egalladi. Ularga shaxsiy jamg‘armamdan 9 million 600 ming so‘m miqdordagi tuhfalarimni va sertifikatlarni taqdim etdim (bu ma‘lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar bor).

2017-yilda olimpiada ishiga yanada qulaylik bo‘lishi uchun uyushmamizga 4 600 000 so‘mga noutbuk va printer olib berdim.

Assotsiatsiyaning olimpiadasi Prezident asarlari bilimdoni, Qomusimiz bilimdoni, Vatanimiz va qishlog‘imiz tarixi bilimdoni, ekologiya sohasi bilimdoni, kompyuter sohasi bilimdoni, eng mohir musavvir, eng mohir hunarmand, eng yaxshi sozanda, eng yaxshi xonanda, eng yaxshi insho, eng ko‘p kitob o‘qigan, eng chiroyli yozadigan, eng ko‘p she‘r biladigan, ingliz tilini eng yaxshi biladigan, yoki matematika, yoki fizika, yoki kimyodan eng ko‘p formula biladigan, eng kuchli sportchi nominatsiyalar va umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘qitiladigan 13 ta fan bo‘yicha bo‘ladi. 31 ta nominatsiya va o‘quv fanlaridan o‘tkaziladigan assotsiatsiya olimpiadasi olis qishloq yoshlariga o‘zlarini qiziqtiradigan sohalari bo‘yicha o‘zlarini namoyon qilish imkonini bermoqda. Masalan, 7-sinf o‘quvchisi Aynazarova Shohsanam 10 317 misradan iborat 630 ta she‘rni yod olgan bo‘lsa, 7 sinf o‘quvchisi O‘ktamov Boburjon 189 ta, 3-sinf o‘quvchisi Ubaydullaeva Sevinch 110 ta kitob o‘qib olimpiada g‘oliblari bo‘lishdi. Bunday misollarni har bir iqtidorli o‘quvchi to‘g‘risida aytish mumkin.

Maktablar, fidoyi o‘qituvchilar va o‘quvchilardagi bunday katta ijobiy o‘zgarishni e‘tiborga olgan holda “Neksiya” rusumli avtomashinamni sotib, uning pulini to‘lig‘icha “Qishlog‘im yoshlarining porloq kelajagi uchun investitsiya” sifatida Respublika milliy bankining Samarqand filialiga qo‘yganman. Uning yillik foizining yarmini o‘zim tashkil etgan uyushma olimpiadasida g‘olib bo‘lgan iqtidorli o‘quvchilarga doimiy

ravishda (o'zim dunyodan o'tganimdan keyin ham) berib borilishini yo'lga qo'yishni istayman.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlayotgan ko'plab fidoyi o'qituvchilarni ham rag'batlantirishni yo'lga qo'yish kerak deb hisoblayman. 2009-yildan buyon iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda katta muvaffaqiyatlarga erishib kelayotgan 21-umumta'lim maktabining ona-tili va adabiyoti o'qituvchisi Boymurzayev Alisher Toshimovich, fizika fani o'qituvchisi Ochilov Xolmurod Shonazarovich, geografiya fani o'qituvchisi Usmonov Tursunali Halilovich, 45-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Soliha Rahimovalar 2015-2017-yillar assotsiatsiya olimpiadalariga tayyorlagan iqtidorli o'quvchilari erishgan yuqori natijalari bo'yicha assotsiatsiya umumiy yig'ilishining qarori bilan "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoniga tavsiya etish bo'yicha Nurobod tumani XTMTFMTTEB boshlig'i R.To'rayev va Samarqand viloyati XTB boshlig'i R.D.Yuldoshevlarga murojaat etildi. Biroq ular assotsiatsiyamizning rasmiy tashkilot emasligini, muhr va shtampi yo'qligini aytishib, bizlarning murojaatimizni rad etishdi.

Fan olimpiadalari, bilimlar bellashuvlari tuman, viloyat, respublika miqyosida o'tkaziladi va bir fan bo'yicha bir o'quvchi g'olib bo'ladi. Bizning olimpiadamiz esa shahar va tuman markazlaridan uzoq qishloq joylaridagi 6 mahallaning 14 ta maktablari doirasida ham quyi, ham yuqori sinf o'quvchilari uchun alohida-alohida o'tkaziladi. O'quvchilar maktabda o'qitiladigan o'quv fanlaridan tashqari, o'zlarini qiziqtirgan boshqa sohalar bo'yicha ham iqtidorini namoyon etishadi. Shahar va tuman markazlaridan uzoq qishloqlarda yashayotgan yuzlab o'quvchilarning iqtidorlarini e'tirof etib, ularni yuksaklikka parvoz etishga, mamlakatimizga, elimizga xizmat qilishga rag'batlantirishning nimasi yomon?

Jom qishlog'i maorifi

Assotsiatsiyamiz ishi matbuotda keng yoritilib qo'llab-quvvatlangan va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi "Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi" tomonidan ijobiy baholangan. Bu borada ularning maktubi ham bor.

Samarqand viloyati adliya boshqarmasi biz tuzgan assotsiatsiyani rasmiy tashkilot sifatida ro'yxatga olish Nurobod tumani hokimligining ishi desa, Nurobod tumani hokimligi (sobiq hokim B.Q.Ergashev) adliya boshqarmasi qilishi kerak deydi, biroq shu kunga qadar natija yo'q (Samarqand viloyati adliya boshqarmasining xati bor).

11- dekabr 2017-yilda Prezident xalq qabulxonasiga qilgan murojaatim yana Samarqand adliya boshqarmasiga yuborildi. 15-dekabr 2017-yilda adliya boshqarmasi yana ta'lim bilan bog'liq NNTni ro'yxatga olishga vakolatlarining yo'qligini menga qayta tushuntirib, bu ishni xalq ta'limi rahbariyati yo'nalishida hal etishimni maslahat berdi.

Ushbu masalada Adliya vazirligiga, Samarqand viloyati hokimligiga 2 marta, tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston liberal demokratik partiyasi Samarqand viloyati kengashi apparat rahbariga, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Samarqand viloyati kengashiga murojaat etib, xatlarimga yozma javob berishlarini iltimos qildim. Biroq murojaatlarimga javob olmadim.

Eng xavotirli joyi, olimpiadaga ayrim o'quvchilar maktablari, o'qituvchilari yoki ota-onalarining kuzatuvvisiz o'zlari kelishadi. Yo'l transport hodisasi va boshqa noxush holat ro'y berishi mumkinligi to'g'risida maktablar ma'muriyati har yili yozma ogohlantiriladi. Biroq natija yo'q. Maktablar ma'muriyati o'quvchilarining olimpiadaga kelib-ketishdagi xavfsizligini o'z zimmlariga olishlari, aks holda o'quvchilarini yubormasliklari kerak.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Assotsiatsiyamizni mamlakatimizning mavjud qonunlari doirasida rasmiy tashkilot sifatida ro'yxatga olish imkoniyati bo'lmasa, uning olimpiadasini qishlog'imizdagi "Nurobod maktabgacha ta'lim va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji" yoki 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi qoshida qonuniy o'tkazishimizga, unga keluvchi iqtidorli o'quvchilarning maktablar kuzatuvida bo'lishiga amaliy yordam ko'rsatishingizni iltimos qilaman. Buning uchun Samarqand viloyati XTB, Samarqand viloyati hokimligi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi" va Nurobod tumani XTMTFMTTEBlariga topshiriq berishlaringizni so'rayman.

Samarqand qishloq xo'jalik instituti "Matematika va AKT" kafedrasi dotsenti, liberal demokratik partiya a'zosi, professor Davronov Pirnazar Ziyatovich. 20-dekabr 2017-yil.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik
Palatasining deputati N.I.Muxtorovning 2015-yil 23-iyunda
Samarqand QXI rektori, professor T.E.Ostonaqulovga
yozgan №D-43-05-18-sonli xati**

Hurmatli Toshtemir Eshimovich!

Samarqand qishloq xo'jalik institutining "Oliy matematika va axborot texnologiyalari" kafedrasi dotsenti Pirnazar Ziyatovich Davronovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasiga maktab o'quvchilarini rag'batlantirishning ijtimoiy ko'rinishini takomillashtirishga oid yuborgan takliflari o'rganib chiqildi.

Davronov Pirnazar Ziyatovich Samarqand viloyati Nurobod tumani Jom qishlog'ida o'zi o'qigan 21-umumta'lim maktabida o'ziing shaxsiy jamg'armasidan o'quvchilarning bilimini oshirish, xorijiy tillarni o'rganish, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini va kelajakka ishonch ruhini kuchaytirish, shuningdek, kelgusida vatanimiz taraqqiyotiga o'z

Jom qishlog'i maorifi

hissasini qo'sha oladigan barkamol avlod bo'lib kamol topishlariga beminnat mehnatini qo'shib kelayotganligini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar samaradorligiga alohida bir shaxs tomonidan qo'shilayotgan ulkan hissa deb bilamiz.

Pirnazar Ziyatovichning bu boradagi shaxsiy o'rnak darajasidagi harakatlarini e'tirof etgan holda, unga mustahkam sog'lik, oilaviy tinchlik va xotirjamlik, vatanimiz ravnaqi yo'lidagi mas'uliyatli ishlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Hurmat bilan Deputat, Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi N.I.Muxtorov

Ushbu xat Samarqand QXIda 2015-yil 30-iyunda №2366-son bilan qayd etilgan va shu kuni institut ilmiy kengashida jamoaga rektor tomonidan o'qib eshittirilgan.

**Samarqand viloyati hokimligi Xalq ta'limi
boshqarmasiga**

Hurmatli Azamat Umarov!

2015-yilda Jom QFY qoshida "Maktab yoshlari ichidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularga ko'maklashish" assotsiatsiyasi tashkil etilgan. Aslida bu ishga 2009-yilda Samarqand QXI professori Pirnazar Ziyatovich Davronov o'zi o'qigan 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi misolida asos solgan edi. Tajriba natijalari yaxshi bo'lgach, bu tajriba Jom QFY hududidagi 14 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari doirasiga kengaytirildi. Qishloqdoshimiz professor P.Z.Davronov o'zining shaxsiy jamg'armasidan har yili assotsiatsiya olimpiadasida birinchi o'rinni egallagan iqtidorli o'quvchilarga 1 million so'mni taqsimlab berib, ularni o'qishga, kasb-hunar egallashga rag'batlantiradi. Masalan, 21-umumiy o'rta ta'lim maktabining iqtidorli o'quvchisi Ernazarova Iroda. U 2009- yilda iqtidorli o'quvchi stipendiyasini olgach, ota-onasi uning oliy o'quv yurtida o'qishiga ruxsat berishgan. Natijada, Iroda Ernazarova

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

SamDUning filologiya fakultetiga byudjetga o'qishga qabul qilinib uni imtiyozli diplom bilan bitirdi. Hozirda SamDUning byudjet asosida o'qiyotgan magistrantiga aylandi. Uning kelajakda fan doktori, professor bo'lishiga biz jomliklar ishonamiz.

Assotsiatsiyaning olimpiadasi Prezident asarlari bilimdoni, Qomusimiz bilimdoni, Vatanimiz va qishlog'imiz tarixi bilimdoni, ekologiya sohasi bilimdoni, kompyuter sohasi bilimdoni, eng mohir musavvir, eng mohir hunarmand, eng yaxshi sozanda, eng yaxshi xonanda, eng yaxshi insho, eng ko'p kitob o'qigan, eng chiroyli yozadigan, eng ko'p she'r biladigan, ingliz tilini eng yaxshi biladigan yoki matematika, yo fizika, yoxud kimyodan eng ko'p formula biladigan, eng kuchli sportchi kabi nominatsiyalar va umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan 8 ta fan bo'yicha bo'ladi. 30 dan ortiq nominatsiyalar va o'quv fanlaridan o'tkaziladigan assotsiatsiya olimpiadasi yoshlarga o'zlari qiziqadigan sohalar bo'yicha o'zlarini namoyon qilish imkonini bermoqda. Masalan, 7-sinf o'quvchisi Aynazarova Shohsanam 10 317 misrdan iborat 630 ta she'r yod olgan bo'lsa, 7-sinf o'quvchisi O'ktamov Boburjon 189 ta, 3-sinf o'quvchisi Ubaydullaeva Sevinch 110 ta kitob o'qishib olimpiada g'oliblari bo'ldi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Keyingi yillarda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlayotgan fidoyi o'qituvchilarni rag'batlantirishda amaliy yordam ko'rsatishingizni so'raymiz. Oddiy ko'krak nishoni shunday o'qituvchilarga berilmasa kimga beriladi?

Assotsiatsiya olimpiadasi har yili aprel oyining oxirgi yakshanba kuni o'tkaziladi.

Assotsiatsiyamizning nufuzini oshirish hamda mutaxassislardan tegishli maslahatlar olish uchun 2017-yil 30-aprel kuni o'tkaziladigan olimpiada anjumanida Samarqand

Jom qishlog'i maorifi

viloyati XTBDan vakillar qatnashishini Sizdan iltimos qilamiz.
Anjuman soat 8:00 da o'z ishini boshlaydi.

Sizga hurmat bilan Jom QFY hududidagi 27 mingga yaqin aholi nomidan Jom QFY raisi Jabborov H.

Assotsiatsiya kengashi raisi: Moshonov M.

“KELISHILDI”

O'zbekiston yoshlar ittifoqi

Markaziy Kengashi raisi

_____ Q.Q.Quranbaev

“ ” _____ 2018-yil

“KELISHILDI”

Nurobod tumani hokimi

_____ F.A.Zairov

“ ” _____ 2018-yil

“TASDIQLAYMAN”

O'zbekiston yoshlar ittifoqi

Nurobod tumani Kengashi raisi

_____ A.K.Ziyatov

“ ” _____ 2018-yil

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Nurobod tumani Kengashining
2019-yilga mo'ljallangan yillik

ISh REJASI

№ Amalga oshiriladigan ishlar ijro muddati. Mas'ullar
Talab etiladigan mablag' (mln. so'm) Kutilayotgan natija
Professor P.Z.Davronovning taklifi va homiyligini inobatga olib
Jom qishlog'i hududidagi 14 ta (16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23,
24, 25, 44, 45, 60, 63) umumta'lim maktablari o'quvchilari
o'rtasida “Bilimli va mahoratli o'quvchilar bellashuvi”ni
o'tkazish. Aprel Tuman Kengashi raisi, ta'lim muassasalari
bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis, “Kamalak” bolalar
tashkiloti raisi 5,0 mln.

(Homiylik mablagʻlari hisobidan 3.0 mln.). Hududdagi yoshlarning bilim olishga boʻlgan qiziqishlari ortadi. Bilimli va isteʼdodli yoshlar ragʻbatlantiriladi.

XALQI ENG KOʻP KITOB OʻQIYDIGAN MAMLAKAT – ENG YAXSHI MAMLAKAT

1930-yilda Jomning toʻrtta jamoa xoʻjaligi boshqaruv idoralari binolarining har birida aholi uchun xizmat qiladigan ikki xonadan iborat kutubxonalar ishlab turgan. Xonalarning birida kitoblar, ikkinchisida gazeta va jurnallar saqlanar, xonaning oʻrtasida poygohidan toʻrigacha ikki qator joylashtirilgan uzun stollarda shaxmat-shashkalar oʻynalar, kitobxonlikka doir tadbirlar oʻtkazilardi.

1950-yilda qishloqdagi jamoa xoʻjaliklari birlashtirilib bitta jamoa xoʻjaligiga aylantirilgan. Natijada 1954-yilda mavjud kutubxonalar ham birlashtirilib Omondara va Jom mahallalarida ikkita kutubxona tashkil etilgan. Bu kutubxonalarga Toshpoʻlat Boymirzayev, Mamash Boboqulov, Eshnazar Usmonov, Aʼzam Yoʻldoshev, Abdurasul Sattorov, Oʻktam Sattorov, Gulbahor Sattorova, Shafoat Suyarova, Xursand Boychayevlar mudirlik qilishgan.

1960-yillar atrofida qishloqdagi kutubxonalarda kattalar, oʻquvchilar, qishloq xotin-qizlarining kitobsevarlar toʻgaraklari navbat bilan ishlab turardi. Kutubxonalar doimo muxlislar bilan gavjum, kattalar va oʻquvchilar navbatda turib kitob olishar, yarim yil va yil yakunida ikki marta kitobxonlar konferensiyalari oʻtkazilib, eng koʻp kitob olib oʻqiganlar ragʻbatlantirilardi.

Kutubxonalarda siyosiy, badiiy, ayniqsa, xalq ogʻzaki ijodiga doir adabiyotlar koʻp boʻlardi. Kitobxonlarga qulay boʻlishi uchun yangi keltirilgan adabiyotlar alohida koʻrgazma javonlariga qoʻyilar, kundalik va oylik gazeta-jurnallar, ularning

Jom qishlog‘i maorifi

tikilgan yig‘malari tartib bilan stollar ustida ko‘rinarli qilib saqlanar edi.

Omondara guzaridagi kutubxonaning bir xonasida har kuni tushlikdan so‘ng shaxmat, shashka to‘garagi faoliyat ko‘rsatar, oy yakunida musobaqa o‘tkazilar, shaxmat bo‘yicha ko‘pincha maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Vali Normatov g‘olib bo‘lardi.

Bugungi kunda bu an‘analar qolib ketgan, kitobxonlar soni keskin kamaygan bo‘lsa-da, o‘sha kutubxonalar 2006-yilga qadar faoliyat ko‘rsatdi.

2006-yilda 22-mingdan ortiq aholiga ega bo‘lgan Jom qishlog‘idagi mavjud kutubxonalarning tugatilishi achinarli va kechirib bo‘lmaydigan hol bo‘ldi. Ajdodlar tomonidan bunyod etilgan bu tarixiy noyob va ko‘pchilik uchun o‘ta qadrli bo‘lgan kutubxonalar doimiy ravishda zamonga mos adabiyotlar bilan boyitilib borilishi, kerakli jihozlar bilan ta‘minlanishi, avlodlar uchun avaylab-asralishi, ziyo maskani bo‘lib aholiga xizmat qilishi kerak edi.

2017-yil 4-martda 30-Ulus saylov okrugidan saylangan viloyat kengashi deputati, Samarqand qishloq xo‘jalik instituti rektori, professor T.E.Ostonaqulovning “Nurobod maktabgacha ta‘lim va xizmat ko‘rsatish kasb-hunar kolleji”da saylovchilari bilan bo‘lgan uchrashuvida, uzoq yillar agronom bo‘lib ishlagan, qishloqning faol insonlaridan 87 yoshlik Berdimurod Ravshanov shunday deydi: “Ilgari qishlog‘imizda aholi uchun 4 ta kutubxona ishlab turardi. Hozirda aholi Jom soyi bo‘ylab 40 km dan ortiq masofada joylashgan. Qishlog‘imiz shahar va tuman markazidan uzoqda. Elektr ta‘minoti uzilishi tufayli televizor ko‘rmasak, gazeta-jurnal o‘qimasak, dunyodan bexabar qoldik. Bizlarning ham kitob, gazeta-jurnallar o‘qigimiz, jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-iqtisodiy jarayonlardan, mamlakatimizda bo‘layotgan o‘zgarishlardan xabardor bo‘lgimiz keladi. Deputatimiz sifatida qishlog‘imizda kutubxonalarni qaytadan

tashkil qilishga yordam ko'rsatishingizni barcha jomliklar nomidan so'raymiz".

2017-yil 13-sentabrda televedeniye "O'zbekiston" kanalining kechki ko'rsatuvida, Toshkent viloyati Angren shahridagi xalq qabulxonasi xodimlarining xalq bilan muloqot sayyor uchrashuvida qishloq joylarga gazeta-jurnallarning yetib kelmayotganligi, vaqtli matbuot nashrlarini va kitob sotish do'konlarining yo'qligi keksa avlod vakillari tomonidan ko'tarildi.

Jom MFY hududida joylashgan 23-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi bo'lib ishlagan, yoshi 70 ni qoralagan sinfdoshim Qayum Turg'unov suhbatlar asnosida, qishloqda o'qishga narsa topolmayman, yirtilgan gazeta parchasi qo'limga tushsa ham o'qib chiqaman, siz shaharda yashaysiz, menga kitoblar yuborib turing, dedi. Men unga o'zim ishlayotgan Samarqand QXIning juda boy axborot-resurs markazidan jomlik talabalar orqali ko'p yillardan buyon kitoblar yuborib turaman. Qayum Turg'unov badiiy kitoblar bilan bir qatorda veterinariya, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, yilqichilik, dehqonchilikka doir adabiyotlarni ham qunt bilan o'qib-o'rganib, qishloqdoshlarga tegishli maslahatlar beradigan bo'ldi.

Jomda umrini kitobsiz tasavvur qila olmaydigan va kitob o'qishni targ'ib qiladigan insonlar ko'p. Omondara MFYdan Berdimurod Ravshanov, Mamat Abdullayev, Obro'y Nazarov, Tegirmonboshi MFYdan Ismoil Ibragimov, E.Elmirzayev, Hasan Shomirov, N.Begimova, Girdiqo'rg'on MFYdan Davir To'qsonov, Orol Xolbozorov, Qodir Hazratqulov, Jom MFYdan Jom masjidi imom xatibi mulla Abbos Ravshanov, Qayum Turg'unov, Zaynab O'sarova, Salima Bobontoyeva kabilar shular jumlasidandir.

Jom qishlog'i maorifi

2017-yil 20-mayda Samarqand servis institutida rektor vazifasini bajarib turgan, professor Qulmamat Mirzayev institut axborot-resurs markazi fondidan Nurobod tumani maktablariga adabiyotlar tuhfa etishdek savobli ishni amalga oshirdi. Jumladan, institut vakillari tomonidan Jomdagi 63-umumiy o'rta ta'lim maktabiga 176 dona kitob qishloq aholisi, o'qituvchilar, o'quvchilar ishtirokida tantanali ravishda taqdim etildi. 2017-yil 17-avgustda mening xonadonimda bo'lgan suhbat chog'ida shu maktabning direktori Isomiddin Jabborov shunday dedi: "Bir kuni qarasam maktabga 5 nafar ayol kelyapti. Biror norozichilik paydo bo'libdi-da deb, xavotirlanib ichimga muz kirdi. Shunda maktabimiz ARM mudirasi Zumrad Xo'jaqulova ular kitob olishgani kelishyapti, deganidan so'ng o'zimga keldim. Oldin ham bir-ikkita odamlar kelib maktab ARMdan kitob olib turishardi. Biroq servis instituti tomonidan taqdim etilgan kitoblarni aholi ishtirokida qabul qilganimizdan buyon har kuni o'nlab qishloqdoshlar, ayniqsa, ayollar kelib kitob olib o'qiydigan bo'lishdi. Ushbu holat qishloqning Hafrin guzari aholisining kitobxonligiga, maktab bilan ota-onalar aloqasining yanada yaxshilanishiga olib kelmoqda".

2018-yil 1- aprelda Jom MFY binosida Samarqand viloyati Nurobod tumani prokurori Shuhrat Saparovich Xolmirzayevning sa'y-harakati bilan kutubxona tashkil qilindi. Kutubxonaga o'lchamlari 6x2 metr bo'lgan kitob javonlari va 672 dona adabiyotlar tuhfa etildi. Saxovatli insonlarning hadyalari hisobiga kutubxonadagi kitoblar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Bu kutubxonaning birinchi mudirasi Gavhar Norboyeva bo'ldi. 3 nafar farzandini yolg'iz tarbiyalayotgan bu ona ishli bo'lib, aholiga xizmat qilmoqda.

Mahalla fuqarolar yig'ini binosida kutubxonaning bo'lishi to'g'ri amaliyot ekanligini hayotning o'zi ko'rsatdi. Boisi MFYga turli yumushlar bilan keladigan aholi soni ko'p bo'lib, ularning aksariyat qismi kutubxonaga kirib kitoblar olishar ekan.

Ushbu ijobiy jarayon kelajakda MFY binolarini loyihalashtirishda kutubxona va qiroatxona bo'lishini ham e'tiborga olish zarurligini taqozo etmoqda.

Biz o'tkazgan so'rovnomalar, suhbatlar va kuzatishlarimiz kitob o'qimaydigan odamlar soni kam emasligini, Samarqand shahridagi aholi uchun mo'ljallangan kutubxonalardagi abonentlar soni ham bugungi kun talablari darajasida emasligini ko'rsatdi.

Mavjud holatni e'tiborga olgan holda, joylarda kutubxonalar uchun yangi binolarni qurish, jihozlash, mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash, ularga va boshqa xo'jalik xodimlariga maoshlar kabi ko'plab ortiqcha xarajatlar qilish o'rniga, mamlakatimizdagi barcha ta'lim muassasalari ARMLarini o'quvchilar va katta yoshdagi insonlar uchun mo'ljallangan adabiyotlar bilan boyitilib, ulardan yaqin atrofdagi aholining tegishli tartibda foydalanishlarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jom qishlog'i tajribasi mahalla fuqarolar yig'inlari binolarida kutubxonalar tashkil etish o'rinli ekanligini ko'rsatdi. Davlat byudjetidan keraksiz harajatlarning oldini olish maqsadida, mavjud sharoitni atroflicha o'rgangan holda aholi uchun zarur nuqtalarda alohida kutubxonalar, kitob do'konlari qurilsa to'g'ri bo'ladi. Masalan, Jom qishlog'i o'rtasida bunyod etilgan 2-son Jom madaniyat va aholi dam olish markazi binosida katta markaziy kutubxona, har bir maktab va mahalla fuqarolar yig'inlarida kutubxonalar, har bir mahallada kitob do'konlari tashkil etish maqsadga muvofiq va yetarli bo'ladi.

Jom qishlog'ida mo'jaz bo'lsa-da, kutubxonalar tashkil etishga doir ishlar amalga oshirilmoqda.

Jom qishlog'i maorifi

JOM JOME MASJID KUTUBXONASI VA "ESKI MASJID-MADRASA"NI KUTUBXONAGA AYLANTIRISHGA DOIR HUJJATLAR

Quyida O'zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakili muhtaram Nuriddinxon domla Islomov va Imom Buxoriy xalqaro markazi direktori, t.f.n. Shovosil Yunusovich Ziyodovlar nomlariga yozilgan xat mazmuni keltirilgan:

"Hidoyat sari" va "Ziyo" teleko'rsatuvlaridagi boy, o'ta fayzli, ko'rkam kutubxonani ko'rganimda Buyuk Yaratuvchi mening qalbimga o'zim tug'ilib o'sgan qishlog'im jome masjidida kutubxona tashkil etishdek xayrli ishni soldi. 2009-yil 17-aprel juma kuni Samarqand viloyati Nurobod tumani Jom qishloq jome masjidiga kitob javoni, xontaxta, lavh, kitoblar ro'yxatini qayd qilish daftari va bir qancha adabiyotlar taqdim etildi.

Shunday qilib imom-xatib, namozxonlar, qishloqning faol insonlari ishtirokida Jom jome masjidida diniy, tarixiy va dunyoviy ilmlar kutubxonasiga asos solindi.

Ushbu tadbirga doir o'z fikr-mulohazalaringizni bildirishlaringizni so'rayman.

Samarqand qishloq xo'jalik instituti professori Davronov Pirnazar Ziyatovich. 5-mart 2016-yil.

Mazkur xat yuzasidan olingan javoblar

Bismillahir rohmanir rohim. Qur'oni karimning ilk nozil bo'lgan oyatida "O'qi", deya xitob qilib, insoniyatni ilm olishga buyurgan Alloh taologa hamdlar bo'lsin.

"Ilm talab qilish har bir muslim va muslimaga farzdir", deya har bir kishining ilm o'rganishi lozimligini uqtirgan Rasululloh sallollohu alayhi vassallamga salotu salomlar bo'lsin.

Avvalambor, har bir masjidda Din ishlari bo'yicha qo'mitadan, O'zbekiston musulmonlari idorasidan, saxovatpesha insonlar tomonidan tuhfa etilgan Hanafiy

mazhabiga doir va boshqa ilmiy, badiiy kitoblardan, risolalardan iborat kutubxona bo'lishi lozim.

Sizning boshlagan bu xayrli ishingiz diniy idora tomonidan berilgan topshiriqqa amal qilish bilan bir qatorda, insonlarni, xususan, namozxonlarni ilm olishga chorlash, ma'rifat nurini tarqatish yo'lidagi katta bir xizmatdir. Bu ishingizni biz yuksak baholagan holda, sizga o'zimizning katta minnatdorchiligimizni bildiramiz va kutubxonaning ishlariga omadlar tilaymiz.

Qur'oni karimda: "Ehson (ezgulik)ning mukofoti faqat ehson (ezgulik)dir" (Ar-Rohman, 60), deya ta'kidlangan. Sizning amalga oshirayotgan bu ezgu ishingiz Alloh taolo tomonidan munosib taqdirlanishini, manfaati keng ommaga yetishini, samarasidan yurtdoshlarimizning ilmlari ziyoda bo'lib, qalblari ma'rifat nuri ila to'lishini so'rab, duoyi-xayrlar qilib qolamiz.

O'zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakili Nuriddinxon domla Islomov. 7-mart 2016-yil.

Imom Buxoriy xalqaro markazi direktori, t.f.n.Sh.Yu.Ziyodov xati.

Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "Biz ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi". Shunday ekan professor P.Davronovning tashabbusi bilan jome masjidi qoshida kutubxona ochilishi namozxon va yoshlarning buyuk ajdodlarimizning bebaho ilmiy merosidan bahramand bo'lish imkonini beradi. Xalqimiz azaldan ilm-ma'rifat va ziyoga intilib kelgan va tom ma'noda butun dunyoga ana shu ezgu ish va amalni nashr etish uchun ulkan xizmatlarni amalga oshirib kelgan. Payg'ambarimiz (sav): "Beshikdan qabrgacha

Jom qishlog'i maorifi

ilm izlang", deb marhamat qilgan bo'lsalar, Imom Buxoriy (ra): "Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay" deb aytganlar. Bu bir-biriga hamohang fikrlar barchani dunyoda ilm va ezgulikka da'vat qilib kelmoqda. Sizning ma'rifat ulashishdek ulkan ishni boshlashingiz xayrli ishlar sirasiga kiradi. Zero, Yurtboshimiz aytganidek, xayrli ishning mukofoti faqat yaxshilikdir. Ushbu xayrli ishlaringizga muvaffaqiyat tilaymiz hamda bu xayrli ishni yaratgan Zotdan bardavom etishini so'rab qolamiz.

9-mart 2016- yil.

Izoh: bu ikki xatning asli Jom qishlog'idagi jome masjidida saqlanmoqda.

Jom jome masjidi kutubxonasini adabiyotlar bilan boyitishda imom-xatib Abbas Ravshanov, mulla Abdufattoh Tursunov, Ismoil Jabborov, Turum Xo'jaqulov kabi ko'plab namozxonlar jonbozlik ko'rsatishmoqda. Eng quvonarlisi, Imom Buxoriy masjididagi juma namozlaridan birida imom-xatib ma'ruzasidan Jom qishlog'i jome masjidida kutubxona tashkil etilganligini eshitgan Payariq shahridagi Usmon Nosir nomli ko'cha, 34-xonadonda istiqomat qiluvchi namozxon Zafar Muhammadiyev 220 000 so'mlik qiymatdagi quyidagi 5 dona noyob kitoblarni masjidga tuhfa qilgan:

1. Ziyovuddin Rahim. Qur'on – qalblar shifosi. -Toshkent, 2014. - 360 b.

2. Payg'ambarlar tarixi. -Toshkent, 2014. - 444 b.

3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. -Toshkent, 2015. -704 b.

4. Poyon Ravshanov. Amir Temur sulolasi. -Toshkent, 2014. -656 b.

5. Sodiqov Hamdam. Amir Temur hayotidagi g'aroyibotlar. -Toshkent, 2016. 384 b.

Barcha jomliklar bu saxiy insonga va uning oila a'zolariga faqat yaxshiliklar tilaydi.

2015-yil 27-aprelda P.Z.Davronov tomonidan tuhfa etilgan adabiyotlar asosida Jom QFY va Jom MFY binolarida ham kichik kutubxonalar tashkil etildi. Bu kutubxonalar jomliklar bilan bir qatorda boshqa saxovatli insonlar tomonidan tuhfa etilayotgan adabiyotlar bilan yildan yilga boyib bormoqda va ulardan aholi foydalanmoqda.

Bulardan tashqari P.Z.Davronov 2017-yil 30-aprelda o'zining shaxsiy kutubxonasidan "Nurobod maktabgacha ta'lim va xizmat ko'rsatish kasb-hunar" kolleji axborot-resurs markaziga 500 donadan ortiq adabiy, tarixiy va ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tuhfa etdi.

Jom qishlog'ining Tegirmonboshi MFY hududida joylashgan "Eski masjid" binosi 1900-yilda Karimovul qishlog'ida yashagan Esonboy bobo, Ya'qub karvon kabi insonlarning mablag'lari hisobidan, Muhiddin maxsum bobo boshchiligida hashar yo'li bilan qurilgan. 2018-yil 27-iyulda 88 yoshli Berdimurod bobo Ravshanovning bergan ma'lumotiga ko'ra, Ikkinchi jahon urushi boshlangan yillarda masjid hujralarining sharqiy qismida rais Rozzaq Tillayev rahbarligida "Qizil qahramon" jamoa xo'jaligining boloxonali idorasi binosi qurilgan. R.Tillayev o'z arizasiga ko'ra 1943-yilda urushga ketgach, uning o'rniga Ochil Rahimov raislik qilgan. Masjid oldida katta hovuz bo'lib, uning atrofida behi daraxtlari o'sib turgan katta chorbog' bo'lgan. Hovuzning sharqiy tomonida masjidning qator hujralari joylashgan. Hujralarda mullavachchalar yashab tahsil olishgan.

Sobiq sho'ro davri boshlanishi bilan masjid-madrasa yopilgan. Uning oxirgi mullavachchalaridan biri Omondara mahallasi hududida yashagan mulla Ahmad Shomahmatov Muhiddin maxsum bobodan ilm o'rgangan va 1930-yilda Jomning yuqori qishlog'ida maktab ochib, shu atrofdagi guzarlar bolalarini o'qitgan.

Jom qishlog'i maorifi

2018-yil avgust oyida Qo'chqorbuloq qishlog'ida istiqomat qiluvchi, tarix fani o'qituvchiligidan nafaqaga chiqqan 91 yoshli Toshpo'lat bobo Sherqulov bergan ma'lumotga ko'ra, shu qishloqdan Norqulov Musurmon va O'taev Sherqul, Umakay qishlog'idan Umirov Abdunazar bobolar Jomdagi masjid-madrasada tahsil olishgan.

Masjid-madrasa hujralari 1937-yillarda Kattaqo'rg'on tumani Xalq ta'limi rahbariyati tomonidan Jomga yuborilgan o'qituvchilarga yashash joyi sifatida berilgan. Jumladan, jamoa xo'jaligi binosining boloxonasida tatar millatiga mansub Guljahon Latipova, qizi Luiza va jiyanlari Sagida bilan yashab, hozirgi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qituvchilik qilishardi. Jamoa xo'jaligi idorasi binosi 1950-yilda Jom qishloq feldsherlik punktiga aylantirildi. 1960-yilda Jom statsionar shifoxonasi tashkil etilgach, masjid-madrasaning hujralaridan oshxona, ko'mirxona va boshqa xo'jalik ehtiyojlarida foydalanildi.

1935-yillar atrofida masjid-madrasa binosi hozirgi Omondara va Tegirmonboshi MFYlari hududlarida joylashgan ikki jamoa xo'jaliklari aholisiga xizmat qiladigan choyxonaga aylantirilgan. Bu joyda saylovlar, anjumanlar o'tkazilgan, partiya va komsomollar targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishgan, kechga yigitlar, qizlar va ayollar birgalikda hovuz atrofida o'yin-kulgu qilishgan, yoshi kattalar choy ichishib, suhbatlashishib dam olishgan. Bunday tadbirlar uchun joy torlik qilgach, hovuz ko'mib tashlangan. Umuman olganda masjid, uning oldidagi hovuz bo'yi va daraxtzor katta bog', qishloq aholisi ongini sobiq sovet tuzumiga mos o'zgartirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot maskaniga aylantirilgan.

Masjid-madrasa binosidan 1938-yilda Kattaqo'rg'on shahridagi yog'-moy kombinati ishchi-xizmatchilari farzandlarining dam olish oromgohi, 1950-yildan separator o'rnatilib jamoa xo'jaliklarida sog'ilgan sigirlar sutining yog'ini

ajratib olishda ishlatilgan. Bir necha marta savdo do'konlari sifatida foydalanib kelingan.

Bu bino "Eski masjid" nomi bilan 2000-yil 14-martda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasining Samarqand va Jizzax viloyatlari bo'yicha mintaqalararo davlat inspeksiyasining №83-qarori bilan davlat muhofazasiga olingan.

2015-yillarga kelib "Eski masjid-madrassa" binosi bolorlari, shopullari (ustun ustidagi mosha ustiga ikki tomondan kelib minadigan to'sin) sinib, devorlari qulay boshladi. Bundan xavotirga tushgan Oliya Yaqubova masjid binosini ta'mirlab, undan kutubxona sifatida foydalanish to'g'risida 2016-yil 8-noyabrda Tegirmonboshi MFY raisi T.Xo'jaqulovga, 2016-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasining Samarqand va Jizzax viloyatlari bo'yicha mintaqalararo davlat inspeksiyasiga, 2018-yil 8-yanvarda Nurobod tumani hokimi F.A.Zoirovga arizalar bilan murojaat etdi.

Tegirmonboshi va Omondara MFYlari faollarining 2017-yil 5-maydagi qo'shma yig'ilishi №6-sonli bayoni qarori bilan O.Yaqubovaning taklifi tasdiqlandi. Aholi tomonidan beg'araz yordam fondi tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilinib, unga mahalla faoli Y.Ro'ziyev mas'ul qilib belgilandi.

2017-yil 5-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasining Samarqand va Jizzax viloyatlari bo'yicha mintaqalararo davlat inspeksiyasidan mutaxassislar kelishib Samarqand viloyati Nurobod tumani Jom QFYga qarashli

Jom qishlog'i maorifi

Tegirmonboshi MFY hududida joylashgan "Eski masjid" madaniy meros obyektining texnik holati to'g'risida 1-son dalolatnoma tuzilib, amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar ro'yxati shakllantirildi. Bajarilishi lozim bo'lgan amaliy ishlarga Tegirmonboshi MFY raisi T.Xo'jaqulov, mahalla faollari O.Yaqubova va Q.Azizovlar mas'ul qilib belgilandi.

2017-yil 11-yanvarda madaniy meros obyektini muhofaza qilish majburiyati to'g'risida Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasining Samarqand va Jizzax viloyatlari bo'yicha mintaqalararo davlat inspeksiyasi boshlig'i M.A.Nabirayeva, Tegirmonboshi MFY raisi T.Xo'jaqulov va fuqaro O.Yaqubova tomonidan 5 yil muddatga uch tomonlama shartnoma tuzildi. Bunda inspeksiya binoni ijaraga beruvchi, Tegirmonboshi MFY foydalanuvchi, fuqaro O.Yaqubova ijarachi bo'ldi. Bu shartnoma ham mahalla fuqarolar yig'inlari qoshida aholi uchun kutubxonalar tashkil etish tajribasining to'g'ri amaliyot ekanligini yana bir bor isbotlab turibdi. Biroq kutubxonada ishlovchi xodimni maosh bilan ta'minlash masalasi ochiq qolmoqda. Fikrimizcha, bu muammoni, shuningdek, kutubxonaning moddiy texnik bazasini kuchaytirish, yangi adabiyotlar bilan doimiy boyitib borish masalasini, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, qolaversa, Nurobod tumani hokimligi madaniyat bo'limi hal etishi kerak.

Samarqand viloyati davlat inspeksiyasi tomonidan 2017-yil 5-oktyabrda №18-son xat bilan Madaniy meros obyektlarni ta'mirlash ishlarini olib borish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, "Qo'zg'almas Madaniy meros obyektlarni ta'mirlash, ro'yxatga olish, buzilmasligini ta'minlash, saqlash, foydalanish va ta'mirlash yo'riqnomasi" asosida Nurobod tumani Jom QFYga qarashli Tegirmonboshi MFY hududida

joylashgan XVIII asr “Eski masjid” madaniy meros obyektini ta’mirlash bo’yicha ruxsatnoma berildi.

2018-yil 15-mayda Nurobod tumani hokimining Tegirmonboshi MFY hududida joylashgan “Eski masjid-madrasa” madaniy meros obyektida “Mahalla kutubxonasi” tashkil etish to’g’risidagi farmoyishi chiqdi.

2018-yil 17-iyun kuni soat 10:00 da O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashabbusi bilan tashkil etilgan “Mahalla kutubxonasi”ning ochilish marosimi bo‘ldi. Nurobod tumani yoshlar ittifoqi bo‘limi tomonidan kutubxonaga 10 million so‘m miqdoridagi kitoblar va kitob javonlari tuhfa etildi.

“Eski masjid-madrasa” binosi Tegirmonboshi, Omondara, Hafrin va Karimovul guzarlari aholisining faol ishtiroki va beg‘araz yordamida to‘lig‘icha hashar yo‘li bilan ta’mirlandi. Hasharga aholi tomonidan 2 dona qo‘chqor va 6 dona serka hadya etildi. Ta’mirlash jarayonida kompyuter bilan bog‘liq barcha yozuv-chizuv ishlari Olamxon Qodirov tomonidan bajarildi. Qishloq haydovchilari shaxsiy mashinalarida masjid-madrasa tomi ustidan olingan 14 mashina tuproqni olib chiqib tashlashdi va kerakli qurilish ashyolarini beminnat tashib berishdi. Tom ustidagi barcha duradgorlik ishlari Qahhor Qo‘ziboyev tomonidan bajarildi. Hasharda ishtirok etgan yoshlarga oqsoqollardan Yo‘ldosh Ro‘ziyev, Muxtor Mahkamov, Rustam Pirnazarov, Xudoyberdi Yarqulovlar kecha-kunduz yordam ko‘rsatib turishdi.

“Eski masjid”ni ta’mirlash ishlari jarayonida uning janubiy devoridagi gazetalarga o‘ralib, oldiga taxtalar terilib suvab tashlangan tokchasidan kitoblar va qo‘lyozmalar topildi. O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Samarqand viloyati kengashining taklifiga ko‘ra O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining “Fidoyi yoshlar ekspeditsiyasi” a’zolari bo‘lgan, O‘zbekiston Milliy universitetining Faxriddinxo‘ja Ashrafxo‘jayev rahbarligidagi

Jom qishlog'i maorifi

bir guruh manbashunos olimlari guruhi "Eski masjid"ga kelishdi. Olimlar topilma kitoblar Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmatlar"i, Tajvid qoidalari, Qur'on oyatlari, Payg'ambarlar tarixi, Abdurahmon Jomiy va Amir Temurga tegishli asarlar ekanligini aniqlashdi. Ajdodlarimiz tomonidan sho'rolar davri tazyiqidan eson-omon saqlash maqsadida turli usullar yordamida shunday durdona asarlar ehtiyot qilingan.

Olimlar masjid binosi xonaqohi (ichki qismi) o'rtasidagi naqshinkor ustunda arab imlosida usta Sattor hijriy 1321 (milodiy 1900) yilda yasagan, usto Hasan naqsh bergan yozuvlarini o'qib berishdi. Bu ma'lumotlardan masjidning 1900-yilda qurilganligi ham ehtimol qilinmoqda.

Ayvon oldida 5 ta, janub tomonida 3 ta naqshinkor ustunlar bor. Masjid binosi tashqi o'lchami 13x13, xonaqoh o'lchami esa 7x7 metr. Barcha ustunlar archa daraxtidan yasalgan. Xonaqohdagi ustun balandligi 4 metr, ayvondagilariniki 5 metrdan. Bunday uzun, diametri katta archa daraxtlarining Jom hududida o'smasligini e'tiborga olsak, ustunlarning boshqa yurtlardan olib kelinganligi ma'lum bo'ladi. Samarqand shahrining g'arbiy chegarasida joylashgan Chortut mahallasida istiqomat qiladigan, Samarqand viloyati bozorlar boshqarmasi raisi Tohir Mamadaliyevning bergan ma'lumoti ko'ra, Jomdagi "Eski masjid"dan Samarqand viloyatida 76 ta mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi avariya holatida. Ularning ustunlari 1900-yillarda chortutlik ustalar tomonidan yasalgan. Masjid ustunida qayd etilgan sana va Tohir Mamadaliyev bergan ma'lumotning bir-biriga aynan mos kelishini e'tiborga olsak, Jomdagi "Eski masjid"ning haqiqatan 1900-yilda qurilganligi ma'lum bo'ladi. Cho'nqaymishlik usta Elmurod bobo duradgorlik ishlarini bajargan.

Masjid oldi va janub tomoniga 2 tadan, shimol tomoniga 1 ta eshik o'rnatilgan. Har bir eshikning o'ziga xos ma'nosi bor. Pastroq yasaliq qurilgan eshikdan mullavachchalar salomxonaga

egilib kirishib salomlashishgan va yana egilib orqasi bilan chiqib ketishgan. Qolgan 4 eshikning o'lchamlari bir xil bo'lib, ulardan biri imom kirdi, ikkinchisi imom chiqdi, oldidagi 2 eshikdan nomozxonlar kirib chiqishgan.

Bugungi kunda masjidning asl eshiklaridan ikkitasi saqlanib qolgan. Ulardan biri masjidning shimol tomoniga, ikkinchisi masjidga oldidan kirishda o'ng qo'l tomonga o'rnatilgan. 2018-yil masjidni ta'mirlash davrida ustalar bir xil o'lchamli uchta eshik yasashib, mullavachchalar kirib chiqadigan kichik eshik o'rnini kengaytirib shu eshiklardan birini o'rnatib yuborishdi. Masjidning janub tomonidagi bu eshik o'rnini devorning sharqiy qismida joylashgan.

Masjid binosini kelajak avlodlarga bus-butun, asl holida yetkazib berish har bir jomlikning muqaddas burchi ekanligini qishloqdoshlar yaxshi tushunib yetishdi. Ular kutubxona fondini kengaytirishga, kompyuterlar bilan boyitishga, aholi tomonidan kitobxonlar aksiyalarini o'tkazishga, kelajakda masjid bog'ini tiklashga, hozirda yo'q bo'lib ketgan hujralarni qayta qurishga, ulardan kutubxona, qiroatxona, muzey sifatida foydalanishga, turli to'garak ishlarini yo'lga qo'yishga qattiq bel bog'lashgan.

2018-yil 17-iyunda Tegirmonboshi MFY hududida joylashgan "Eski masjid" madaniy meros binosida tashkil etilgan "Mahalla kutubxonasi"ning ochilishiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Unda Jahon tillari institutidan professor Dilorom Yormatova, Samarqand qishloq xo'jalik institutidan professor Pirnazar Davronov, Nurobod tumani hokimining o'rinbosari Gulshan Shermatova, Samarqand viloyati davlat inspeksiyasidan Olmosxon Umarov, Samarqand viloyati hokimining Yoshlar siyosati ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari kotibiyati mudiri Nurmurotov Anvar Yaxshiboyevich, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Nurobod tumani Kengashi raisi Ziyatov Asomidin

Jom qishlog'i maorifi

Keldiyorovich, qishloq oqsoqoli Mamat Abdullayevlar soʻzga chiqishib, eski masjidning taʼmirlanib, kutubxonaga aylantirilishi qishloq ahli uchun ajoyib sovgʻa boʻlganligini taʼkidlashdi. Bu ishning boshida oʻzining tashkilotchiligi va shaxsiy mablagʻlari bilan turgan Xayriddin Yaqubovga, viloyat va tuman rahbariyatiga hamda begʻaraz yordam koʻrsatgan barcha insonlarga minnatdorchiliklarini bildirishib, oʻzlarining tuhfaalarini kutubxonaga taqdim etdilar. Kutubxonaning tashkil etilishida faol qatnashgan barcha insonlarga toʻnlar kiydirildi, qoʻchqorlar soʻyilib Toshkent, Samarqand shaharlaridan, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidan, Nurobod tumani hokimligi va uning uzoq Olgʻa, Ogʻiron, Mehr qishloqlaridan kelgan 250 dan ortiq mehmonlar va qishloqdoshlar Muzaffar Shodmonovning soʻlim chorbogʻida, bir piyola choy ustida suhbat qurishdi, oʻtganlar ruhiga Qurʻon tilovat qilindi.

Oliya Yaqubova 2018-yil 3-avgustda 2000 dan ortiq kitob fondiga ega boʻlgan yangi kutubxona ishini yuritish hamda madaniy meros obyekti boʻlgan ushbu kutubxona binosini qoʻriqlash uchun shtat birligi ajratilishiga amaliy yordam berishini soʻrab Samarqand viloyati hokimi Erkinjon Oqboʻtayevich Turdimovga ariza bilan murojaat qildi. Natijada, 2018-yil 28-avgustda Nurobod tumani hokimi F.Zoirovning №1031-Q-sonli qarori bilan tuman madaniyat boʻlimiga qarashli 2-son Jom Madaniyat va aholi dam olish markazining filiali sifatida Tegirmonboshi MFY hududida joylashgan “Mahalla kutubxonasi” tegishli shtat birligi bilan taʼminlandi.

Kutubxona kitobxonlar bilan gavjum, uning moddiy texnik bazasi Nurobod tumani hokimligi moliya va madaniyat boʻlimlarining yaqindan yordami hamda qishloqning saxiy insonlari tuhfaalari hisobidan kundan-kunga boyib bormoqda.

“Eski masjid-madrasani”ni kutubxonaga
aylantirishga doir hujjatlar

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Samarqand viloyati hokimining 2000-yil 14-martdagi
№83-Qarori

Viloyatda qo‘shimcha aniqlangan va davlat muhofazasiga olinishi lozim bo‘lgan tarixiy va madaniy ko‘chmas yodgorliklar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta’minlash, xalqimizning boy madaniy merosini asrash va undan to‘la foydalanish, viloyatda turizmni yanada rivojlantirish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimligi Madaniyat ishlari boshqarmasi, viloyat davlat muzey-qo‘riqxonasi hamda tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash va ulardan foydalanish davlat nazorati tomonidan qo‘shimcha aniqlangan, davlat hisobiga va muhofazasiga olinishi lozim bo‘lgan tarixiy va madaniy ko‘chmas yodgorliklar ro‘yxati 1-ilovaga, qo‘riqlanish manzarasi tasvirlangan xarita 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Shahar va tumanlar hokimlariga:

ko‘chmas yodgorliklar joylashgan hududlarda bosh rejaga asosan amalga oshiriladigan loyihalash, qayta qurish, qurilish, obodonlashtirish ishlarini O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi hamda tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash va ulardan foydalanish davlat nazorati bilan kelishilgan holda amalga oshirish;

tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash va ulardan foydalanish davlat nazorati bilan birgalikda tarixiy va madaniy ko‘chmas yodgorliklar atrofida muhofaza hududlarini belgilash;

2000-yil davomida shahar va tuman hududlarida joylashgan barcha ko‘chmas yodgorliklarning o‘rni va muhofaza hududi ko‘rsatilgan bosh rejalarini tayyorlash topshirilsin.

Jom qishlog'i maorifi

3. Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, tarixiy va madaniy ko'chmas yodgorliklardan foydalanuvchi muassasalar, korxonalar, tashkilotlar, jismoniy shaxslarga viloyat tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash va ulardan foydalanish davlat nazorati murojaat qilgandan keyin 3 kun ichida zarur hujjatlarni rasmiylashtirish yuklatilsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari A.Mamatovga yuklatilsin.

Samarqand viloyati hokimi E.Ro'ziyev

Ilovalar: 1. Davlat hisobiga va muhofazasiga olinishi lozim bo'lgan tarixiy va madaniy ko'chmas yodgorliklar ro'yxati:

420.Nurobod tumani: Jom qishlog'idagi eski qabriston
XVII asr Jom qishlog'i Samarqand-Qarshi yo'li oldida

421.Jom qishlog'idagi eski masjid XX asr o'rtalari Jom qishlog'i

Izoh: ro'yxatning Jomga tegishli qismi olingan.

Samarqand viloyati hokimligi ishlar boshqaruvchisi
B.Sindorov

2. Nurobod tumani Jom QFY hududida joylashgan masjid-madrasa binosining menzula bilan olingan rejasi.

Nurobod tumani ko'chmas mulk va davlat yer kadastr bo'limi boshlig'i B. Boymurodov

Tegirmonboshi MFY raisi T Xo'jaqulovga shu mahalla hududida yashovchi Yaqubova Oliya tomonidan 2016-yil 8-noyabrda yozilgan ariza

Arizaning mazmuni, mahallamiz hududidagi ajdodlarimizdan meros, bizgacha yetib kelgan va ziyo maskani bo'lgan "Eski masjid" binosini asrash, xayrli maqsadda foydalanish va kelajak avlodlarga betalafot yetkazish maqsadida Prezident qarorlari asosida, o'z vakolatingizdan kelib chiqib yangi ziyo maskani – kutubxonaga aylantirishga amaliy yordam ko'rsatishingizni so'rayman.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Nurobod tumani Tegirmonboshi MFY 2016-yil 24-dekabrdagi vakillar yig'ilishining №6-bayoni

Raislik qiluvchi: T.Xo'jaqulov – Tegirmonboshi MFY raisi.

Yig'ilish kotibi: I.Boboxonov – Tegirmonboshi MFY kotibi.

Qatnashdilar: 21-, 44-, 63-maktablar direktorlari, mahalla qoshidagi doimiy ishchi komissiyalar a'zolari, mahalla fuqarolaridan 43 nafari, jami 66 kishi.

Kun tartibi:

Tegirmonboshi qishlog'ida yashovchi fuqaro "Mahalladagi 1906-yilda qurilgan eski masjid binosini ta'mirlab, kutubxona maqsadida ijaraga olib foydalanish" to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish to'g'risida.

Eshitildi:

Yig'ilishni Tegirmonboshi MFY raisi T.Xo'jaqulov kirish so'zi bilan ochib, yig'ilish ishtirokchilarini kun tartibidagi masala bilan tanishtirdi. "Eski masjid" binosining foydalanilmasdan, qarovsiz holda turganligini, uni ijaraga olib, ta'mirlab, kutubxona sifatida foydalanish to'g'risida mahalla fuqarosi Yaqubova Oliyaning ariza bilan chiqqanligini ma'lum qildi. So'zga chiqqan Tegirmonboshi MFY vakillaridan A.Mamanov, N.Xolmo'minov, T.Aliqulovlar Oliya Yaqubovanning arizasini qanoatlantirish kerakligini aytib o'tishdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib yig'ilish qaror qildi:

1. Tegirmonboshi MFY hududida yashovchi fuqaro O.Yaqubovanning arizasi qanoatlantirilsin.

2. Ushbu yig'ilish qarorining tasdig'i tuman hokimligidan so'ralsin.

3. Yig'ilish qarorining bajarilishini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Jom qishlog'i maorifi

Yig'ilish raisi T.Xo'jaqulov. Yig'ilish kotibi I.Boboxonov

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasining Samarqand va Jizzax viloyatlari bo'yicha mintaqalararo davlat inspeksiyasiga 2016-yil 12-dekabrda Samarqand viloyati Nurobod tumani Jom QFYga qarashli Tegirmonboshi MFYda yashovchi fuqaro Yaqubova Oliya tomonidan yozilgan ariza

Arizamning mazmuni, mahallamiz hududidagi ajdodlarimizdan meros, bizgacha yetib kelgan va ziyo maskani bo'lgan "Eski masjid" binosini asrash, xayrli maqsadda foydalanish va kelajak avlodlarga betalafot yetkazish maqsadida Prezident qarorlari asosida, o'z vakolatingizdan kelib chiqib yangi ziyo maskani – kutubxonaga aylantirishga amaliy yordam ko'rsatishingizni so'rayman.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasining Samarqand va Jizzax viloyatlari bo'yicha mintaqalararo davlat inspeksiyasining Samarqand viloyati Nurobod tumani Jom QFYga qarashli Tegirmonboshi MFY hududida yashovchi fuqaro O.Yaqubovaga 2016-yil 2-dekabrda yozgan №748-sonli xati

Sizning 2016-yil 12-dekabrda arizangizga javoban, Nurobod tumani Jom QFYga qarashli Tegirmonboshi MFY hududida joylashgan "Eski masjid" binosini yangi ziyo maskani – kutubxonaga aylantirish bo'yicha 2016-yil 7-yanvar kuni tashkil etilgan komissiya tashrifi rejalashtirilayotganligi to'g'risida ma'lum qilamiz.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasining Samarqand va Jizzax viloyatlari bo'yicha mintaqalararo davlat inspeksiyasi.

Samarqand viloyati Nurobod tumani Jom QFYga qarashli Tegirmonboshi MFY hududida joylashgan "Eski masjid" madaniy meros obyektining texnik holati to'g'risida

1-son dalolatnoma

2016-yil 5-yanvar. Jom qishlog'i.

Bizlarkim quyida imzo chekuvchilar:

Samarqand va Jizzax viloyatlari bo'yicha mintaqalararo davlat inspeksiyasi texnik nazorat bo'limi boshlig'i A.X.Umarov, madaniy meros obyektlarini restavratsiya-ta'mirlash ishlarining loyiha-smetalari bo'yicha bosh me'mori M.Xoliqulov, Jom QFYga qarashli Tegirmonboshi MFY raisi T.Xo'jaqulov, Jom QFYga qarashli Tegirmonboshi MFY hududida istiqomat qiluvchi fuqaro O.Yaqubova, Jom QFYga qarashli Tegirmonboshi MFYning sobiq raisi, mehnat faxriysi I.Yaqubov yuqorida qayd etilgan madaniy meros obyektini ko'zdan kechirganda quyidagilar aniqlandi:

1. Poydevorlari: xarsang toshlar bilan ko'tarilgan. Poydevor asosida va poydevorning o'zida cho'kish va yorilish alomatlari sezilmaydi. Masjidning shimoliy poydevorining yonidan qo'shimcha tarzda, yer sathidan 40 sm balandlikda beton poydevor tiklangan. Ayvon qismi poydevorlari ham xarsang toshlar bilan tiklangan bo'lib, yog'ingarchilik suvlarining poydevor orasiga o'tganligi, madaniy qatlamning ko'tarilishi natijasida xarsang toshlar orasidagi qorishmalar o'z xususiyatlarini yo'qotganligi poydevorning salbiylashuviga olib kelgan. Holati qoniqarsiz.

2. Devorlari: Masjid devorlari musulmoncha kvadrat shakldagi xom g'ishtlar bilan loyli qorishmada 2,5 bar qalinlikda

Jom qishlog'i maorifi

terilgan. Devorlar somonli loyda panjakash uslubida pardozi suvoq qilingan. Keyinchalik ohak qorishmasi bilan oqlab qo'yilgan. Devorlarining tashqi qismi namlanishi oqibatida, xom g'ishtlarning 5-6 smgacha namlanib yemirilishi holatiga olib kelgan. Devorlarda konstruktiv yoriqlar, og'ish holatlari sezilmaydi. Holati – ta'mirtalab.

3. Tom yonlamalari va qoplamalari: Bolorli va vassajuft qilib, ustidan qamish poyalari tashlanib, somonli loyda suvoq qilingan. Ko'p yillar davomida tom usti somonli suvoq qilinib turilishi, tom ustidagi suvoq qatlamining qalinlashib ketishiga va natijada bolorlarga katta yuk tushishiga olib kelgan.

Tom usti keyinchalik, 1996-2000-yillarda shifer bilan qoplangan. Tom ustidagi shiferlarning ayrim joylarida sinish, yoriqlarning mavjudligi, masjid tomi ustidan yog'ingarchilik suvlarining bino ichiga o'tishi, bolor va vassalarning chirishiga olib kelgan. Tom ustida yukning kattaligi shopulning chirishi tufayli masjid ustidagi shopul singan. Uni ushlab turish uchun qo'shimcha tirgak ustun qo'yilgan.

Masjid ayvonining janubiy tomonida keyinchalik ayvonning tashqi shopuli tagidan qalamakorlik qilib devor ko'tarilgan. Ayvondagi ustunlarning ikkitasi konstruktiv mustahkamlik holatini 50-60 foiz yo'qotgan. Qo'shimcha ustunlar o'rnatilib, tirgaklar qo'yilgan. Bino ustunlarining o'zak qismida yorilish alomatlari mavjud, Ayvonning shopullari va bolorlarida sinish, egilish holatlari ko'p miqdorda mavjud. Masjidning ayvon qismi mukammal ta'mirtalab holatida.

Masjid tomi ustidan 3 fazali elektr tarmog'i simlari shiferga tegib turish holatida tortilgan bo'lib, yong'in sodir etishi mumkin.

Masjid atrofidagi yo'laklar madaniy qatlamlari ko'tarilib ketgan, natijada yog'ingarchilik suvlarining bino asoslariga o'tishini sodir qilmoqda. Masjidning shimoliy tomonidagi yo'lakda qum uyumi to'planib turibdi. Bu masjid devorining

namlanishini yanada kuchaytirmoqda. Masjidning gʻarbiy devoriga qadab oʻzboshimchalik bilan qassobxona binosi qurilgan. Qassobxona tomining obdavi masjid tomon olingan boʻlib, masjid devorining namlanishiga sabab boʻlmoqda.

Masjidda tegishli boʻlgan hududda – uning hujralari oʻrnida fuqaro Ziyotov Xoʻjaqul tomonidan nonvoyxona binosi qurilib faoliyat koʻrsatmoqda.

Madaniy meros obyektidan madaniy-maʼrifiy sohalar boʻyicha kutubxona sifatida talab darajasida foydalanish uchun quyidagi ishlar bajarilishi lozim:

№ Bajarilishi lozim boʻlgan amaliy ishlarning nomi
Bajarilish muddati

1.Masjid tomi ustidan oʻtayotgan yogʻingarchilik suvlarini bartaraf etish choralari koʻrilsin, yoriq va siniq shiferlarni vaqtinchalik almashtirib qoʻyish ishlarini amalga oshirish lozim. Tom ustidan oʻtgan 3 fazali elektr simlarini koʻtarish yoxud travers bilan koʻtarib qoʻyish. Masʼul: Tegirmonboshi MFY raisi T.Xoʻjaqulov, fuqaro O.Yaqubova. 15.01.2017-yil.

2.Madaniy meros obyekti devoriga taqab qurilgan qassobxona binosini fuqaro Q.Azizov tomonidan buzib olinishi va masjid atrofi hamda hududida qurilgan nonvoyxona binosini koʻchirish ishlari tashkil etish. Masʼul: Tegirmonboshi MFY raisi T.Xoʻjaqulov, fuqaro Q.Azizov. 10.02.2017-yil.

3.Masjid tomidagi suvoq qatlamini yengillashtirish, atrof yoʻlaklarni 40 sm ga pasaytirish ishlarini davlat inspeksiyasining yozma ruxsatnomasi orqali amalga oshirish. Masʼul: fuqaro O.Yaqubova. 15.01.2017-yil.

4.Masjid binosini mukammal taʼmirlash, obodonlashtirish ishlari loyihasini tayyorlash uchun ixtisoslashgan loyiha korxonasiga buyurtma berish va loyiha tayyor boʻlgandan soʻng kelishib olish va ruxsatnoma berish uchun 2 nusxada davlat inspeksiyasiga taqdim etilishi Masʼul: Tegirmonboshi MFY

Jom qishlog'i maorifi

raisi T.Xo'jaqulov, fuqaro O.Yaqubova. 15.01.2017-
15.03.2017-yil.

Imzolaganlar: Davlat inspeksiyasi vakillari A.X.Umarov,
M.Xoliqulov. Tegirmonboshi MFY vakillari: T.Xo'jaqulov,
O.Yaqubova, I.Yaqubov

Madaniy meros obyektini muhofaza qilish majburiyati
2017-yil 11-yanvar. Muddati 5 yil.

Samarqand viloyati Nurobod tumani Tegirmonboshi MFY hududida joylashgan XVIII asr "Eski masjid" madaniy meros obyekti bo'yicha foydalanuvchi Tegirmonboshi MFY raisi T.Xo'jaqulov, fuqaro O.Yaqubova ushbu madaniy meros obyektidan foydalanishda O'zR "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 23-,24-moddalariga asosan quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

Majburiyatning asosiy shartlari

1. Obyektni qasddan qabul qilmaslik, unga (uning qismlariga) zarar yetkazmaslik.

2. Obyekt xonalarining (qismlarini) yong'inga qarshi xavfsizligini ta'minlagan holda, sanitariya holatini saqlagan holda, yog'ingarchilik va boshqa suvlar ta'siridan salbiy holatlardan saqlagan holda hamda bo'ladigan har xil avariya holatlarining oldini olgan holda tutish.

3. Obyekt hududini obodonlashtirilgan holda saqlash, obyekt hududi va muhofaza xonalarida har qanday yangi qurilishni, obodonlashtirishni va xo'jalik ehtiyojlari Mintaqalararo davlat inspeksiyasining yozma ravishda bergan ruxsatnomasiz olib borishga yo'l qo'ymaslik, obyektning tashqi va ichki qismida Samarqand va Jizzax viloyatlari bo'yicha mintaqalararo davlat inspeksiyasidan maxsus ravishda ruxsatnoma olmasdan o'zgartirishlar kiritilishiga yo'l qo'ymaslik.

4. Obyektda har qanday buzilish, avariya yoxud boshqa ziyon yetkazish holatlari bo'lganda, obyekt hududida muhofaza zonalarida o'zboshimchalik bilan qurilish, obodonlashtirish va hokazo ishlarni birov tomonidan olib borilganda va shunga o'xshash boshqa sharoitlarda tezlik bilan Samarqand va Jizzax viloyatlari bo'yicha mintaqalararo davlat inspeksiyasini xabardor qilish va ushbu ziyonlarning oldini olish.

5. Ob'ektni foydalanish uchun boshqalarga topshirilganda albatta ushbu to'g'risida Samarqand va Jizzax viloyatlari bo'yicha mintaqalararo davlat inspeksiyasini ogohlantirish va obyektning yangi foydalanuvchilari bilan muhofaza majburiyatining tuzilishiga hamkorlik qilish (obyektni qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga kiritilishini ta'minlash).

Izoh: Yuqorida qayd etilgan talablar bajarilmaganda va ushbu bilan madaniy meros obyektiga ziyon yetkazilgan taqdirda, aybdor shaxslar qonun oldida javobgarlikka tortilishlari mumkin.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasining Samarqand va Jizzax viloyatlari bo'yicha mintaqalararo davlat inspeksiyasi tomonidan

Inspektsiya boshlig'i M.A.Nabirayeva. Inspektsiya manzili: Samarqand shahri, Registon ko'chasi, 3-A uy. Telefon:235-72-44.

Foydalanuvchi: Tegirmonboshi MFY raisi T.Xo'jaqulov, fuqaro O.Yaqubova. Manzil Nurobod tumani Jom qishlog'i. Telefon: 94-371-55-28, 93-722-93-56.

Nurobod tumani Tegirmonboshi va Omondara MFYlari vakillari yig'ilishi bayoni №6

2017-yil 5-may. Eski masjid binosi.

Raislik qiluvchi: T.Xo'jaqulov – Tegirmonboshi MFY raisi.

Jom qishlog'i maorifi

Kotibi: D.Jumayev – Omondara MFY raisi.

Qatnashdilar: mahallalar fuqarolaridan 43 nafar, mahallalar faollari, mahallalar qoshidagi doimiy ishchi komissiyalar a'zolari, jami 76 kishi.

Kun tartibi:

Tegirmonboshi qishlog'ida yashovchi fuqaro O.Yaqubovanning "Tegirmonboshi MFY hududida joylashgan XVIII asr eski masjid madaniy meros binosini ta'mirlash ishlarini ko'rib chiqish" to'g'risida.

Eshitildi:

Yig'ilishni Tegirmonboshi MFY raisi T.Xo'jaqulov kirish so'zi bilan ochib, yig'ilish ishtirokchilarini kun tartibidagi masala bilan tanishtirdi. "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi №350-son qarori. 2013-yil 22-aprel 5-moddasidagi Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarning ustuvorligi, demokratizm, oshkoralik, ijtimoiy adolat, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda mustaqillik, jamoatchilik asosidagi o'zaro yordam, ijtimoiy sheriklik, mahalliy urf-odatlar va an'analarni hisobga olishdan iboratligi haqida gapirib, qonun hujjatlari bilan tanishtirdi. Eski masjidda shu kunga qadar olib borilgan ta'mirlash ishlari xususida to'xtalib o'tdi. MFYlari vakillaridan M.Abdullaev, A.Tursunov, Y.Xolmo'minov va Y.Ro'ziyevlar so'zga chiqib, T.Xo'jaqulovning fikrlarini ma'qullashdi va O.Yaqubovanning tashabbusini quvvatlab, masjid binosini ta'mirlashga beg'araz yordam tashkil qilish taklifini kiritdilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib yig'ilish qaror qildi:

1. Tegirmonboshi mahallasi hududida yashovchi fuqaro O.Yaqubovanning ta'mirlash ishlari haqida olib borgan tashabbusi qo'llab-quvvatlansin.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

2. Mahallalar aholisining beg'araz yordam uyushtirish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

3. Aholi tomonidan beg'araz yordam fondi tashkil qilinsin va mas'ul etib mahalla oqsoqoli Y.Ro'ziev tayinlansin.

4. Ushbu yig'ilish qarorining bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Yig'ilish raisi T.Xo'jaqulov, yig'ilish kotibi D.Jumayev

Madaniy meros obyektlarini ta'mirlash ishlarini olib borish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, "Qo'zg'almas Madaniy meros obyektlarini ta'mirlash, ro'yxatga olish, buzilmasligini ta'minlash, saqlash, foydalanish va ta'mirlash yo'riqnomasi" asosida Nurobod tumani Jom QFYga qarashli Tegirmonboshi MFY hududida joylashgan XVIII asr "Eski masjid" madaniy meros obyektini ta'mirlash bo'yicha 2017-yil 5-oktabrdagi №18-son ruxsatnoma

(Ruxsatnoma 30-dekabr 2017-yildan o'z kuchini yo'qotadi)

Obyekt: "Eski masjid" madaniy meros objekti Jom QFY .

Foydalanuvchi: Jom QFYga qarashli Tegirmonboshi MFY, fuqaro O.Yaqubova.

Pudratchi: Yuqoridagilar.

Masjid ayvonining old qismidagi ustunlar osti poydevorlarini betonli qorishma bilan ko'tarish, ayvondagi singan ustunlar va shopullarni almashtirish, masjid atrofidagi yo'laklarni beton qorishmada tasdiqlangan loyiha asosida tiklash ishlarini amalga oshirish uchun berildi. Mukammal ta'mirlash ishlari bajarilishi davlat inspeksiyasi mutasaddi xodimlarining ko'rsatmalari asosida olib borilishi lozim.

Ushbu ruxsatnoma bo'yicha amaliy ishlarni bajaruvchi muassasaning majburiyati

1. Ishlarni faqat tasdiqlangan ilmiy-loyiha hujjatlariga muvofiq va Madaniy meros obyektlarini saqlash davlat organlarining ko'rsatmalari bo'yicha bajarish.

Jom qishlog'i maorifi

2. Ish bajarish jarayonida yodgorlikning ilmiy jihatlarini qayd etish, ishlarning boshlanish davrida, bajarilish jarayonida va tugallanganida qo'shimcha o'lchashlar, fototasvirlar, chizmalar va boshqa ishlar bilan ta'minlash.

3. Yodgorliklarni saqlash davlat organlarining ko'rsatmasi asosida mutaxassislar uchun zarur bo'lgan tekshiruv-maslahatlar bilan ta'minlash.

4. Ishlar tugagach, ushbu ruxsatnomani bergan Samarqand viloyati davlat inspeksiyasiga 30.12.2017-yil izlanish va ta'mirlash ishlari haqida ilmiy hisobot topshirish.

Jom QFYga qarashli Tegirmonboshi MFY hududida yashovchi fuqaro O.Yaqubova

Inspeksiya texnik nazorat bo'limi boshlig'i, ish bo'yicha ilmiy rahbar A.X.Umarov

“Утверждаю” Начальник межрегиональной инспекции по охране и использованию памятников культуры М.А.Набираева

Дефектный акт

Выполняемых реставрационных работ по мечети Жом в кишлаке Жом Нурабадского района

№	Наименование видов работ	Ed.izm	Объем
			Мечет
1.	Демонтаж шиферной кровли	М2	180
2.	Демонтаж обрешеток из рейки 50x50	М2	180
3.	Демонтаж стропил	М2	180
4.	Демонтаж глина-саманной стяжки перекрытия	М3	24
5.	Спуск строительного мусора	М3	24
6.	Демонтаж васси	М2	101,0
7.	Демонтаж трешинных балок	Шт	5
8.	Монтаж деревянных балок	Шт	5
9.	Демонтаж южной части пристроенных стен	М3	11,23
10.	Замена главной балки по оси “А”	Шт	3

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

11. Замена главной балки между осей 1-2 Шт 1
12. Демонтаж внутренней части хонакох балок по оси
3 Шт 1
13. Поднятие угловых балок Шт 3
14. Монтаж васси М2 105,0
15. Устройство камышного слоя М2 135,4
16. Глина саманной стяжки в 2 слоя М2 135,4
17. Осторожная отбивка штукатурки стен изучая
нижних слоев (если сохранились росписа какие ни будь)
пригласит автора проекта М2 248,0
18. Штукатурка стен (ганчок) М2 300,56
19. Рытье траншеи для подводка фундамента М3 7,68
20. Армирование из АРМ. Д-12А3 ТН 0,284
21. То же вертикальных ТН 0,080
22. Устройство бетона В-12 М3 7,68
23. Кирпичная кладка М3 1,2
24. Поднятие деревянных колон с помощи домкрат
Шт 5
25. Срезка нижней части колон и реставрация Шт 5
26. Выравнивание колон Шт 4
27. Шлифовка и реставрация колон Шт 7
28. Замена баши Шт 4
29. Очистка колон и баши и балок от масляной краски
внутри хонаки М2 200
30. Окраска бестсветным лаком за 2 раза васси и балок
М2 240
31. Изготовления и установка ганчевых панжара
средний сложности М2 3
32. Демонтаж цементного пола внутри хонакох
М2 49
33. Демонтаж цементного пола айванов М2 54

Jom qishlog'i maorifi

34. Понижение наружной части отмасток до 30 см по периметру мечети М2 29

35. Устройство выстилки полов квадратными жженными кирпичами М2 108,6

36. Устройство выстилки квадратными жженными кирпичами наружных отмасток М2 96,0

37. Демонтаж дверных блоков Шт 3

38. Устройство дверей с резьбой Шт 3

39. Устройство окон Шт 3

40. Устройство штрабы для прокладки проводов П/М 120

41. Прокладки проводов сеч. 2,5x2 кв. П/М320

41. Монтаж бра ганчевых Шт 14

42. Монтаж люстр Шт 8

43. Включатели Шт 10

44. Розетки Шт 10

Состав комиссии:

1. Технадзор инспекции охраны памятников А.Х.Умаров. 2. ГАП проектного института М.П.Халикулов. 3. Представитель махали И.Якубов.

Samarqand viloyati Nurobod tumani hokimi F.A.Zoirovga Samarqand viloyati Nurobod tumani Tegirmonboshi MFY hududida yashovchi fuqaro Yaqubova Oliya tomonidan 2018-yil 8-yanvarda yozilgan ariza

Yozaman ushbu arizani shu to'g'ridakim, Tegirmonboshi mahallasi hududida joylashgan ajdodlarimizdan meros bo'lgan, bizgacha yetib kelgan XVIII asr "Eski masjid" obyektini o'z mablag'im hisobidan qayta ta'mirlash ishlarini nihoyasiga yetkazdim.

Ushbu obyektни O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

targʻibot qilish boʻyicha komissiya tuzish toʻgʻrisida»gi farmoyishi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6- martdagi №53-sonli qarorining №123-moddasi 8-bandida “m” kichik bandida koʻrsatilgan kutubxona tarmogʻini tashkil qilishni takomillashtirish, oʻsib kelayotgan yosh avlodning intellektual ehtiyojlarini qondirishga madaniy-axloqiy qadriyatlarini saqlab qolishga yoʻnaltirilgan prinsipial yangi axborot markazlarini barpo etish, shuningdek, aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda maʼnaviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh isteʼdod egalarining qobiliyatini va salohiyatini roʻyobga chiqarish borasida menga axborot kutubxona markazi faoliyatini takomillashtirishni moliyalashtirib, davlat byudjeti yoki homiylar mablagʻlari hisobidan kutubxona moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga oʻz vakolatingiz doirasida amaliy yordam berishingizni soʻrayman.

Nurobod tumani Tegirmonboshi MFY hududida yashovchi fuqaro Yaqubova Oliya

Samarqand viloyati Nurobod tumani hokimining 2018-yil 15-maydagi №118-F-sonli farmoyishi

Tegirmonboshi MFY hududida joylashgan “Eski masjid” madaniy meros obyektida “Mahalla kutubxonasi” tashkil etish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi F-4789-sonli “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻibot qilish boʻyicha komissiya tuzish toʻgʻrisida”gi farmoyishi ijrosi yuzasidan hamda “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan:

Jom qishlog‘i maorifi

1. Mahalliy aholi, ayniqsa, yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o‘stirishga xizmat qiladigan kitoblarga bo‘lgan qiziqishni oshirish hamda yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish maqsadida tumandagi Tegirmonboshi MFY hududida joylashgan madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasining Samarqand va Jizzax viloyatlari bo‘yicha mintaqalararo davlat inspeksiyasiga qarashli “Eski masjid” madaniy meros obyekti binosida belgilangan tartibda “Mahalla kutubxonasi” tashkil etilsin.

2. ”Mahalla” xayriya jamoat fondi tuman bo‘linmasi (S.Ro‘ziyev)ga tashkil etilgan “Mahalla kutubxonasi”da kitob tarqatish tizimini yanada rivojlantirish va aholining keng qatlamini qamrab olish, kitob mahsulotlari narxini shakllantirish va sotish bo‘yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqsin.

3. Ushbu farmoyish ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Ilmurodov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi F.Zoirov

Samarqand viloyati hokimi E.O.Turdimovga Nurobod tumani Jom qishlog‘ining Tegirmonboshi MFY hududida yashovchi fuqaro Yaqubova Oliya tomonidan 2018-yil 3-avgustda yozilgan ariza

Hurmatli Erkinjon Oqbo‘tayevich!

Avvalombor Sizni, Samarqand viloyati hokimi vazifasiga tayinlanganligingiz bilan chin yurakdan oilam nomidan tabriklayman. Butun Jom eli Sizni, qadamingiz qutlug‘ kelib, butun viloyatimiz xalqi qalbiga yo‘l topib, shahar va qishloqlarni obod bir maskanga aylantirishingizga ishonamiz.

Muhtaram Yurtboshimiz va Siz kabi oliyjanob rahbarlar qatorida biz ham ozgina bo‘lsada xalqimizga foydasi tegadigan ishlarni amalga oshirishni xohlaymiz. Nurobod tumani Jom qishlog‘i Tegirmonboshi MFY hududida XX asr boshlarida qurilgan eski masjid binosi bor. Ushbu masjid O‘zbekiston

Respublikasi Madaniyat vazirligiga qarashli Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish bosh boshqarmasining Samarqand va Jizzax mintaqalararo davlat inspeksiyasi ro'yxatiga olingan. Biroq sobiq ittifoq davrida buyon ta'mirlanmagan. Men bu inshootning tarixini o'rganib chiqib, ushbu ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib qolgan eski masjid binosini imkon qadar asrashga bel bog'ladim. 2017-yildan 2018-yilning yarmiga qadar ushbu madaniy meros obyektni Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish davlat inspeksiyasi ruxsati bilan o'z mablag'larim hisobidan ta'mirladim.

Hurmatli Erkinjon Oqbo'tayevich, masjid-madrasini to'liq ta'mirlash va oldingi holatiga qaytarish uchun unga tegishli tarixiy hujralarni ham tiklash lozim. Hujralar buzib tashlanib, uning o'rniga devor qurilgan. Agar Sizning rahnamoligingizda ushbu noqonuniy qurilgan devorlar olib tashlansa, men hujralarni inspeksiya bilan kelishgan holda o'z shaxsiy mablag'larim hisobidan tiklashga va'da beraman. Barchamizga ma'lumki, bugun hukumatimiz tomonidan "Obod qishloq" davlat dasturi doirasida bizning Jom qishlog'imizda ham katta ishlar amalga oshirildi. Biroq 4 ta mahallasi bor ushbu qishloqda birorta ham kutubxona mavjud emasdi.

Men 2018-yilning may oyida Nurobod tumani hokimi F.Zoirov huzuriga kirib, kutubxona tashkil qilish uchun kerak bo'ladigan kitoblar va moddiy tovar boyliklarni o'z hisobimdan homiy sifatida olishimni aytdim. Tumanimiz hokimi F.Zoirovga ming rahmat, u kishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi ijrosi yuzasidan 2018-yilning 15-may kuni №118-F-sonli farmoyishi bilan eski masjid

Jom qishlog'i maorifi

binosida kutubxona tashkil qilishga ruxsat berdi. Bugungi kunda kutubxona faoliyat ko'rsatmoqda.

Biroq 2000 donadan ortiq kitob fondiga ega kutubxonada kutubxona ishini yuritish hamda madaniy meros obyekti bo'lgan ushbu binoni qo'riqlash uchun birorta ham shtat birligi mavjud emas.

Shu sababli, Sizdan ushbu yangi tashkil etilgan kutubxona faoliyatini yuritish hamda madaniy meros obyekti bo'lgan kutubxona binosini qo'riqlash uchun yetarlicha shtat birligini ajratishda amaliy yordam berishingizni so'rayman.

Sizga hurmat bilan Jom qishlog'i Tegirmonboshi MFY hududida yashovchi fuqaro O.Yaqubova

Samarqand viloyati Nurobod tumani hokimining 2018-yil 28-avgustdagi №1031-Q-sonli qarori

Tuman hokimligi madaniyat bo'limiga qarashli 2-son Jom madaniyat va aholi dam olish markazida kutubxona tashkil etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi F-4789-sonli "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi ijrosini ta'minlash hamda tuman madaniyat bo'limining 2018-yil 9-avgustdagi №03-53-sonli xatini inobatga olib O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan qaror qilaman:

1. Tuman madaniyat bo'limiga qarashli 2-son Jom madaniyat va aholi dam olish markazining filiali sifatida Tegirmonboshi MFY hududida joylashgan "Mahalla kutubxonasi"ga bitta shtat birligida kutubxonachi faoliyat ko'rsatishiga ruxsat berilsin.

2. Tuman madaniyat bo'limining 2-son Jom Madaniyat va aholi dam olish markazining filiali sifatida "Mahalla kutubxonasi" faoliyat ko'rsatishi munosabati bilan shtat birligi va moddiy texnik bazasini ko'rib chiqish tuman hokimligi Moliya bo'limi (R.Ibragimov)ga, "Mahalla kutubxonasi" faoliyatini nazorat qilish va malakali mutaxassis bilan ta'minlash tuman madaniyat bo'limi (M.Jo'rayev)ga yuklatilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari S.Ilmuradov zimmasiga yuklatilsin.

Nurobod tumani hokimi F.Zoirov.

JOM MADANIYAT VA AHOLI DAM Olish MARKAZI

E.Rahimov 2014-yilning 14-dekabrida Samarqand viloyati injenering kompaniyasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 25- iyundagi №178-sonli "2013-2018-yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori talablaridan kelib chiqib viloyat tumanlarida ana shu markazlarni qurish rejasi shakllantirilayotganligini eshitib, kompaniya bosh muhandisi Rustam Olimovdan bu rejaga qanday kirish tartibini so'rab, viloyat hokimligi tasdiqlagan dasturga asosan obyektning qurilishi mumkinligini aniqlab oldi.

Ushbu masalada murojaat etgan E.Rahimovga Samarqand viloyati hokimi Z.T.Mirzayev rozilik bildirib, "Nurobod tumanida quriladigan madaniyat va aholi dam olish markazini Jomda quramiz, harakatni boshlang!"- dedi.

E.Rahimov 2014-yilning 15-dekabrida Samarqand viloyati injenering kompaniyasiga borib, madaniyat va aholi dam olish markazini qurish uchun qanday hujjatlar talab etilishini aniqladi. Qishloqqa qaytib, Omondara mahallasida joylashgan №8-son madaniyat maskani binosi suratini, tuman yer resurslari va

Jom qishlog'i maorifi

davlat kadastri bo'limi boshlig'i Qo'yliyevdan hududiy xaritani, 20-dekabrda tuman "Suvoqava" IChAKning №57-sonli, 23 dekabrda tuman ETKning №107-sonli, 24-dekabrda tuman obodonlashtirish boshqarmasining №72-sonli, shu kuni tuman gaz bo'limining №1442-sonli xatlarini, 29-dekabrda tuman DSENMning №4-04/651-sonli texnik shartini va Nurobod tumani hokimining 25-dekabrdagi №581-K-sonli "№2-sonli Jom madaniyat va aholi dam olish markazini rekonstruksiya qilish" to'g'risidagi qarorini oldi.

E.Rahimov 2015-yil 19-yanvarda telefon orqali Toyloq tumanida yashovchi Asad hojini Jomga taklif etib, madaniyat va aholi dam olish markazi hududining topotasvirini qildirib, uni O'zGTI filialiga tasdiqlatib tegishli hujjatlarni "Parviz" firmasiga topshirdi, ular markazning taxminiy loyiha chizmasini tayyorlab berishdi.

2015-yil 9-fevralda viloyat DAQN, injenering kompaniyasi, madaniyat va sport ishlari boshqarmasi vakillari kelishib binoning mavjud holati suratini olib ketishdi. 2015-yil 7-martda yana vakillar kelishib binoni qaytadan atroflicha o'rganishdi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 25-iyundagi №178-sonli qarori asosida qurilishning amalga oshirilishini ma'lum qilishdi.

E.Rahimov 2015-yil 16-martda DAQNga borib, 2015-yil 9-fevralda binoning texnik holati bo'yicha tasdiqlangan xulosani Temur Xoliqulovdan oldi.

E.Rahimov 2015-yil 24-martda viloyat monopoliya boshqarmasiga borib bino to'g'risida surishtirganda ular tayyorlangan barcha tegishli hujjatlar Vazirlar Mahkamasiga topshirilganligini, qurilishning qachon boshlanishini injenering kompaniyasidan bilish zarurligini ma'lum qilishdi. Shu kuni E.Rahimov injenering kompaniyasi loyihalashtirish bo'limidan markaz qurilishi kiritilgan 2015-yil rejasidan nusxa oldi.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

2015-yil 26-martda SamDAQI qoshidagi "Konstruksiyani ilmiy tadqiq qilish" guruhi rahbari Valiahmad Usmonovning topshirig'i bo'yicha mutaxassislar D.Usmonov, B.Haydarov va E.K.Klebleyevlar kelishib eski klub binosining texnik holatini o'rganishib, to'plangan ma'lumotlarni ekspertiza qilish uchun olib ketishdi.

2015-yil 26-martda "Parviz" loyiha firmasi rahbari Akmal Jumayev aniq hujjat yo'qligi tufayli №2-son madaniyat va aholi dam olish markazi binosi loyihalashtirilmayotganligini ma'lum qilgach, E.Rahimov Respublika Madaniyat va sport ishlari vazirligining 2015-yil 24-fevraldagi №01-11-08-888-sonli xati asosida injenering kompaniyasiga murojaat etdi. Injenering kompaniyasi loyiha byurosi bo'limi boshlig'i Elmurod Suyarov "Parviz" loyiha firmasiga telefon orqali tasdiqlangan loyiha asosida mahalliy sharoitni hisobga olib 650 million so'm atrofida loyiha hujjatlarini tayyorlash topshirig'ini berdi.

2015-yil 31-mart kuni №2-son madaniyat va aholi dam olish markazi eski binosining joriy davr holati bo'yicha SamDAQI qoshidagi "Konstruksiyani ilmiy tadqiq qilish" markazining xulosasi olindi.

E.Rahimov №2-son madaniyat va aholi dam olish markazi qurilishini tuman hokimi bilan muhokama etishga borganda, injenering kompaniyasi loyiha byurosi bo'limi boshlig'i E.Suyarov ajratilgan mablag' qurilish uchun yetishmasligini, shuning uchun qurilish qoldirilishi mumkinligini tuman hokimiga ma'lum qilgan edi. E.Rahimov shu kuni Samarqandga yetib kelib E.Suyarovni topa olmagach, viloyat Madaniyat va sport ishlari boshqarmasi boshlig'i Nizomov Kamoliddin Hamroyevich bilan suhbatlashdi. U haqiqatan ham qurilish uchun ajratilgan mablag'ning yetishmasligini aytib, Jomdagi toshdan qurilgan xo'jalik binosini kapital ta'mirlash asosida №2-son madaniyat va aholi dam olish markazini qurish taklifini

Jom qishlog'i maorifi

kiritdi. Shunda E.Rahimov bu binoning hech qanday seysmik bog'lovchilarsiz qurilganligini, zilzilaga bardosh bera olmasligini, madaniyat markazi odamlar uchun qurilayotganligini, biror hodisa ro'y bersa unga kim javob berishini so'radi. K.H.Nizomov bu taklifni viloyat Moliya boshqarmasi berganligini aytdi. E.Rahimov binoning yaroqliligi to'g'risida ekspert xulosasidan nusxa so'rab, ushbu masalaga mas'ul viloyat Moliya boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari Ikrom Ahrorovga kirdi. I.Ahrorov haqiqatan ajratilgan mablag'ning yangi bino qurish uchun yetmasligini, shu sababli foydalanilmasdan turgan binolarni kapital ta'mirlab ulardan foydalanish to'g'risida Vazirlar Mahkamasidan xat kelganligini, aynan shu toshdan ko'tarilgan binoni taklif qilmaganligini, bu masalani hal etish viloyat va tuman hokimliklariga bog'liq ekanligini ma'lum qildi. E.Rahimov shu joyning o'zida tuman hokimiga qo'ng'iroq qilib Jom shifoxonasi hovlisida pishgan g'ishtdan qurilgan bir nechta binolar borligini, ulardan foydalanib №2-son madaniyat va aholi dam olish markazini tashkil etish taklifini kiritdi. Bu fikrga tuman hokimi va I.Ahrorov rozilik bildirishdi. E.Rahimov ushbu taklif bilan injenering kompaniyasi loyiha byurosi bo'limi boshlig'i E.Suyarovni xabardor qildi va viloyat hokimi nomiga yozma bildirgi berib chiqdi.

2015-yil 11-aprelda E.Suyarov mutaxassislar maslahatlashib sobiq Jom davlat xo'jaligining devori toshdan terilgan idorasini rekonstruksiya qilib №2-son madaniyat va aholi dam olish markazi qurilishini kelishilganliklarini E.Rahimovga ma'lum qildi.

2015-yil 20-aprelda E.Rahimov SamDAQI qoshidagi "Konstruksiyaning ilmiy tadqiq qilish" markaziga borib sobiq Jom davlat xo'jaligi ma'muriy binosining ilmiy tasdiqlangan xulosasidan nusxa oldi va u bilan injiniring kompaniyasi loyiha byurosi bo'limi boshlig'i E.Suyarovni tanishtirdi. E.Suyarov shu

bino №2-son madaniyat va aholi dam olish markazi bo'ldi, degan qat'iy javobni berib va "Parviz" loyiha firmasi rahbari Akmal Jumayevga loyihalashtirish ishlarini tezlashtirishni aytdi.

E.Rahimov 2015-yil 22- aprelda injiniring kompaniyasidan viloyat eksperteza davlat boshqarmasi nomiga yozilgan №02/159-sonli xatni, 2015-yil 25-aprelda O'zbekiston Respublikasi Davlat Arxitektura va qurilish qo'mitasi Samarqand viloyati davlat ekspertiza boshqarmasining №363-2015-sonli ekspertiza xulosasini, 2015-yil 12-mayda viloyat injiniring kompaniyasidan "O'zbekiston ovozi" gazetasining 2015-yil 1-may sonida e'lon qilingan Nurobod tumani Jom mahallasi hududidagi №2-son madaniyat va aholi dam olish markazini rekonstruksiya qilish to'g'risidagi tanlov savdolar o'tkazish to'g'risidagi e'lonni oldi.

Samarqand viloyati hokimligi Injiniring kompaniyasi buyurtmasiga asosan tanlov savdosi e'lon qilingan Nurobod tumani Jom mahallasidagi №2-sonli madaniyat va aholi dam olish markazini rekonstruksiya qilish obyektini 195 kun muddatda to'lig'icha qurib foydalanishga topshirish «Samarqand Ashyo» MChJ buyurtmachi talablariga mos tashkilot deb topildi.

Qurilish ishlari 2015-yil iyunda boshlanib, shu yilning dekabrda yakunlanishi rejalashtirildi. Bino 2016-yil avgust oyida to'liq rekonstruksiya qilinib, foydalanishga tayyor bo'ldi. Samarqand viloyati hokimining o'rinbosari O.Ochilov raisligidagi Davlat qabul hay'atining qaroriga asosan kapital ta'mirlangan Nurobod tumani Jom mahallasidagi №2-sonli madaniyat va aholi dam olish markazi binosi ishlatishga qabul qilindi. Biroq belgilangan 59 nomdagi jihozlardan 30 nomdakisining Nurobod tumani hokimligi tomonidan olib berilmaganligi uchun binoni foydalanishga topshirish ishlari to'xtab qoldi. 2018-yil Jom "Obod qishloq" dasturiga kiritilishi

Jom qishlog‘i maorifi

munosabati bilan №2-son madaniyat va aholi dam olish markazi zarur jihozlar bilan ta‘minlanib, Turdimurod G‘afforov rahbarligida rubob ijrochiligi, ashula va raqs ansambli, folklor-etnografik ansambli, to‘qish, bichish va tikish to‘garaklari ishlay boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 30-sentyabrdagi №273-sonli bayoni 4-ilovasida madaniyat va aholi dam olish markazining to‘garaklari, studiyalari va jamoalari yo‘nalishlari va ularning nomlari quyidagicha keltirilgan:

1. Badiiy havaskorlik ijodiyoti: ashula va raqs ansambli, zamonaviy va bal raqslari jamoasi, folklor-etnografik ansambli, xoreografiya, teatr san‘ati (qo‘g‘irchoq, drama va boshqalar), vokal-cholg‘u ansambli, milliy cholg‘u asboblari ijrochiligi (rubob, g‘ijjak, nog‘ora, doira, tanbur va boshqalar), karnay va surnay, xor va vokal, akkordeon.

2. Milliy amaliy san‘at: to‘qish, bichish va tikish (zardo‘zlik), pazandalik, musiqa asboblari ta‘mirlash.

3. Nomoddiy madaniy meros to‘garaklari: lapar, alla, o‘lan ijrochiligi, “Baxshi va xalfa”, maqomchilar jamoasi, xalq cholg‘ulari jamoasi, dutorchilar jamoasi, askiya.

4. Studiyalar: dizayn, teatr-studiya, ovoz yozish studiyasi (faqat Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlarida), xalq amaliy san‘ati va tasviriy san‘at studiyalari, qo‘g‘irchoq studiyasi, internet va axborot-kommunikasiya texnologiyalari, xorijiy tillarni o‘rganish hamda “Hamma narsani bilishni xohlayman” studiyasi.

5. Ayollar yig‘ini: ayollar qiziqishlari bo‘yicha muhokama uyushmalari.

6. Sport to‘garaklari: shaxmat-shashka, sog‘lomlashtirish gimnastikasi (yoga, sheyping, fitnes va boshqalar), “Sog‘lomlashtirish” uyushmasi, milliy xalq o‘yinlari.

Bulardan tashqari, aholining ehtiyoji va markazlarning moddiy-texnik bazasi imkoniyatlaridan kelib chiqib, boshqa to'garak, studiya va jamoalar, shuningdek, qonunchilikda belgilangan tartiblar asosida pulli to'garak, studiya va jamoalar tashkil etilishiga ruxsat etilgan.

JOMLIK OLIMLAR

So'fizm, tasavvuf – islomdagi yirik falsafiy oqim bo'lib, uning asosiy obyekti insonning Ollohga munosabatidir. Professor B.O'rinboyev ma'lumotiga asosan, sufiylik yo'li (suluki, tariqati), ruhiy kamolotga erishish yo'llarining 76 yo'nalishi mavjud. Movarounnahrda tasavvuf X asrda tarqala boshlagan. Bunda yirik mutasavvuf Yusuf Hamadoniyning (1048-1140 y.y.) xizmatlari katta. Undan Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoniylar tasavvuf ilmidan ta'lim olgan. Abduxoliq G'ijduvoniylar Bahouddin Naqshbandning ma'naviy otasi. «Naqshbandiya» ta'limotining sufiylik yo'nalishi tarkibiga kiruvchi o'n bitta qoidasi bo'lib, ulardan to'rttasi (Xush dar dam, Nazar dar qadam, Safar dar vatan, Xilvat dar anjuman) Shayx Yusuf Hamadoniylar tomonidan, yana to'rttasi (Yodkard, Bozgasht, Nigohdosht, Yoddosht) Xoja Abduxoliq G'ijduvoniylar tomonidan, qolgan uchta (Vuqufi adadiy, Vuqufi zamoniylar, Vuqufi qalbiy) Xoja Bahouddin Naqshband tomonidan ishlab chiqilgan.

«Naqshbandiya» ta'limoti asosida xalq og'irini yengil qilish, halol bo'lish, kasb-hunar egallash va «dast ba kor-u dil ba yor» (qo'l mehnat bilan mashg'ul, dilda Xudo bo'lsin) kabi olijanob, dunyoviy va hayotiy g'oyalar yotadi.

«Naqshbandiya» tariqatining XV asrdagi eng yirik vakili mutasavvuf donishmand Xoja Ahrori Valiylar «biz xalqning og'irini yengil qilmoq uchun, xaloyiq baxti saodati, deb podshohlar va sultonlarga yaqinlashganmiz», – degandi. Xoja

Jom qishlog‘i maorifi

Ahrori Valiy ustalik va donolik bilan shohlar, sultonlarni murosaga keltirib, xalqni ofatlardan saqlagan.

Buxoro shahrida joylashgan juda katta tarixiy, me‘moriy majmua – Bahouddin Naqshband xonaqosi nomi bilan yuritiladi. Abdulxoliq G‘ijduvoni nomi bilan ataladigan xonaqohlar ham mavjud. Xonaqoh shayxning so‘fi va darvishlar bilan zikr-u samo qiladigan xonasi. Darveshlar, ziyoratchilarning tunash joyi tarzida qurilgan [5].

Jom qishlog‘ining Hafrinbobo qabristoni sharqiy tomonidagi xonaqohda yilning ma‘lum davrlarida darveshlar to‘planishgan. Darveshlar kinolarda ko‘rsatiladigan juldurvaqi odamlar bo‘lishmagan. Ular egniga yetti xil rangdagi matolardan tikilgan chakmon, boshlariga kuloh kiyishgan. Aholi ularning kiyimlariga qarab, darveshliklarini bilishgan va hurmat-ehtirom ko‘rsatishgan. Buxoroning xalq sevgan amirlaridan Amir Shohmurod madrasani bitirib, darveshlik suluki tarafdori, targ‘ibotchilaridan biriga aylangan.

Darveshlar dunyo kezib, har bir qishloqdagi insonlar hayoti uchun zarur tajribalarni o‘rganishgan va boshqa ellarga tarqatishgan.

Komil insonlikka erishishning yetti darajasi: darvesh, orif, olim, vali, na‘biy, qutb, payg‘ambar bo‘lib, darveshlar shunga mos ravishda yetti xil rangda libos kiyishgan. Darveshlar ma‘lum darajaga yetishgach, tasavvuf ilmining 76 yo‘nalishidan faqat bittasi bilan shug‘ullanib, uni egallab oriflik darajasiga erishgan. [5].

Hozirgi olimlarimizning ayrimlaridan “Ko‘nglimga kelgan fikrlarim, hayotda haqiqat bo‘lib chiqmoqda”- degan gaplarni eshitamiz. Bunga asos bor, olimlik inson kamolatining oriflik va valiylik orasidagi uchinchi, ya‘ni valiylikka yaqin darajasidir.

Alloma ilm-fanning bir yoki bir necha sohasini mukammal egallagan kishi, bilimdon ma‘nosini anglatadi.

SHUKUR RASULOV shunday inson edi.

Shukur Rasulov 1921-yilda tugʻilgan. 1941-1945-yillarda ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. 1946-1950 yillarda Samarqand qishloq xoʻjalik instituti veterinariya fakultetida oʻqigan. 1951-yildan shu institutning epizootologiya kafedrasida assistent, 1954- yildan dotsent, 1959-yildan 1977-yilgacha, yaʼni umrining oxirigacha kafedra mudiri, 1965-1970-yillarda veterinariya fakulteti dekani lavozimlarida ishlagan.

1970-yilda «Oʻzbekistonda qoramollarning temiratki kasalligini davolash yoʻllari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. Buzoqlarning paratif kasalligiga qarshi vaksina ishlab chiqqan. 1972-yildan professor boʻlgan.

Sh.Rasulov veterinariyaning quyidagi 9 yoʻnalishi boʻyicha ilmiy maktab yaratgan va unga rahbarlik qilgan: temiratki kasalligiga diagnoz qoʻyish usullari; temiratki kasalligida tananing jarohatlanish joylari haqida; kasallik qoʻzgʻatuvchisining tashqi muhit sharoitiga chidamliligi haqida; maxsus davolovchi dorivorlar ishlab chiqish; temiratki kasalligi uchun tayyorlangan formal kvastsli vaksinaning har xil usulda organizmga yuborilishi; temiratki kasalligidan keladigan iqtisodiy zarar; kasallik qoʻzgʻatuvchisining organizmda tarqalish yoʻllari; kasallikka qarshi kurash vaksinasini qoʻllash; xoʻjalikni temiratki kasalligidan sogʻlomlashtirish tadbirlari.

14 tomlik «Oʻzbek sovet ensiklopediyasi»ning veterinariya sohasiga doir qator maqolalar muallifi, sobiq SSSRda VASXNIL va VIEVda veterinariya boʻyicha ekspert komissiyaning aʼzosi boʻlgan. 5 nafar fan nomzodi tayyorlagan. Hurmat belgisi, Qizil yulduz ordenlari va qator medallar bilan mukofotlangan.

Quyidagi asarlar muallifi:

1. Oʻzbekistonda qoramollarning trixofitiya (temiratki)si. - Samarqand, 1969.

Jom qishlog'i maorifi

2. Veterinariya asoslari. -Toshkent, 1974 y.

Sh. Rasulov turmush o'rtog'i Marziya Rasulova bilan ikki o'g'il, ikki qizni tarbiyalab voyaga yetkazishdi. Katta o'g'li Olim Rasulov 1959-yil tug'ilgan, veterinariya fanlari nomzodi, dotsent. 1998-yildan buyon Toshkent shahridagi hayvonot bog'iga rahbarlik qiladi. 2007-yilda hukumatimiz tomonidan Mehnat shuhrati ordeni bilan mukofotlandi. Salim zootexnik, parrandachilik bo'yicha yetuk mutaxassis. Dilbar Toshkentdagi Jahon tillari universitetida o'qituvchi. Gulbahor Jizzax viloyat veterinariya laboratoriyasida katta laborant.

Hamkasblar Shukuri RASULOV haqida

Shukur Rasulov bilan 1951-yildan do'st-hamkor bo'lib ishladik, u kishi mohir murabbiy, serqirra va sermazmun faoliyatida juda ko'p turli millatlardan shogirdlarga ta'lim-tarbiya bergan, bu shogirdlari xalq xo'jaligining turli sohalarida fidokorona mehnat qilib, vatanimiz ravnaqi yo'lida munosib hissani qo'shib kelmoqdalar.

Sh.Rasulov SamQXIda uzoq yillar fidokorona mehnati bilan dekan, partiya tashkiloti rahbari, kafedra mudiri lavozimlarida yuksak tashkilotchi sifatida ishlab katta obro' qozondi. Sh.Rasulov yirik fan arbobi, respublikamizda veterinariya fanini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan, u kishining ilmiy ijodi nafaqat O'zbekistonda, balki eski ittifoq veterinariya olimlari orasida ham katta bahoga sazovor bo'lgan va tanilgan.

O'zbekistonda 2000 olim bo'lib, ulardan faqat ikki inson O'zbekiston FAning prezidenti O.Sodiqov ximiya, Sh. Rasulov qishloq xo'jalik fanlari bo'yicha sobiq SSSR Oliy Attestatsiya komissiyasining a'zolari bo'lgan edi.

Shukur Rasulov chehrasida tabassum, mehribon va adolatli do'st sifatida xotiramda abadiy yashaydi.

**1944-yildan buyon hayotini SamQXI bilan bog'lab,
unga 1961-1977-yillarda rektorlik qilgan**

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

professor Ro‘zi Hayitov. 2007-yil.

Sh. Rasulov veterinariya sohasi bo‘yicha ittifoqda taniqli, o‘ta kuchli olim edi. U kishining oldida nafaqat mahalliy, balki rus, yahudiy millatiga mansub professorlar ham o‘zlarini ojiz sezishardi.

**Veterinariya fakulteti dekani,
q.x.f. doktori I.Maxsudov. 2006- yil.**

Sh. Rasulov salohiyatli tashkilotchi, kuchli olim professor va talabalarning mehribon ustози edi. 1968-yil Fransiyada bo‘lgan xalqaro konferensiyaga sobiq SSSRdek katta davlatning veterinariya sohasi bo‘yicha delegatsiyasining boshlig‘i bo‘lib bordi. Sh.Tog‘ayevich yosh ketdi, u kishi vafot etganda, institutning yarmi qulab ketgandek bo‘lgan.

**Samarqand shahridagi Nayman mahallasi oqsoqoli,
SamQXIning akusherlik kafedrası mudiri, dotsent
P.Mamatov. 2005-yil.**



ZEBINISO RAXMANOVA 1969-yil 22-aprelda Pastdarg‘om tumaniga qarashli Jom qishlog‘ida tug‘ilgan. 1986-1991-yillarda Samarqand davlat universiteti talabasi, 1992-1993-yillarda Samarqand davlat universiteti zoologiya kafedrası laboranti, 1992-1996-yillarda Samarqand davlat universiteti magistranti, aspirant, 1996-1997-yillarda Samarqand davlat universiteti zoologiya muzeyi laboranti va katta laboranti, 1997-2005-yillarda Samarqand davlat universiteti zoologiya kafedrası assistenti, 2005-2008-yillarda Samarqand davlat universiteti zoologiya kafedrası dotsenti, 2008-2011-yillarda Samarqand davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti biologiya bo‘limi dekani o‘rinbosari, 2012-2013-yillarda Samarqand davlat universiteti zoologiya kafedrası mudiri, 2013-2017-yillarda

Jom qishlog'i maorifi

Samarqand davlat universiteti magistratura bo'limi boshlig'i, 2017-2018-yillarda Samarqand davlat universiteti tayyorlov markazi dekani, 2018-2018-yilda Samarqand shahar hokimining o'rinbosari, xotin-qizlar qo'mitasi raisi vazifasini vaqtincha bajaruvchisi, 2018-2020-yillarda Samarqand shahar hokimining o'rinbosari, xotin-qizlar qo'mitasi raisi, 2020-2021-yillarda Samarqand shahar mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'lim boshlig'ining xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo'yicha birinchi o'rinbosari, 2021-yilda Samarqand davlat universiteti pedagogika fakulteti dekani, 2021-2022-yillarda Samarqand davlat universiteti yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori, 2022-yildan Samarqand viloyati hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i.

Z.P.Raxmanovanning 50 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlari nashr etilgan va ularning ko'pchiligidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanilmoqda.

Z.P.Raxmanova qator xalqaro va respublika ilmiy anjumanlarida faol ishtirok etgan. Jumladan, 2007-yilda molekulyar biologiya bo'yicha butunjahon kongressida grant sohibasi sifatida AQShning Vashington shtatida bo'lib kongress ishida o'z ma'ruzasi bilan qatnashgan. Shuningdek, 2008-yilda Janubiy Koreya respublikasi Seul shahrida bo'lib o'tgan o'z sohasiga oid kongressda qatnashgan. 2009-yilning iyun oyida "Biologiyadan masofali o'qitish" bo'yicha Germaniya davlatining Berlin shahrida tashkil etilgan o'quv kursida qatnashgan.

Z.P.Raxmanova ta'lim jarayoni bilan bir qatorda jamoat ishlarida, rahbarlik lavozimlarida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Oqqan daryo oqmay qolmaydi,— degan xalq naqlining to'g'riligi, juda ko'p rahbarlik lavozimlarida, jumladan, Nurobod tumani ijroqo'mining raisi bo'lib ishlagan, iqtidorli

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

rahbar, Jomning haqiqiy o'g'loni Po'lat Raxmonovning qizi Zebiniso Po'latovna misolida aynan namoyon bo'lib turibdi.

Jomliklar Po'lat Raxmonov va uning qizi Zebiniso Po'latovna bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

Jom elidan Zebiniso Po'latovnaning oilaviy hayotiga qiziquvchilarning ko'pligini e'tiborga olgan holda, uning yaqin qarindoshlari to'g'risidagi ma'lumotni keltirdik:

Qarindoshligi	Familiyasi, ismi va otasining ismi	Tug'ilgan yili va joyi	Ish joyi va lavozimi	Turar joyi
Otasi	Raxmanov Pulat Raxmanovich	1933-yil, Samarqand viloyati, Nurobod tumani	2012 yil vafot etgan (Nurobod tumani ijroiya qo'mitasi raisi)	
Onasi	Raxmanova Nasibali Raximovna	1942-yil, Nurobod tumani	2017-yil vafot etgan	
Opasi	Namozova Roxila Pulatovna	1961-yil, Nurobod tumani	Pensiyada (Nurobod tumani "Sharq Yulduzi" mahalla fuqarolar yig'ini maslahatchisi)	Nurobod tumani, Tinchlik ko'chasi, 10-uy
Akasi	Raxmanov Anvar Pulatovich	1963-yil, Nurobod tumani	2017-yil vafot etgan	
Opasi	Riskulova Ozoda Pulatovna	1966-yil, Nurobod tumani	Pensiyada (Nurobod tumani "Navro'z" mahalla	Nurobod tumani, Alisher Navoiy, ko'chasi

Jom qishlog'i maorifi

			fuqarolar yig'ini mutaxassisi)	10-uy
Ukasi	Raxmanov Olimjon Pulatovich	1971-yil, Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani	Nurobod tumani 44- maktab direktori	Nurobod tumani, Alisher Navoiy, ko'chasi 2-uy
Turmu sh o'rtog 'i	Tursunov Akram Alimbayevich	1969-yil, Pastdarg'om tumani	Pensiyada (Samarqand viloyati Ichki ishlar boshqarmasi inspektori)	Toyloq tumani, Vorsin mahallas i, 55-uy
O'g'li	Tursunov Javlonbek Akram o'g'li	1994-yil, Samarqand shahar	Samarqand davlat universiteti, tarix fakulteti tyutor	Toyloq tumani, Vorsin mahallas i, 55-uy
Qizi	Tursunova Dilnura Akram qizi	2002-yil, Samarqand shahar	Samarqand tibbiyot instituti 1-bosqich talabasi	Toyloq tumani, Vorsin mahallas i, 55-uy
Qayno tasi	Tursunov Alimboy XXX	1936-yil, Nurobod tumani	2010-yil vafot etgan (Nurobod janubiy kon boshqarmasi xodimi)	
Qayno nasi	Shodmonova Novvot XXX	1948-yil, Nurobod tumani	2009-yil vafot etgan	

DILOROM YORMATOVA 1947-yil tugʻilgan. 1963-1968-yillarda SamQXI agronomiya fakultetida tahsil olgan. Talabalik yillaridayoq institutning «Oʻzbekiston qishloq xoʻjalik fani uchun» nomli gazetasida qator maqola va sheʼrlari eʼlon qilingan.

1969-1998-yillarda SamQXIda laborant, assistent, dotsent va professor lavozimlarida ishlagan.

1974-yilda Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan qishloq xoʻjalik xodimi professor Y.P.Gorelov rahbarligida, Oʻzbekistonda poliz ekinlarining hosildorligiga oraliq ekinlarning taʼsiri mavzusida nomzodlik, 1993-yilda «Oʻzbekistonda soya yetishtirish texnologiyasi va urugʻchiligining ilmiy asoslari» mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan.

1999-2000-yillarda Toshkent davlat agrar universitetining «Oʻsimlikshunoslik» kafedrası professori boʻlib ishlagan.

2001-yildan Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti «Tabiiy fanlar» kafedrası mudiri.

Bugungi kunda masxar, soya, kunjut, zaytun kabi moyli ekinlarning biologiyasi, oʻstirish texnologiyasi va urugʻchiligining ilmiy asoslari boʻyicha keng qamrovli ilmiy ishlar olib bormoqda. Shu sohada Respublikada yetakchi mutaxassis hisoblanadi. Bir qancha nomzodlik va doktorlik ilmiy ishlarga rahbarlik qildi. 200 dan ziyod ilmiy maqolalar, uslubiy qoʻllanmalar, tavsiyanomalar va risolalar chop etgan. 4 ta monografiya, 10 dan ortiq oʻquv qoʻllanmalar va darsliklar muallifi. Kasb-hunar kollejlari uchun 8 ta darsligi chop etilgan. Jumladan, 2002-yilda kollejlari uchun «Oʻsimlikshunoslik» darsligi chiqdi. Shu darsliklaridan 6 tasi 2005-yilda qayta nashr etildi. Oliy oʻquv yurtlari uchun 6 ta kitobi, shuningdek, «Moyli ekinlar», «Soya» nomli monografiyalari nashrdan chiqqan.

Jom qishlog'i maorifi

Turmush o'rtog'i Solijon Hushvaqtoev qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor. Qizi Husnobod Hushvaqtoeva iqtisod fanlari nomzodi, Toshkentdagi irrigatsiya va melioratsiya institutining dotsenti. O'g'li Zafarjon Hushvaqtoev Toshkentdagi Xalq xo'jalik institutini bitirgan, hozirda Samarqand shahridagi bank ishida mas'ul rahbar xodim. Qizi Umida Hushvaqtoeva Toshkentdagi chet tillar institutida o'qigan, hozirda AQShning nufuzli universitetlaridan birida o'qishini davom ettirmoqda.

Dilorom Yormatova O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasida yetishib chiqqan olim ayollarning birinchilaridan. Shuning bilan birgalikda adabiyotga, xususan she'riyatga mehr qo'ygan. Matbuotda ko'plab she'rlari chop etilib turadi. Jumladan, qishlog'i Jom haqidagi she'riy to'plamga kirgan ushbu satrlar e'tiborga loyiq:

Dunyo yo'llaringda bitta darveshman,
Qo'llariga irg'ay aso ushlagan.
Do'lanaga qo'nib turgan bir qushman,
Tumshug'ida bug'doy donin tishlagan.

O'TKIR SOATOV 1954-yilda tug'ilgan. 1977-yilda Kiyev muhandislik-qurilish institutini tamomlagan. 1977-1978-yillarda Samarqand davlat arxitektura va qurilish institutida assistent bo'lib ishlagan. 1978-1980-yillarda harbiy xizmatda bo'lgan. 1981-yilda Leningrad muhandislik-qurilish instituti aspiranturasiga o'qishga qabul qilingan. 1984-1996-yillarda Leningrad muhandislik-qurilish institutining kichik ilmiy xodimi, fan doktori, katta ilmiy xodimi va professori lavozimlarida mehnat qilgan. 1996-yildan Samarqand davlat arxitektura va qurilish institutida kafedra mudiri, 2003-yildan boshlab shu dargohda o'quv ishlar bo'yicha prorektor lavozimida faoliyat ko'rsatmoqda.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Iqtidorli olim O'.Soatov So'g'diyona massividagi katta istirohat bog'i, shuningdek, Samarqand shahridagi aksariyat favvoralar loyihalarining muallifi. O'.Soatov shaharsozlik bo'yicha xalqaro miqyosdagi yetuk mutaxassis sifatida tan olingan. 2007-yildan Qozog'istonning qator shaharlari, jumladan, Ostona va Olmaota shaharlarini qayta qurish bo'yicha bosh maslahatchilardan biri sifatida O'zbekistonga katta hurmat va iqtisodiy foyda keltirmoqda.



BOBOYEV SOBIRJON MURADULLAEVICH texnika fanlari doktori, professor. 1959-yil 17-noyabrda tug'ilgan. Otabobolari Omondara mahallasining Beshbarmoq qishlog'idan. 1981-yil Kiev muhandislik-qurilish

institutining "Issiqglik-gaz ta'minoti va ventilyatsiya" mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan. 1983-1987-yillarda - Moskva muhandislik-qurilish instituti "Isitish va ventilyatsiya" kafedrası aspiranti, 1987-1991-yillarda - Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti "Issiqlik-gaz ta'minoti va havo havzalarini muhofaza qilish" kafedrası assistenti, kichik ilmiy xodimi, katta ilmiy xodimi, 1991-1992-yillarda - Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti "Issiqlik-gaz ta'minoti va havo havzalarini muhofaza qilish" kafedrası dotsenti, 1992-1997-yillarda - Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti "Issiqlik-gaz ta'minoti va havo havzalarini muhofaza qilish" kafedrası mudiri, 1997-2011-yillarda - Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti o'quv ishlari prorektori, rektor vazifasini bajaruvchi, rektori, 2011-2018-yillarda - Samarqand davlat universiteti "Ekologiya" kafedrası professori, 2018 yildan

Jom qishlog'i maorifi

- Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti issiqlik gaz ta'minoti, ventilyatsiya va servis kafedrası mudiri lavozimlarida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

S.Boboyev 2000-yilda texnika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyani himoya qilgan. Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti huzurida texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.26/27.02.2020.T.109.01 raqamli ilmiy Kengash raisi. U rais sifatida ilmiy izlanuvchilar va tayanch doktorantlar dissertatsiya ishlari himoyasini tashkil qilish va o'tkazish, ilmiy seminarlar, malakaviy imtihonlarni qabul qilishni tashkil qilishda faol ishtirok etmoqda. 2019-yildan akademik M.S.Osimiy nomidagi Tojikiston texnika universiteti huzuridagi doktorlik ilmiy darajasini beruvchi GD.KOA-016 ilmiy Kengash a'zosi sifatida hamda doktorlik dissertatsiya ishlariga rasmiy opponentlik qilib kelmoqda. OAK xay'atining ro'yxatiga kiritilgan "Me'morchilik va qurilish muammolari" ilmiy-texnik jurnali hamda Scopus-Web of Science ro'yxatiga kiritilgan "PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION" xalqaro ilmiy-texnik jurnallarida tahririyat hay'ati a'zosi.

S.Boboyevning ilmiy rahbarligida 2021- yil sentyabr oyida M.Axmedova va 2021- yil dekabr oyida G.Keldiyorovalar texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini himoya qilishdi.

S.Boboyev 2020, 2021, 2022- yillarda Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti, Volgograd davlat texnika universiteti va Belorussiya Milliy texnika universiteti hamkorligida "Muhandislik kommunikatsiyalari sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy qilishning muammo va yechimlari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumanini tashkil qilgan.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

S.Boboyev tomonidan 2 ta monografiya, 5 ta o'quv qo'llanma, 4 ta Scopus xalqaro ilmiy jurnallarida va bir qator ilmiy maqolalar chop qilingan. Bugungi kunda kafedrada iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'yicha "Yosh muhandis" ilmiy tugaragi faoliyat ko'rsatmoqda. Unga 25 nafar talaba jalb qilingan. S.Boboev rahbarligida 2018-2019 o'quv yilida F.Sattorov, 2019-2020 o'quv yilida Sh.Oblaqulovlar "Ventilyatsiya va havoni mo''tadillash" fanidan respublika fan olimpiadasida qatnashib fahrli III-o'rinni egallashgan. S.Boboev bitiruv loyiha ishlariga rahbarlik qilgan talabalardan M.Majidov, T.Primov va U.Botirovlar "International festival of architectural civil engineering and design schools of eurasia" ko'rik tanlovida ishtirok etib T.Primov 3-darajali diplom bilan taqdirlandi. 2018 yilda Volgograd davlat texnika universiteti "Effektivnye modeli i texnologii resursoberejeniya, energosberejeniya i prirodopol'zovaniya v stroitel'stve i JKX" ko'rik tanlovida ishtirok etgan magistr A.Abdulxamidov 1-darajali diplom bilan taqdirlangan. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan tashkil etilgan "Yangi asr iste'dodlari" respublika ko'rik tanlovida S.Boboev rahbarligida "Eng yaxshi innovatsion muhandislik kommunikatsiyalari loyihalari va ishlanmalari" bo'yicha 2018-yilda Z.Fayziev 1-o'rinni, 2019-yilda K.Volkova 3-o'rinni egallagan.

S.Boboyev SamAVTO zavodining "Boshqaruv binosi" va "Lazer sexi", Urgut erkin iqtisodiy zonasidagi "URGUT TEKSTIL" MChJ, "Samarqand sifat go'sht savdo" MChJ, Farxod shaharchasidagi Keramik mahsulotlar ishlab chiqarish zavodi, Samarqand shahridagi tikuv fabrikasi, Samarqand tumanidagi "AGROMIR" qo'shma korxonasi ishlab chiqarish sexi va boshqa binolarni ventilyatsiya va havoni mo''tadillash tizimlarini amaliy loyihalash ishlarini bajargan.

Jom qishlog'i maorifi



QIYAMOV NISHON SADIKOVICH

1959-yil 9-mayda tug'ilgan. Omondara mahallasining Besbarmoq guzarida umrguzaronlik qilgan Qiyom qassob boboning nabirasi. Sharof Rashidov nomidagi SamDU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Fakultetlararo pedagogika kafedrasida 1991 yildan faoliyat kursatib kelmqda. 1995-yilda "Maktab musiqa darslari orqali o'smirlarda vatanparvarlik va baynalmilal his tuyg'ularini shakllantirish" mavzusida 13.00.01 - Pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

2011-yildan universitet mustaqil tadqiqotchisi sifatida 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligidan "Oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslarini takomillashtirish" mavzusi bo'yicha Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasini 2019-yil 18-oktyabr kuni muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Ilmiy faoliyati davomida 2 ta uslubiy qo'llanma, 2 ta monografiya, 10 dan ortiq xorijiy, 80 dan ziyot Respblika jurnal va Ilmiy anjumanlari to'plamlarida Ilmiy maqolalar e'lon qilgan.

Nishon Sodikovichning bobosi Qiyom qassob oq sariqdan kelgan o'ta iymonli inson edi.

Jomning G'istband suv omboriga 10 gektar tog'li maydonlardan buloq va sei suvlari oqib keladi. Qorazov tog'ining januv tomomida joylashgan Kaptarxona tepaligi bilan G'ishtband oralig'idagi soyning shimoliy sohilidagi nisbatan teks maydonga jamoa xo'jaligining qoramolchilik imoratlari joylashgan, shu joyda Qiyom qassob bobo ishlardi. Qo'ylarini

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

shu soydan suvlatgan otam bilan Qiyom boboning ko‘p suhbatlariga guvoh bo‘lganman.

MUSURMONOV AZZAM TURDIYEVICH 1961-yil 7-aprelda Omondara MFY hududidagi Dor soy guzarida tug‘ilgan.

1968-yilda Pstdarg‘om tumani markazidagi A.Navoiy nomli 21-maktabni oltin medal bilan bitirgan.

1978-1983-yillarda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish institutida o‘qigan.

1984-1988-yillarda Qrim qishloq xo‘jalik instituti asperanturasida o‘qigan.

1989-1990-yillarda Samarqand qishloq xo‘jalik instituti “Mashina-traktor parkidan foydalanish” kafedrası assistenti, 1990-1999-yillarda shu instituti “Umumiy injenerlik fanlari” kafedrası assistenti, dotsenti lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan.

2000-yilda Samarqand DU huquqshunoslik fakultetini bitirgan.

1999-2018-yillarda Samarqand qishloq xo‘jalik instituti “Qishloq xo‘jalik va chorvachilik mashinalari” kafedrası mudiri lavozimida mehnat qilish jarayonida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirgan va 2019-yilda doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan.

2021-2023-yillarda Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Agrotexnologiya, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish” kafedrası professori lavozimida ishlab kelmoqda.

Mehnat faoliyati davomida 200 dan ortiq ilmiy maqolalar, 4 ta monografiya yozgan, 25 ta ixtiro patentlarini olgan. Uch nafar farzandning otasi.

Jom qishlog'i maorifi

SAMARIDDIN ELMIRZAYEV 1982-yil 10-noyabrda Jom qishlog'i Hafrin guzarida ishchi oilasida tug'ilgan.

2000-yilda qishloqdagi O'rol Bozorov nomli 63-o'rta maktabni a'lo baholar bilan tamomlagan. Akasi Shodiyor Elmirzaev bilan qishloqning chagana qo'ylarini boqqan. Toshkentga borish uchun qishloqning o'zida mardikorlik qilgan.

Shu yili Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga o'qishga hujjat topshirgan, natija muvaffaqiyatsiz bo'ladi.

2001-yilda yana Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga o'qishga topshirgan. Bu galgi imtihon natijalariga ko'ra universitetga to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilingan. Lekin... Lekin to'lov-kontrakt summasini to'lashga oilaviy sharoit to'g'ri kelmaganligi bois, o'qishni tashlab ketishga to'g'ri kelgan. 2002-yil imtihonga qadar qariyb bir yil Zangiota tumanidagi Bo'zsuv kanali bo'yida joylashgan chorvachilik fermasida ham ishlab, ham o'qishga tayyorgarlikni davom ettirgan.

2002-yil yoz oylarida ketma-ket uchinchi yil yana Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga o'qishga topshirmoqchi bo'lib yurganida, qabul mas'uli bilan bog'liq masala yuzaga keladi. Shu boisdan o'z hujjatlarini Toshkent moliya instituti "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishiga topshiradi va davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi.

2006-yil Toshkent moliya instituti bakalavriat bosqichini muvaffaqiyatli tamomlagach, shu yili institutning "Soliqlar va soliqqa tortish" magistratura mutaxassisligiga o'qishga qabul qilinadi.

Magistraturaga kimgach, mehnat faoliyatini institutning "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" kafedrasida 0,5 stavka laborant lavozimidan boshlaydi. 2007-yil davomida 2-Toshkent yuridik kollejida "Iqtisodiyot" fani bo'yicha soatbay o'qituvchilik qiladi. 2008-yil

yanvar-iyun oylarida esa Toshkent iqtisodiyot va servis kollejida soatbay o'qituvchilik qiladi.

2008-yil iyul oyida Toshkent moliya instituti magistraturasini muvaffaqiyatli tamomlagach, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan iqtisodchi, professor Qosim Yahyoev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Buvsara Toshmurodova tavsiyalari asosida institutning "Moliyaviy menejment" kafedrasiga assistent sifati ishga qabul qilinadi. 2008-yilning sentabr oyidayoq Toshkent moliya institutiga mustaqil izlanuvchi sifatida qabul qilinadi va professor Buvsara Toshmurodova ilmiy rahbarligida ilmiy tadqiqot ishlarini boshlagan.

Murakkabliklar va iroda, to'siqlar va intilish natijasida 2012-yil 11-may kuni O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi huzuridagi Birlashgan ixtisoslashgan Kengashda "O'zbekiston Respublikasida korporativ soliq menejmentini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan va iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasi berilgan.

2013-2014-yillarda Toshkent moliya instituti "Budjet hisobi va davlat jamg'armalari" fakulteti dekan o'rinbosari lavozimida ishlagan. 2015-2017-yillarda esa Toshkent moliya instituti katta ilmiy-xodim izlanuvchisi sifatida fan doktori dissertatsiyasi ustida ish olib boradi. Aynan 2013-2017 -yillarda "Moliyaviy menejment" kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchi sifatida ham sermahsul faoliyat olib boradi.

2017-yil 29-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashda "Korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlarini takomillashtirish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi va O'zbekiston

Jom qishlog'i maorifi

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan fan doktori ilmiy darajasi beriladi.

2019-yil noyabr oyida dotsent, 2020-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan professor ilmiy unvonlari berilgan.

2018-yil boshidan Toshkent moliya instituti "Moliyaviy menejment" kafedrasini mudiri lavozimiga tayinlanadi. 2019-yil sentabrda kafedra nomi "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" deya o'zgartiriladi va Samariddin Elmirzayev 2022-yil 29-iyulga qadar mazkur kafedra mudiri lavozimida faoliyat yuritgan.

2022-yil 1-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi "Investitsiyalar va moliya bozori" kafedrasini mudiri lavozimida ishlab kelmoqda. Shuningdek, 2020-yil sentabr oyidan tashqi o'rindoshlik asosida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya" kafedrasini professori hamdir.

17 yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomida bevosita muallifligida 200 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar e'lon qilgan. Xususan, korporativ moliya, moliyaviy menejment, moliya bozori, korporativ boshqaruvga doir 14 ta darslik va 5 ta o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi grifi asosida nashr qilingan va o'quv jarayoniga joriy qilingan. Ilmiy tadqiqotlar doirasida 6 ta ilmiy monografiya, 70 dan ortiq ilmiy maqola, jumladan 20 ga yaqin xorijiy maqola, 100 dan ortiq xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza tezislari muallifidir. Raqamli iqtisodiyot talablari asosida Samariddin Elmirzayev muallifligida yaratilgan 3 ta elektron darslik, bitta elektron iqtisodiy atamalar izohli lug'ati, 2 ta dasturiy mahsulot yaratilib, Intellektual mulk agentligi tomonidan davlat reestriga kiritilgan.

Korporativ moliyaviy munosabatlarga doir davlat tilidagi ilk adabiyot sifatida Samariddin Elmirzayev muallifligida yozilgan “Korporativ moliya” o‘quv adabiyoti “Yilning eng yaxshi darsligi va o‘quv adabiyoti – 2016” respublika tanlovida eng yaxshi darslik, deb topilgan.

Samariddin Elmirzayevning 2018-yildayoq jahon iqtisodiyotidagi rivojlanish tendensiyalari tahlili va takliflari asosida O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida «Moliyaviy texnologiyalar» bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlash boshlangan.

Samariddin Elmirzayev bevosita ilmiy rahbarligida 5 nafar iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) tayyorlangan.

Samariddin Elmirzayev bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc.09/31.08.2022.I.151.01 raqamli Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari va Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi sifatida ishlab kelmoqda. Shuningdek, Toshkent moliya instituti huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli Ilmiy kengash va Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar a’zosi.

Samariddin Elmirzayev bugungi kunda “Moliya va raqamlashtirish xalqaro jurnali” (International Journal of Finance and Digitalization) bosh muharriri, “Xalqaro moliya va hisob (International Finance and Accounting)”, “Moliya va bank ishi”, “Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi” ilmiy jurnallarida tahrir hay’ati a’zosi hisoblanadi.

Ilmiy-pedagogik faoliyat bilan birga Samariddin Elmirzayev amaliyotda ham samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Jumladan, 2020-2021-yillarda “Biokimyo” aksiyadorlik jamiyatida, 2020-2022-yillarda “O‘zbekekspertiza” aksiyadorlik jamiyatida Kuzatuv kengashi a’zosi, mustaqil direktori lavozimida faoliyat yuritgan. 2022-yil iyul oyidan

Jom qishlog'i maorifi

O'zagroeksportbank aksiyadorlik jamiyatida Kuzatuv kengashi a'zosi, mustaqil direktori lavozimida ishlab kelmoqda.

Samariddin Elmirzayev 2020-yil mart-may oylarida Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Kolumbiya Universitetida stajirovka o'tab qaytgan. 2018-yil aprel, 2019-yil aprel oylarida Rossiya Federatsiyasi Federal moliyaviy monitoring xizmati huzuridagi Xalqaro o'quv markazida, 2022-yil noyabr oyida Koreya Respublikasi Handong Global universitetida malaka oshirgan.

Samariddin Elmirzayevning hayot yo'li ko'pchilik yoshlar uchun ibrat bo'lmog'i darkor. U juda ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirgan, hayot so'qmoqlarida qoqilgan, yiqilgan, zarbalar yegan, biroq joyidan mardona turib yan olg'a qadam tashlayvergan, oqibatda o'z oldiga qo'ygan hurmatli, sharaflı maqsadiga erishgan.

Shu o'rinda yana bir juda muhim fikr tug'ladi: ota-onalar hamda bobo va momolarda biz farzandlarimiz va nabiralarimizning porloq kelajagi uchun nima qilayapmiz degan savol, ularni bir zum bo'sin tinch qo'ymasligi kerak. Shunda el yanada jadallik bilan odimlab olg'a ketardi.

RASULOV BEKZOD BOYMURATOVICH 1983-yil 25-sentabrda Jom qishlog'ida tug'ilgan. Oilali, ikki o'g'il, bir qizning otasi.

Jom qishlog'idagi 45-maktabda 1991-1999 yillar, 1999-2001-yillarda 23-maktab va 21-maktablarda tahsil olgan. 2001-yilda o'rta maktabni tamomlab, 2001-2005-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining "Milliy istiqlol g'oyasi: huquq va ma'naviyat asoslari" ta'lim yo'nalishida bakalavr, 2005-2007-yillarda "Huquq asoslari" mutaxassisligi magistraturasini tamomlagan.

2008-yil sentyabr oyidan Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutining "O'zbekiston tarixi" kafedrasida

o'qituvchi, katta o'qituvchi, "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchi, dotsenti, 2013-yildan 2022-yilga qadar "Qurilish" fakulteti dekan o'rinbosari lavozimlarida ishlab kelgan.

2022-yil 22-noyabrdan boshlab Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining Qurilish fakulteti dekani lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

Mehnat faoliyati davomida ilmiy tadqiqot va o'quv-uslubiy ishlar bilan muntazam shug'ullanib, 30 ga yaqin nufuzli xorijiy jurnallar va OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda maqolalar, 20 ga yaqin xalqaro va Respublika miqyosidagi konferensiyalarda maqola va tezislari, bir nechta uslubiy ko'rsatmalar, "Kadastr faoliyatida huquqiy munosabatlar" nomli darslik va "Qurilishda qonunchilik" fanidan o'quv qo'llanma muallifi.

"O'zbekistonda davlat boshqaruvi organlari faoliyati ochiqqligini ta'minlashda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokini rivojlantirish mexanizmlari" mavzusida doktorlik dissertatsiya tadqiqot ishlarini olib borib, muvaffaqiyatli himoya qilgan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining 2020-yil 30-noyabrdagi qarori bilan Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgan.

Bugungi kunda yuridik fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tadqiqot ishlarini davom ettirmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlarining Texas shtatidagi Journal of Social Sciences and Humanities xalqaro jurnalining tahririyat a'zosi.

Rasulov Bekzod Boymuratovichning davlat hokimiyati organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash, shaffof boshqaruv mexanizmlari va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ilmiy tadqiqot ishlari natijalari Respublika

Jom qishlog'i maorifi

ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar agentligi, Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi kabi tashkilotlar faoliyatini takomillashtirishda foydalanib kelinmoqda.

Hozirgi paytda uning rahbarligida fakultetda jami 8 ta kafedralarda 155 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatadi. 2000 ga yaqin talabalar tahsil olib, Rossiya federatsiyasi, Belorusiya, Polsha, Latviya, Qozog'iston va Turkiya davlatlari bilan hamkorlikda bakalavr, magistr va doktorantlarni tayyorlash ishlari yo'lga qo'yilgan.

RAYIM RASULOV 1929-yilda tug'ilgan. 1951-1956-yillarda Samarqand qishloq xo'jalik instituti agronomiya fakultetida o'qigan. Ish faoliyatini Jizzax tumanidagi ikkinchi MTSda bosh agronom lavozimidan boshlagan. 1957-1960-yillari SamQXI «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik» kafedrasida assistent, 1960-1963-yillarda partiya ishida, 1963-1973-yillarda «Bulung'ur-1» meva-uzumchilik davlat xo'jaligida direktor, 1974-1988-yillarda SamQXI «O'simliklarni himoya qilish, meva-sabzavotchilik va uzumchilik» kafedrasida dotsent lavozimlarida ishlagan.

R.Rasulov 1963-yilda biologiya fanlari nomzodi bo'lgan. 50 dan ziyod ilmiy maqolalar muallifi. 1963-1974-yillarda Samarqand viloyati va Bulung'ur tuman kengashlariga deputat, 1965-yilda «Shavkatli mehnati uchun» mukofotiga sazovor bo'lgan, bir qator medallari va faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.

“R.Rasulov o'ta madaniyatli, yaxshi do'st, mard inson edi”,-deydi SamQXI «Yuqumli kasalliklar» kafedrasi mudiri, professor M.Parmonov.

ISOMIDDIN JUMAYEV (1935-1991) 1943-1953-yillarda maktabda, 1953-1958-yillarda O'zDU (hozirgi SamDU)

ning fizika-matematika fakultetida o'qigan. 1958-yildan Toshkentdagi Fizika-texnika ilmiy-tadqiqot instituti (FTI)da, keyinchalik Yadro fizikasi institutida ilmiy faoliyat bilan shug'ullangan. 1970-yilda «Inson a'zolariga rentgen nurlarining ta'siri» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. O'zbekiston Onkologiya va radiologiya institutida laboratoriya mudiri bo'lgan. 1977-yildan Jizzax davlat pedagogika institutida dekan, prorektor lavozimlarida ishlagan. Farzandlari: Lola, Lobar va Nodiralar Toshkentda turli sohalarda mehnat qilishadi.

OBRO'Y ESHMURODOV 1937-yilda tavallud topgan. 1945-1955-yillarda 23-son o'rta maktabda Shamsiddin Yoqubov, Bolli Yorqulov, Safar Qurbonov kabi yetuk ustozlardan saboq olgan. U o'quvchilik yillaridayoq o'zining iqtidorini va ilmga chanqoqligini namoyon etgan.

1955-yilda SamDUning O'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga qabul qilingan. O.Eshmurodov akademik Vohid Abdullaev, professorlar Ulug' Tursunov, Hamdam Berdiyorov, Orifjon Ikromov, Saydulla Mirzayevlardan ta'lim olish bilan birgalikda, o'zi ham ilmiy faoliyatini boshladi.

1960-yilda SamDUni muvaffaqiyatli tugatgan O.Eshmurodov kafedra tavsiyasi bilan Xo'jand pedagogika institutiga ishga yuborildi. Iqtidorli pedagog O.Eshmurodov rahbarlik qilgan institut talabalarining dramato'garagi 1964-yilda I.Sultonning «Imon» asarini sahnalashtirib, Respublika tanlovida 1-o'rinni egalladi.

O.Eshmurodov 1963-1966-yillarda ilmiy ishlar bilan shug'ullanib, 1967-yilda professor O.Ikromov rahbarligida «Mirmuhsinning ijodiy yo'li» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. 1968-yilda dotsentlik unvonini oldi. O.Eshmurodov 1967-yilda qayta tashkil etilgan S.Ayniy nomli pedagogika institutiga ishga taklif

Jom qishlog'i maorifi

etildi va «Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi» fakultetining dekani sifatida faoliyatini davom ettirdi. Ushbu xizmatlari uchun «O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi» unvoniga sazovor bo'ldi. Bu yillar mobaynida O.Eshmurodov 200 dan ortiq ilmiy ommabop qo'llanmalar, dasturlar va maqolalar e'lon qildi. 1981-yilda Magnitogorskda, 1982-yilda Kiyevda bo'lgan Butunittifoq pedagoglarining konferensiyalarida ma'ruzalar bilan ishtirok etdi. U 45 yillik pedagogik faoliyati davomida 5000 dan ortiq malakali shogirdlar tayyorladi.

O.Eshmurodov hozirgi paytda ham o'z tajribasini shogirdlari bilan baham ko'rib, SamDU va viloyat pedagoglar malakasini oshirish institutida faoliyat ko'rsatmoqda. U «Darakchi» nodavlat gazetasining maslahatchi va tahlilchisi. Uning Ramzilloh, taxallusi bilan ko'pgina hikoyalari, o'gitlari va xotiralari e'lon qilingan.

O.Eshmurodov domla 2006-yilning dekabr va 2007-yilning yanvar oylarida Saudiya Arabistonining Makka va Madina shaharlariga Haj ziyoratiga borib, Hoji Akbar (Katta hoji) sharafiga muyassar bo'lib qaytdilar.

O.Eshmurodovning farzandlari: Bahodir podpolkovnik, milliy havfsizlik qo'mitasida bo'lim boshlig'i, Qodirjon milliy havfsizlik qo'mitasida xizmatchi, Odiljon Davlat bojxona xodimi, Nodira shifokor, ginekolog.

G'OFUR QUDRATOV 1937-yilda tug'ilgan. 1946-1956-yillarda Girdiqo'rg'on mahallasidagi Amir Temur nomli 22-o'rta maktabda o'qigan. 1956-1961-yillarda A.Navoiy nomli Samarqand davlat universiteti fizika-matematika fakultetida o'qib, uni nazariy mexanika ixtisosi bo'yicha tamomlagan.

1961-yil sentabrdan Kattaqo'rg'on tumanidagi 106-o'rta maktabda matematika va fizika fanlari o'qituvchisi, 1966-1973-yillarda Amir Temur nomli 22-o'rta maktabning direktori bo'lib ishlagan.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

1973-yilda Samarqand shahridagi K.D.Ushenskiy nomli pedagogika bilim yurtida, 1973-1974-yillarda S.Ayniy nomli Samarqand davlat pedagogika instituti matematika fanini o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchi bo'lib ishlagan.

1974-yildan A.Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika instituti «Oliy matematika va o'qitish metodikasi» kafedrasida katta o'qituvchi, 1977-1984-yillarda shu kafedra mudiri, 1984-1985-yillarda matematika fakultetining dekani, 1985-1989-yillarda umumtexnika fanlari va mehnat ta'limi fakulteti dekani lavozimlarida ishlagan.

1983-yilda Ukraina pedagogika fanlari ilmiy tekshirish instituti ilmiy kengashida «Matematika darslarida 4-8-sinf o'quvchilarining jamoa o'quv ishlarini tashkil qilish-dars samaradorligini oshirish vositalaridan biridir» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1991-yildan dotsent. Turli mavzularda 32 ta ilmiy va uslubiy maqolalar, 4 ta uslubiy tavsiyanoma e'lon qilgan.

1989-1994-yillarda «Oliy matematika va o'qitish metodikasi» kafedrasida dotsent, 1994-1998-yillarda Jizzax Oliy Aviatsiya bilim yurtida umumtexnika fanlari kafedrasi mudiri bo'lib ishlagan. 1998-yildan buyon nafaqada. 1978-yilda Respublika o'qituvchilarining V syezdida Jizzax davlat pedagogika institutidan delegat bo'lib qatnashgan. 1978 yilda hukumatimizning Faxriy yorlig'i bilan taqdirlangan.

OLTIBOY SHUKUROV 1937-yilda tug'ilgan. 1945-1955-yillarda Girdiqo'rg'on mahallasidagi maktabda o'qigan. 1955-1958-yillarda jamoa xo'jaligida ishlagan. 1959-1964-yillarda Toshkent qishloq xo'jalik institutida o'qigan. 1964-1966-yillarda Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi Eski anhor davlat xo'jaligida bosh agranom bo'lib ishlagan. 1967-yilda Toshkentdagi Butunittifoq paxtachilik ilmiy tekshirish

Jom qishlog'i maorifi

institutida aspiranturaga qabul qilingan. 1973-yilda «G'o'zaning rivojlanishi va uning bargini to'kishda issiqlik faktorining ta'siri» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1973-1975-yillarda shu institutda ilmiy xodim, 1975-1981-yillarda Qarshi shahridagi Qashqadaryo hududiy agroximiya laboratoriyasiga mudirlik qilgan. 1981-1982-yillarda Toshkent irrigatsiya instituti Qarshi filialida katta o'qituvchi. 1982-1985-yillarda Qashqadaryo viloyatining Ko'kdala tumanidagi «Qishloqxo'jalikkimyo» tashkilotiga raislik qilgan. 1985-1988-yillarda Chiroqchi tumaniga qarashli D.Safarov nomli davlat xo'jaligida agronom, so'ngra direktor lavozimida ishlagan. 1988-yildan nafaqaga chiqqunga qadar Samarqand shahridagi Michurin nomli Meva-sabzavotchilik texnikumida o'qituvchilik qilgan.

OROL ERNAZAROV 1943-yilda tug'ilgan. 1961-yilda mittigina, abjirgina yigitcha o'rta maktabni tugatib, Toshkent DU ning huquqshunoslik fakultetiga hujjat topshirgan bo'lsa-da, faqat ikkinchi yili talabalik baxtiga erishadi. Shu orada harbiy xizmatni ham tugatib qaytadi.

O'qishni imtiyozli diplom bilan tugatib, 1972-yildan shu dargohda ish boshlaydi. Shu yillarda ko'p o'qiydi, o'rganadi, izlanadi. Bu intilishlari besamar ketmaydi. 1984-yilda Yekaterinburg huquqshunoslik institutining ilmiy kengashida huquqshunoslik fanlari nomzodligi uchun dissertatsiya himoya qiladi.

O.Ernazarovning inson va olim sifatidagi fazilatlari, faoliyati o'zgacha, ishga talabchanligi, keng fikrlashi, ayniqsa O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, kengroq, ko'lamliroq namoyon bo'ldi. Chunki, bu davrga kelib O.Ernazarov mamlakatimizning taniqli olimiga aylangandi. Buni uning ish faoliyatining ko'lamidan, vazifalarining nechog'li mas'uliyatidan, dolzarbligidan ham bilish mumkin:

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Prezident Apparati Davlat nazorat qoʻmitasining yuristi, huquqiy-tashkiliy boshqarmasi boshligʻining oʻrinbosari, Prezident Apparati ishlar boshqarmasida huquqshunoslik masalalari boʻyicha maslahatchi, Respublika Vazirlar Mahkamasi huquqshunoslik boʻlimi boshligʻining oʻrinbosari, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudi raisining muovini lavozimlarida faoliyat yuritgan.

Zamon talabiga muvofiq oʻz sohasining yetuk bilimdoni boʻlgan O.Ernazarov avval Fargʻona DU ga ishga yuborilgan boʻlsa, 2002-yildan Namangan DU ning huquqshunoslik fakultetida kafedra mudiri boʻlib ishlaydi. O.Ernazarovning 60 dan ziyod ilmiy-uslubiy, ilmiy-ommabop maqolalari, risolalari chop etilgan.

«Rim fuqarolik huquqi» oʻquv qoʻllanmasining muallifi.

O.Ernazarov huquqshunoslik boʻyicha koʻplab darslik, oʻquv va uslubiy qoʻllanmalar yaratdi, ilmiy maqolalarini eʼlon qildi, malakali shogirdlar tayyorladi. Nashr etilgan "Rim huquqi" va "Parlament va sud huquqi islohoti" kitoblari ayniqsa tahsinga loyiq.

Xalqimizda otang bilan maqtanma. bolang bilan faxrlan degan hikmatli gap bor. Jomliklar olim oʻgʻloni O.Ernazarov bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

DILBAR YORMATOVA 1963-yil tugʻilgan. 1979-1983-yillarda Samarqand qishloq xoʻjalik institutining agronomiya fakultetida oʻqigan. 1990-yilda «Xushboʻy hidli tamaki hosilining sifatiga mineral oʻgʻitlar meʼyorining taʼsiri» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Samarqand davlat arxitektura va qurilish instituti dotsenti.

Jom qishlog'i maorifi

Farzandlari: Dilfuza, Fotima, Zuhralar institut talabalari, o'g'li Otamurod o'quvchi.

Turmush o'rtog'i Ismoiljon Normatov 1960-yilda tug'ilgan. Samarqand davlat arxitektura va qurilish institutini imtiyozli diplom bilan bitirib, Samarqand shahrini obodonlashtirish, ko'p qavatli uylar qurishda ishtirok etgan. Oldin prorab, keyin qurilishlarda boshliq va bosh loyihachi lavozimlarida ishlagan. Samarqand shahrida iqtidorli shaxmatchi sifatida tanilgan.

IRISQUL YUSUPOV 1945-yil 10-martda Sarikul qishlog'ida tug'ilgan. 1951-1960-yillarda 22-o'rta maktabni tugatgan. 1962-yilda Samarqand davlat universiteti chet tillar fakultetiga o'qishga kirib, 1968-yilda tugatgan. 1968-1969-yillarda harbiy xizmatda bo'lgan. 1970-yildan 9-o'rta maktabda o'zining o'qituvchilik faoliyatini boshladi.

1971-yildan 1984-yilgacha maktabda tarbiyaviy ishlar bo'yich direktor o'rinbosari lavozimida ishlagan. 1984-yildan 1990-yilgacha Toshkentdagi Qori-Niyoziy nomidagi pedagogika tekshirish institutida ilmiy ish bilan shug'ullanib, 1990-yilda Toshkentdagi ixtisoslashtirilgan ilmiy kengashda Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

1990-yildan 2000-yilgacha 17-o'rta maktabda chet tili o'qituvchisi bo'lib ishlagan. 2000-yildan hozirgacha nafaqada. Ish faoliyati davomida "O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi" nishoni bilan taqdirlandi va "Oliy toifali o'qituvchi" darajasi hamda "Mehnat veterani" medali bilan mukofotlangan.

PIRNAZAR SAFAROV 1945-yilda tug'ilgan. Ish faoliyatini Ishtixon tumanidagi 10-o'rta maktabda boshlagan. 1962-yili o'rta maktabni bitirib, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti chet tillar fakultetiga o'qishga kirgan. 1969 yilda Sadriddin Ayniy nomidagi Samarqand davlat

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

pedagogika instituti chet tillar fakultetida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dekan o'rinbosari lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan.

1982-yildan boshlab Samarqand davlat tibbiyot instituti qoshidagi tibbiyot texnikumida uslubchi, lotin tili o'qituvchisi bo'lib ishlagan. 1989-yildan viloyat xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish institutida uslubchi, kabinet mudiri, 1994-yildan 2006-yilgacha «Til va adabiyot ta'limi» kafedrasini mudiri vazifalarida ishlagan. 1992 -yilda Rossiya Fanlar Akademiyasi qoshidagi Tilshunoslik institutida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 2001 yilda P.Safarovga dotsentlik, 2005-yilda Xalqaro Antik dunyo akademiyasi doktori ilmiy unvonlari berilgan. P.Safarov ish faoliyati davomida 2 nomdagi: «Noan'anaviy dars shakllari» va «Ona tili va adabiyot darslarida ta'limiy o'yinlardan foydalanish» mavzularidagi risolalari hamda 50 dan ortiq ilmiy-uslubiy maqolalari chop etgan. P.Safarov 1990-yilda "Mehnat faxriysi" medali, 2000-yilda "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

RAHMAT RASULOV. Jomlik olim Rayim Rasulovning to'ng'ich farzandi Rahmat Rasulov 1955-yilda Juma shahrida tug'ilgan. 1972-yilda maktabni bitirib, 1977-yilgacha SamQXI agronomiya fakultetida o'qigan. Ish faoliyatini 1977-yili O'zbekiston G'allachilik instituti Kattaqo'rg'on tayanch punktida laborant, kichik ilmiy xodim lavozimlaridan boshlagan. 1979-1982-yillarda G'allachilik ilmiy-tekshirish instituti aspiranti bo'lgan. 1985-yilda Leningrad shahridagi Butunittifoq o'simlik-shunoslik institutida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1986-1990-yillarda Samarqand viloyat agrar sanoat qo'mitasi fan yutuqlarini joriy etish bo'limida katta yetakchi va bosh mutaxassis lavozimlarida ishlagan. 1998-2001 yillarda Samarqand piva zavodida arpa

Jom qishlog'i maorifi

seleksiyasi bo'limi rahbari, 1995-yildan xususiy korxona boshlig'i, 2006-yildan hozirgi kungacha SamQXI «Agrokimyo, tuproqshunoslik va o'simliklarni himoya qilish» kafedrasida assistent lavozimida ishlayapti. 25 ta ilmiy maqolasi e'lon qilingan, shu jumladan, 1 ta ixtiro va 5 mualliflik guvohnomasi mavjud. Farzandlari: Shahnoza, Rahimjon, Nilufar va Xolida.

TURSUNMUROD NORBEKOV 1956-yilda tug'ilgan. 1972-1973-yillarda Qashqadaryo viloyatining Koson shahrida mahalliy sanoat korxonasida ishlagan. 1973-1978-yillarda Samarqand davlat arxitektura va qurilish institutida ta'lim olgan. 1978-1993-yillarda shu institutning «Qurilishni tashkil qilish va boshqarish» kafedrasida turli lavozimlarda ishlagan. 1986-yilda Leningrad shahridagi iqtisod institutida «Qurilish tashkilotlari tizimini mukammallashtirish» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini ikki yilda, ya'ni muddatidan oldin himoya qilgan, o'ta iqtidorli olim. Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent, qator ilmiy risolalar muallifi. Hozirgi vaqtda «AvtoMotoVelo» MCh hissadorlik jamiyati raisining iqtisodiyot bo'yicha maslahatchisi va yirik xalqaro miqyosdagi biznesmen.

T.Norbekov 1987-yilda Finlandiyaga yaqin joydagi Rossiya davlatiga qarashli Valaam orolchasida dam olishda bo'ldi. Bu orol faqat qoya toshlardan iborat bo'lib, qoya toshlar oralari katta yerdan orolchagacha bo'lgan masofadagi suv muzlagan davrda monaxlar tomonidan chanalarda olib kelingan tuproqlar bilan to'ldirilgan va turfa daraxtlar ekilgan. Bu daraxtlarning ildizlari o'ziga tuproq izlab qoyatoshlar ustidan aylanib o'tib boshqa teshiklarga kirib ketgan. Ayrim daraxtlar osmonga qarab emas, balki dengiz sathiga nisbatan gorizantal tarzda o'sgan. Bu mo'jizadan hayratlangan Tursunmurod Norbekovda shunday joyni inson qo'li so'lim go'shaga aylantirgan ekan, nahotki bu ishni Jomda qilish mumkin emas, degan fikr paydo bo'lgan va qishloqqa kelib qaqrab yotgan qirni

qirqib ekin ekiladigan yer ochib, katta bog‘ yaratdi. Bugungi kunda bu bog‘dan qavm-qarindosh va qishloqdoshlari manfaatdor.

HAMROQUL BO‘RIYEV 1959-yil tug‘ilgan. 1965-1975-yillarda maktabda, 1975-1978-yillarda Qarshi shahridagi tibbiyot bilim yurtida o‘qigan. 1978-1980-yillarda Moskva shahrida armiya xizmatida bo‘lgan. 1981-1986-yillarda SamDUning biologiya fakultetida o‘qigan va botanika kafedrasiga ishga taklif qilingan. 1987-1989 yillarda SamDU qoshidagi aspiranturada ilmiy-tadqiqotchi, 1989-yildan Samarqand shahridagi K.D.Ushinskiy nomli pedagogika bilim yurtida ximiya-biologiya o‘qituvchisi, 1991-2000-yillarda SamDUning «Pedagogika» kafedrasida o‘qituvchi, dotsent lavozimlarida ishlagan. 1995-yil 5-aprelda «Samarqand viloyati noyob va endem o‘simliklarning bioekologik xususiyatlari va ularni muhofaza qilish» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 2000-2002 yillarda Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida doktoranturada bo‘lgan. 2003-yildan SamDChTIning Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti dekani lavozimida mehnat qilayotir.

Uning 75 dan ortiq ilmiy maqola, 2 ta monografiyasi va 3 ta uslubiy qo‘llanmasi chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi a’lochisi, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 15 yilligi ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

NURIMOV EGAMNAZAR XOLIYOROVICH 1959-yilda tug‘ilgan. Toshkentdagi qishloq xo‘jalik institutining buxgalteriya bo‘limini bitirib shu joyda ishlagan va nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. 1991-yildan Tula shahridagi Rossiya munitsipial akademiyasida ishlaydi.

Jom qishlog'i maorifi

ALISHER G'AFFAROV 1960-yil 20-mayda Jom qishlog'ida tug'ilgan. Otasi G'affarov Ahmad 21-umumiy o'rta ta'lim maktabda o'qituvchi bo'lib faoliyat olib borgan.

A.G'afforov 1977-1978-yillarda Pastdarg'om tumanidagi 7-maktabda kutubxona mudiri bo'lib faoliyat olib borgan. 1978-83-yillarda esa Samarqand davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi bo'lgan. 1983-87-yillarda Pastdarg'om tumanidagi 3-kechki maktab o'qituvchisi bo'lib faoliyat olib borgan. 1987-88-yillarda esa Samarqand shahar 34-kasb-hunar bilim yurti tarbiyachisi bo'lgan. Keyinchalik 1988-90-yillarda Samarqand davlat pedagogika instituti o'zbek tilshunosligi kafedrasida laboranti, 1990-yildan boshlab hozirgi kungacha Samarqand davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida talabalarga saboq berib kelmoqda.

A.G'afforov 1997-yilda "O'zbek tilida partsellyativ va ilovali qurilmalarning sintaktik derivatsiyasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Ilmiy faoliyati davomida "Hozirgi o'zbek tili"dan kurs ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy tavsiyalar (Hammualif B.Yo'ldoshev SamDU nashri, 2013), "O'qituvchi nutqi va madaniyati" (Hammualiflar:Jo'rayev.T, Sa'dinova.N SamDU nashri,2015) uslubiy qo'llanmasi, "Hozirgi o'zbek tili. Kurs ishlarini yozish bo'yicha uslubiy tavsiya."(SamDU nashri,2019) uslubiy qo'llanmasi va "Hozirgi o'zbek tilida partsellyativ va ilovali qurilmalarning sintaktik derivatsiyasi"(SamDCHTI nashri, 2020) monografiyasi, shuningdek 70 dan ortiq maqolalarning muallifi ham sanaladi. Faoliyati davomida milliy til grammatikamizga ko'plab hissalar qo'shdi.

RASULOV O'TKIR ILASHOVICH 1966-yil 5-sentabrda tug'ilgan. 1973-1983-yillar davomida B.Tursunov nomidagi 21-o'rta ta'lim maktabida o'qigan. O'.Rasulov 1983-1990-yillar davomida Samarqand qishloq xo'jalik instituti

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Veterinariya fakultetida tahsil olgan. 1985-1987-yillar davomida sobiq Sovet Armiyasi safida xizmat qilgan. 1990-yil Sam QXI veterinariya fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatgandan so'ng shu institut parazitologiya kafedrasiga avval laborant, so'ngra esa kichik ilmiy xodim vazifasiga ishga qabul qilingan. 1991-yil iyun oyida O'zbekiston veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti protozoologiya laboratoriyasiga kichik ilmiy xodim vazifasiga ishga qabul qilingan. 1993-1996-yillar davomida ishdan ajralmagan holda Institut aspiranturasida tahsil olgan va professor T.H.Raximov rahbarligi ostida 03.00.19-Parazitologiya ixtisosligi bo'yicha "Terapiya i profilaktika tripanosomozov jivotnyx" mavzusida veterinariya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan dissertatsion ishini muvaffaqiyatli himoya qilgan. O'.Rasulov 1996-yil veterinariya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olgan, 1997-yil iyun oyidan mazkur laboratoriyaning katta ilmiy xodimi vazifasida ishlab kelmoqda. 1999-yil 03.00.19-Parazitologiya ixtisosligi bo'yicha katta ilmiy xodimi ilmiy unvonini olgan. Laboratoriyada bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalashtirish va uni bajarishda alohida o'rinni egallaydi hamda faol qatnashadi.

O'.I.Rasulov Qishloq xo'jalik hayvonlari protozoy kasalliklarini o'rganish bo'yicha yetakchi mutaxassis bo'lib hisoblanadi. Mazkur muammoga bag'ishlangan 50 dan ortiq ilmiy maqolalar, 2 ta monografiya va 3 ta Ixtirolikka patentning muallifidir. Uning ishtirokida 4 ta Yo'riqnoma va Uslubiy tavsiyanomalar ishlab chiqilgan.

Hozirda 03.00.19- Parazitologiya ixtisosligi bo'yicha "Respublikaning markaziy hududlarida qoramollarning qon-parazitar kasalliklarini epizootologiyasi va zamonaviy chora-tadbirlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsion ishi ustida ishlamoqda.

Jom qishlog'i maorifi

Umr yo'ldoshi Sadinova Shohista Samarqand viloyat veterinariya laboratoriyasida vrach radiobiolog vazifasida ishlaydi. Uning bobosi Jom qishlog'ining birinchi o'qituvchilaridan Jo'raboy Sheraliyev. Farzandlari Intizor va Jasurbek.

FAZLIDDIN RO'ZIQULOV 1970-yilda tug'ilgan. 1978-1981-yillarda B.Tursunov nomli 21-maktabda, 1981-1988-yillarda Toshkent shahridagi 111-sonli umumta'lim maktab-internatida o'qigan. 1988-1990-yillarda harbiy xizmatda bo'lgan. 1991-yilda Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida ishlagan. 1992-yilda SamDUning chet tillar fakulteti ingliz filologiyasi bo'limiga o'qishga qabul qilingan. Bu fakultet bazasida 1994-yilda SamDChTI tashkil topgan. Shu institutni 1997-yilda tugatgach, ingliz tili filologiyasi fakultetida o'qituvchilikka qabul qilingan. 1999-2003-yillarda shu fakultetda o'quv ishlar bo'yicha dekan muovini lavozimida ishlagan. 1998-yilda Islomobod (Pokiston) davlat jahon tillari institutida, 2002-yilda AQSh ning Oklaxoma universitetida ilmiy ishi yuzasidan malaka oshirishda bo'lgan.

2003-2007-yillarda SamDChTI ingliz tili filologiyasi fakulteti «Ingliz tili tarixi va grammatikasi» kafedrasida o'qituvchi bo'lib ishlagan.

2007-yildan «Ingliz tili gaplarida semantik-funksional munosabatlar» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Shu yildan boshlab institutning Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bo'yicha prorektori lavozimida ishlaydi. Oilali, uch nafar farzandi bor: Sanjar, Furqat, Farhod.

Ukasi O'tkir Ro'ziqulov Toshkent pediatriya tibbiyot institutida ishlaydi va bolalar ortopediyasi bo'yicha ilmiy faoliyat bilan shug'ullanadi.

MEYLIEV OBID RAXMATULLAYEVICH 1975-yil 10-mayda Jom qishlog‘ida tug‘ilgan.

1992-yilda Jom qishlog‘idagi Amir Temur nomli 22-umumiy o‘rta ta’lim maktabni oltin medal bilan tamomlagan. Shu yili Toshkent moliya institutiga hujjat topshirib kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tib talabalikka qabul qilingan. 1997-yilda Toshkent moliya instituti “Moliya-kredit” mutaxassisligini tamomlagan. Institutni tamomlagandan so‘ng, institut rektori, akademik Murod Sharifxo‘jayev va iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sharbat Abdullaevalarning tavsiyalari asosida institutning “Pul muomalasi va kredit” kafedrasiga assistent lavozimida ishga qabul qilinadi.

1997-1999-yillarda Toshkent moliya instituti assistenti, 1999-2002-yillarda Toshkent moliya instituti aspiranti, 2002-2005-yillarda Toshkent moliya instituti soliqlar va soliqqa tortish kafedراسи katta o‘qituvchisi, 2005-2008-yillarda Toshkent moliya instituti soliq va sug‘urta ishi fakulteti dekanining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, 2008-2011-yillarda Toshkent bank kolleji bo‘lim boshlig‘i, 2011-2019 - yillarda Toshkent moliya instituti “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedراسи dotsenti lavozimida faoliyat yuritgan.

2018-2019 - yillarda Toshkent moliya instituti magistratura bo‘limi boshlig‘ining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimida faoliyat yuritgan.

2018-yil 6-dekabr kuni Toshkent moliya instituti huzuridagi Birlashgan ixtisoslashgan Kengashda “Hududiy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashda soliqlarning ta’sirchanligini oshirish masalalari” mavzusidagi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan va iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi berilgan.

2019-yil 23-oktyabrdan boshlab Toshkent moliya instituti moliya fakulteti dekanining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari

Jom qishlog'i maorifi

lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. 2020-yil mart oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dotsent ilmiy unvoni berilgan.

2020-2023-yillarda Toshkent moliya instituti mustaqil izlanuvchisi sifatida fan doktori dissertatsiyasi ustida ish olib boradi. 2023-yil 12-yanvarda Toshkent moliya instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashda "Mahalliy byudjetlar daromadlarini tartibga solishni takomillashtirish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasi beriladi.

Ilmiy-pedagogik faoliyati davomida bevosita muallifligida 200 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlari e'lon qilgan. Xususan, soliq nazariyasi, soliqlar va soliqqa tortish, soliq menejmenti, mahalliy byudjet, hududiy iqtisodiyotga doir 2 ta darslik va 3 ta o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi grifi asosida nashr qilingan va o'quv jarayoniga joriy qilingan. Ilmiy tadqiqotlar doirasida 3 ta ilmiy monografiya, 40 dan ortiq ilmiy maqola, jumladan 15 ga yaqin xorijiy maqola, 150 dan ortiq xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza tezislari muallifidir. Raqamli iqtisodiyot talablari asosida Obid Meyliev muallifligida yaratilgan bitta elektron darslik, bitta elektron iqtisodiy atamalar izohli lug'ati yaratilib, Intellektual mulk agentligi tomonidan davlat reestriga kiritilgan.

Obid Meyliev bugungi kunda xorijiy hamda mahalliy ilmiy jurnallarida tahrir hay'ati a'zosi hisoblanadi.

RUZIKULOV UKTAM SHUKUROVICH 1976-yilda Jom qishlog'ida ziyolilar oilasida tug'ilgan. 1983-1990-yillarda B.Tursunov nomli 21–umumiy o'rta ta'lim maktabda a'lo baholarga o'qigan. 1990-1993-yillarda Toshkent shahridagi S.H.Sirojiddinov nomli litseyda tahsil olgan. 1994-2001-yillarda Toshkent pediatriya tibbiyot institutining pediatriya fakultetining namunaligi talabalaridan biri hisoblangan. 2001-2003-yillarda Toshkent pediatriya tibbiyot institutining travmatologiya va ortopediya mutaxassisligi bo'yicha klinik ordinator o'qigan. 2003-yildan hozirgi kungacha ToshPMI ning "Travmatologiya, ortopediya, bolalar travmatologiyasi, ortopediyasi, neyroxirurgiya va neyroxirurgiyasi" kafedrasida assistent, 2021-yildan kafedra dotsenti hamda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti I pediatriya fakulteti bitiruvchi kurslar bo'yicha dekan o'rinbosari lavozimida ishlaydi. Shu bilan birga ToshPTI klinikasida navbatchi travmatolog lavozimida ishlab keladi.

Ruzikulov Uktam Shukurovich o'zining faoliyati davomida travmatologiya va ortopediya fani va xizmati bo'yicha Davlat standartlariga mos ravishda to'g'ri keladigan o'quv dasturlari, uslubiy tavsiyanomalar, ma'ruzalarni elektron va multimedia shaklida ishlab chiqdi va amaliyotda tatbiq qilib kelmoqda. U bolalarda ko'krak qafasining girdobsimon deformatsiyasini tashxislash, davolash va profilaktikasi bo'yicha ko'pgina nazariy va amaliy ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Shu yo'nalish bo'yicha konservativ va operativ davolash usullarini ToshPMI klinikasida, hamda viloyatlarda qo'llab kelmoqda. Hozirda fan doktori himoyasi uchun izlanishlar olib bormoqda.

Ruzikulov Uktam Shukurovich o'zining mehnatsevarligi, tirishqoqligi, o'ziga va hamkasblariga talabchanligi bilan ajralib turadi. Shu yillar davomida bakalavr talabalarga, klinik ordinator va magistr'larga travmatologiya fanidan saboq berib

Jom qishlog'i maorifi

keladi. Respublikamizda institut, travmatologiya-ortopediya markazi va boshqa tibbiyot muassasalari tomonidan o'tkaziladigan turli xil tadbirlarda o'z ma'ruzalari bilan faol ishtirok etadi.

2020 yilda tibbiyot yo'nalishi bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Oliy toifali travmatolog-ortoped shifokor.

Tibbiyot instituti talabalari uchun 2 ta darslik, 2 ta monografiya, 4 ta o'quv qo'llanma, 4 ta o'quv uslubiy qo'llanma, 1 ta ixtiroga patent, 3 ta foydali modelga patent, 4 ta elektron dasturiga patent muallif hamda hammualliflaridir.

50 dan ortiq ilmiy maqolalar (ulardan uzoq horij, MDX davlatlarida va mahalliy jurnallarda), shu bilan birga 80 dan ortiq tezislar chop etgan.

10 ta chet el va mahalliy ilmiy konferensiyalarda va s'yezdlarda o'z ilmiy izlanishlari natijalarini doklad qilgan.

5 nafar magistr tibbiyot instituti talabalariga rahbarlik qilgan.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti ilmiy ishlarni himoya qilish etapidagi Muammo kengashining a'zosi.



YULDUZ URUMBAYEVA 1977-yil 3-mayda Jomda tug'ilgan. Yulduz Pirnazarovna hozirda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Iqtisodiyot fakulteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedراسи dotsenti.

1984-1988-yillarda Jizzax shahridagi 7-umumiy o'rta ta'lim maktabida, 1988-1994-yillarda Samarqand shahridagi 14-umumiy o'rta ta'lim maktabida tahsil olgan.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

1994-1999-yillarda Samarqand qishloq xo‘jalik institutining “Agrosanoat majmuiy tarmoqlar iqtisodiyoti” mutaxassisligi bo‘yicha to‘liq kursni tugatdi.

Ish faoliyatini 1996-yili Samarqand shahar 13-umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘qituvchilikdan boshlagan. 2001-2007-yillarda Samarqand Ijtimoiy iqtisodiyot kasb-hunar kollejida o‘qituvchi. 2007-katta o‘qituvchi. 2007-2010-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Samarqand bo‘limi MMKITI kunduzgi aspiranturada o‘qigan.

Mehnat staji 29 yil. Mazkur vazifada 2011-yildan ishlamoqda. Y. Urunbayeva kasbiga fidoyiligi, o‘ziga yuklatilgan vazifa ijrosiga mas’uliyat bilan yondashishi, sohani mukammal bilishi, tashabbuskor va tashkilotchiligi, ma’naviy-axloqiy hamda insoniy fazilatlari bilan hamkasblari orasida, aholi o‘rtasida obro‘-e’tibor qozongan.

Yulduz Urunbayeva Pirnazarovna xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini oshirish muammolari yo‘nalishida ilmiy izlanishlar olib bormoqda. 2018-yilda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSs.27.06.2017.I.18.01. raqamli Ilmiy kengashda 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti (iqtisodiyot fanlari) ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Hozirgi kunda “Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida xizmatlar sohasining aholi turmush darajasiga ta’sirini oshirish” mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda.

Y.P. Urunbayeva o‘zining malakasi va ilmiy salohiyatini oshirishga doimo e’tibor berib turadi. 2008-yili chop etilgan “Yangi pedagogik texnologiya” nomli uslubiy qo‘llanmasi bugungi kunda talaba yoshlarga bilim berishda yuqori darajada qo‘llanilayotganligini aytishimiz mumkin. 2013-yili Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal –

Jom qishlog'i maorifi

Demokratik partiyasi siyosiy kengashi ijroiya qo'mitasi "Yosh olimlar va katta ilmiy xodim-izlanuvchilar" tanlovida ishtirok etib g'oliblikni qo'lga kiritgan. 2016-yili institut miqyosida "Yilning eng yaxshi pedagogi" ko'rik-tanlovi g'olibi shu o'rinda, respublika bosqichi ishtirokchisi bo'lgan.

2017-yildan "Innovatsiya-integratsiya" markazi bo'lim boshlig'i, 2007-yildan O'zRFA "Iqtisodiyot" bo'limi katta ilmiy xodim-izlanuvchilik institutiga qabul qilindi va 2006-2008-yillarda DITD doirasidagi "Zanyatost i bezrabotnisa na rinke truda Uzbekistana" mavzusida hamda, 2007-2017-yillarda FA-F1-G029 "Qishloq joylarida mehnat resurslaridan unumli foydalanish va aholi bandligini oshirishning konseptual yo'nalishlari" davlat granti asosida ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan.

Y.P.Urunbayeva tomonidan 167 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, 5 ta hammualiflikdagi monografiya, 2 ta risola, 4 ta uslubiy qo'llanma, 1 ta hammualiflikdagi elektron o'quv qo'llanma, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan jurnallarda 24 ta, xorijda 9 ta, ilmiy amaliy konferensiya to'plamlarida 120 ta maqolalar nashr qilingan.

Shuningdek, Yulduz Pirnazarovna "Xizmat ko'rsatish korxonalari yalpi daromadlari tarkibida ishchi xodimlar ulushini oshirish", "Ijtimoiy xizmatlar mexanizmini takomillashtirish asosida kam daromadli oilalarning turmush farovonligini yaxshilashga ajratilgan moliyaviy resurslar samaradorligini oshirish" va "Xizmat ko'rsatish korxonasida ishchilar soni va ish haqi daromadlarini rejalashtirish" nomli uslubiy tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 6-maydagi "Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi PQ-2960-sonli qarori, 2017-yil 12-sentabr PQ-3268 "Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash jarayonida foydalanilgan.

U mehnat faoliyati davomida iqtidorli yoshlarni saralash, ularni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Uning ilmiy rahbarligida 2012-yilda iqtisodiyot va menejment fakulteti talabasi Xalilov Sirojiddin Oybek nomidagi stipendiya sovrindori bo'lgan.

Y.Urunbayeva dars jarayonida talabalarga yangi pedagogik texnologiyalardan va o'qitishning boshqa interfaol usullaridan, yangi axborot texnologiyalaridan unumli foydalangan holda dars o'tib kelmoqda. U institut, shahar, mahalla va viloyat miqyosida o'tkazilib kelinayotgan jamoatchilik tadbirlarida faol ishtirok etadi, yaxshi jamoatchi va tashkilotchi, mohir murabbiy sifatida kasbdoshlariga o'rnak bo'lib kelmoqda.

Namunali oila bekasi, to'rt farzandning onasi.

RO'ZIQUL ABRIYEV 1977-yil 23-avgustda Jom qishlog'ida tug'ilgan. 1994-yilda 24-maktabni imtiyozli tarzda bitirgan. 1995-2001-yillarda Samarqand davlat universiteti talabasi. 2001-yildan 2015-yilgacha Samarqand davlat universiteti arxeologiya kafedrası o'qituvchisi bo'lib ishladi. Shu oraliqda 2004-15-yillarda Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti dekan o'rinbosari lavozimida ishlagan. 2015-yildan boshlab 2020-yilgacha Samarqand davlat universiteti arxeologiya kafedrası katta o'qituvchisi lavozimida ishladi. 2018-yilda "O'zbekiston mustaqilligi yillarida tarixiy-me'moriy obidalarni ta'mirlash va qayta tiklash jarayonlari" mavzusida tarix fani bo'yicha PhD dissertatsiyasini himoya qilgan. 2020-2021-yillar davomida Samarqand davlat universiteti arxeologiya

Jom qishlog'i maorifi

kafedrası dotsenti bo'lib ishladi. 2021-yil 15-sentabrdan Samarqand davlat universiteti Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i bo'lib faoliyat yuritmoqda. R.Abriyev "O'zbekiston mustaqilligi yillarida tarixiy-me'moriy obidalarni ta'mirlash va qayta tiklash jarayonlari" monografiyasi, "Moddiy, madaniy, arxeologik meros obyektlarini muhofaza qilish va turizm" o'quv qo'llanmasi muallifi.

OLIMJON IRISQULOV 1978-yilda Jom qishlog'ida tug'ilgan. 1997-yildan 2001-yilgacha Samarqand davlat universiteti talabasi bo'ladi. 2001-yildan 2003-yilgacha Samarqand davlat universiteti magistranti sifatida tahsil olgan.

Ish faoliyati davomida 2003-yildan 2007-yilgacha bo'lgan muddatda Samarqand davlat universitetining "O'zbekiston tarixi" kafedrası o'qituvchisi, 2007-2010-yillarda esa Samarqand davlat universitetining "O'zbekiston tarixi" kafedrası aspiranti, 2011-yildan 2021-yilgacha "O'zbekiston tarixi" kafedrası o'qituvchisi, 2020-22-yillarda esa Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti ilmiy va innovatsiyalar bo'yicha dekan o'rinbosari sifatida faoliyat yuritgan. 2021-yilda Samarqand davlat universiteti "Samarqand tamadduni tarixi" kafedrası dotsenti, 2021-yildan boshlab Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03./30.12.2019.Tap.02.10 raqamli ilmiy kengash kotibi (jamoatchilik asosida).

"XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand shahrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar" mavzusida tarix fani bo'yicha PhD dissertatsiyasini himoya qilgan. O.Irisqulov faoliyati davomida 80 dan ortiq ilmiy ishlar, 1 ta monografiya va 2 ta o'quv qo'llanma chop etgan.

SHUHRAT TADJIYEV 1979-yil 12-sentabrda Jom qishlog'ida tug'ilgan.

Otasi Tadjiev Tulqin Tuksarovich Jom davlat xo'jaligi 3-bo'limi boshlig'i bo'lib ishlagan.

Sh. Tadjiev 1986-1996 - yillarda Nurobod tumanidagi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabida ta'lim olgan.

Maktabni bitirib Samarqand shahrida Ustozi professor Pirnazar Davronovdan ta'lim olgan. Ustozi professor Pirnazar Davronovdan olgan bilimlari oliy o'quv yurtiga kirishida va keyinchalik ilmiy-pedagogik faoliyatida katta ahamiyat kasb etgan.

1997-yil Toshkent davlat texnika universiteti "Kon-geologiya" fakultetiga o'qishga kirgan. 2000-yilda ushbu universitetning bakalavr yo'nalishini imtiyozli diplom bilan tugatib "Marksheyderlik ishi" mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga o'qishga qabul qilingan. 2003-yil magistraturani imtiyozli diplom bilan tugatgan.

Sh. Tadjiev 2003-yil Navoiy kon-metallurgiya kombinati qoshidagi Navoiy davlat konchilik instituti, 2022-yildan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining "Konchilik ishi" kafedrasiga yo'llanma asosida assistent lavozimiga ishga qabul qilingan.

2003-2005-yillarda Navoiy davlat konchilik instituti "Konchilik ishi" kafedrasida assistent lavozimida faoliyat olib borgan. 2006-yildan boshlab katta o'qituvchi lavozimida ishlay boshlagan. 2008-2009-yillarda "Konchilik ishi" kafedrasi mudiri sifatida faoliyat yuritgan. Keyinchalik 2009-2022 -yillarda ushbu kafedrada katta o'qituvchi lavozimida mehnat qilib kelgan.

Sh. Tadjiev 2022-yilda "Tog' yon bag'ridagi konlarni ochiq-yer osti usulda qazib olishda konturorti zahiralarini ochish tizimini asoslash" mavzusida ilmiy ishini himoya qilib, Texnika

Jom qishlog'i maorifi

fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori darajasiga ega bo'lgan. 2023-yildan boshlab hozirgi kunda kafedra dotsenti lavozimida ishlab kelmoqda.

Sh.Tadiyevning hozirga qadar ilmiy-pedagogik faoliyati mobaynida konchilik sohasiga oid "Marksheyderlik ishi bo'yicha masala va mashqlar to'plami" (2021-yil), "Geodeziya dala o'quv amaliyoti va xavfsizlik texnikasi qoidalar" (2022) o'quv qo'llanmalari, "Управление перемещением разнопрочных горных пород энергией взрыва на сброс" (2020), "Обоснование и выбор рациональной технологической схемы открытой разработки месторождений фосфоритов с пологопадающими пластами малой мощности" (2022) monografiyalari, 40 ga yaqin uslubiy qo'llanma, 2 ta patent va 3 ta mualliflik guvohnomalari hamda 75 dan ortiq respublika va horijiy nashrlarda ilmiy maqola va tezislari chop etilgan. Faoliyati mobaynida Konchilik sanoati rivojiga hissa qo'shib kelmoqda.

ABRIYEV HAZRATQUL BURONOVICH 1983-yil 11-fevralda Samarqand viloyati Nurobod tumanida tavallud topgan. 1990-2000-yillarda Samarqand viloyati Nurobod tumani №24-o'rta maktabni bitirib, 2001-yilda Samarqand davlat universiteti tarix fakultetiga bakalavr yo'nalishiga o'qishga qabul qilingan. 2005 yili shu fakul'tetni imtiyozli diplom bilan tamomlab, shu yili Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti "Tarixshunoslik va manbashunoslik" kafedrasiga magistratura yo'nalishiga o'qishga kirib, 2007-yili Samarqand davlat universiteti magistratura yo'nalishini tamomlagan.

Abriyev Hazratqul Buronovich 2007-yili Samarqand davlat universiteti magistratura yo'nalishini tamomlab, 2007-yildan-2019-yilgacha Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti "Tarixshunoslik va manbashunoslik" kafedrasida assistent lavozimida faoliyat yuritgan. 2019-2022-yillar davomida

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti “Tarixshunoslik va manbashunoslik” kafedrasida tayanch doktorant sifatida tahsil olgan.

Abriyev Hazratqul Buronovich Amir Temur va Temuriylar davri tarixi, madaniyati va me'moriy obidalarini bunyod etilishi tarixiga bag'ishlangan respublika va xalqaro miqyosdagi konferensiyalarning faol ishtirokchisi. Jumladan, Ukraina va Hindiston davlatlarida o'tkazilgan xalqaro konferensiyalarda o'zining ma'ruzalari bilan qatnashgan.

Shu kunga qadar Abriyev Hazratqulning 20 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari Respublika va xorij, jumladan, Ispaniya va Hindiston Respublikasi nufuzli jurnal va to'plamlarida chop etilgan.

Abriyev Hazratqul Buronovich oilali, uch nafar farzandning otasi.



BEKZOD IRISQULOV 1984-yil 16-aprelda Jom qishlog'ida ziyoli oilada tug'ilgan. Dastlab qishloqdagi 22-maktabda tahsil olib, 2006-yilda Samarqand davlat universitetining sotsiologiya fakultetiga o'qishga kiradi. 2008-yilda shu fakultetning magistraturasida tahsilni davom ettiradi.

2006-2007-yillarda SamDU qoshidagi 2-son Akademik litseyda tarix fani o'qituvchisi, 2007-2018-yillarda SamISI qoshidagi 2-son akademik litseyda tarix fani o'qituvchisi, 2018-2022-yillarda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritgan. 2022-yildan bugungi kunga qadar O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutida talabalarga tarix fanidan saboq berib kelmoqda va “Turkistonda davlat budjetining shakllanish

Jom qishlog‘i maorifi

jarayoni va manbalari” mavzusida PhD dissertatsiyasi ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Ko‘plab ilmiy maqolalar muallifi.

B.Irisqulov o‘zining pedagogik faoliyati davomida Jom elining ko‘plab yoshlariga oliy o‘quv yurtida talaba bo‘lishi uchun ustozlik qildi. Uning samarali mehnatidan elimiz minnatdor. B.Irisqulov oilali, 2 nafar farzandning otasi.



BEGALI ALIQULOV 1987-yil Jom qishlog‘ida ziyoli oilada tug‘ilgan. 2006-yilda Samarqand davlat universiteti talabasi bo‘ladi. Kunduzgi ta’limda tahsil olgan BehBegali Aliqulov 2010-yilda universitetni a’lo baholarga bitiradi. 2010-yildan 2012-yilgacha Samarqand davlat universiteti magistranti bo‘ladi. 2012-yildan boshlab 2015-yilgacha bo‘lgan muddatda Samarqand davlat universiteti fiziologiya, genetika va biokimyo kafedrasida assistenti bo‘lib ishlagan. 2015-2016 yillarda Samarqand davlat universiteti genetika va biokimyo kafedrasida assistenti bo‘lib faoliyat yuritgan.

Begali Aliqulov 2016-18-yillarda Samarqand davlat universiteti biologiya va kimyo fakulteti o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari, 2018-2019-yillarda esa Samarqand davlat universiteti biologiya fakulteti o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari lavozimida ishlagan. 2019-2022-yillar davomida Samarqand davlat universiteti o‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i lavozimida ishlaydi. 2022-yildan hozirgi vaqtga qadar Samarqand davlat universiteti genetika va biotexnologiya kafedrasida doktoranti.

Begali Aliqulov bugunga qadar 100 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, 2 ta darslik, 3 ta o‘quv qo‘llanma va 1 ta monografiya muallifi.

Begali Aliqulov 2018-yilda “O‘zbekistondagi ayrim galofit o‘simliklar biomassasining biotexnologik potentsiali” mavzusida PhD dissertatsiyasini himoya qilgan. Bugungi kunda “Janubiy-G‘arbiy O‘zbekistondagi ayrim galofitlarning ekstremofil bakteriyalari va ularning biotexnologik potentsiali” mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy izlanish olib bormoqda. Bundan tashqari Begali Aliqulov Hindistonning nufuzli “International Journal of Current Microbiology and Applied Sciences” xalqaro jurnalining tahrir hay’ati a’zosi, Samarqand davlat universiteti “Oziq-ovqat xavfsizligi: Milliy va Global muammolar” ilmiy jurnali mas’ul muharriri ham hisoblanadi.

OMADJON SAFAROV 1989-yil 3-mayda Jom qishlog‘ida ziyoli oilada tug‘ilgan. Otasi Juraboy Safarov pochtachi sifatida ko‘p yillar Jom elining xizmatida bo‘lgan. Omadjon Safarov 1996-2005-yillarda 44-umumiy ta’lim maktabida o‘qigan. 2012-2016-yillarda Samarqand davlat universitetining fizika fakultetida bakalavr, 2016-2018-yillarda shu fakultetning magistri sifatida tahsil olgan. 2018-yildan universitet rektori professor Rustam Xolmuradov tavsiyasiga asosan “Qattiq jismlar fizikasi” kafedrasida assistent sifatida ish faoliyatini davom ettirgan. 2022-yilgacha shu kafedrada samarali ilmiy va pedagogik faoliyat yuritgan. 2022-yildan bugungi kunga qadar Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O‘quv-uslubiy bosh boshqarmasi, o‘quv jarayonini loyihalashtirish va ekspertiza qilish bo‘limi bosh mutaxassisi sifatida ish faoliyatini olib bormoqda. Hozirda dotsent S.Q.Axrorov rahbarligida PhD dissertatsiyasini tayyorlamoqda. 20 ga yaqin ilmiy maqolalari Xalqaro, Respublika jurnallarida va konferensiyalarda chop etilgan. Omadjon Safarov oilali, turmush o‘rtog‘i Murodullayeva Gulmira ham 44-maktabda o‘quvchilarga saboq beradi.

Jom qishlog‘i maorifi



RO‘ZIBOY PARDAYEV 1992-yil 16-mart sanasida Jom qishlog‘ida ziyoli oilada tug‘ilgan.

Otasi Boychiyev Gulmurod Pardayevich ko‘p yillar davomida tuman yer resurslari va davlat kadastrida turli lavozimlarda faoliyat olib borgan. Bir necha yil davomida “Jom” MFY raisi lavozimida ishlagan.

Onasi Boychiyeva Sabohat Makatovna. Ko‘p yillar davomida xo‘jalik ishchisi bo‘lib ishlagan. 5 nafar farzandni turmush o‘rtog‘i bilan birgalikda tarbiyalab voyaga yetkazgan.

R.Pardayev 2008-yil 23-umumiy o‘rta ta’lim maktabini a’lo baholarga namunali xulq bilan tamomlagan. Shu yili Samarqand shahrida joylashgan So‘zangaron tibbiyot kollejining “Davolash ishi” yo‘nalishiga o‘qishga kirib, ushbu kollejni 2011-yilda imtiyozli diplom bilan tamomlagan.

2012-yilda Samarqand qishloq xo‘jaligi institutiga o‘qishga qabul qilingan. 2016-yil ushbu oliygohni imtiyozli diplom bilan tamomlab, shu yilning o‘zida mazkur oliygohning magistratura mutaxassisligiga qabul qilingan.

Magistraturada o‘qish bilan bir qatorda Samarqand viloyati Tayloq tumanida joylashgan “Siyob-Shavkat-Orzu” mas’uliyati cheklangan jamiyatga qarashli Dehqonobod qoramolchilikka ixtisoslashgan naslchilik fermasida dastlab seleksioner zootexnik, so‘ngra esa Bosh zootexnik lavozimlarida faoliyat olib borgan. Xo‘jalikdagi ish faoliyati davomida bir qator xorijiy davlatlarning yetuk mutaxassislari bilan birga ishlab, o‘z sohasi bo‘yicha zamonaviy bilimlarni egallagan.

2018-yil Samarqand veterinariya meditsinasi institutining magistratura mutaxassisligini imtiyozli diplom bilan tugatgan. Shu yilning o‘zida Aksiyadorlik Tijorat Xalq banki qoshidagi

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

“Chorvachilik ilmiy-amaliy maktabi” direktori lavozimiga tayinlanadi. Shu bilan birga institutning “Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko‘paytirish” kafedrası assistenti lavozimida dars bera boshlaydi. 2019-yil institut huzuridagi kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi bo‘lim boshlig‘i lavozimiga tayinlanadi. 2022-yildan “Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi” kafedrası mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.

2022-yilda “Sut yo‘nalishidagi qoramol zotlaridan go‘sht ishlab chiqarishda foydalanish samaradorligi” mavzusidagi dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

R.Pardayevning 50 dan ortiq ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlari chop qilingan. U hammualliflikda 2 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta monografiya, 2 ta uslubiy qo‘llanma, 3 ta tavsiyanoma tayyorlagan va ular bugungi kun ilm-fanida keng foydalanib kelinmoqda. Shu bilan birga 2018-2022-yillar davomida qiymati 2,5 mlrd. so‘m bo‘lgan 2 ta amaliy loyihada ilmiy xodim bo‘lib faoliyat ko‘rsatgan. Ayni vaqtda Turkiya davlatining olimlari bilan birgalikda qo‘shma loyiha ustida ishlar jadal davom etmoqda. R.Pardayev AQSH ning Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences jurnali tahririyat a‘zosi hisoblanadi.

Hozirda R.Pardayev 3 nafar magistratura mutaxassisligi talabalariga ilmiy rahbarlik qilib kelmoqda.



IRODA ERNAZAROVA 1993-yil 4-iyunda Jom qishlog‘ida ziyoli o‘qituvchilar oilasida tug‘ilgan.

Otasi Shavkat Xolmo‘minov juda ko‘p yillardan buyon o‘qituvchilik faoliyati bilan shug‘ullanib keladi. Onasi Jonguloy Xolmo‘minova ham ma‘rifatli ayol sifatida

Jom qishlog'i maorifi

ilmga qiziquvchan, to'rt farzandni tarbiyalagan. Iroda Ernazarova 2009-yilda 21-maktabning 9-sinfini tamomlash arafasida professor Pirnazar Davronov tashkil qilgan stipendiya sohibasi bo'lgan va bu rag'bat uning ilm yo'lida shijoat bilan qadam tashlashiga turtki bo'lgan. 2012-yilda Samarqand davlat universiteti qoshidagi 1-sonli akademik litseyni imtiyozli diplom bilan tamomlab, Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetiga grant asosida o'qishga qabul qilingan. 2016-yilda shu fakultetning bakalavriat bosqichini, 2018-yilda magistraturasini imtiyozli diplomlar bilan tamomlab, universitet rektori, professor Rustam Xalmuradovning maxsus ishonchnomasini qo'lga kiritib shu universitetda talabalarga saboq berishni boshlagan. 2019-yilda tayanch doktoranturaga qabul qilinadi va filologiya fanlari doktori, professor Ibodulla Mirzayev rahbarligida "Muallif so'z ijodkorligining lisoniy-kognitiv tahlili (Eshqobil Shukur ijodi misolida)" mavzusida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishini yozishga kirishadi. 2022-yil 22-sentabrda PhD dissertatsiyasini muddatidan oldin muvaffaqiyatli himoya qilib P.Davranov, R.Xalmuradov, I.Mirzayev kabi ustozlari ishonchini oqlaydi.

I.Ernazarova hozirda filologiya fakultetining o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchilik faoliyatini olib bormoqda. Uning bugunga qadar 40 dan ortiq maqolalari nufuzli xalqaro va respublika jurnallarida chop etilgan. Bitta uslubiy qo'llanma va monografiya muallifi. Bugungi kunda 3 nafar magistrlik ishiga rahbarlik qilmoqda.

I.Ernazarova ilmiy faoliyatdan tashqari samarali pedagogik faoliyat bilan ham shug'ullanib kelmoqdaki, uning bu faoliyatidan ayniqsa, Jom eli minnatdor. Chunki uning sabog'ini olgan mingdan oshiq yoshlar bugungi kunda respublikamizning nufuzli oliy ta'lim muassasalari talabalariga aylanishgan.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

I.Ernazarova o'zining tirishqoqligi bilan nafaqat viloyatimiz, qishlog'imiz yoshlariga, balki o'zining oila a'zolariga ham munosib o'rnak bo'lmoqdaki, uning ukasi Ernazarov Zohidjon ham Rossiya hamda Amerika oliy o'quv yurtlarida tahsil olib, bugungi kunda bank sohasida respublika boshqaruvida faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, Z.Ernazarov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasini namunali diplom bilan tugatgan, ingliz tilidan C1 darajali sertifikatga ega, bir nechta tillarni mukammal biladigan mutaxassis. Singlisi Ernazarova Madina Samarqand davlat tibbiyot universitetining bitiruvchisi. Ukasi Ernazarov Behruz ham IT sohasida katta yutuqlarga erishib, dunyoning eng yetakchi universitetlarining grandlari sohibi bo'lgan.

Oilali turmush o'rtog'i Bo'riyev Baxtiyor biznesmen, qizi Malika.

JOMNING KASBIGA FIDOYI O'QITUVCHILARI

Inson mehnat faoliyatining barqaror turiga kasb deyiladi. Hazrat Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o'gitlarida aytilishicha, muallimlik eng yuksak farz amali bo'lib, utozlar haqqiga avvalo Olloh, farishtalar, barcha osmon va yer egalari, hatto uyasidagi chumoli, suv ostidagi baliqlar ham salovat aytib turishar ekan. Har qanday kasb egasining, ayniqsa o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatiga mas'uliyatsizlik bilan yondashishi Olloh oldida katta gunoh, Vatanga xiyonat hisoblanar ekan. Fidoyi so'zi arab tilida o'z jonini qurbon qiluvchi, biror kishi, narsa yoki ishga astoydil berilgan va ular uchun jondan kechishga ham tayyor, sodiq ma'nolarini bildiradi. Mamlakatimizda, jumladan, Jom qishlog'ida bunday o'qituvchilar ko'p.

Jom qishlog'i maorifi



TUQSORI TADJIYEV 1914-yil 14-mayda Jom qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan.

T.Tadjiyev 1923-1930-yillarda Jom qishlog'idagi aholi xonadonlarida tashkil etilgan maktablarda 1-7 sinflarda o'qigan. 1930-1932-yillar davomida Kattaqo'rg'on tumanidagi Pedagogika texnikumida o'qishni davom ettirgan. Mazkur texnikumni bitirib, 1932-1936-yillarda Jom "Lenin yo'li" (hozirgi Jom MFY) kolxozida tashkil etilgan maktabda direktorlik qilgan va o'quvchilarga ta'lim-tarbiya bergan. Ushbu davrda "Karl Marks" kolxozida (hozirgi 22-maktab) M.Xolbozorov raisligida yangi maktab tashkil etilishida ishtirok etib, shu maktabda ham o'quvchilarga ta'lim-tarbiya bergan.

O'ta kuchli aql zakovat sohibi bo'lgan, Jom maorifining sardori Tuqsori Tadjiyev 1936-yilda jamoatchilik hamkorligida hozirgi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi tamal toshini qo'ygan hamda 1942-yilga qadar mazkur maktab direktori vazifasida ishlab, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya bergan.

1942-1943-yillarda sobiq Sovet Armiyasi safida fashistlarga qarshi janglarda qatnashib, og'ir yaralanganligi sababli Jom qishlog'iga qaytarilgan. Fashistlarga qarshi janglarda Sovet Armiyasi safidagi qahramonona xizmatlari uchun juda ko'p orden va medallar bilan taqdirlangan.

1946-1958-yillar davomida yana hozirgi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori vazifasida ishlab, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya bergan. Ushbu maktabdan 1972-yildan (shu davrda personalniy pensiya) nafaqaga chiqqan.

1989-yil 13-mayda vafot etgan.

TOG‘AYNAZAR XOLIQULOV 1911-yilda Samarqand viloyatida Jom qishlog‘ida tavallud topgan. U yoshligidanoq tirishqoq, tinib-tinchimas, mehnatsevar bo‘lib ulg‘aydi. Tog‘aynazar boshlang‘ich ma‘lumotni olgach, hech ikkilanmasdan qishloqdagi savodsizlikni tugatish harakatida faol ishtirok etdi. 1930-yilda esa Kattaqo‘rg‘on shahridagi ikki yillik o‘qituvchilar tayyorlash kursiga kirib o‘qidi. Uni tamomlagach, 1933-1937-yillarda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi 14-maktabda o‘qituvchilik qila boshladi. 1937-1942-yillarda hozirgi 21-o‘rta ta‘lim maktabida o‘qituvchi va direktorlik lavozimlarida faoliyat ko‘rsatdi. Ikkinchi jahon urushi ustozni ham chetlab o‘tmadi. U 1942-1945-yillarda vatan uchun janggohlarda qon kechib xizmat qildi. O‘sha yillari frontda qilgan ajoyib xizmatlari uchun quyidagi medal va ordenlarni olishga muyassar bo‘lgan: “3A OTBOFY ”, “Jangovar xizmatlari uchun”, “Berlinni olishda qatnashganligi uchun” hamda II darajali Vatan urushi ordeni va bir qancha maqtoov yorliqlari bilan taqdirlangan. 1945-yili Tog‘aynazar Xoliqulov hozirgi 23-umumiy o‘rta ta‘lim maktabda faoliyat ko‘rsatish bilan birga uning qurilishi va poydevori qurilishida Tog‘ay boboning hissasi g‘oyat katta. Shundan so‘ng esa shu maktab hududida to‘liqsiz o‘rta maktab tashkil etildi. Yosh Tog‘aynazar Xoliqulov o‘zining bilim va tajribasini, mahoratini yosh avlodni tarbiyalashdek sermashaqqat ishni bo‘yniga oldi. U hech qachon o‘zining nihoyatda mas‘uliyatli kasbi to‘g‘risida nolimagan. Aksincha o‘qib-o‘rganib, o‘rgatib kelgan. Bir necha yillar shu maktabda, avvalo, o‘qituvchi keyinchalik esa direktorlik vazifalarida faoliyat ko‘rsatib mehnat qilgan. Shu orada (1948-yili) Kattaqo‘rg‘on shahridagi pedagogika texnikumini ishdan ajralmagan holda sirtidan tamomladi. U o‘zining ilm maskanidan olgan nazariy bilimlarini amaliyotga keng qo‘llagan, tatbiq etgan. Va nihoyat otaxon 1958-yildan to

Jom qishlog'i maorifi

nafaqaga chiqquncha, ya'ni 1970-yilgacha hozirgi 22-o'rta maktabda o'qituvchi va direktorlik qildi. Shu o'tgan davr mobaynida jamiyatimiz, elimiz uchun ko'plab zabardast kadrlar yetishtirdi. Ustozdan ilk saboq olgan shogirdlari mamlakatimizning turli sohalarida faoliyat ko'rsatdi. Jumladan, adliya vazirligi xodimi, huquqshunoslik fanlari nomzodi Orol Ernazarov, Hamza nomidagi davlat mukofoti sovrindori, taniqli yozuvchi Murod Muhammad Do'st, Toshkent shahar obodonlashtirish boshqarmasining xodimi, havaskor yozuvchi Qilichbek Mustafoev, Samarqand davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani bo'lgan Obruy Eshmurodov, Samarqand shahar kasalxonasining bo'lim mudiri bo'lgan Turg'un Suyunovlar Tog'ay boboni o'zlarining ajoyib kamtarin ustozlari deb hurmat bilan tilga olishadi. 1968-yilda hukumat farmoniga asosan "Respublikada xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" unvoniga hamda "Xalq maorifi a'lochisi" va bir qancha "Faxriy yorliq" larga va nishonlarga sazovor bo'lgan. Ustoz qayerda ishlamasin shijoat ko'rsatib astoydil jon koyitib mehnat qilgan. Shu bois "Mehnat qilgan elda aziz" deganlaridek otaxonni hamqishloqlari, mahalla ahli har doim hurmat qilishgan va hozir ham hurmat bilan esga olishadi. Tog'ay boboning oilasi hozirda ham qishloqning ibratli oilalardan biri. Otaxon turmush o'rtog'i Hosiyat aya bilan 6 qiz, 3 nafar o'g'ilni tabiyalab voyaga yetkazgan. 2022-yilda qizi Adolat Tog'aynazarova, oilasiga bosh bo'lib qishloq kutubxonasini bunyod etgaligi uchun davlat mukofotiga sazavor bo'ldi. Hayotini bilimga, o'quvchilarga saboq berishga bag'ishlagan ustoz 1992-yili bu yorug' dunyodan ko'z yumdi. Keltirilgan ma'lumotlar nabira kelini Oliya Yaqubovadan olingan.

NAZAR RAVSHANOV (1914-1961) SamDUda o‘qigan. Oliy ma’lumot olgan ilk ziyolilardan biri. Maktab direktori sifatida Jomdan Moskvaga borgan birinchi maorifchi. Ish davrida maktabni kadrlar bilan ta’minlash maqsadida ko‘plab mahalliy yoshlarni oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga jalb qilgan. Jom mahallasidagi ko‘pchilik o‘qituvchilarning ustози. 45-maktabga uning nomi berilgan.

BOLLI YORQULOV (1919-1980) yoshligidan jamoa xo‘jaligida ishlagan va to‘liqsiz o‘rta maktabda o‘qigan. Urushning boshidan oxirigacha jang qilib, 1945-yilda yurtiga omon qaytib kelgan. Kattaqo‘rg‘on pedagogika texnikumini tamomlab, 37-maktab (hozirgi A.Temur nomli maktab)da o‘qituvchilik qilgan. O‘zDUning geografiya fakultetini sirtidan bitirgan. B.Yorqulov 1953-1958-yillarda 37-maktabda, 1958-yildan umrining oxirigacha hozirgi B.Tursunov nomli 21-maktabda direktor bo‘lib ishlagan. B.Yorqulov Jom qishlog‘i maorifi va madaniyatiga, maktablar qurilishi va rivojiga katta hissa qo‘shgan tashkilotchi, tadbirkor, shogirdlari kamolini ko‘rib quvonadigan buyuk ustozlarimizdan biri edi. B.Yorqulovning yaxshi xislatlaridan yana biri qishloqqa kelgan hurmatli insonlar ,albatta, uning xonadonida mehmon qilinardi. Otamiz Ziyot cho‘ponning guvohlik berishicha, har yili Bolli Yorqulovning 50 qo‘zisi mehmon kutishga ketar ekan. Asli bu xislat uning otasi Yorqulboy, bobosi Shoymatboylardan o‘tgan bo‘lib, bugungi kunda Jo‘raboy kabi avlodlarida davom etmoqda. T.Rahmonov tuman ijroqo‘mining raisi bo‘lgan davrda B.Yorqulov bilan birga Moskvaga borishibdi. Bolli bobo mehmonxona krovatida o‘tirib olib, ustiga choyshab yopinib pul sanar ekan. T.Rahmonov pulingizni choyshab yopinmay sanasangiz bo‘lmaydimi, deganda, Bolli Yorqulov tuman ijroqo‘mining raisiga, bu pullarni ko‘rsangiz labingizga uchuq toshadi, degan ekan.

Jom qishlog'i maorifi

YORMAT SADINOV 1919-yilda tug'ilgan. 1930-yilda to'liqsiz o'rta maktabda o'qigan. Jamoa xo'jaligida ishlagan, g'alla o'rgan, xirmonda ishlagan. Urush davrida front ortida xizmat qilgan. Avval pedagogika texnikumida, keyin O'zDUning o'zbek filologiyasi fakultetida o'qigan. 1950-1952-yillarda 37-maktab (hozirgi A.Temur nomli maktab) direktori, 1952-1957-yillarda jamoa xo'jaligi raisi, 1957-yildan 37-maktab ilmiy bo'lim mudiri, 1968-yildan umrining oxirigacha hozirgi B.Tursunov nomli 21-maktab ilmiy bo'lim mudiri bo'lib ishlagan, umrining 48 yilini o'qituvchilikka bag'ishlagan. Y.Sadinovning barcha farzandlari jamiyatda o'z o'rnini topgan hurmatli insonlardan. Olima qizlari Dilorom va Dilbar Yormatovalardan tashqari, o'g'li Alisher yoshligidan ilonga qiziqqan. Sadin tabibning nabirasi A.Yormatov ilon zahri bilan davolab, ko'plab kishilarni darddan forig' etmoqda. Ilonlarning chaqishidan 21 marta reanimatsiyaga tushib davolansa-da, dardmandlarning sog'ligi uchun bu kasbidan voz kechmadi. Alisherning Toshkent, Samarqand, Jizzax va Qarshi shaharlarida xususiy klinikalari mavjud. Bu insonning ilonlar bilan bog'liq faoliyati to'g'risida qator filmlar yaratilgan bo'lib, respublika va viloyat telekanallari orqali tez-tez ko'rsatuvlar uyushtiriladi. Ilon zahri bilan davolashdagi ijobiy faoliyatlarini e'tiborga olgan respublika ilmiy tibbiyot jamoatchiligi tavsiyasi bilan 2008-yilning 5-avgustida A.Yormatovga «Xalq tabobati faxriysi va dotsenti» unvoni berildi. Baxtiyor Sadinov Respublika mustaqilligining dastlabki yillaridayoq Samarqand shahrida xususiy tipografiya ishini yo'lga qo'ygan birinchi tadbirkor.

SAFAR QURBONOV (1919-2006) 1919-yilda tug'ilgan. Ota-onadan yosh yetim qolgan S.Qurbonov katta akasi Xushvaqt Qurbonov bilan Andijon viloyatiga ko'chib borgan. 1932-1933-yillarda Namangan viloyati Norin tumanidagi bolalar uyida tarbiyalangan. 1935-1940-yillarda Andijon viloyati

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Izboskan tumanidagi oʻrta maktabda, soʻngra, shu maktab qoshida tashkil etilgan internatda taʼlim olgan. 1941-yilda maktabni oltin medal bilan bitirgan va shu ilm maskanida 1942-yilga qadar oʻqituvchi boʻlib ishlagan. 1942-yilda koʻngillilar safida nemis fashistlariga qarshi urushga otlangan. S.Qurbonov jangovar xizmatning dastlabki kunlaridanoq 363-oʻqchilar polkida tarjimon va siyosiy ishlar boʻyicha komandir oʻrinbosari sifatida jang qilgan. 1943-yilning yanvaridan 569-oʻqchilar polki qoshidagi gvardiya minamyotida oʻqlovchi boʻlib urushning oxirigacha jang qilgan. 1945-yilda zahiraga boʻshatilgan S.Qurbonov Andijon viloyati Izboskan tumanidagi oʻrta maktabda oʻqituvchilik qila boshlagan, 1947-yildan oʻzi tugʻilgan Jomga qaytib kelib hozirgi Amir Temur nomli maktabda ishlagan. 1949-1954-yillarda OʻzDU (hozirgi SamDU)ning matematika fakultetida oʻqigan va mehnat nafaqasiga chiqquncha hozirgi Amir Temur nomli maktabda jomlik yoshlarga matematikadan saboq bergan. S.Qurbonovning mehnatlari hukumat tomonidan munosib taqdirlangan. Oʻzbekiston xalq maorifi aʼlochisi, «Hurmat belgisi» ordeni, bir qancha medallar va maqtoov yorliqlari bilan mukofotlangan.

Uning besh farzandi, nabiralari va koʻplab shogirdlari vatanimiz ravnaqi yoʻlida mehnat qilishmoqda.

AMIR OCHILOV (1919-2007) maktabdan soʻng pedagogika texnikumida oʻqigan. 1941-1945-yillarda ikkinchi jahon urushida qatnashgan, ofitserlik darajasiga erishgan, qator orden va medallar sohibi. Urushdan keyin hozirgi B.Tursunov nomli 21-maktabda oʻqituvchilik qilgan. SamDUning tarix fakultetini sirtidan oʻqib bitirgan. A.Ochilov shogirdlari kamolidan xursand boʻladigan, oʻz kasbining fidokorlaridan edi. Zamondan orqada qolmaslik maqsadida qishloqqa birinchi boʻlib «Rekord-52» markali radioni olib kelgan. Bu radioning

Jom qishlog'i maorifi

uchta batareyasi bo'lib, og'irligi bo'yicha bir eshakka yuk bo'lardi. Domlaning xonadoniga har kuni kechga Shonazar Ochilov, Vafoqul Qulmatov, Ne'matilla va Jaloliddin Safarovlar kabi o'qituvchilar to'planishib ertangi darslari uchun radio tinglashar, gazetalar o'qishar, kitob mutolaa qilib, jahonda ro'y berayotgan voqealardan suhbatlashib, fikr almashishardi. Ularning ziyoga yo'g'rilgan suhbatlari juda fayzli edi.

MUHAMMADI TURSUNOV 1921-yilda tug'ilgan. Boshlang'ich ta'limni Omondara mahallasiga qarashli Sayfiddin Nazarov hovlisi o'rnida bo'lgan qadimgi maktabda Abdulla Tojiboyevdan olgan. So'ngra, Kattaqo'rg'on tumaniga borib Lo'blaxo'r qishlog'idagi maktabda o'rta ma'lumot olgan va shahardagi pedagogika bilim yurtida o'qigan. 1939-yilda SamDuning tarix fakultetiga o'qishga qabul qilingan. Urush boshlangach, vatan himoyasiga otlangan va 1944-yilda urushdan yarador bo'lib qaytgan. Sog'ligi tiklangach, SamDUni bitirib, Qoradaryodagi 7-maktabda o'qituvchi, ilmiy bo'lim mudiri, direktor bo'lib ishlagan. M.Tursunov rektoratning taklifi bilan SamDUda sakkiz yil tarixdan talabalarga saboq bergan. 1953-1963-yillarda Kattaqo'rg'on tumani xalq maorifi bo'limiga rahbarlik qilgan. Xalq maorifi a'lochisi va boshqa ko'krak nishonlar bilan taqdirlangan. Kattaqo'rg'onda M.Tursunov nomida maktab, muzey, kutubxona, ko'cha mavjud. M.Tursunov namunali oila boshlig'i sifatida Muzallat Xayrullaeva bilan sakkiz nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazishgan.

SHAMSIDDIN YOQUBOV (1926-1980). Shamsiddin Mahmayoqub o'g'li 1926-yilda go'zal Jom qishlog'ining Oyg'uton (Oy qo'ton) deb atalmish yaylovida dehqon oilasida tug'ilgan. Bobosi mulla Tursunqul bilimli, ziyoli inson bo'lganligi sababli ularning uyida bo'ladigan davra suhbatlarida

yosh Shamsiddin xizmat qilar, kattalarning kitob o‘qishiga, g‘azalxonlik qilishiga havasi kelardi. Buvisi Begimoy bibi va onasi Hojar bibidan ko‘p ertaklar eshitgan Shamsiddinda o‘qishga havas erta boshlangan edi. Boshlang‘ich ta‘limni qishlog‘idagi maktabda va Kattaqo‘rg‘on tumanining Saroyqo‘rg‘on (Lo‘blaxo‘r) qishloqlarida olgan. 1948-1953-yillarda SamDUning o‘zbek tili va adabiyoti fakulitetida o‘qib, Jomda birinchilar qatorida oliy ma'lumotli bo‘lgan. Sh.Yoqubov 1953-1965-yillarda hozirgi A.Temur nomli 22-o‘rta maktabning ilmiy bo‘lim mudiri va direktori lavozimlarida ishlagan. Domla ona tili va adabiyoti fanidan dars berar, uning darslari o‘quvchilarni sehlrab qo‘yardi. Sh.Yoqubovning rahbarligi va qishloq o‘qituvchilarining fidokorona mehnatlari tufayli hozirgi A.Temur nomli maktab Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida «Jom universiteti» deb atalgan. Sh.Yoqubov o‘zi rahbarlik qilgan maktabda tashkil etilgan «KAPO-Kustovoe administrativnoe pedagogicheskoe ob'edine-nie»ga rahbarlik qilgan. Maktabda tuman, viloyat miqyosidagi pedagogik seminarlar, ko‘rgazmali o‘quv yig‘ilishlari o‘tkazilgan va shu bois mohir pedagoglar T.Xoliqulov, Y.Sadinov, G‘.Jumanov, S.Qurbonov, A.Ochilov, H.Xidirov, Sh.Xo‘jaqulov, N.Safarov, J.Safarov, Ahmad va Erka Shamatovlar, Sh.Omonov, D.Mirzayev, O‘.Sattarov, G‘.Qudratov, U.Turapovlarning ijodiy ishlari ommalashtirilgan. Bu ishlar samarasi tufayli 1967-yilda Tog‘aynazar Xoliqulovga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” faxriy unvoni berilgan. Sh.Yoqubov 1965 yilda Samarqand viloyatidan Respublika xalq maorifida ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan o‘zaro tajriba almashish vakillari guruhida qatnashib, Jom maktablarida erishilgan yutuqlar bilan Qoraqalpog‘iston maorifchilarini tanishtirgan va o‘zi o‘rganib kelgan yangiliklarni Pastdarg‘om tumani maktablarida ommalashtirgan. Sh.Yoqubovning samarali

Jom qishlog'i maorifi

mehnati hukumat tomonidan munosib baholangan. 1965-yilda "Hurmat belgisi" ordeni, "Xalq maorifi a'lochisi" nishoni va bir qancha Faxriy yorliqlar bilan mukofotlangan. Sh.Yoqubov Jomdagi namunali oilalardan birining boshlig'i edi. To'qqiz nafar farzandni umr yo'ldoshi Hamida mulla Ibrohim qizi bilan birgalikda jamiyatga naf keltiradigan insonlar qilib tarbiyaladi.

ILASH TURAPOV 22-maktabda yigirma uch yil tarix fanidan dars berdi va maktabga 6 yil direktorlik qildi. Domla tarix ilmini chuqur egallagan, qizil imperiya davri bo'lishiga qaramasdan darslarida Amir Temur shaxsiga haqqoniy baho berib o'tardi. Shogirdlarini sevar, ularning yutug'i kamchiligini o'ziniki, deb bilardi. Domla gap to'g'ri kelganida, hech kimni ayamasdan faqat to'g'ri fikrni bildirardi. Pstdarg'om tuman o'qituvchilarining avgust kengashida 22-maktab binosi qurilishining cho'zilayotganligini aytib, raykom kotibi va ijroqo'm raisi huzurida qattiq tanqidiy fikrlar bildirgan va «Tanqid qiz emaski, birov uni yaxshi ko'rsa» degan.

SHOVXI XO'JAQULOV. Otasi Xo'jaqul karvon to'ylarda kurashib yurgan, onasi To'yli polvonning qizi. Sh.Xo'jaqulov yoshligidan kurashga qiziqqan. 1954-yilda Samarqand shahridagi jismoniy tarbiya texnikumida o'qib yurgan yillarida kurashdan shahar musobaqasida birinchi o'rinni olgan. 1958-yilda Toshkent shahridagi jismoniy tarbiya institutiga kirib, u yerda kurash-sambo sirlarini o'rgangan. Shu yili Moskva shahrida kurash musobaqada ishtirok etgan. 1961-yilda Toshkent shahar birinchiligida gruzin yigitining umrovini sindirib yuborgan. Institutning 4-bosqichida o'qib yurgan yillarida Moskva shahridan sovrin bilan qaytgan. Shu yili Guruziyaning poytaxti Tbilisi shahrida o'tkazilgan chempionatda ikkinchi o'rinni egallagan. Sababi u shu bellashuvda jahon chempioni Oleg Stepanovdan yengilgandi.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Kurash oxirida Sh.Xo‘jaqulov o‘zbek milliy kurashi usullarini namoyish qilib ko‘rsatib hammani hayratga solgan. Institutni tugatib 1962-1963-o‘quv yilida «Ulus»dagi maktabda sport ishlarini rivojlantirdi. 1963-yildan boshlab Jom qishlog‘ining A.Temur va B.Tursunov nomli maktablari jismoniy tarbiya o‘qituvchisi bo‘lib mehnat qildi. Qishloq yoshlaridan sportchilar tayyorlash bo‘yicha katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Jom qishlog‘i maktablari tumanda doim birinchi-ikkinchi o‘rinlarni egallab kelgan. Jom qishlog‘i sporti asoschilaridan biri bo‘lgan Sh.Xo‘jaqulovning mehnatlari tufayli O‘ktam Qobulov, Bahriddin Jumanov, Narzulla Sharipov va boshqa ko‘plab kurashchilar yetishib chiqqan. O‘ktam Qobulov institutni bitirgach, tuman xalq ta’limi mudiri Bo‘ron Murodovning yordamida maktabga kurash tushish to‘shagini olib kelgan. Uning ustini qoplash uchun Turum Mo‘minnazarov katta brezent gilam tuhfa etgan. Qishloq yoshlarini Sh.Xo‘jaqulov kurashning sambo turi, O‘ktam Qobulov esa milliy kurash turi bilan shug‘ullantirgan. Sambo bo‘yicha Rahmonov Habib, Norqulov Asliddin, Husanov O‘ktam, Sultonov Xusniddin, Xolmo‘minov Asliddinlar tumanda yuqori o‘rinlarni egallashgan. 1989-yildan boshlab Hafrindagi maktabning bitta sinfi kurash xonasiga aylantirilgan. Qishloqdagi ota-onalarning mablag‘lari hisobiga kurashchilar rag‘batlantirib turiladi.

MAHMARAYIM IRISQULOV (1910-1960)

Girdiqo‘rg‘on mahallasidan chiqqan ilk ziyolilardan biri. 20-yillarda savodsizlikni tugatish maktabida o‘qigan. 1928-1929-yillarda To‘xsori Tojiyev, Tog‘aynazar Xoliqulov va Ibodulla Qodirovlar bilan birgalikda Kattaqo‘rg‘on shahridagi pedagogika texnikumida o‘qigan. 1929-1933-yillarda yo‘llanma asosida Kitob tumaniga qarashli maktabda o‘qituvchilik qilgan. 1933-yilda K.Marks nomli jamoa xo‘jaligida buxgalter, so‘ngra

Jom qishlog'i maorifi

qishloq kengashining raisi bo'lgan. Urushning boshidan oxirigacha jang qilgan. Urushdan 1945-yilda qaytib kelib jamoa xo'jaligida buxgalter, 1957-yildan umrining oxirigacha Ulus davlat xo'jaligida hisobchi bo'lib ishlagan.

M.Irisqulovlar oilasining qishloq taraqqiyotida o'z o'rnini bor. Katta o'g'li J.Irisqulov iqtidorli uslubchi tarix o'qituvchisi sifatida qishloq aholisi va Nurobod tumani pedagoglari orasida katta obro' qozongan. Bizlar yuqori sinflarda o'qib yurgan chog'larimizda, maktabga zo'r tarixchi muallim SamDUNI bitirib kelibdi, - deb ko'p eshitganmiz. Men qishloqning bir farzandi sifatida J.Irisqulovning SamDU domlalarini Jomga taklif etib qishloqda dastlabki arxeologik ishlarni boshlab berganligini, topilmalarni saqlab qolish maqsadida ularni SamDU muzeyiga olib borib topshirganligini, uzoq yillar davomida o'quvchilariga bor bilimini, mehrini, qalb qo'rini beribgina qolmay, ushbu kitobni yozishimizda ko'rsatgan yordamlarini yuksak qadrlayman.

JALOLIDDIN SAFAROV 1927-yil Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanining Jom qishlog'ida (Qizil Qahramon kolxozi) tug'ilgan. Otasi Safarali Ochil o'g'li o'z davrining savodli kishilaridan bo'lgan, qishloq boylaridan biri Esanboy boboning nabirasi bo'lgan. Onasining Toshturdi momo mullo Tursunqul boboning 1930-1933-yillardagi ocharchilik yillarida bir ukasi va bir singlisi (Bahridin va Tillo) ochlikdan vafot etgan. Taxminan 1935-yilda onasi Toshturdi kasallikka chalinib vafot etgan. 1932-yili 1937-yilning taxminan may-iyun oylarida "Quloq" sifatida qamoqqa olingan. Otasi qamoqqa olingandan keyin Jaloliddinni tog'alari Mahmayoqub va Abdulhay Tursunqul o'g'illari o'z qaramog'iga olgan. Birinchi o'qituvchisi Sheraliev Jo'raboy bo'lgan. Keyinchalik o'qishini Jomdagi 37-to'liqsiz o'rta maktab (TO'M)da davom 1938-yilda 1-sinfga Jom qishlog'idagi boshlang'ich maktabga ettirgan.

Taxminan 1944-yillarda Kattaqo'rg'on tumanida yashagan (keyinchalik RayONO mudiri) tog'asi Muhammadi Tursunov o'ta yupun, kasalmand va nochor holatdagi Jaloliddinni Kattaqurg'on (Payshanbe) shahridagi bolalar uyi(Detdom)ga olib borib joylashtiradi. O'sha joyda voyaga yetib, 1951-yil harbiy xizmatga ketadi va 1954-yilgacha Moskva shahrida harbiy xizmatni o'taydi. O'zining aytib berishicha 1952-yilda Stalinning dafn marosimlarida tartib saqlashda qatnashgan. Detdomda rus tilini yaxshi o'zlashtirganligi uchun harbiyda korrespondentlik qilgan. "Krasnaya zvezda" va "Vechernaya Moskva" gazetalarida maqolalari chiqib turgan. Armiyadan qaytib ikki yil davomida Kattaqo'rg'on shahrida ishlagan va 1956-yilda Jom qishlog'iga qaytib kelgan.Samarqand davlat universitetida (O'zDU) sirtidan o'qigan. 1992-yil pensiyaga chiqquniga qadar 22-o'rta maktabda ximiya-biologiya fanlaridan dars bergan. 1992-1995-yillarda otasi Safarali Ochil o'g'lining daragini topish maqsadida Milliy xavfsizlik xizmatining Samraqand viloyat boshqarmasiga bir necha bor murojaat bilan borgan. Lekin otasining daragini topishning imkoni bo'lmagan. Otasi to'g'risida bilgani (odamlardan eshitgan) 1937-yil may-iyun oylarida (bahorgi piyoz pishig'i) hozirgi Tegirmonboshi MFY yig'ini hududi 1900-yilda hashar yo'li bilan qurilgan "Masjid-madrasa" oldida 3 kishi turganlarida Sarikul qishlog'ilik bir militsioner otliq kelib Safaralini so'raydi. Uchovlondan biri Maman bobo bo'lgan. Maman bobo "ko'rganimiz yo'q, xotini o'lib bechoraga bolalari bilan ancha qiyin bo'ldi"— deb aytgan. Boshqa birov esa "Nega ko'rmadik deysan – hozir eshagiga bir qop piyoz ortib mana bu yoqqa ketdi deb Toshtubachak tomonni ko'rsatgan. Otliq militsioner o'sha tomoniga qarab ot surib ketgan. Safaralining eshagi ikki kundan keyin uyiga qaytib kelgan. O'zi bedarak ketgan. Jaloliddin Safarov she'rlar mashq qilib turgan, she'rlari bir necha bor

Jom qishlog‘i maorifi

matbuotda chop etilgan. 1992-yil pensiyaga chiqqach xotira yozishni boshlagan. Yozgan gaplari juda ravon, husnixati juda chiroyli edi. Ustoz Jaloliddin Safarov 3 o‘g‘il, 5 qizni tarbiyalab voyaga yetkazgan. 2006-yil 25-dekabrda vafot etgan. “Mavlonoi Jom ota” qabristonidagi qabr toshiga o‘zi yozgan:

Shukrona–deb o‘zda bo‘lsa boriga,

Ko‘z tikmadim o‘zga inson zariga so‘zlari bitib qo‘yilgan.

Ushbu ma’lumotlar 12.02.2023-yil nabirasi Navro‘z Jaloliddinovdan olingan.

SAPAROV UMIR XALILOVICH 1956-yil 23-aprelda Samarqand viloyati, Pastdarg‘om tumani, Anjirli qishlog‘ida tug‘ilgan. 1961-yil shu qishloqdagi 18-sonli maktabning 1-sinfiga qabul qilinib, 1971-yil maktabni tamomlagan. 1971-1974-yillarda Samarqand shahridagi jismoniy tarbiya texnikumida o‘qigan. Ma’lumoti oliy, 1986-yilda Samarqand davlat universitetining rus filologiyasini tugatgan. Ish faoliyati davomida 1974-1977-yillarda Pasddarg‘om tumanidagi 6-maktabda jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, 1977-1980-yillarda Nurobod tumanidagi 17-maktabda jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, 1981-1993-yillarda 18-maktabda rus tili fani o‘qituvchisi, 1997-2008-yillarda Nurobod tumani xalq ta’limi bo‘limining metodika xonasida rus tili va adabiyoti fani uslubchisi, 2008-2016-yillarda Nurobod tumani xalq ta’limi bo‘limi mudiri vazifasida ishlagan. 2016-yilda nafaqaga chiqqan. 2016-yildan hozirgi kungacha Nurobod tumani “Ma’rifatparvarlar” jamiyati raisi o‘rinbosari vazifasida ishlab kelmoqda. 2005-yilda “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan. Namunali oila boshlig‘i, 6 nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazgan



XUDOYOROV QOPLON AMIRQULOVICH 1957-yil 18-avgustda Jom qishlog'ida ishchi oilasida tug'ilgan.

1974-yili Pastdarg'om tumani 92-umumiy o'rta ta'lim maktabini tugatgan. 1975-yil Sirdaryo davlat pedagogika universitetining «Matematika» yo'nalishiga o'qishga qabul qilinib, 1979-yili tamomlagan. O'qishni muvaffaqiyatli tugatgach, 1979-yildan 21- umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qituvchi bo'lib ish boshlagan. 1981-1992-yillarda Nurobod tumani O'quv-ishlab chiqarish kombinati (UPK) da Direktor lavozimida faoliyat ko'rsatgan. 1992-1996-yillar oralig'ida 63-umumiy o'rta ta'lim maktab direktori lavozimida ishlagan. Shu yillar mobaynida Samarqand qishloq xo'jalik unstitut agronomiya fakultetida sirtidan o'qib ikkinchi mutaxassislik diplomini olgan. 1996-1998-yillarda Jom davlat xo'jaligi direktori lavozimida ishlagan. 1999-2007-yillarda Nurobod tumani Fermerlar uyushmasining Jom qishlog'i sektori boshlig'i lavozimida faoliyat ko'rsatgan. 2008-2010-yillarda qaytadan 63-umumiy o'rta ta'lim maktabida direktor bo'lib ishlagan.

2010-2013-yillarda Nurobod pedagogika kolleji direktori lavozimida faoliyat ko'rsatgan.

2013-yilning 30-yanvar sanasida ikkinchi bor bosh miya qobig'iga qon quyilishi oqibatida vafot etgan.

Xudoyorov Qoplon Amirqulovich to'rt nafar o'g'il va uch nafar qizlarning mehribon otasi edi.

TOIROV SAMAT QO'CHQOROVICH 1971-yil 1-yanvarda Jom qishlog'ida tug'ilgan. 1978-1988-yillarda Nurobod tumani Jom qishlog'idagi 23-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qigan. O'qishni tugatib shu yili Jizzax DPI

Jom qishlog'i maorifi

o'qishga kirib 1993-yili oliy o'quv yurtini tugatib, Nurobod tumanidagi 45-maktabga o'qituvchi bo'lib ish faoliyatini boshlagan, 2007-2009-yillarda shu maktabda ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, 2009-yildan hozirgi kunga qadar shu maktabda direktor lavozimida ishlab kelmoqda. Oilali 5 nafar farzandi bor. O'g'li Qo'chqorov Sardor O'zbekiston-Finlandiya qo'shma institutida tarix fanida talabalarga

RASULOV HASAN ABDIRASULOVICH 1928-yilda Jom qishlog'ida tug'ilgan. Past Darg'om maktab internatini tugatib, 1950-1955-yilda SamDU tarix fakultetida o'qigan. 1955-yil Past-Darg'om tumanidagi 3-maktabda tarix fanidan dars bera boshlagan. 1965-yilda hozirgi Nurobod tuman 25-maktabda direktor vazifasida ishlagan. 1967-yilda Jom qishlog'idagi 24-maktabni o'z hisobidan qurdirgan. 33 yil uzluksiz maktab direktori lavozimida ishlagan. "Xalq ma'orifi a'lochisi" unvoni bilan taqdirlangan. 2000-yilda vafot etgan. 4 o'g'il, 3 qizning otasi. Katta o'g'li Rasulov Olim 1961-yilda tug'ilgan. 1983-yil Sam DPI biologiya fakultetini tugatgan. 1983-2021-yillarda Jom qishlog'idagi 24-maktab o'qituvchisi.hozir nafaqada.

Ikkinchi o'g'li Rasulov Karim Hasanovich 1963-yilda tug'ilgan. 1980-yil o'rta maktabni tugatib, 1980-1984-yillarda Sam DP instituti "Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi" fakultetida o'qigan. 1984-yilda 24-maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ish boshlagan.

HAQBERDI XIDIROV 1931-yilda tug'ilgan. 1938-yilda Cho'mmoq qishlog'idagi masjid binosida 1-sinfga borib J.Sheraliyevdan bilim olishni boshlagan. Ikki yil lotin alifbosida o'qitilgan. 1940-yildan kirill alfavitiga o'tilgan. 1941-yilda ikkinchi jahon urushi boshlangach, 2 yil o'qish to'xtab qolgan.

Urushdan so'ng o'qishni davom ettirib, 1948-yilda hozirgi B.Tursunov nomli maktabning 7-sinfini, 1951-yilda hozirgi A.Temur nomli maktabning 10-sinfini tamomlagan va shu yilning sentabr oyidan boshlab Kattaqo'rg'on tumaniga qarashli 30-maktabda matematika o'qituvchisi bo'lib ish boshlagan. 1953-1959-yillarda SamDUda sirtidan o'qigan. 1953-1958-yillarda hozirgi A.Temur nomli maktabda o'qituvchi, 1958-1995-yillarda B.Tursunov nomli maktabning matematika o'qituvchisi, ilmiy bo'lim mudiri bo'lib ishlagan. 1993-yilda «Xalq maorifi a'lochisi» unvoni bilan taqdirlangan.

O'ROL JUMAYEV 1932-yil 10-iyunda "Jom" qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Yorqulov Jumaboy kolxozda "omborxona mudiri" bo'lib ishlagan. Uning otasi qishloqning saxiy boylaridan Yorqulboy bo'lgan. Jumayev O'rolning onasi Oyshahar momo dong'i ketgan Xoliqul polvon qizi bo'lgan. Xoliqul polvon o'z davrining mashhur chavondozi bo'lgan, professor Davronov P.Z.ning "Samarqand Jomi" nomli kitobida ham bu haqida qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Jumayev O'rol o'rta maktabni tamomlab, 1954-yilda SamDUga o'qishga kirib, "Fizgeografiya" mutaxassisligini 1960-yilda tamomlagan. Undan so'ng dastlab hozirgi 22-umumiy o'rta ta'lim maktabida keyinchalik hozirgi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Geografiya" fanidan o'quvchilarga saboq berdi. 1992-yilda pensiyaga chiqdi.

1990-yilda "Za dolgoletniy dobrosovetniy trud ot imeni Prezdiума Verxovnogo Soveta SSSR resheniem ispolkoma. Samarkandskogo oblastnogo Soveta narodnix deputatov ot.27-iyulya 1990g.nagrajden medalyu "Veteran truda" bilan taqdirlangan. Jumayev O'rol qishlog'ida to'y marakalarda qo'li shirin oshpazligi bilan dong taratgan. Aholi o'rtasida hozirgacha hech kim O'rol boboday "Qovurdoq" qilolmadi degan gap

Jom qishlog'i maorifi

yuradi. Jumayev O'rol o'z vaqtida dehqonchilik, bog'dorchilik sohalarini ham yaxshi egallagan. Sakkiz nafar (to'rt o'g'il, to'rt qiz) farzandni tarbiyalab voyaga yetkazdi. 2013-yil 12-yanvarda vafot etgan.

O'RAL CHINMIRZAEV (1932-1980) qishloqning obro'li, ko'zga ko'ringan ziyoli insonlaridan biri edi. O'rta maktabni bitirib, o'qituvchi bo'lib ishlagan. Buxoro Davlat Pedagogika instituti matematika fakultetini bitirgan. Hozirgi Jom mahallasidagi 23-o'rta maktabda direktorlik qilgan. Farzandlaridan Norqul - mohir maorifchi, 2008-yildan Jom qishloq fuqarolari yig'ini raisi, Sobir esa Surxondaryo viloyati bojxona qo'mitasining mas'ul xodimi.

YUSUF QURBONOV 1933-yil 7-martda Jom qishlog'ida tug'ilgan. Ota-onadan erta judo bo'lgan. Mardikorlik qilishga to'g'ri kelgan. Maktab davrida armiya xizmatiga chaqirilgan. Xizmatdan kelib o'rta maktabni tugatgan. Hozirgi 22-maktab sobiq 91-maktab qoshida tashkil etilgan maktab internatida tarbiyachi bo'lib ishlay boshlagan. Bu orada Buxoro Pedagogika institutini sirdan o'qib tugatgan. 1968-yil ushbu internat tugatilgandan so'ng 22-maktabda 1996-yilgacha boshlang'ich sinflarni o'qitgan. Yuzlab yosh avlodlarga ta'lim bergan. Ko'plab maqto'v yorliqlar va "Maorif a'lochisi" unvoniga ega bo'lgan. 2009-yil rafiqasi Kurbanova Xolida aya bilan xaj safarini ado etib qaytgan. 2019-yil 30- sentabrda qarilik tufayli vafot etgan.

DAGAR MIRZAYEV 1935-yilda tug'ilgan. Mehnat faoliyatini 1957-yil Kattaqo'rg'on shahridagi 137-maktabda "Jismoniy tarbiya" o'qituvchisi vazifasidan boshlagan. 1960-yilda 106-maktabda "Ona tili, jismoniy tayyorgarlik, chizmachilik" o'qituvchisi, 1966-yildan 91-maktab direktor

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

o‘rinbosari, 1971-yil shu maktabda o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari bo‘lib ishlagan. 1976-yil 22-maktabda O‘TIBDO‘ vazifasida ishlagan va 1977-yilda shu maktabga direktor etib tayinlangan. 1980-yil 21-maktabga direktor o‘rinbosari etib tayinlangan. 1982-yil D.Mirzayev Samarqand viloyat Savetobod xalq deputatlari “Jom” qishloq sovetiga 12-saylov okrugidan deputat etib saylangan. 1984-yil 24-martida “Mehnatkashlar Deputat”lari qo‘mitasidan Kattaqo‘rg‘on tumanida mehnat deputati etib saylangan. 1986-yil Savetobod tumani 21-maktabga direktor etib tayinlangan. 1990-yil Samarqand viloyatida uzoq yillar samarali mehnati uchun Oliy kengash qo‘mitasi tomonidan “Mehnat faxriysi” medali bilan taqdirlangan.

ABDULLA TURSUNOV (1935-2005) Jomning so‘z ustalaridan biri bo‘lgan. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika institutini bitirgan. Ijodkor, malakali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi. She‘rlari tuman, viloyat, respublika matbuotida bosilgan. Ammo kitob holida chop etilmagan.

YO‘LDOSH XOLMO‘MINOV 1936-yilda Jom qishlog‘ida tug‘ilgan. 1945-1949-yillarda 21-maktabda o‘qigan. 1956-yilda 22-o‘rta maktabning 10-sinfini tugatgan. Shu maktabda bir necha yillar davomida o‘qituvchi, drama-xor to‘garagi rahbari, o‘qituvchilar tashkiloti rahbari sifatida ishlagan. Maktabdagi ishlaridan tashqari kolxoz ishlariga ham yordamlashardi. 1956-yildan 1970-yilgacha 21-maktabda ona tili adabiyot o‘qituvchisi sifatida faoliyat olib bordi. Ayni shu yillarda Jomning 11 ta maktabida ona tili adabiyot fani bo‘yicha metod birlashma rahbari bo‘ldi. Yo‘ldosh Xolmo‘minov “Mehnat faxriysi” unvoni bilan taqdirlangan.

Jom qishlog'i maorifi

QULMATOV VAFOQUL 1936-yilda tug'ilgan. 1951-1956-yillarda SamDUning fransuz tili fakultetiga o'qigan. 1956-yildan 2006-yilgacha Nurobod tumanidagi 21-maktabda fransuz tili o'qituvchisi bo'lib ishlagan. Jomdagi birinchi xorijiy tili o'qituvchisi.

ERNAZAR XOLMO'MINOV 1938-yil Jom qishlog'ida tavallud topgan. 1956-yil 37-sonli maktabni tamomlab, Samarqanddagi Kolxoz-sovxozi kadrlar tayyorlash maktabi chorvachilik bo'limining vettexnik ixtisosi bo'yicha tahsil olgan. Keyinchalik Sadriddin Ayniy nomidagi pedagogika institutining matematika fakultetini tamomlab, uzoq yillar davomida o'quvchilarga bir necha fanlardan dars berib kelgan. Uning matematika o'qitish metodikasi va darslarni hayotiy misollar bilan bog'lab olib borish haqidagi maqolalari "Sovetobod tongi" va "Zarafshon" gazetalarida chop etilgan. 1987-yilda "O'zbekiston xalq maorifi a'lochi" nishoni bilan taqdirlangan. 2017-yilda "Yillar yodga tushganda" nomli esdaliklar va hayotiy xulosalardan iborat kitobi nashr etilgan. Kitobda muallif ustozlari va shogirdlari haqida alohida ma'lumotlar bergan. Ernazar domla Xolmo'minov 4 qiz 6 o'g'ilni tarbiyalab voyaga yetkazgan. Ustoz 2022-yilda vafot etgan.

TEMIR QO'ZIBOYEV 1938-yil 25-fevralda Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani Jom qishlog'ida tug'ilgan. 1947-yil Jom qishlog'idagi 92-maktabning 1-sinfiga o'qishga qabul qilinib, 1957-yil shu maktabning 10-sinfini bitirgan. 1957-1960-yillarda Rastov-Don shahrida armiya safida bo'lgan. 1961-1963-yillarda Toshkent shahridagi 5-SPTUda „Erkaklar kiyimini tikish ustasi“ mutaxassisligi bo'yicha o'qigan. 1963-yil Nizomiy nomidagi Toshkent DPI o'qishga kirib, 1967-yili "Boshlang'ich sinf o'qituvchisi" ixtisosligi bo'yicha tamomlagan. 1967-yil Jom qishlog'idagi 21-maktabga o'qituvchi bo'lib ishga kelgan. 1978-

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

yil O'zbekiston o'qituvchilar 5-syezdidagi delegant bo'lib qatnashgan. 1981-yil 14-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining „Faxriy yorlig'i" bilan taqdirlangan. 1982-yil „Xalq maorifi a'lochisi" va „Metodist-o'qituvchi" unvonlari bilan taqdirlangan. 1988-yil Davlatimiz tomonidan „Jiguli" avtomashinasi bilan mukofatlanagan. 1988-yilda 21-maktabdan nafaqaga chiqqan. Turmush o'rtog'i Subanova Norbuvi ham shu maktabda o'qituvchi bo'lib ishlagan. 5 nafar farzandi bor. O'g'li Qo'ziyev Adham otasining izidan borib 21-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qituvchilarga tahsil berib kelmoqda.

TOJIYEV ERKIN TO'QSORIYEVICH 1940-yil 15-aprelda Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani Jom qishlog'ida tug'ilgan. 1947-1951-yillarda Jom qishlog'idagi 92-maktabda boshlang'ich ta'limni olgan. 1951-1958-yillarda Samarqand shahridagi internatda o'qigan. 1958-1963-yillarda SamDUning kimyo-biologiya fakultetining sirtqi bo'limida o'qigan. 1960-yildan boshlab Past-Darg'om tumanidagi 92-maktabda o'qituvchilik faoliyatini boshlagan. 1995-yilda nafaqaga chiqib 2000-yilgacha pedagogik faoliyatini davom ettirgan. 7 nafar farzandni tarbiyalagan, barchasi oliy ma'lumotli.

NISHON XOLMO'MINOV 1940-yilning 2-noyabrida Jom qishlog'ida tug'ilgan. 1956-yilda o'rta maktabni tugatib, davlat xo'jaligida ishlagan. 1962-yilda Kattaqo'rg'on tumanidagi 2 yillik mexanik kursiga o'qishga kiradi. 1964-yilda Samarqand davlat universitetiga o'qishga kiradi va Ulus qishlog'idagi maktabda o'qituvchilik faoliyatini boshlaydi. 1970-yildan Jom qishlog'idagi 21-maktabda tarix fani o'qituvchisi, 1991-yildan boshlab 44-maktab direktori lavozimlarida samarali faoliyat olib boradi va 2000-yilgacha shu maktabda

Jom qishlog'i maorifi

o'quvchilarga saboq beradi. Hozirda nafaqada bo'lgan muhtaram ustoz 9 nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazgan.

OTABOYEV GULMUROD 1941-yil 10-sentabrda Jom qishlog'ida tug'ilgan. Qishloqdagi 21-o'rta maktabning 10-sinfini tamomlab sobiq Jom savxozining turli jabhalarida ishlagan. 1964-yili Samarqand davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetiga sirtqi ta'lim shakliga o'qishga kiradi va 21-o'rta maktabda yoshlarga ona tili adabiyot fanidan saboq bera boshlaydi. 1991-yil Jomda yangi ochilgan 44-maktabga direktor bo'lib saylanadi. Yangi maktabning tashkil bo'lishida G.Otaboyevning xizmatlari beqiyos bo'lgan. Turli tashkilotlarga yugurib, qishloq aholisidan ham maktab rivoji uchun ko'mak, maslahat so'rab, kerak bo'lsa, o'zi loy kechib, hashar yo'li bilan 7 xonali maktab binosini barpo qildi. O'zi xohlaganidek, qishloq bolalarining uzog'ini yaqin qildi. Hayotining so'nggi yillariga qadar maktabda faoliyat olib bordi. G.Otaboyev 2012-yilda vafot etdi. Uning qizlari ham otasiga munosib izdosh bo'lib, bugungi kunda 44-maktabda o'quvchilarga saboq berib kelmoqda.

USMONOV SAIT 1941-yil 5-dekabrda tavallud topgan. 1958-yilda hozirgi 22-maktabning 10-sinfini tamomlagan. 1958-1960-yillar davomida "Ulus" davlat xo'jaligida oddiy ishchi bo'lib ishlagan. 1960-1963-yillarda harbiy xizmatni o'tagan. 1964-1966-yillar davomida Samarqand shahridagi Jismoniy tarbiya texnikumini imtiyozli diplom bilan tugallagan. 1966-yil 1-sentabrdan hozirgi 21-umuta'lim maktabida pedagogik faoliyatini boshlagan. 1969-1974-yillarda Samarqand davlat pedagogika instituti rus tili va adabiyoti fakultetida tahsil oladi. 1982-yil 1-sentabrdan Girdiqo'rg'on mahallasidagi 22-maktabda direktor bo'lib faoliyat olib bora boshlaydi. 1987-yildan 1996-yilgacha 21-umumta'lim maktabida yoshlarga saboq beradi.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Hozirgi vaqtda ustoz nafaqada. O'zbekiston Respublikasi I darajali mehnat faxriysi ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

BOBONOR RO'ZIQULOV 1943-yil 10-martda Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumaniga qarashli Jom qishlog'ida tug'ilgan, otasi Xomurodov Ro'ziqul, onasi Mirzayeva Tuyma. 1949-yil 92-maktabda o'qib, uni 1959-yilda maktabni qizil attestat va oltin medal bilan tugatgan. 1961-yilda Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetiga qabul qilingan. Orada uch yil harbiy xizmatni o'tab kelib, o'qishni davom ettirgan va universitetni "Matematika" ixtisosligi bo'yicha qizil diplom bilan bitirgan. 1969-yilda 21-umumiy o'rta ta'lim maktabga ishga qabul qilingan. Shu maktabda to'qqiz yil faoliyat yuritgan. 1978-yil 12-noyabrda 35 yoshida vafot etgan.

SHONAZOR OCHILOV 1927-yilda Jom qishlog'ida tug'ilgan. Ota-onasidan 2 yoshida yetim qolgan. 1956-1961-yillarda SamDUning tarix fakultetini tugatib, 1961-1969-yillarda sobiq 91, hozirgi 22-maktabda, so'ngra 1969-1992-yillar mobaynida sobiq 92, hozirgi 21-maktabda pedagoglik faoliyatini davom ettirgan.

Shonazor Ochilov ayoli Zaynab bilan 3 o'g'il, 3 qizni tarbiyalab voyaga yetkazishgan. 2018-yilda vafot etgan.

XALMURAD OCHILOV 1959-yil 23-noyabrda Jom qishlog'ida tug'ilgan. 1967-1977-yillarda 21-umumiy o'rta ta'lim maktabida, 1977-1982-yillarda Nizomiy nomidagi TDPI umumtexnika fanlari va fizika fakultetida tahsil olgan. 1982-1990-yillarda SPTU-24 da o'qituvchi, traktorlar va avtomobillar fani bo'yicha (katta o'qituvchi maqomida), 1990-2020-yillar mobaynida 21- umumiy o'rta ta'lim maktabida fizika fanidan

Jom qishlog'i maorifi

dars bergan. Faoliyati davomida 21-umumiy o'rta ta'lim maktabda 6 ta sof fizika yo'nalishi bo'yicha shogirdlar tayyorladi. Ular, Hamidov Orom (SamDU da o'qituvchi), Norqulov Safarali (21-, 63-umumiy o'rta ta'lim maktablari fizika fani o'qituvchisi), Yangiboyev Elshod (talaba), Habubullayev Qodirjon (talaba), Jumayev Zarif (talaba), Xudoyberdiyev Azamat (talaba).

Xalmurad Ochilov turmush o'rtog'i Adolat Alang Xo'jaqulov qizi bilan 5 nafar farzandlarini jamiyatga foydali insonlar qilib tarbiyalashdi.

Katta o'g'li Ochilov Jamshid, AQSH da universitetni bitirib, AQSHda xalqaro bankda ishlaydi.

Ochilov Abdurazzoq Chirchiq Oliy harbiy qo'mondonlik bilim yurtini qizil diplom bilan tugatib, Vatanimiz harbiy qo'shinlarida xizmat qilib, podpolpovnik unvoniga erishib, harbiy qism komandiri lavozinigacha ko'tarilib, hozirgi paytda nafaqada.

Shonazorov Sodiqjon Toshkent farmatsevtika institutini bitirib, Toshkentda mutaxassisligi bo'yicha ishlaydi. Shonazorova Sabohat Toshkent xorijiy tillar universitetini tugatib, Toshkentda maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaydi. Kichik qizi hamshira.

ABDURAZZOQ OCHILOV 1986-yilda Jom qishlog'ida tug'ilgan. 1993-2002-yillarda 21-umumiy o'rta ta'lim maktabida, 2002-2004-Samarqanddagi harbiy ta'lim yo'nalishidagi litseyda, 2004-2008-yillarda Chirchiq Oliy harbiy qo'mondonlik bilim yurti (qizil diplom bilan) da o'qigan.

2008-yildan boshlab guruh komandiri, vzvod komandiri, harbiy qism komandirining o'rinbosari, harbiy qism komandiri lavozimlarida ishladi, podpolkovnik unvoniga erishdi va 2019-yilda nafaqaga chiqdi

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

2022-yildan boshlab, Pastdargʻom tumaniga qarashli kollej xonalarini ijaraga olib, “Timurbek oʻgʻlonlari” nomli nodavlat xususiy maktab tashkil etib, hozirgi paytda 100 ga yaqin oʻquvchilarga taʼlim-tarbiya berib kelmoqda.

Abdurazzoq Ochilov turmush oʻrtogʻi Ochilova Sarvinoz Ismatullyevna bilan 4 nafar farzandlari tarbiyalab kelishmoqda.

YOʻLDOSHEV SURMAN 1943-yilda Jom qishlogʻida tugʻildi. 1962-yilda Jom qishlogʻidagi 90-oʻrta maktabning 10-sinfini bitirgan. 1962-1965-yillarda harbiy xizmatda boʻlgan. Uch yil xizmatni ado etib, Rossiyaning Vladimir, Kalinin viloyatlarida xizmatni oʻtagan, 1965-1970-yillarda SamDU ning fransuz tili fakultetiga oʻqigan. 23-oʻrta maktabda ishlab 2003-yilda nafaqaga chiqqan.

TANGMATOV SHAYMAT MUMINOVICH 1947-yil 15-mayda Samarqand viloyati Kattaqoʻrgʻon tumani Jom qishlogʻida tugʻilgan. 1954-yil Jom qishlogʻidagi 92-maktabning 1-sinfiga oʻqishga qabul qilinib 1964-yil shu maktabning 10-sinfini bitirgan. Shu yili FarDPI fizika fakultetiga oʻqishga qabul qilingan, mazkur institutni imtiyozli diplom bilan 1969-yilda bitirgan. 1969-yili Past-Dargʻom tumani Jom qishlogʻidagi 92-maktabda ish faoliyatini boshlagan. Ish faoliyati davomida tuman, viloyat XTB va malaka oshirish instituti tamonidan maqtov yorliqlari bilan taqdirlangan. 1980-1997-yillarda Jom hududidagi fizika oʻqituvchilari uslubiy birlashmasi faoliyatini boshqargan. 2002-yilda nafaqaga chiqib 2007-yilgacha yana ish faoliyatini davom ettirgan. Katta farzandi Muminov Nizomiddin Jom qishlogʻi shifoxonasida bosh shifokor, qolgan farzandlari Muminov Sirojiddin, Tangmatova Dilfuza, Tangmatova Barno,

Jom qishlog'i maorifi

Tangmatova Xusnora otasining izidan borib o'quvchilarga ta'lim bermoqda.

SAFAR TURSUNOV (1947-2004) iste'dodli notiq, mohir o'qituvchi va ijodkor. 1985-1970-yillarda SamDU chet tillar fakultetining fransuz tili bo'limida o'qigan. O'rta maktabda chet tili o'qituvchisi, direktorning sinfdan va maktabdan tashqari ishlar bo'yicha o'rinbosari bo'lib ishlagan. Ishdan ajralmagan holda S.Ayniy nomidagi Samarqand Davlat Pedagogika institutining rus filologiyasi fakultetini tugatgan. 2003-yilda Shuhrat medali bilan taqdirlangan. 1991-yilda uning «Vujudimni yoqar iztirob» she'riy to'plami nashr etilgan. Hozirda nashr etilishni kutayotgan ikkita she'riy to'plami qolgan. Aka-uka Tursunovlarga Olloh so'z sehrini his qilishdek noyob iste'dod ato etgan.

KARIM ASHUROV (1947-1981) o'quvchilik yillaridayoq she'rlar mashq qilib yurgan. K.Ashurov 1965-yilda hozirgi 22-maktabni a'lo baholarga tamomlab, shu yili SamDU talabasi bo'lgan. SamDUda o'qituvchilik qilgan. Ukasi Ro'ziqul Ashurov SamDU tarix, o'g'li Husan Ashurov esa filologiya fakultetlarida o'qituvchilik qilishadi va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishadi.

O'ROL MURODOV 1947-yilda tug'ilgan. O'z umrini ezgulikka, maorifga, murabbiylikka bag'ishlagan. Girdiqo'rg'on mahallasidagi 22-maktabda fransuz va rus tillaridan dars bergan. «Qalb tug'yonlari» (2013) she'riy to'plami, uning erkin tarjimasidagi fransuz yozuvchisi J.Oliviening «G'oyib bo'lgan ikki qush» (2012) povesti nashr etilgan.

TURSUNOV AMIR ABRIYEVICH 1948-yil 14-mayda Jom qishlog'ida tug'ilgan. 1965-yil o'rta maktabni tugatib,

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

1968-1969-yillar Leningrad harbiy okrugining Petrozavod shahrida harbiy xizmatni o'tagan. 1972-yil Buxoro davlat pedagogika institutining jismoniy tarbiya fakultetiga kirib, sirtidan 1977-yil tugatgan. Ish faoliyatini Jom qishlog'idagi 23-maktabda 1972-yilda boshlagan. 1984-yildan 24-maktabda jismoniy tarbiya fanidan dars bera boshlagan. 2003-yilda 31 yillik pedagogik staj bilan nafaqaga chiqqan. 7 farzandning otasi: 4 o'g'il, 3 qiz.

Nevarasi Amirov Nuriddin SamDU tarix fakultetini tugatib shu maktabda faoliyat ko'rsatmoqda.

XUDOYNAZAROV ESHMUROD 1949-yil 28-dekabrda Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumani, Jom qishlog'ida tug'ilgan. 1956-yil 1-sinfga qabul qilinib, 1966-yil 92-maktabni tamomlab, shu yili SamDUning kimyo fakultetiga o'qishga kirgan. 1971-yil o'qishni a'lo baholarga tugatib, Ishtixon tumanidagi 3-maktabga ishga yuborilgan. 1971-1972-yillarda harbiy xizmatda bo'lgan. 1973-yildan boshlab Jom qishlog'idagi 21-maktabda kimyo fani o'qituvchisi bo'lib ish boshlagan.

Ish faoliyati davomida o'quvchilarning kimyo faniga qiziqishini ortirish uchun turli xil usullardan foydalanib, o'quvchilarning faolligini oshirish yo'llarini izlay boshlagan, kimyoviy o'yinlar, qiziqarli laboratoriya ishlari bilan dars o'tib o'quvchilarning faolligini oshirgan. "O'quvchilarning ish joyini tashkil qilish" nomli seminarda, maktabda jihozlangan laboratoriyalar tashkil etish mavzusida ishtirok etgan.

1980-yillarda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tib, maktabda tuman, viloyat miqyosida seminarlar tashkil qilgan, tuman va viloyat olimpiadalarida hakamlar hay'ati a'zosi sifatida muntazam qatnashgan, tuman kimyo fani o'qituvchilarini yangi dasturlardan xabardor qilib ularni muntazam ravishda o'qitib, yangiliklardan xabardor qilib

Jom qishlog'i maorifi

borgan. 1981-yilda tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, 1996-yildan 2016-yil 1-oktabrgacha maktab direktori bo'lib ishlagan. Ish davomida tumandagi maktablar ko'rsatgichlari bo'yicha 21-maktab 1-o'rindan tushgani yo'q, tuman, viloyat, Respublika miqyosidagi yangi avlod ko'rik-tanlovida, bilimlar bellashuvida, fan olimpiadalarida o'quvchilari faol qatnashib sovrinli o'rinlarni egalladi.

Sport sohasida yengil atletika, kurash, futbol, voleybol yo'nalishlari bo'yicha Umid nihollarida faol qatnashib keldi. Ko'plab shogirdlari kimyo, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va boshqa yo'nalishlarda ishlab fan nomzodlar, fan doktorlari yetishib chiqdi.

1996-yil "Hurmat belgisi" ordeni bilan, mustaqillikning 20 yilligida "Xalq maorifi a'lochisi" ko'krak nishoni bilan, tuman viloyat maqto'v yorliqlari bilan taqdirlangan.

QAYUM TURG'ONOV 1949-yilda tug'ilgan. 1966-yilda 11- sinfni tugatgan. 1966-1971 yillarda A.Navoiy nomli SamDUNing O'zbek va tojik filologiyasi fakultetida o'qigan. 1971-yildan buyon Jomda yoshlarga ta'lim-tarbiya beradi. Q.Turg'on o'qituvchilikni doimo ijod bilan qo'shib olib borgan, fikri ravon, tuyg'ulari tiniq, qalami o'tkir. Uning ocherk, hikoya, hajviya va maqolalari, taqrizlari respublika, viloyat va tuman vaqtli matbuotlarida chop etilgan. Harakatchan va izlanuvchan til-adabiyot o'qituvchisi sifatida avvalo o'quvchilarning savodli bo'lishini o'ylaydi, qolaversa, ko'ngil tuyg'ularini ko'p sonli gazetxonlar bilan baham ko'rishga shoshiladi. 1989-yillar o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish uchun ko'plab tortishuvlar, bahs-munozarali chiqishlar bo'ldi. Q.Turg'onov ham bu jarayondan chetda qolmagan. Uning shu yillarda matbuotda e'lon qilingan «Ko'zgu», «Til xalq qalbining tarjimoni» singari o'tkir chiqishlarini mushtariylar hamon yaxshi eslashadi. Q.Turg'onov yaxshi o'qituvchi bo'lishi bilan

birga ko'pgina ro'znomalarning faol jamoatchi muxbiri sifatida yangiliklar, maktab-maorif sohasidagi islohotlar, ilg'or o'qituvchilar tajribalari to'g'risidagi xabarlar, lavhalar, ocherklar muallifi hamdir.

Davriy matbuotda Q.Turg'onovning jahon tanigan adib Ch.Aytmatov, ikki xalq hayotining kuychisi S.Ayniy, O'zbekning kuychi qizlari Nodira va Uvaysiy, shuningdek, shoirlardan Shamsi Odil, Xurshid Davronlar haqidagi ilmiy maqolalari chop etilgan. Shu tariqa Q.Turg'onovning Jomlik jangchi-shoir B.Tursunov haqida qator ilmiy maqolalari yuzaga keldi. Q.Turg'onov B.Tursunov ijodining muxlisi, targ'ibotchisi va tadqiqotchisi hisoblanadi. U sinfdosh do'sti, sevimli yozuvchi M.M.Do'st ijodini sinchkovlik bilan kuzatib boradi. «Lolazorni sayr etganda» maqolasi o'qituvchilar va keng jamoatchilik o'rtasida katta qiziqish uyg'otgan. Q.Turg'onov o'qituvchi-ijodkor sifatida maktab-maorifning ahvoli, maktabda adabiyot o'qitish, adabiyot o'qituvchisi, umuman o'qituvchining ma'naviy qiyofasi qanday bo'lishi lozimligi to'g'risida o'ylaydi, qayg'uradi, o'z fikr-mulohazalari, takliflarini matbuot orqali keng jamoatchilikka havola etadi. 1987-yilda «Sharq yulduzi» jurnalida «O'qituvchining ma'naviy qiyofasi» nomli maqolasi katta baxs-munozaraga sabab bo'lib, butun respublika uslubchi mutaxassislari tomonidan e'tirof etilgan edi. U Xalq ta'limi a'lochisi unvoniga ega.

DO'STMUROD MANSUROV 1949-yil 20-martda hozirgi Nurobod tumanidagi Jom qishlog'ida ("Tegirmonboshi" mahallasida) tug'ilgan. 1955-yilda qishloqdagi 38-maktab (hozirgi 21-maktab) ning 1-sinfiga qabul qilingan. 1963-yildan hozirgi 22-maktabning 9-sinfida o'qishini davom ettirib, 1966-yilda shu maktabning 11-sinfini tamomlagan. 1967-1970-yillarda sobiq V.Michurin nomli qishloq xo'jalik texnikumida

Jom qishlog'i maorifi

“Agronomiya” ta’lim yo’nalishida tahsilini davom ettirgan. Mutaxassislar taqsimotiga muvofiq, 1970-yil may oyidan Qashqadaryo viloyatining agrokimyo laboratoriyasida ish boshlagan. 1974-yilda Samarqand qishloq xo’jalik institutining “Agronomiya” ta’lim yo’nalishiga sirtqi tarzda o’qishga kiradi va 1980-yil mart oyida o’qishni tamomlaydi. Shu yilning mart oyida yangi tashkil etilgan Ko’kdala tumani “Selxozximiya” birlashmasi bosh agronomi sifatida ish boshlaydi. 1984-yilda Ko’kdala tumani tugatilib, Chiroqchi tumani tarkibiga qo’shilgach, u lavozimi saqlangan holda Chiroqchi tumaniga ishga o’tkazilgan. U yerda 1989-yilgacha faoliyat olib borgach, shu yilning noyabr oyida o’z xohishi bilan ishdan bo’shab o’zi tahsil olgan V.Michurin nomli qishloq xo’jalik texnikumiga o’qituvchi bo’lib ishga kiradi. 1994-yil avgustdan boshlab mehnat faoliyatini Nurobod tumanidagi 63-maktabda o’qituvchi sifatida davom ettirib, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish bilan mashg’ul bo’ldi. 2009-yilda mazkur maktabdan pensiyaga chiqqan. Mukofotlari: sobiq ittifoq davrida 1973, 1974 va 1976-yillarda “Butunittifoq sotsialistik musobaqa g’olibi” nishondori, 1980-yil sobiq ittifoq Oliy Soveti Prezidiumi farmoniga muvofiq “Shavkatli mehnati uchun” medaliga sazovor bo’lgan.

RUZIQULOV BAXODIR NORMUMINOVICH 1966-yil 20-yanvarda Jom qishlog’ida tug’ilgan. 1973-1983-yillarda Nurobod tumanidagi 21-umumiy o’rta ta’lim maktabida o’qigan. 1983-1991-yillarda SamDU amaliy matematika fakultetida o’qigan. 1984-1986-yillarda qurolli kuchlar safida xizmat qilgan. 1991-yilda Nurobod tumanidagi 22-umumiy o’rta ta’lim maktabida matematika va informatika fani o’qituvchisi bo’lib ish faoliyatini boshlagan, 1993-1996-yillarda shu maktabning ma’naviy va ma’rifiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari lavozimida ishlagan. 1996-2012-yillarda Nurobod tumanidagi 21-umumiy o’rta ta’lim maktabida o’quv ishlari bo’yicha

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

direktor o‘rinbosari, 2012-2017-yillarda Nurobod tumani 22-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida direktor, 2017-2020-yillarda Nurobod tumani 44-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida direktor, 2020-yilda hozirgi vaqtgacha Nurobod tumani 21-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida direktor lavozimlarida ishlab kelmoqda. Oilali 4 nafar farzandi bor. O‘g‘li Normuminov Abror Nurobod tumanidagi 45 va 21-umumiy o‘rta ta‘lim maktablarda kimyo fanidan dars berib kelmoqda, qizi Normuminova Mohichehra SamVMIda doktoranturada tahsil olmoqda.

TURG‘UN O‘SAROV (1950-1984) Jomdagi 22-maktabni 1967-yilda bitirib, o‘sha yili SamDU o‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi bo‘lgan. 1972-yilda universitetni a‘lo baholarda bitirib, Nurobod tumanidagi Og‘zikatta qishlog‘ida joylashgan maktabda o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi sifatida faoliyat olib borgan. 1975-yilda tumanning «Sovetobod tongi» gazetasi tahririyatida muxbirlikdan redaktor o‘rinbosari vazifasigacha ishladi. Qalami o‘tkir jurnalist Turg‘un O‘sarov g‘oyat, yetuk ijodkor edi. 34 yoshida avtohalokatdan vafot etgan. Shogirdi Abdurasul Sattorov “O‘tkir nigohli edi” maqolasida shunday yozadi: “Boqishlari teran, nigohi o‘tkir, dunyoqarashi keng edi, u insonning. Mehr, saxovat, bilim va aql bobida odamlarga o‘rnak bo‘lgulik, shogirdlardan borini ayamaydigan, ularning boshini silaydigan bir mehribon ustoz edi u. Biz shogirdllari nazdimizda, Turg‘un aka o‘z tengdoshlariga nisbatan hayotdan ancha ildamlab ketgan ijodkor edi. Undagi bag‘rikenglik va bilimdonlik shunchalik hamohang ediki, bu jihatlar yoshlarga munosabatda, tayyorlagan maqolalarining har satrida yaqqol ko‘zga tashlanib turardi” (Nurobod gazetasi, 2013- yil 27-iyuni).

Jom qishlog'i maorifi



AZIMOV
JO'RAYEVICH 1959-yil 5-sentyabrda Omondara MFY hududidagi Beshbarmoq guzarida tug'ilgan.

1981 yil Samarqand davlat universitetining chet tillar fakultetini tamomlagan.

Hozirda Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi 7 - umumiy o'rta ta'lim maktabida ijodiy - madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimida ishlaydi.

Oliy toifali o'qituvchi, ijodkor. Qishloq hayoti va milliy urf-odatlarimizni targ'ib qiluvchi "Jom", "Beshbarmoq", "Lolaqizg'aldoq", "Ma'naviyat kerak", "Qishlog'imni sog'inaman", "Jonajon maktab" kabi ko'plab she'rlari, "Alp chavandoz", "Hayitgul" kabi dostonlari bilan tanilgan.

Assalomu alaykum, azizlar!

Har safar Jom haqida gap ketsa, rahmatli otam yodimga tushadi. Otam turgan xonadon, otam o'qigan va ishlagan maktab, otam yurgan ko'chalar - hamma - hammasi, hattoki, odamlari ham menga otamni eslatib turadi.

Otamni quchoq ochib kutib olgan, begona demagan, uy - joy bergan, non - tuz bergan, ta'lim - tarbiya bergan, o'qitgan, ulg'aytirgan Jom qishlog'idan minnatdorman.

Sherman ota, Abdalim ota, otamning men bilmagan qanchadan - qancha oshnolari, Haqberdi Xidirov, Xoliq Ortiqov, Normo'min Jumanov va yana qancha nomlari yodimdan ko'tarilgan sinfdosh do'stlari bor edi.

Bu qishloqning olimlari, shoirlari ko'p, polvonlariyu chavandozlari ko'p, mashhurlari ko'p. Eng muhimi, odamoxun insonlari ko'p.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

O'tganlarning ruhi shod, oxirati obod bo'lsin, Tiriklarning tani - joni sog', ko'ksi tog', yaratgani bog' bo'lsin..

Ota qadrdonlar hurmati , yaxshi va fidoiy insonlar hurmati , olimlar va shoirlar hurmati, butun Jom ahliga ushbu qasidani bitdim. .

Ibrohim Azim .

J O M

Soy bo'yi so'lim bekat
Topdi qo'nim ko'p elat.
Suv so'rashib sarbonlar
To'xtab o'tdi karvonlar.
Suvi serob " yom " emish
Suv bergan savob demish.
Ibtido qadar tarix
Dostonga sig'mas ta'rif.
Taxt talashib tomonlar
O'tdi qancha zamonlar.
Soya soldi ko'p bulut
Qora kun bo'lmas unut.
Juvonmarg ketdi mardlar
Ko'ksida alam - dardlar.
Qancha ahli irfonlar
Ketdi shoir Burxonlar.
Bo'ldi baloga to'g'on
Kattaqir , Girdiqo'rg'on.
Jam bo'lib jomi , xabrin
Tortishdi jafo - jabrin .
Oyxol yo'lga qaramish
Sunbul sochin taramish .
Oyning qizi Oypari
Sencha bo'lolmas bari.
Qoldi soyda izlaring

Jom qishlog'i maorifi

Buncha suluv qizlaring .
Bog'lari bol ulashgan
Tog'lari rizq tilashgan .
Har neki bitdi tolli
Ta'mi tillarda qoldi.
Arg'amchiga qil quvvat
Bog' yaratdi Toshquvvat.
So'lim go'sha Kaltasoy
Karmovul - ko'rkam saroy.
Ahli donish guzari
Tushganmi pir nazari.
Shamsi , Yormat , To'qsori
Ustozi avvallari.
Bolli , Safar , Haqberdi
Fan yo'lida jon berdi .
Muhammad Do'st , Dilorom
Shu yurtdan oldi ilhom .
O'tkir , Obro'y , Shukurlar
Bedor yurak dupurlar .
Ziyot o'g'li Pirnazar
Ortga tashlab bir nazar.
Jom tarixin yoritdi
Dil dardini aritdi .
Qayum , Safar , Bo'riboy ,
Normo'minlar toshqin soy .
Dardmand darg'a , daholar
Beadad bebaholar .
Alpomishlar bunda jam
Barchinoylar kimdan kam .
Abdishukur , Xoliqu'l
Ot surdi "ota o'g'il " .
Mahmado'st , Tohir rais
Qilmoqlik faxr joiz .

Otga mehr qo‘yganlar
Ozmi o‘tda kuyganlar .
Aql - ko‘z kerak kunda
Inson qadrli shunda .
Ulamo Abdufattoh
Mo‘minga pushti panoh .
Izzatilla bir olam
Beqiyos tilla odam .
Abdalim , Xalil Ortiq
Odamiy bo‘lmas ortiq .
Dard yo‘lamas , haytovur
Aritdi Ulash , Davir .
Alisher tabib chunon
Izmiga kirdi ilon .
Cho‘ponlari cho‘rtkesar
Savdo ahli yurt kezar .
Hunarli chekmas ozor
Ro‘zg‘ori - obod bozor.
Jolmongmi , qoramo‘yin
Mehnatga egar bo‘yin .
Har neki ish do‘ndirar
Tuproqdan zar undirar .
Bir kuni o‘tmas bekor
Go‘l ham bunda tadbirkor.
To‘y qilsa to‘q tantilar
O‘n bir daha aytilar .
Osh berish ishmi oson
Yetmaydi o‘n besh qozon.
Saxiylikda tengi yo‘q
Erkin el o‘ziga to‘q .
Ulamo -yu umaro
Hammasi bir fuqaro.

Jom qishlog‘i maorifi

Til topishgan totuv el
Birlashgan soydagi sel .
Neki bor tengsiz asil
Shahardan obod manzil.
Tutash Jomga jonimiz
Doston dovrug‘ - shonimiz.
Omondara , Beshbarmoq
Baxmal qir , zumrad irmoq.
Kindik qonim tomgan joy
Tortar meni paydar - pay .
Yaxshini yozmoq kerak
O‘rtanib qo‘ymas yurak .
Chiqib Jom dovoniga
Boqib bog‘ - yovoniga .
Esganda mayin nasim
Ilhom olib mast Azim .
To‘tiyo aylab toshin
Ko‘ksiga qo‘yib boshin
Quchib ohista yerni
Yozdi mastona she'rni .

Иброҳим Азимов, 2014-йил.

Ҳ И М М А Т

Профессор П.З.Давроновга

Бани одам шундай бўлса,
Кулиб турса, кундай бўлса,
Эсли-хушли хўп бамаъни,
Ибратомуз бўлса қани.
Камоли кўп кундайларнинг,
Қиёси йўқ бундайларнинг.
Инсон қадри ҳиммат билан,
Ватан-халққа хизмат билан.
Ўти бор ҳаёт йўлининг,

Пирназар Зиёт ўғлининг.
Танида миллат туйғуси,
Жонида Ватан қайғуси.
Қадрлаб киндик қонини,
Жом деса берар жонини.
Тиним билмайди титроқ тан,
Зуваласи шу тупроқдан.
Элпарварнинг эзгу иши,
Қалбларга ин қурди қуши.
Истеъдодга ҳомий устоз,
Шогирдлари олим ҳассос.
Ҳолис хизмат кетмас беиз,
Назоратда ҳар ўғил-қиз.
Ёш талантга рағбатдайин,
Тақдирнома қилди тайин.
Ҳимматидан олам мамнун,
Ҳаётида маъно-мазмун.
Йигит учун юрт хизмати,
Юрт юкининг йўқ миннати.
Бел бойлашиб аҳли қўрғон,
Асов сойга солди тўғон.
Бино бўлмай йиллар кўприк,
Қоқилмади тунлар киприк.
Эштурдиннинг кўп хизмати,
Турсунмуроднинг ҳиммати.
Қоя мисол сервиқорлар,
Бошларига қўнди қорлар.
Олтин асли олим боши,
Шунга лойиқ бор бардоши.
Теран ақли айлаб шитоб,
Дунёларга келди китоб.
Тилдан қўймай ҳеч номини,

Jom qishlog'i maorifi

Ўқидим "Самарқанд Жоми"ни.
Худо ҳақи, художуйлар,
Дуо қилди дуогуйлар.
Чурқ этмади ҳавоси бор,
Ё донолик давоси бор.
Илмади кимдир назарга,
Кимса йўқ кўнгил ёзарга.
Озми осонни кутганлар,
Дунё-Ватан деб кетганлар.
Юрт кезиб куннинг камида,
Юрибди дунё ғамида.
Яхшиямки яхшилар бор,
Ватанга жонбахшилар бор.
Қадри бўлмас қув кишининг,
Тайини йўқ бир ишининг.
Ҳиммати бордан қўймасин,
Аларни кўзинг қиймасин.
Ақл билан енгил юмуш,
Сабр қилсанг олтин-кумуш.
Маърифатнинг содиқ қули,
Ибрат халққа ҳаёт йўли.
Юрагида миллат дарди,
Матонатда мардлар марди.
Танти инсон чиндан бахтли,
Мангуликка бордир даҳли.
Оқар оби-ҳаёт сойи,
Боғи биҳишт борар жойи.
Пир қошида қилиб таъзим,
Тасаннолар айтди Азим.
Достон битмай барибир оз,
Сўзни қилмоқ мухтасар соз.

Иброҳим Азимов, 2017-йил.

IZZATULLA YOQUBOV 1951-yil 21-yanvarda Jom qishlogʻidagi ziyoli oilasida, yaʼni oʻzbek tili va adabiyoti oʻqituvchisi boʻlgan ustoz Shamsiddin Yoqubov oilasida dunyoga kelgan. 1957-yilda Jom qishlogʻidagi toʻliqsiz oʻrta maktab boʻlgan, hozirgi 21-umumiy oʻrta taʼlim maktabining 1-sinfiga oʻqishga boradi va 1965-yilda ushbu maktabning 8-sinfini bitiradi. 1965-yilda hozirgi 22-umumiy oʻrta taʼlim maktabining 9-sinfiga borib, 1966-yilda shu maktabning 10-sinfini bitirgan.

Turmush taqozosi bilan 1966-1967-yillarda Jom qishlogʻida joylashgan Mahmasodiq bobo Norqulov rahbarligidagi sut-tovar fermasida ishchi boʻlib ishlagan. 1967-yilda Sadriddin Ayniy nomidagi Samarkand davlat pedagogika institutining oʻzbek tili va adabiyoti fakultetiga oʻqishga kirib, 1972-yilda mazkur institutni muvaffaqiyatli tamomlagan. Talabalik yillarida Samarkand Davlat universiteti professori X.Berdiyev, pedagogika institutidagi ustozlari Obruylar Eshmurodov, Qudrat Xaydarov va boshqalarning saboqlarini olib, ularning izidan borishni orzu qilgan. Lekin otasi, ustoz Shamsiddin Yoqubov betoblighi sababli qishlogʻiga qaytib kelib, pedagoglik faoliyatini 1972-yilda oʻzi oʻqigan jonajon 91-maktabida boshlagan. 1972-1973-yillarda harbiy xizmatni oʻtab qaytgach, ishini oʻsha maktabida davom ettirib, 1977-yilgacha oʻqituvchilik qilgan. 1977-1997-yillarda Nurobod tuman xalq taʼlimi boʻlimiga qarashli boʻlgan, bobosi jangchi shoir Burxon Tursunov nomidagi 21-umumiy oʻrta taʼlim maktabida oʻqituvchi, maktab oʻquv ishlar boʻyicha direktor oʻrinbosari boʻlib ishlagan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, fuqarolik yigʻinlarini jamiyatning poydevori sifatida qaraldi. Joylarda mahalla rahbarligiga bilimli, xalq dardini tinglaydigan insonlar taklif etila boshlandi. Shu davrda I.Yoqubovning nomzodi

Jom qishlog'i maorifi

Omondara mahalla fuqarolar yig'ini raisligiga ko'rsatildi. Fuqarolar ishonchi tufayli I.Yoqubov mahalla oqsoqoliga aylandi. Oradan yillar o'tib, yangi tashkil etilgan Tegirmonboshi mahallasi raisligi ham I.Yoqubovning zimmasiga tushdi va u bu vazifada to nafaqaga chiqquniga qadar ishladi.

Mahallada ishlagan yillarda, ya'ni mamlakatimiz mustaqilligining ilk yillari aholining turmush tarzida muammolar ko'p edi. Bu ayniqsa elektr energiyasi, gaz, hatto oziq-ovqat ta'minotida ham sezilar edi. Bu masalalar yechimida esa mahalla faollik ko'rsatmasa, adolatli bo'lmasa norozichiliklar kuchayishi turgan gap edi. Shunday sharoitda I.Yoqubov yelib-yugurib ishladi, xalqning mushkulini oson qilishga intildi. U endi nafaqaga chiqib, qishloqdoshlari, do'stlari orasida qarilik gashtini surish onlariga yetganda og'ir xastalikka chalindi va shafqatsiz o'lim uni oramizdan olib ketdi. Izzatulla Yoqubov bugun oramizda bo'lmasa-da, Jom qishlog'i aholisi uni tez-tez eslab turishadi, chunki Izzatulla muallim doimo el xizmatiga kamarbasta bo'ldi, to'y-marakalarda boshchilik qildi, katta-kichik davralarda boshlovchilik qilishdan ham qochmadi.

U ikki nafar farzandini voyaga yetkazdi, katta qizi Saida qishloq shifoxonasida hamshira, qishloq aholisi xizmatida. Kichik qizi Shoxista esa uy bekasi. Bir umr ahil-inoq yashagan turmush o'rtog'i Yoqubova Bahora nafaqada, nevarasi G'olibjon bilan birga. B.Yoqubova turmush o'rtog'i Izzatulla Yoqubovning oliyjanoblighi, insoniylik fazilatleri va farzandlariga mehribonligi kabi fazilatlarini eslab ko'zlariga yosh oladi.

BO'RIBOY SAFAROV 1954-yilda tug'ilgan. Maktabni tugatib, 1971 – 1976-yillarda S.Ayniy nomidagi Samarqand Davlat Pedagogika institutida tahsil olgan. Fransuz tili o'qituvchisi ixtisosiga ega. Mehnat faoliyatini Nurobod

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

tumanidagi 23-maktabda o'qituvchilikdan boshlagan. 1979-yildan ish faoliyati viloyat xalq ta'limi tizimi bilan bog'liq. Dastlab viloyat pedagog xodimlar malakasini oshirish institutida uslubchi, kabinet mudiri, 1990-yildan viloyat xalq ta'limi boshqarmasida mutaxassis, yetakchi mutaxassis, 1996-1999-yillar Samarqand shahridagi 61-maxsus maktab – internatida direktor, 1999-2003-yillar Samarqand viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari, 2003-yildan hozirgacha Samarqand shahridagi 62-maxsus maktab-internatida direktor vazifasida ishlab kelmoqda. Viloyatda maxsus ta'limni rivojlantirishga, maxsus ta'lim muassasalarini pedagog kadrlar bilan ta'minlashga salmoqli hissa qo'shgan. Samarqand Davlat universiteti pedagogika fakulteti qoshida defektologiya bo'limi ochilishi tashabbuskorlaridan biri. Bo'sh vaqtlari she'r mashq qiladi. She'rlari viloyat va Respublika vaqtli nashrlarida e'lon qilingan.

USMONOV TURSUNALI XALILOVICH 1958-yil 10-mayda Samarqand viloyati Past-Darg'om tumani Jom qishlog'ida tug'ilgan. 1965-1975-yillarda Past-Darg'om tumanidagi 92-maktabda o'qigan. 1975-yil Nizomiy nomidagi TDPI geografiya fakultetiga o'qishga kirib 1980-yilda bitirgan. 1980-yil Nurobod tumanidagi Jom qishlog'idagi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabiga o'qituvchi bo'lib ishga qabul qilingan, pedagogik faoliyati davomida o'quvchilari tuman va viloyatda faxrli o'rinlarni egallab kelgan. Tuman va viloyat XTB tomonidan 20 dan ortiq faxriy yorliqlar bilan taqdirlanga. 2018-yida nafaqaga chiqib 2022-yilda o'qituvchilik faoliyatini to'xtatgan. O'g'li Usmonov Eldor otasining izidan borib 21-umumiy o'rta ta'lim maktabida informatika fanidan o'quvchilarga saboq berib kelmoqda.

Jom qishlog‘i maorifi

SUYAROV SHAYIMQUL ESHTURDIYEVICH 1959-yil 10-yanvarda tug‘ilgan. 1966-1976-yillarda Jom qishlog‘idagi 21-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida o‘qigan. 1977-1981-yillarda Jizzax Davlat pedagogika institutining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetida o‘qigan. 1981-1982-yillarda Tojikistonning Shahrituz tumanidagi 34-maktabda o‘qituvchi, 1983-1989-yillarda Jom qishlog‘idagi 21-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida o‘qituvchi, 1989-1995-yillarda 63-umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quv ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, 1996-2019 yillar maktab direktori bo‘lib ishlagan. Suyarov Shayimqul faoliyati davomida tuman va viloyat xalq ta‘limi tamonidan “Maqtoov yorliq” va diplomlari bilan taqdirlangan.

MASHONOV MAXAMMADI XALILOVICH 1962-yil 10-oktabrda Jom qishlog‘i Omondara mahallasida tug‘ilgan. 1969-yilda 21-umumiy o‘rta ta‘lim maktabning 1-sinfiga o‘qishga kelgan. 1979-yilda 10-sinfni tamomlab shu yili SamDPIning matematika fakultetiga o‘qishga kirgan va 1983-yilda o‘qishni tamomlab, Nurobod tumanidagi Jom qishlog‘idagi 21-umumiy o‘rta ta‘lim maktabga o‘qituvchi bo‘lib ishga qabul qilingan. Maktabda 39 yil ishlab 2022-yil oktabr oyida nafaqaga chiqqan, hozirgi kunda mazkur maktabda o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari lavozimida faoliyat olib boryapti. Maxammadi Moshonov 2009-yilda Jom va uning atrofidagi Ibrohim ota, Anjirli va Sariko‘l qishloqlarida joylashgan 14 ta maktablar iqtidorli o‘quvchilarni rag‘batlantirish maqsadida tashkil etilgan “Professor Pirnazar Davronov izdoshlari” nomli olimpiadani o‘tkazish hay‘atining raisi bo‘lib, 15 yildan buyon faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

SULTON JUMAYEV 1962-yil “Jom” qishlog‘ida tug‘ilgan. 1969-yilda hozirgi 21-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 1-sinfiga o‘qishga qabul qilingan 1979-yilda

mazkur maktabni a'lo baholarga bitirgan. 1979-1980-yillarda "Jom" davlat xo'jaligida ishchi, 1980-yil 29-noyabrdan Farg'ona davlat pedagogika institutida tayyorlov bo'limi tinglovchisi, 1981-yildan Jizzax DPI "Matematika" fakulteti talabasi. Mazkur oliy o'quv yurtini 1985-yil muvaffaqiyatli tamomladi va yo'llanma asosida Jizzax viloyati Do'stlik tumanidagi № 4 o'rta maktabiga matematika o'qituvchisi etib tayinlangan. Mazkur maktabda 1985-1989-yillarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritgan. O'quvchilari bir necha marta fan olimpiadalarida faxrli o'rinlarni egallab, tuman bosqichidan viloyat bosqichiga chiqqan. 1989-o'quv yilidan hozirga qadar Samarqand viloyati Nurobod tumaniga qarashli 21-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Matematika" fanidan yoshlarga saboq berib kelmoqda. Shu yillarda o'quvchilari bir necha marta fan olimpiadalarida faxrli (birinchi) o'rinlarni egallab viloyat bosqichlarida ishtirok etgan. Bilimlar bellashuvida bir o'quvchisi Respublika bosqichida ishtirok etib faxrli o'rinni egallagan. Jumayev Sulton O'ralovichning "Aniq fanlarni o'qitishdagi alohida xizmatlari hamda ilg'or ish tajribasi uchun "Samarqand hokimligi xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan "Mirzo Ulug'bek" nomli mukofot (ko'krak nishoni) bilan taqdirlandi.

Jumayev Sulton O'ralovich hozirgi paytda 21-umumiy o'rta ta'lim maktabida yoshlarga matematika fanidan zamon talablariga mos saboq berib kelmoqda.

Jumayev Sulton o'qituvchilik kasbidan tashqari bog'dorchilikni yaxshi biladi, ayniqsa daraxtlarga shakl berish, payvandlashni, qishloqdoshlar daraxtlarga shakl berish va payvandlash ishlarini ko'proq shu insonga ishonishadi, poliz ekinlaridan ham mo'l hosil oladi. Uning yana bir yaxshi hislati yo'llarni qatnovga halaqit qiladigan tosh, sim, mix kabilardan tozalab, bahordagi sel suvlari buzub ketgan yo'llarni qo'l

Jom qishlog'i maorifi

mehnati bilan to'g'rilab yuradi. Doimo haqgo'y va yolg'on gapirganni yoqtirmas, bir so'zli inson. Uning ikki o'g'il va bir qiz farzandlari bor. Ulardan katta o'g'li Jumayev Ziyodulla 2011-yil TDTU.ni bakalavr, 2022-yil SamISI.ni magistratura bo'limining "Xalqaro moliya" yo'nalishini bitirib, Samarqand shahrida faoliyat olib bormoqda. Ikkinchi o'g'li O'rolov Zarif ustoz professor P.Z.Davronovdan saboq olib, Toshkentda TATU.da tahsil olmoqda. Qizi Jumayeva Shahnoza Samarqand shahrida hamshira bo'lib faoliyat ko'rsatadi.

TOSHQUVVAT JUMANOV 1963-yil 20-sentyabrda Jom qishlog'ida xizmatchi oilasida tug'ilgan. 1971-1981-yillarda avvalgi 92-sonli, hozirgi 21-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qigan. 1981-yil Kattaqo'rg'on "Reja-iqtisod" texnikumining Buxgalteriya hisobi yo'nalishida kunduzgi bo'limga o'qishga kirgan va shu yili oktyabr oyida 2-yillik majburiy harbiy xizmatga GDRga yuborilgan. 1983-yilda harbiy xizmatdan qaytib, 1985-yilda texnikumni tugatgan. 1991-yilda SamDU biologiya fakultetining sirtqi bo'limga o'qishga kirib, 1997-yilda kimyo-biologiya mutaxassisligini olgan. 1985-1986-yillarda sobiq Savetobod tuman "Xo'jaliklararo o't o'chirish komandasi"da bosh buxgalter, 1986-1991-yillarda "Jom" davlat xo'jaligida (savxozida) ishlab chiqarish bo'limida katta buxgalter, 1991-1996-yillarda 63-maktabda o'qituvchi, 1996-1998-yillar "Jom" shirkat xo'jaligida bosh hisobchi, 1998-2001-yillarda MCHJ "Dehqon-Audit"da auditor, 2001-2003-yillarda "Jom" shirkat xo'jaligida bosh hisobchi, 2003-2008-yillarda "Qorakul" a/f da yetakchi auditor, 2008-2010-yillarda "Ulus" shirkat xo'jaligida bosh hisobchi, 2010-2011-yillarda "Jom" shirkat xo'jaligida bosh hisobchi, 2011-2017-yillarda "Promstroy" a/f da yetakchi auditor bo'lib ishlagan. 2017-yildan 63-umumiy o'rta ta'lim maktabida O'TIBDO' vazifasida ishlab kelmoqda.

RASULOV KARIM HASANOVICH 1963-yil 16-mayda Jom qishlogʻida tugʻilgan. 1980-yil Jom qishlogʻidagi 23-maktabni tugatgan. 1980-1984-yillarda Samarqand davlat pedagogika institutining “Pedagogika va boshlangʻich taʼlim metodikasi” fakultetida oʻqigan. 1984-yil Jom qishlogʻidagi 24-maktabda boshlangʻich sinf oʻqituvchisi boʻlib ishlay boshlagan. 1984-yildan 2023-yilgacha uzluksiz boshlangʻich sinf oʻqituvchisi boʻlib ishlab kelmoqda. Oʻgʻli Hasanov Umar ham 24-maktabda boshlangʻich sinf oʻqituvchisi boʻlib ishlamoqda. 1984-yildan Sovetobod tongi gazetasi qoshidagi “Yosh qalamkashlar” guruhi aʼzosi. Ilk sheʼri Sovetobod tongi (hozirgi Nurobod nuri) gazetasida chiqqan.

Insof kerak

Katta bozor, mevalar moʻl
Bobom esa qulupnay sotar.
Narxi qimmatligidanchi,
Xaridorlar dong qotar.
Toʻgʻri, meva pullamoqda
Goh rost, goh lof kerak.
Xaridorni oʻylang bir oz
Narxlarda insof kerak.

Tilak

Hamkasblarim xormangiz
Ilm berishda tolmangiz
Martabangiz ulugʻ boʻlsin
Bayramingiz qutlugʻ boʻlsin.

Jom qishlog‘i maorifi

“K” larning ketma-ketligi

Ko‘klam kezida kukulagan kaklikdek, ko‘ngil ko‘changga kimlar kelib-ketmagan?, Ko‘zguda ko‘z, kiprik, kokillaring ko‘rkam-ko‘rkini kam-ko‘stsiz ko‘rib, kelmagan kuyovni kutgan kelinchakdek, krempelin, krepdeshindan kalta ko‘ylaklarni kiyib, kermalanib, kifoyalanib, katta ketishingni, keklaringni kechiolmagan, kecha-kunduz ko‘yingda kuldek kuygan ko‘zachi-kulol, kashfiyotchi, kamtarin, kamgap, kamina Karim kayfiyning ko‘klar kursisiga ko‘tarilgan ko‘tarinki kamolini ko‘rib kayfiyatini ko‘targali kelding-mu?

B-alqir yuragimda jo‘shqin hayajon

A-sriy orzularim ushalgan kabi

R-ostdan ham qiynalar butun tanda jon

N-afis tuyg‘ularga chulg‘angan kabi

O-h, bunchalar go‘zalsan, dildor va barno.

L-ov-lov yonasan tanho sevgilim

O-shiqqliging etolmay izhor

L-ol bo‘lib qolgansan sezadi ko‘nglim

A-yta qolgil qilmay intizor.

Shogirdlari. Ravshanov Abbos hoji Jom (ota) masjidi
imomi, Ernazarov Nizom Jizzax shahar qozisi.

MURATOV SAYDULLA SHERALIYEVICH 1963-yil 22- fevralda Sariko‘l qishlog‘ida tug‘ilgan. 1970-1980-yillarda 9-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida o‘qigan. Maktabni “Oltin medal” bilan tugatgan. 1980-1988-yillarda Samarqand davlat universitetining “O‘zbek va tojik filologiyasi” fakultetida sirtidan ta‘lim olgan .Ish faoliyatini 1980-yilda 142-hunar–texnika bilim yurtida boshlagan. 1981-yildan 17-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida ona tili va adabiyot fanlari o‘qituvchisi. 1988-1995-yillarda tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari,1995-2000 -yillarda maktab direktori, 2003-2009-yillarda o‘quv

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, 2010-2011-yillar Nurobod tuman XTB da metodist va hozirgacha 17-maktabda ona tili va adabiyot fanlari o'qituvchisi bo'lib ishlayotgan. 1996-yilda "Matonatli murabbiy", 2012-yilda O'zbekiston Respublikasi "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishonlari bilan taqdirlangan.

Ish faoliyati davomida o'quvchilari tuman, viloyat fan olimpiadalarida faol ishtirok etib kelgan. Shogirdlari Yusupov Abdulatif, Yusupov Abdulla, Soatov Elbek, Raxmatov Jamshid, Muminov Qobil, Muratov Zafarlar bugun ustoz bilan bir jamoada ishlayotgan.

MARHABO USMONOVA 1965-yilda Narpay tumanida tug'ilgan. 1982-1986-yillarda Samarqand DPIning "Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi" fakultetida o'qigan. Ish faoliyatini Narpay tumanidagi 46-maktabda boshlagan. 1987-yildan Jomdagi 21-maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishlaydi. Mustaqil vatanimizning kelajagi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashga o'zining hissasini qo'shib kelmoqda. Xalq ta'limi xodimlarining an'anaviy kengashlarida o'zining dolzarb mavzudagi ma'ruzalari bilan muntazam ravishda chiqishlar qiladi, jamoat ishlarida o'ta faol. O'quvchilari fan olimpiadalari, respublika ko'rik-tanlovlarida ishtirok etib munosib o'rinlarni olishgan. Masalan, o'quvchisi Baxtigul Shukurova 2007-yilda tuman va viloyat miqyosida o'tkazilgan "Kim ko'p she'r biladi" ko'rik-tanlovida 1-o'rinni egallagan. 2008-yilda viloyatning "Yangi avlod" bolalar festivalida birinchi o'rinni olib diplom, respublika bosqichida ishtirok etib sertifikat bilan taqdirlangan. 2011-yilda "Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati" 5-konferensiyasining 3-qurultoyiga Samarqand viloyatidan delegat bo'lib qatnashgan. Pedagogik faoliyatida erishgan bunday xayrli ishlari tufayli Marhabo Usmonova 2012-yil 1-oktabri

Jom qishlog'i maorifi

"O'qituvchi va murabbiylar kuni" bayrami munosabati bilan Davlat mukofoti "Shuhrat" medaliga sazovor bo'ldi.

Turmush o'rtog'i G'ofur Ro'ziqulov 21-maktabda darslarga ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida iqtidorli boshlang'ich sinf o'qituvchisi hisoblanadi, qishloqdagi to'ylarga mohirlik bilan boshlovchilik ham qiladi. O'quvchilaridan Alibek Xushiyev, Zohidjon Ernazarov, Aslonbek Diyorovlar Rossiyaning nufuzli oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan bo'lsa, Farmon Qobulov sportning "Dzyudo" turi bo'yicha jahonga chiqib respublikamiz bayrog'ini yuqori ko'tarib kelmoqda.

RUSTAMOV BOBOMUROD RASULOVICH 1961-yil 15-avgustda Jom qishlog'ida tug'ilgan. 1977-1982-yillarda Jizzax Davlat Pedagogika institutiga o'qigan.qabul qilingan. 1982-yil Jizzax viloyati Do'stlik tumanidagi 6-o'rta maktabga ishlagan. 1983-yildan Samarqand viloyati Nurobod tumani Jom qishlog'idagi 21-maktabga ishlab kelmoqda.

QURBONOV ZAYNIDDIN SAIDOVICH 1967-yil 8-sentabrda Jom qishlog'ida tug'ilgan. Jom mahallasidagi 23-umumiy o'rta ta'lim maktabini tamomlab, Samarqand qishloq xo'jalik institutining iqtisod fakultetini tugatib, "Jom" davlat xo'jaligida yoshlar tashkiloti kotibligidan Respublika yoshlar ittifoqi markaziy qo'mitasi boshqarmasi boshlig'i vazifasigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan. Respublikamizning yana bir qator idoralarida mas'ul vazifalarda ishlagan. Keyinchalik Samarqand viloyat pedagogik xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining maxsus kursini tugatib o'qituvchilik sohasida ishlay boshlagan.

Dastlab, 45-umumiy o'rta ta'lim maktabida yoshlarga geografiya fanidan ta'lim bergan. Shu bilan birga she'rlari, hikoyalari tuman, viloyat, respublika matbuotida chop etilgan.

Temur yurti – Turonim

Turon uzra yagona elim,
Sen buyuksan, ey turkiy elim,
Baxting, taxting ko‘rolmadilar,
G‘animlaring mardona elim.
Tilda, dilda qo‘shiq dostonim,
Temur yurti – O‘zbekistonim.
Samo uzra cho‘ng elchi bo‘lib,
Samarqandda Ulug‘bek yashar.
Yulduzlarga tikkandi umrin,
Olqishladi jumlai basher,
E‘tiqodim, aziz iymonim,
Aziz yurtim O‘zbekistonim.
Sen zukkosan, donishmand elsan
Sen iste’dod, doxo shuursan,
Navoiysan – shoir Benazir,
Dunyo uzra manzur, mashhursan.
G‘azal mulki – mening sultonim
Navo yurti O‘zbekistonim.
Ellar aro farzandlaring ko‘p,
Dillararo mehrdir sayqal,
Bobur o‘g‘ling hindga shox bo‘lib
Avlodlari qurdi Tojmahal,
Sen shuhratim – nurli oshyonim,
Bobur yurti O‘zbekistonim.
Shukur mana, keldi istiqlol,
Kuldi baxting, bo‘lding hur ozod,
Mustaqillik bo‘lsin muborak,
Men kuylayman seni umrbod,
Kelajagim, qalbim vijdonim,
Ona yurtim O‘zbekistonim.

1992-yil

Jom qishlog'i maorifi

Do'stlarimga

Hayotda kimniki do'sti yo'q bo'lsa,
U bir g'alamisdir, yoki hudbindir,
Unda yo'q diyonat, unda g'urur yo'q
Do'sti yo'qmi, demak, unda iymon yo'q.

Do'stlarimsiz o'tgan kunlar qorong'u
Do'stlarimsiz axir tunlar sukunat,
Axir do'stlarimsiz hayot mazmunsiz,
Axir do'stlarimsiz kayfiyatim yo'q.

Bobolarim aytib o'tgandek,
Qayga borsang qo'rg'oning bo'lsin,
Allohga ming shukurlar bo'lsin.
Qayga bormay do'stlarim bordir.

Ana u kun do'stim, to'yiga bordim
Barcha yoru do'stlar, bunda jamul – jam
Do'stlarimni ko'rib quvonchga to'ldim
Do'stlarim bor, demak men baxtli odam.

Suratingiz hayolimda

*Ikkinchi jahon urushida bedarak ketgan
Qurbon bobom xotirasiga.*

Sizni kuzatishdi borsa kelmasga,
Taqdir peshonangga yozgani shu deb.
Sizni kuzatishdi, dahshat maskanga
Yurtga qalqon bo'lish mardga orzu deb,
Ey voh, shum ajalning sabri yo'q bobom
Afsus, o'z yurtida qabri yo'q bobom.

G'alabaga ishonchingiz bor edi,
Momojonim izingizga yor edi.
Uyda yolg'iz farzandingiz bor edi.
Sizdan qolgam birgina yodgor edi.
Ey voh, shum ajalning sabri yo'q bobom.
Afsus, o'z yurtida qabri yo'q bobom.

Qani tushlarimda ko'ra olsaydim
Suratingiz hayolimda chiza olsaydim
Nurli chehrangizga ma'yus termulib
Ko'zlarim ko'r bo'lsa, bo'la qolsaydim
Ey voh, shum ajalning sabri yo'q bobom.
Afsus, o'z yurtida qabri yo'q bobom.

O'tgan bobolarni, eslamolik qarz
Sizni eslaymizu ko'ngil ketar darz
Siz mangu yashaysiz qalblarimizda
Sizni unutmaymiz, unutmaslik farz,
Ey voh, shum ajalning sabri yo'q bobom.
Afsus, o'z yurtida qabri yo'q bobom.

OLIMJON RAXMONOV 1971-yilda Jomda tavallud topgan. 1995-yilda Samarqand davlat universiteti yurisprudensiya fakultetini tamomlagan.

Ish faoliyati davomida 1988-89-yillarda Nurobod maishiy xizmat uyi xodimi bo'lib, 1989-90-yillarda Nurobod tumani ijtimoiy ta'minot bo'limi xodimi bo'lib ishlagan. 1990-yildan boshlab 1995-yilgacha Samarqand davlat universiteti talabasi bo'ladi. 1995-yildan 2005-yilgacha bo'lgan muddatda Nurobod tumani aloqa bo'lib boshlig'i bo'lib faoliyat olib borgan. 2005-yildan 2016-yilgacha Navoiy tog'-metallurgiya kombinati janubiy kon boshqarmasida bo'lim boshlig'i bo'lib, 2016-18-

Jom qishlog'i maorifi

yillarda esa Nurobod tumani Amir Temur mahalla fuqarolari yig'ini raisi bo'lib ishlagan. 2018-yildan 2020-yilga qadar esa Samarqand viloyati, Nurobod tumani xalq ta'limi bo'limi bosh yuristkonsult lavozimida ishlagan.

2020-yil yanvar oyidan boshlab hozirgi kunga qadar Nurobod tumani XTBga qarashli 44-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori lavozimida samarali faoliyat olib bormoqda. O.Raxmonovning yelib-yugurishlari tufayli, bugungi kunda 44-maktab ancha qulayliklarga va keng imkoniyatlarga ega bo'lgan. Bu ishlarning zahirida yaqindan yordam bergan XTB vaziri Sherzod Shermatovning xizmatlari beqiyos.

SOHIBJON MO'MINOV 1976-yil 29-mayda Jom qishlog'ida ziyoli oilada tug'ilgan. S.R.Mo'minov 1993-1994-yillarda 63-o'rta maktabda yoshlar yetakchisi bo'lib ishlagan. 1994-1999-yillar davomida esa Samarqand davlat universiteti talabasi bo'ldi. Universitetni 1999-yilda imtiyozli diplom bilan tamomlagan.

S.R.Mo'minov biologiya fani o'qituvchisi sifatida viloyat miqyosidagi o'rta maxsus o'quv yurtlari biologiya uslubiy kengashi raisi sifatida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining o'qituvchilariga amaliy uslubiy yordam berib kelgan. U biologiya va tibbiyot genetikasi fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash va bilish faoliyatlarini oshirishga muvaffaq bo'lmoqda.

1999-2010-yillar mobaynida Samarqand tayanch tibbiyot kolleji biologiya fani o'qituvchisi bo'lib ishladi. S.R.Mo'minov Samarqand tayanch tibbiyot kollejida 2006-yilda aniq va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri bo'lib ishlagan. 2010-2017-yillar Samarqand tayanch tibbiyot kolleji bo'lim boshlig'i lavozimida, 2017-yildan to 2022-yilga qadar Samarqand tayanch tibbiyot kolleji kadrlar bo'limi boshlig'i bo'lib ishladi. 2021-yilda Samarqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, 2022-

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

yildan Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi bo‘limi boshlig‘i bo‘lib ishlaydi.

XOLBOZAROVA SAIDA OROLOVNA 1986-yil 3-aprelda Jom qishlog‘ida tug‘ilgan. 1993-2002-yillarda Jom qishlog‘idagi 22-maktabning 9-sinfigacha o‘qigan. 2002-2005-yillarda Samarqand pedagogika bilim yurtining Tasviriy san’at va chizmachilik bo‘limini tugatgan.

2017-2020-yillarda SamDUning Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishini tamomlagan.

2005-yildan hozircha qadar 21-maktabda ishlab kelmoqda. Turmush o‘rtog‘i Jo‘raboyev Xurshid, 4 nafar farzandning onasi.

Jom qishlog‘i maorifi

MUALLIFLAR HAQIDA

PROFESSOR DAVRONOV PIRNAZAR ZIYATOVICHNING TARJIMAYI HOLI, PEDAGOGIK, KASBIY VA JAMOAT ISHLARIDAGI FAOLIYATI HAQIDA

DAVRONOV PIRNAZAR ZIYATOVICH 1949-yil 18-



yanvarda Jom qishlog‘ida tug‘ilgan. 1955-1966-yillarda qishloqdagi hozirgi 21- va 22- umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qigan. 1968-1973-yillarda S.Ayniy nomli Samarqand Davlat pedagogika institutining Fizika-matematika fakultetida tahsil

olgan. 1977-1979-yillarda Toshkent shahridagi Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot insitutining kunduzgi aspiranturasiga kirib, Moskva shahrida sobiq ittifoq Pedagogika Fanlari Akademiyasi Prezidenti, akademik Yuriy Konstantinovich Babanskiyning ilmiy rahbarligida “O‘quvchilar o‘zlashtirmasligining oldini olishda maktab va oila hamkorligi” mavzusidagi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Sobiq ittifoq Oliy Attestasiya Komissiyasining qaroriga ko‘ra P.Z.Davronovning ilmiy ishi yilning eng yaxshi eksperimental dissertatsiyasi deb topilgan va a’loga baholangan. P.Z.Davronov yoshligida Jomning o‘quvchisi, Samarqandning talabasi, Moskvaning aspiranti bo‘lgan.

1975-1995-yillarda Jizzax DPIda o‘qituvchi, “Pedagogika va psixologiya” kafedراسi mudiri, matematika fakulteti dekani lavozimlarida muvaffaqiyat bilan ishlagan.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

1992-yildan Xalq maorifi a'lochisi, 1989-yildan "Oliy matematika" kafedrası dotsenti, 1994-yildan shu kafedra, 2020-yildan Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish milliy markazining professori.

1995-yildan ish faoliyatini Samarqand QXIda davom ettirgan. 2009-yil, ya'ni 60 yoshiga qadar Samarqand QXIning ilmiy-uslubiy kengashi kotibi, "Oliy matematika va axborot texnologiyalari" kafedrası mudiri lavozimlarida ishlagan.

Samarqand QXIda "Interfaol darslar laboratoriyasi"ni tashkil etib, o'zining pedagogik mahorat maktabini yaratgan. Professor-o'qituvchilar uchun qator yillar davomida ochiq mahorat darslari o'tkazib kelgan. Bunday mahorat darslari Samarqand shahridagi litseylar, Samarqand QXIga birlashtirilgan barcha litsey va kollejlarda rahbarlari hamda o'qituvchilariga ham namoyish qilingan.

Samarqand davlat chet tillar instituti rektori I.Tuxtasinovning Samarqand QXI rektori nomiga 2017-yil 12-dekabrda yozilgan №1767/30-02-01-sonli taklif xatiga asosan P.Z.Davronov 2018-yil 18-yanvarda Samarqand davlat chet tillar instituti faollar zalida ochiq mahorat darsi o'tib berdi. Bunda Samarqand shahridagi barcha oliy o'quv yurtlari o'quv bo'limlari va malaka oshirish markazlaridan vakillar ishtirok etishdi. Ushbu dars yuzasidan Samarqand davlat chet tillar instituti rektori nomidan P.Z.Davronov va Samarqand qishloq xo'jalik instituti ma'muriyatiga tashakkurnoma xatlari kelgan.

P.Z.Davronov 2009-yil nafaqaga chiqqanidan so'ng, Samarqand QXIda ishlash bilan bir vaqtda faoliyatining bir qismini o'zi tug'ilib o'sgan Jom qishlog'iga qaratdi. 2013-2017-yillarda jomlik faollarning biri sifatida davlat byudjetidan qishlog'ini obod qilishga 22,5 milliard so'm mablag' kiritishda jonbozlik ko'rsatdi. Bu mablag' evaziga G'ishtband suv ombori,

Jom qishlog‘i maorifi

4 ta ko‘prik, 1 ta yangi maktab, “Aholi dam olish maskani”, “Gaz ballonlarini saqlash va tarqatish servis markazi”, 35/10 kVL Jom elektr nimstansiyasi, Jom MFY binosi, Jom to‘yxonasi, 4,4 km asfalt yo‘li qurildi.

2017-yilning sentabr oyidan 2018-yilning fevral oyiga qadar jomliklarning, jumladan, P.Z.Davronovning sa’y-harakati bilan Samarqand davlat Arxitektura-qurilish institutining bir guruh olimlari 7 nafar talabalari bilan birgalikda “Samarqand viloyat Nurobod tuman Jom qishlog‘ini zamonaviy agrosanoat majmualari asosida rivojlantirish konsepsiyasi” mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishdi. Natijada, Jom qishlog‘ining hozirgi holat rejasi, Jom qishlog‘ining hozirgi holat ko‘rinishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish infrastrukturasi, Jom qishlog‘i bosh rejasining rivojlanish taklif loyihasi, istirohat bog‘larni rivojlantirish konsepsiyasi, ichimlik va sug‘orish suvlari bilan ta’minlash taklif loyihasi, o‘rmon xo‘jaligi hududini rivojlantirish taklif loyihasi, turizmni rivojlantirish taklif loyihasi, Jom qishlog‘idagi arxeologik hududlar, Jom qishlog‘ida turistik rekreatsion hududlarining rivojlanishi, agrosanoat majmualarining bosh rejasi va boshqa taklif loyihalari ishlab chiqildi.

Ushbu loyiha asosida T.E.Ostonaqulov va P.Z.Davronov hammuallifligida Respublikamizda kelajak suv zahiralarini hosil qilish imkoniyatlariga bag‘ishlangan “Jom to‘g‘onlari – suv mustaqilligi tomon qadam” nomli maqola “Jamiyat” gazetasining 2018-yil 2-mart sonida e‘lon qilindi.

P.Z.Davronov 2018-yil 27-mart kuni “Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashidagi O‘zLiDeP deputatlik guruhi”ning yig‘ilishida “Samarqand viloyat Nurobod tuman Jom qishlog‘ini zamonaviy agrosanoat majmualari asosida rivojlantirish konsepsiyasi” yuzasidan taqdimot o‘tkazdi. Hozirgi paytda ushbu masala yuzasidan Samarqand viloyati hokimligining tegishli idoralari doirasida ma’lum ishlar amalga

oshirilmoqda. Professor P.Z.Davronovning Prezident Devoni portaliga onlayn tarzda 2017-yil 30-yanvarda kiritilgan “Talabalar qabulini yaxshilash” hamda eng ko‘p kitob o‘qiganlarni rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi takliflari 2017-yil 3-fevralda Prezident Devoni tomonidan ijobiy e’tirof etildi. P.Z.Davronov 1992-yildan O‘zbekiston Respublikasi Xalq maorifi a’lochisi, 2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining Faxriy yorlig‘i bilan taqdirlangan (Vazir Sh.Shermatov. №5391).

Pirnazar Ziyatovichning matematika, tarix, ta’lim-tarbiya, qishloq xo‘jaligi, Respublikada suv zahiralarini hosil qilish imkoniyatlari va ulardan foydalanish, “Obod qishloq” dasturi yo‘nalishlarida 50 dan ortiq kitoblari va 120 dan ortiq maqolalari chop etilgan. Xalqaro Skopus, Evropa IMPAKT FAKTORli, Respublika jurnallarida ham ko‘plab maqolalari nashrdan chiqqan.

P.Davronov o‘zi tug‘ilib o‘sgan Jom qishlog‘i to‘g‘risida ko‘plab maqolalari bilan birgalikda 2007-yilda “Jomlik Alpomish avlodlari”, 2009-yilda “Samarqand Jomi”, 2017-yilda “Mustaqillik yillarida gullab-yashnayotgan Samarqand Jomi”, 2019-yilda “Jondan aziz Jomim: uning tarixi, buguni, ertasi”, 2020-yilda “Jo‘mard elli Jom” nomli kitoblari chop etilgan.

P.Z.Davronov 2009-yildan buyon Jom qishlog‘idagi o‘zi o‘qigan 21-umumiy o‘rta ta’lim maktabining iqtidorli o‘quvchilarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida shaxsiy jamg‘armasidan ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirib keladi. Yildan-yilga iqtidorli o‘quvchilar soni ortib borgach, 2015-yildan buyon Jom qishloq fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiruvchi qishloqlarning 14 ta maktablari doirasida “Professor Pirnazar Davronov izdoshlari” nomli olimpiada tadbiri, 38 yo‘nalishda, bir yilda bir marta, aprel oyining oxirga yakshanba kuni o‘tkazilib kelinadi. P.Z.Davronov o‘zining “Neksiya

Jom qishlog'i maorifi

mashinasini sotib, pulini to'ligicha, TIF "Milliy banki" Samarqand filialiga jomlik yoshlarning porloq kelajagi uchun investitsiya sifatida omonatga qo'yib, olinadigan har yillik foiz hisobidan iqtidorli o'quvchilarni rag'batlantirishni yo'lga qo'ygan. Bu olimpiadaning 2009-yildagi 16 yoshli birinchi g'olibi Ernazarova Iroda 2022-yil 28 yoshida fan doktori bo'ldi.

Olimpiadaning maqsadi qishloqdagi iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularni doimiy qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirib borish orqali, har jabhada foydali kadrlar tayyorlashga hissa qo'shish asosida Jomni BUYUK JOMGA aylantirishdan iborat.

P.Z.Davronov bugungi kunda "Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi"da tinglovchilarga dars berish, tumanlarda mahorat darslari ko'rsatish bilan bir qatorda, o'ta dolzarb muammo bo'lgan – o'quvchilarga kitob o'qitish va umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarini o'z ustida ishlatish mexanizmini yaratish yo'nalishlarida keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

P.Z.Davronov 2022-yildan boshlab Pastdarg'om tuman XTB ga qarashli 128- umumiy o'rta ta'lim maktabida, 2023-yildan Samarqand shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 19-umumiy o'rta ta'lim maktabida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ta'limga yo'naltirilgan siyosatiga hamohang tarzda, zamonaviy ta'limga yo'naltirilgan "Dars strukturasi radikal transformatsiyalash asosida uning natijadorligini oshirish metodikasi" nomli laboratoriyaga rahbarlik qilmoqda.

Davronov Pirnazar Ziyatovich elim deb, yurtim deb yonib yashayotgan oddiygina bir fuqaro, kasbiga sadoqatli taniqli olim, mohir pedagog, ta'lim fidoyisi, o'ziga va atrofidagi insonlarga talabchan, shogirdlariga mehribon ustoz, namunali oila boshlig'i.

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Professor Pirnazar Ziyatovich Davronov har bir jomlikni o'zining hayotdagi asosiy shiori: "Azm-u shijoatda, g'ayrat-u jasoratda, aql-u zakovatda jomliklar hamisha oldinda bo'lmog'i lozim!"-deb yashashga chaqiradi.

DAVRONOVA FOTIMA PIRNAZAROVNA 1982-yil



12-sentabrda Jizzax shahrida tug'ilgan.

1999-yilda Samarqand shahridagi S.Alizoda nomli 14-umumiy o'rta ta'lim maktabini a'lo baholarga bitirgan. 1999-yilda grant asosida Samarqand davlat chet tillar institutiga o'qishga qabul qilingan va 1-bosqichni tugatgach,

turmushga chiqqanligi munosabati bilan 2001-yilda o'qishini Jizzax davlat pedagogika institutiga ko'chirgan. 2003-yilda mazkur institutning ingliz tili yo'nalishi bo'yicha imtiyozli bakalavr diplomiga ega bo'lgan. 2006-yilda Samarqand davlat chet tillar institutining 5A 220102-Lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi bo'yicha imtiyozli magistri darajasi diplomini olgan. 2001-2003-yillarda Jizzax shahridagi Oybek nomli 7-umumiy o'rta ta'lim maktabda, 2006-yilda Samarqand davlat chet tillar institutida, 2006-2008-yillarda Kattaqo'rg'on pedagogika kollejida, 2008-2011-yillarda Samarqand davlat Arxitektura-qurilish institutida ingliz tili fani o'qituvchisi bo'lib ishlagan. 2012-2017-yillarda Samarqand qishloq xo'jalik institutida, 2018-yildan buyon Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi lavozimida ingliz tili fanidan dars berib kelmoqda.

Jom qishlog'i maorifi

Davronova Fotima Pirnazarovna o'quv jarayoni, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ilmiy tadqiqot faoliyati va tashkiliy ishlarda faol qatnashadi.

Davronova Fotima Pirnazarovna 2020-yil Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi sifatida ilmiy faoliyatini boshladi. F. Davronova p.f.d., professor X. Ibragimov rahbarligida "Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarni ingliz tiliga tezkor o'qitishning pedagogik asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiya ishi ustida ilmiy izlanish olib bormoqda. Uning ilmiy ishi mavzusi OAK Byulletenining 2022-yil 1-sonida Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1. PhD/Ped1901 raqam bilan ro'yxatga olingan. 2022-yil 9-noyabr kuni Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi sifatida Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogikasi kafedrasida seminardan muvaffaqiyatli o'tgach, keyingi bosqichga tavsiya etildi. 2023-yil 28-yanvari kuni 13.00.01.-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligiga muvofiq pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun Samarqand davlat universiteti qoshidagi Ilmiy Kengashda seminardan ham muvaffaqiyatli o'tdi va himoyaga tavsiya etildi.

Ilmiy faoliyatida 50 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar muallifi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 30 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, 1ta monografiya, 1 ta o'quv-metodik qo'llanma, 2 ta elektron o'quv qo'llanma, 16 ta ilmiy maqola ulardan 5 tasi OAK va 11 tasi xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan. Bir qancha xalqaro va respublika anjumanlari ishtirokchisi.

F. Davronova ingliz tili fanidan "TESOL Level 7 va TEFL Level 5" C2 darajali xalqaro sertifikatlariga va "TKT (Teaching knowledge test)" C1 darajali xalqaro sertifikatlariga ega,

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

shunigdek, qo‘shimcha malakaviy imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirdi va guvohnomalarni qo‘lga kiritdi.

2023-yil 13-mayda PhD dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Davronova Fotima Pirnazarovnaga 2023-yil, 4-iyulda 340/1- son bayonnoma bilan Pedagogika fanlari bo'yicha Falsafa Doktori ilmiy darajasi berildi

Jom qishloq fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiruvchi qishloqlarning 14 ta maktablari doirasida o‘tkazilib kelinayotgan “Professor Pirnazar Davronov izdoshlari” nomli olimpiadasining ijrochi direktori sifatida faoliyat olib bormoqda.

Oilali, turmush o‘rtog‘i Xasanov Sunnatillo Shayxidinovich 1979-yil Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanida tug‘ilgan, hozirda Samarqand shahar IIB xodimi sifatida ishlab kelmoqda. Farzandlari: Shayxidinov Nusratillo 2003-yil Jizzax shahrida tug‘ilgan, hozirda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi, Shayxidinov Asatillo 2004-yil Samarqand shahrida tug‘ilgan, hozirda Toshkent iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida tahsil olib kelmoqda, Shayxidinov Hikmatillo 2016-yil Samarqand shahrida tug‘ilgan, hozirda 98-son MTM tarbiyalanuvchisi.

Jom qishlog‘i maorifi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davronov P.Z. Qadimiy qishloq tarixi. Ishonch gazetasi, 2007-yil, 1-noyabr.
2. Davronov P.Z. Jom va Hafrin toponimlari haqida ba’zi mulohazalar. –Hozirgi dunyo lisoniy qiyofasi va tilshunoslikning metodologik asoslari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami. -Samarqand, 2007.
3. Davronov P.Z. Jomlik Alpomish avlodlari. – Самарканд, 2007. -108 bet.
4. Davronov P.Z. Jom qadimiy qishloq. - Hayot gazetasi, 2008-yil, 21-fevral.
5. Davronov P.Z. Samarqand Jomi. – Samarqand. Zarafshon nashriyoti, 2009. -236 bet
6. Davronov P.Z. “Jom universiteti”. - Zarafshon gazetasi, 2010-yil, 27- fevral.
7. Urunboyeva Yulduz. Yaxshi xabar. – Zarafshon gazetasi. 2010-yil, 24-iyun.
8. Xolbozorova Saida. Saxovatli inson, jonkuyar ustoz. -Mohiyat gazetasi, 2014-yil, 25-iyul.
9. Xolbozorova Saida. Ta’lim homiysi. – Nurobod gazetasi, 2014-yil, 22-avgust.
10. Ostonaqulov T.E., Ahmedov O‘.K., Davronova F.P. Yoshlarining porloq kelajagini o‘ylayotgan Jom. Qishloq maktab yoshlari ichidan iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ularga ko‘maklashish tajribasidan. – “O‘zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishda qishloq xo‘jalik fani yutuqlari va istiqbollari” nomli

Pirnazar DAVRONOV, Fotima DAVRONOVA

Samarqand QXI da o'tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 2015-yil, 20-21-noyabr.

11. Rayemov Murodulla, Xolbozorova Said. Olimning rag'batlari o'quvchilar intilishiga, o'qituvchilarning tizimli ishlashiga, ota-onalarning ta'limga yaqinlashishiga sabab bo'lyapti. - Ma'rifat gazetasi, 2015-yil, 18-fevral.

12. Moshonov Mahammadi. Tashabbus qanot yozdi. - Zarafshon gazetasi, 2015-yil, 16-iyun.

13. Aynazarova Shohsanam. Iqtidorlarga stipendiya. - Ma'rifat nuri gazetasi, 2015-yil, 15-iyul.

14. Sattorov O'ktam. Savob: hech birimiz undan benasib qolmaylik. - Zarafshon gazetasi, 2016-yil, 18-fevral.

15. Davronov P.Z. Mustaqillik yillarida gullab yashnayotgan Samarqand Jomi. - Samarqand, 2017. -64 bet.

16. Normatov Umrqul. Buyuk kelajak bugundan boshlanadi. -XXI asr gazetasi, 2018-yil, 25-yanvar.

17. Xudoynazarov Tohir. Yoshlar ittifoqida nima gap. -Nurobod gazetasi, 2019-yil, 9-may.

18. Jo'rayev Hakim. Professor Davronov izdoshlari. - Ma'rifat gazetasi muxbiri, 2019-yil, 11-may.

19. Usmonov S., Berdiyev H. Taniqli olim, mohir pedagog va ta'lim fidoyisi. - Toshkent: "Zamin nashr", 2019. -240 bet. (P.Z.Davronovning 70-yillik yubeliyiga nashr etilgan kitob).

Jom qishlog'i maorifi

20. Davronov P.Z. Jondan aziz Jomim: uning tarixi, buguni, ertasi. – Toshkent: “Zamin nashr”, 2019. – 928 bet.

21. Davronov P.Z. Jo'mard elli Jom. –Тошкент: “Zamin nashr”, 2020. – 660 bet, ya'ni, 82,5 bosma toboq hajmida 1320 bet.

M U N D A R I J A

Soʻz boshi.....	3
Jom qishlogʻi oʻtmishi va buguniga bir nazar	5
Jom qishlogʻidagi oʻquv maskanlari	17
Maktablar direktorlari.....	23
Oʻqituvchilar	23
Jom MFY hududidagi kollej	26
Jom MFY hududidagi 23-maktab	27
Jom MFY hududidagi 24-maktab	28
Jom MFY hududidagi 25-maktab	28
Jom MFY hududidagi 45-maktab	30
Girdiqoʻrgʻon MFY hududidagi 22-maktab.....	31
Tegirmonboshi MFY hududidagi 44-maktab.....	33
Tegirmonboshi MFY hududidagi 63-maktab.....	33
Omondara MFY hududidagi 21-maktab va sport zal	36
Bir maktabni bunyod etishning zahmatli yoʻli, yoxud 21-umumiy oʻrta taʼlim maktabi filiali toʻgʻrisida	40
Omondara MFY hududidagi 19-maktab	53
Omondara MFY hududidagi 20-maktab	54
Tashabbus qanot qoqmoqda yoxud yoshlarining porloq kelajagi uchun talpinayotgan Jom.....	57
“Ozodlik” ovozası	69
Professor Pirnazar Davronov izdoshlari.....	73
Bilimli va mahoratli oʻquvchilar bellashuviga doir ayrim xatlar va hujjatlar	77
Xalqi eng koʻp kitob oʻqiydigan mamlakat - eng yaxshi mamlakat	95

Jom qishlog‘i maorifi

Jom jome masjid kutubxonasi va “Eski masjid-madrasa”ni kutubxonaga aylantirishga doir hujjatlar.....	100
Jom madaniyat va aholi dam olish markazi	129
Jomlik olimlar	135
Jomning kasbiga fidoyi o‘qituvchilari	185
Mualliflar haqida	238
Foydalanilgan adabiyotlar	246
Mundarija	249

**Pirnazar DAVRONOV,
Fotima DAVRONOVA**

JOM QISHLOG‘I MAORIFI

R I S O L A

“Qamar media” nashriyoti, 2023

Muharrir: Muhammad Sobir

Muharrir: Iroda Ernazarova

Musahhih: Osima Sobirjon qizi

Texnik muharrir: Sherzod Xujakulov

Sahifalovchi dizayner: Farrux Abdullayev

ISBN 978-9943-9207-6-7



“Qamar media” nashriyoti, Toshkent sShahar, Mirobod tumani
Qo‘yliq mavze-4, 3-uy, 26-xonadon. tel.: +99894-672-71-11

Terishga berildi: 17.06.2023 yil. Bosishga ruxsat etildi: 07.07.2023 yil.

Bichimi 60x84 ^{1/16}, «Times New Roman» garniturası.

Shartli bosma tabog‘i 15.25. Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 4/2023.

Noshirlik litsenziyasi: № 18-4178

Samarqand viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
bosmaxonasida chop etildi.



ISBN 978-9943-9207-6-7



9 789943 920767